

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**«Milliy istiqlol g`oyasi va
ma`naviyat asoslari» KAFEDRASI**

«ISLOM DINI ASOSLARI VA MA`NAVIYATI»
FANI BO`YICHA

O`QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100000- Ta`lim
Ta`lim sohasi:	140000- O`qituvchi tayyorlash va pedagogika
Bakalavriat	5141500 - “Milliy istiqlol g`oyasi: huquq va ma`naviyat asoslari” ta`lim yo`nalishi talabalari uchun

Tuzuvchi:

f.f.n. E.Bozorov

Namangan – 2008

O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«Tasdiqlayman»
O`quv ishlari bo`yicha prorektor
_____dots. S.Abdullaev
2008 yil «____» _____

«ISLOM DINI ASOSLARI VA MA`NAVIYATI»
FANI BO`YICHA


Bilim sohasi: 100000- Ta`lim
**Ta`lim sohasi:** 140000- O`qituvchi tayyorlash va pedagogika

Bakalavriat **5141500** - “Milliy istiqlol g`oyasi:
huquq va ma`naviyat asoslari” ta`lim
yo`nalishi talabalari uchun

ISHCHI O'QUV DASTURI

Umumiy o`quv soati: ____ soat
Shu jumladan:

Ma`ruza:-20 soat
Amaliy mashg`ulotlar:-32 soat
Mustaqil ta`lim-____ soat



Namangan -2008

Tuzuvchi: f.f.n. E.Bozorov

(imzo)

Taqrizchi: f.f.n.dotsent A.Xusainov

(imzo)

mazkur ishchi dastur O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan 2003 yil 3 sentyabr kuni tasdiqlangan namunaviy o`quv dasturi asosida tuzilib, NamDU o`quv-uslubiy kenegashining 2008 yil \_\_\_\_\_ yig`ilishida tasdiqlangan.

O`quv-uslubiy bo`lim boshlig`i:

dotsent M.Mo`minov

Fanning ishchi o`quv dasturi Tarix fakul'teti Ilmiy kengashining 2008 yil “ _____dagi “ _____” – son qarori bilan tasdiqlandi.

Ilmiy kengash raisi:

t.f.n. S.Boltaboev

Mazkur ishchi dastur “Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviy asoslari” kafedrasini tomonidan 2008 yil _____ avgust kunadiga yig`ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Bayonnoma-№ _____ “ _____” _____2008 y.

Milliy istiqlol va ma`naviyat asoslari kafedrasini mudiri

f.f.n. O.Mamatov _____

“ _____” _____2008 yil

©Namangan davlat universiteti

5141500 – Milliy istiqlol g'oyasi: huquq va ma'naviyat asoslari ta'lim
yo'nalishi bo'yicha “Milliya g'oya va mafkura” fanining ishchi o'quv dasturiga
quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda:

[illegible]

(professor-o`qituvchining I.F.O.)

(imzosi)

(professor-o`qituvchining I.F.O.)

(imzosi)

Ilmiy kengash raisi: _____
(imzo)

(I.F.O.)

1. Soʻz boshi

1.1. Islom dini tarixi, taʼlimoti maʼnaviyati, falsafasini erkin oʻrganish va tahlili qilish uchun keng imkoniyatlar yaratildi, hozirgi kun sayin ortib bormoqda. Zero, dinimiz, maʼnaviyatimiz ildizlari bir va aniq boʻlishiga qaramay, muqaddas dinimizga xos boʻlgan taʼlimotini oʻz foydasini koʻzlab talqin qiluvchi guruhlar koʻpayib bormoqda.

Lekin bu xol islom tarixida yangilik emas. Chunki, islomiy qarashlar talqini turli tuman boʻlganligi tufayli, janobi Rasululloh vafotidan keyin Islomda 73 firqa va mazxablar vujudga kelgan.

Mazkur dasturda asosiy eʼtiborni “Ahli sunna val-jamoa” eʼtiqodi asoslariga hamda dunyoviy davlat va diniy eʼtiqod masalalariga qaratishga harakat qilindi.

Oliy oʻquv yurtlarini tugallagan mutaxassislar din va dunyoviy davlat masalalarida ilgʻor gʻoyalar bilan ongi boyigan, oʻz qatʼiy fikriga ega boʻlgan xodimlar boʻlib etishmogʻi davr talabidir. Ayniqsa huquqshunoslar insonlarning diniy va milliy tuygʻularini his etish va hurmatlay bilish salohiyatiga ega boʻlishlari juda muhimdir. SHu jihatlarni hisobga olgan holda mazkur dastur mavzulari tanlandi va davr talabiga har taraflama tayyor xodimlar boʻlib etishishlariga eʼtibor berildi.

1.2. Talabalar bilimiga quyiladigan talablar.

Talabalar oʻqitiladigan maʼruzaning qisqa mazmunini, islom dinini oʻrganishda ilmiylik, tarixiylik, xolislik tamoyillariga amal qilish kabi tushunchalardan xabardor boʻlishlari kerak. SHuningdek, islom dinining xis tuygʻularga ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlishi, shariat qonunlari haqida tasavvurga ega boʻlishlari lozim.

Islom dinida oila va bola tarbiyasi, islomda muomala madaniyati, insonparvarlik, kamtarlik, vatanparvarlik tuygʻularining qanday aks etganligini bilishlari lozim. Islom dinini oʻrganish jarayonida diniy manbalar, muqaddas kitoblar asosida bilimlarini chuqurlashtirgan boʻlishlari kerak.

1.3. Islom dini asoslari va islom manaviyati kursining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Bu kurs dinshunoslik, falsafa, maʼnaviyat asoslari, antropologiya, Oʻzbekiston tarixi, etika va boshqa fanlar bilan bogʻliq hodda oʻrganiladi.

2. Semestrlar bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti. Islom dini asoslari va ma'naviyati fani 1 semestr o'tilib, 6-semestrda o'tish rejalashtirilgan.

Semestrlar	YUklama	Jami	Ma'ruza	Seminar	Mustaqil ish
6			20	32	

3. "Islom dini asoslari va ma'naviyati" fanining ma'ruza mavzulari soatlar bo'yicha taqsimoti

№	Mavzular	soati
1	Islom dinining vujudga kelishi	2
2	Islomning Movaraunnaxrga kirib kelishi	2
3	Dunyoviy davlatning dinga munosabati	2
4	Islom sharoiti manbalari	2
4	Islom dinidagi oqimlar va mazxablar	2
6	Markaziy Osiyo buyuk mutafakkirlarining ma'naviy merosi	2
7	Islomda ilm, ilm axlini ulug'lash va axloq-odob masalalari	2
8	Islomda oila va farzand tarbiyasi masalasi	2
9	Islom va tasavvuf	2
10	Islom axloqini targ'ib etishda payg'ambar va solix ulug' insonlarning o'rni.	2
	jami	

Ma'ruzalar mazmuni.

1-mavzu: Islom dinining vujudga kelishi.

Reja:

1. Islomning kelib chiqishidagi tarixiy shart- sharoit.
2. Islomning davlat diniga aylanishi
3. Jaxiliya davridagi barxam berilishi.

Islom va iqtisodiy dinlari qadimgi Arabistonga tashki dinlarning kirib kelishi.

Islom dinining jamiyat va inson hayotida tub burilish yasagani .

YAkka xudolikka da`vat. Hijratgacha bo`lgan davrda islomning rivojlanishi. Hijratning amalga oshishi.

Islomiy davlatning qurilishi. Diniy davlatchilikning muddati haqida ma`lumotlar. Ilk muqaddas urushlar. Badr, Uxud Handaq va boshqa g`azotlar. Makkaning fath etilishi.

Nazorat savollari.

1. Fakxning predmeti, maqsadi va vazifasi.
2. Islomning vujudga kelishning ma`naviy axloqiy asoslari.
3. Islomning jaxon diniga aylanish sabablari.
4. Islomni joriy qilish vositalari..

Tayan so`z va iboralar.

Predmeti, maqsadi, vazifasi, islom, xaniflar, mo`minlar jamoasi, joxiliya davri, muslik, mumruhlar, muxojirlar.

Adabiyotlar.

1. Dinshunoslik asoslari «O`zbekiston» 2007 yil.
2. I.A.Karimov «Barkamol avlod orzusi» T. 1998 yil.
3. Dertel'e E.E. «Sufizm i sufiyskaya literatura» izb. Trud. M. 1965 g.

2-mavzu: Islomning Movarounnaxrga kirib kelishi.

Reja:

1. Islomgacha Movarounnaxrdagi tarixiy shart- sharoit.
2. Arablarning O`rta Osiyoni bosib olishi.
3. Islomning Markaziy Osiyo madaniyati va iqtisodiyoti, boshqa jixatlariga ijobiy ta`siri..

Arablar Markaziy Osiyoga kelishidan avval maxalliy xalqlarning dinlari, urf odatlari. Ularning ijobiy va salbiy jixatlari. Ayollar huquqi, quldorlikning rivojlanishiga keng yo`l berilganligi. Islom insoniylikning, ayollarning himoyachisi: quldorlikka qarshi kurashuvchi sifatida dunyo yuziga chiqishi.

VII asrda arablarning dinni yoyish maqsaddagi yurishlari. Qutayba ibn Muslimning O`rta Osiyoga kirib kelishi. Islom dini assoida tuzilgan davlatlarning chegarasi kengayishi hisobiga davlat boshqaruvining takomillashuvi. Boj, xiroj va jizya.

Markaziy Osiyo madaniyati, iqtisodiyoti va boshqa jihatlariga islomning ijoyuiy ta`siri.

Nazorat savollari.

1. Islom aqidalari (7ta)
2. Islom marosimlari
3. Marosimlarning ma'naviy- iqtisodiy asoslari.

Tayanch so'z va iboralar.

Ro'za, nomoz, xaj, 7ta aqida, iqtisodiy asosi, ma'naviy asosi, siyosiy asosi, aqida, kalima.

Adabiyotlar.

1. Dinshunoslik asoslari T. 2007 y.
2. M.A. Usmanov «Islom» spravochnik. 1987 yil.
3. M.A. Usmanov Qu'roni karim va janobi rasullox amallari T. 1993 yil.

3.mavzu: Dunyoviy davlatning dinga munosabati.

Reja.

1. Dunyoviy davlat va din.
2. Diniy bag'rikenglik g'oyasi
3. Vijdon erkinligi to'g'risidagi qonun.

Rivojlangan davlatlarda din bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar. Diniy bag'rikenglik. O'zbekistondagi dinlar va xalqlarning totuvligi. Islom diniga va unga e'tiqod qiluvchilarga davlat tomonidan ko'rsatilgan sharoitlar. Diniy ta'lim.

Nazorat savollari.

1. Dunyoviy davlat nima?
2. Diniy bag'rikenglik deganda nimani tushunasiz?
3. Vijdon erkinligi nima?
4. Inson xuquqlari deklaratsiyasi qachon qabul qilingan.

Tayanch so'z va iboralar.

Din, dunyoviy davlat, bag'rikenglik, erkinlik, vijdon, erkinligi, deklaratsiya. Diniy ta'lim, diniy tashkilot, diniy davlat.

Adabiyotlar.

1. Dinshunoslik asoslari T. 2001 yil.
2. A.Abduraxmanov, e. Bazarov, M. Boydedaev, «Din va siyosat», N.2001 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi yangi taqrizdagi qonuni. T. «Adolat», 1998 yil.

4-mavzu: Islom sharoiti manbalari

Reja:

1. SHariat qonunlarining yaratilishi.
2. Fikiosshunos olimlar.
3. Dant-xuquqiy mazxablar
4. SHariat manbalari.

Arabcha «SHariat» yo'l demakdir. Unda axloqiy me'yor va diniy amaliy talablar.

SHariat manbalari qu'ron, Sunnat, Ijmo, qiyos va boshqa manbalar. Ushbularning ilm, fan, madaniyat ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga keng yo'l berish va insoniyat tarixidagi o'rni.

SHariatda amallarning turlari: farz, vojib, sunnat, mustahab, muboh, harom va makruh amallar.

Halol va harom tushunchasi.

SHariat manbalarining shakllanishida ijtimoiy- siyosiy muhitning ta'siri.

Nazorat savollari.

1. SHariat, tarixat, xaqiqat.
2. Fakixshunos olimlar: Imom A'zam, Imom Molix, Imom SHofiy, Imom xonbal.
3. Omnit. Xuquqiy mazxablar.
4. SHariat takihlagan narsalar, makruh

Tayanch so'z va iboralar.

SHariat, tariqat, xaqiqat, ma'rfiat, Imom A'zam, I. Molix, I. SHofiy, I. Xanbal, mazxab, fikshunos.

Adabaiyotlar,

1. Dinshunoslik asoslari. T. 2003 yil.
2. M. Usmanov. «Qu'roni karim va yaxobi Rasullilox amallari». T. 1993 y.
3. Xidoya. T. «O'zbekiston» 1994 yil.

5- Mavzu: Islomdagi oqimlar va mazxablar.

REJA:

1. Sunniylar.
2. SHialar.
3. Mazxablar.

Ijtimoiy va siyosiy sharoit ta'sirida turli yo'nalish, mazhab va oqimlarning vujudga kelishi, ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy va salbiy ta'siri.

Islomda e'tirof etilgan yo'nalishlar. Sunniylik (ular o'zlarini ahli sunna val jamoa deb hisoblaydilar). SHia (hazrat Ali R.A tarafdorlari). Xavorijlar.

Sunniylar fiqhii masalalarda 4 ta yirik mazhabga bo'lingan bo'lib ular xalqlarnig urf odatlari va ijtimoiy sharoitlarini ham hisobga olishgan.

Usulul Fiqh-shar'iy hukm va huquqlarni o'rganish va yangilarini joriy qilish ilmi.

Nazorat savollari.

1. Islomdagi oqim va mazhablar.
2. Sunniy va shia mazhablari.
3. Muqaddas joylar.
4. Avliyolar qabrlari.
5. Sag'inish.

Tayanch so'z va iboralar.

Oqim, mazhab, sig'inish, Sunniy, shia, muqaddas joy, avliyo, Xanifiya, SHofiya, Xanbaliya, Molikiya.

Adabiyotlar.

1. Dinshunoslik asoslari. T.: 2001 yil.
2. A.Mansur tarjimasi. "Qur'oni Karim" T.: 1994 yil.
3. U.Jo'raev, SH.Saidjonov. Denyo dinlari tarixi. T.: 1998 yil.

6-Mavzu: Markaziy Osiyo buyuk mutafakkirlarining ma'naviy merosi.

REJA:

1. Islom ma'naviyati va Xadisshunoslik.
2. Falsafiy bilimlar rivoji.
3. Tabiiy bilimlar rivoji.

Islom dini manbalarini o'rganishda Movarounnaxr olimlarining o'rni. Abu Bakr Qaffol SHoshiy, Ulug'bek, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Zamahshariy, Xorazmiy va boshqa mutafakkirlarning dunyo madaniyati va ilm faniga qo'shgan beqiyos ulushlari. Islom ma'naviyati, uning chuqur insonparvar, taraqqiyotparvar ruhini singdirishda Burxoniddin Marg'iloniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Nasafiy, Abu Lays Samarqandiy va boshqalarning ilmiy va ijtimoiy faoliyatlari.

Nazorat savollari.

1. Xadisshunoslikning kelib chiqishi sabablari.
2. O'rta Osiyoda xadisshunoslikning rivoji.
3. Imom Buxoriy, At-Termiziy, Imom Motirudiy faoliyati.

Tayanch so'z va iboralar.

Xadisshunoslik, Soqix hadislar, xom va bo'sh hadislar, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Imom Motirudiy, birinchi xadisshunos.

Adabiyotlar.

1. Dinshunoslik asoslari. T.: 2001 yil.

2. I.Buxoriy "Ishonchli xadislari to'plami". A.Mansur tarjimai. T.: 1999 yil.

7-Mavzu: Islomda ilm, ilm axlini ulug'lash va ahloq – odob masalasi.

REJA:

1. Islomda ilm olishga va ilm axliga munosabat.
2. Islomda muomala madaniyati.
3. Islom ma'naviy kamolotida islom dini.
4. Jamiyat odobi.
5. Islomiy ahloq.

Inson hayotida ilmning o'rnini. Ilm egalari ikki dunyo yaxshiliklarining egasidir. Bir bir ilm insonni ulug'lash va yaratuvchisini tanishni taqazo etadi. Ustozni e'zozlash. SHogirdning belgilangan vaqtga rioya qilishi, ko'p va o'rinsiz gapirmasligi, faqat ruxsat bo'lsa gapirish. Ustozga tik qaramaslik, malol vaqtida savol so'ramaslik, ustoz o'rniga o'tirmaslik, oldiga tushib yurmaslik, nomini aytib chaqirmaslik va boshqa o'z otasi oldida rioya qilishi kerak bo'lgan odoblarga amal qilishi.

Insonlarning bir-biridagi vazifasi. Salomning ma'nosi. Salom berish odoblari. Salomga alik olish tartibi va fazilatlar haqida. Aksirgan kishiga tashvit aytish fazilatlar va boshqa muomilalar.

Kamtarlik buyuk insonlar fazilati, mutakabbirlik, razillik botqog'iga cho'ktiradi. Kim kamtar bo'lsa kamol topadi. Kibrlik, kekkeygan kishi xurmat yo'qotadi va oxir oqibatda xor bo'ladi. Sukut saqlash fazilati va ko'p gapirish zarari. Ko'p gapirish nodonlik alomati.

Inson hayoti jamiyatda bir-biriga yordam berish, xabar olish bilan barpo etiladi. Bir-birlariga oqibatli, mehrli bo'lish, jamiyatni mustahkamlaydi. Jamiyat mafkurasini, ya'ni e'tiqodini boshqarishda Qur'on va hadis ko'rsatmalari, Imom A'zam hamda Imom Moturudiy tavsiyalari. Ruxsat so'rash va uning odoblari, kirishga ruxsat berilmasa qaytib ketish kerakligi. Madaniyat tushunchasining mohiyati. SHarqona madaniyatda islom dini ma'naviyatining ahamiyati. Komil inson tushunchasi. Qur'oni Karim va xadislarda yuksak insoniy fazilatlar va odob-ahloq ma'yorlari.

Eng maqtalgan insoniy fazilatlar: iymon, diyonat, adolat, matonat, zokovat, farosa, poklik, iffat, ma'naviy poklik, hayoli bo'lish, solih amallarga sa'y-xarakat qilish, riyozat, nafs tarbiyasi, sabr qanoat va boshqalar. Ularni egallashga targ'ib etish.

YOmon xulqlar: baxillik, odobsizlik, joxillik, ilmsizlik, kibr, riyo, dushmanlik, munofiqlik va boshqalar. Bunday xulqlardan nafratlantirish.

Nazorat savollari.

1. "Iqra" surasi nima?
2. Muomala madaniyati deganda nimani tushunasiz?
3. Ma'naviy kamolot nima?
4. jamiyat odobi nima?
5. Islomiy ahloq nima?

Tayanch soʻz va iboralar.

“Iqro” surasi, madaniyat, muomila madaniyati, jamiyat odobi, islomiy ahloq, maʼnaviy kamolot, namozxon ahloqi, roʻzador ahloqi, odobsizlik, johillik.

Adabiyotlar.

1. Dinshunoslik asoslari. T.: 2001 yil.
2. A.Mansur tarjimasi. “Qurʼoni Karim” T.: 1994 yil.
3. U.Joʻraev, SH.Saidjonov. Denyo dinlari tarixi. T.: 1998 yil.
4. Xadisi SHarif. 1-4 jild. 1995 yil.

8-Mavzu: Islomda oila va farzand tarbiyasi.

Reja:

1. Oilaning mukaddasligi.
2. Ota –ona va kattalarga munosabat.
3. Islomda ota-onani ulugʻlash.

Oila muqaddasligi. Nikox jamiyatning tanazzuldan saqlovchidir. Zinoning jamiyatga va ayniqsa inson salomatligiga zarari. Ota-ona vazifalari. Farzand burchlari. Oʻgʻil tarbiyasi vaqiz tarbiyasidagi aloxida jixatlar. Hurmat qilsng, hurmat qilinasan.

Ota-ona roziligi xudo roziligi. Jannat onalar oyogʻi ostidadir.

Nazorat savollari

1. Qurʼon sura va oyatlarida ahloq-odob masalalari.
2. Islomda ota-ona va kattalarga munosabat.
3. Oilada bola tarbiyasi borasidagi xadislardan mosollar keltiring.

Tayanch soʻz va iboralar.

Qurʼoni Karim, Sura, Oyot, ota-ona, kattalarga hurmat, bola tarbiyasi, toʻgʻri soʻz, xalollik, poklik, saxiylik.

Adabiyotlar.

1. Dinshunoslik asoslari. T.: 2001 yil.
2. A.Mansur tarjimasi. “Qurʼoni Karim” T.: 1994 yil.
3. U.Joʻraev, SH.Saidjonov. Denyo dinlari tarixi. T.: 1998 yil.
4. I.Buxoriy. “Ishonchli hadislar toʻplami”. A.Mansur tarjimasi. T.: 1999 yil.

9-Mavzu: Islom va tasavvuf.

REJA:

1. Tasavvufning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoit.
2. Tasavvuf tariqatlari.
3. Tasavvuf taʼlimoti olimlari.

Tasavvuf nima. Lugʻaviy maʼnosi hamda tasavvufning asosiy maqsadi – inson kamoloti. Ruh tarbiyasi. Nafs va riyozat. Tasavvuf ilmida komil inson.

Ulug' mutasavvufning islom va jamiyatning madaniy, ilmiy va boshqa jabxalardagi taraqqiyotga qo'shgan xissalari. Islomning tub mohiyatini tushunishda tariqat va tariqat mashoyixlarining o'rni.

“Dast bakoru, dil bayor” shiorining Islom va jamiyat taraqqiyotidagi, mustahkamlanishiga bergan turtkisi.

Tariqatning muqaddas joy, diniy rasm-rusumlar o'tkazish va boshqalardan iborat emasligi.

SHariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlari. Islomning tub mohiyati va maqsadiga mos bo'lgan va to'g'ri kelmagan tariqatlar.

YAssaviya, Kubroviya, Naqshbandiya, CHashtiya, Qodiriya, Suxravardiya va boshqa tariqatlar.

Nazorat savollari.

1. Tasavvufni vujudga kelish sabablari.
2. O'rta Osiyoga tarqalishi.
3. Tasavvuf Olimlari: Mansur Xalloy, A.YAssaviy, N.Kubro, B.Naqshbandiy, A.Navoiy, B.Mashrab.

Tayanch so'z va iboralar.

Tasavvuf, Sufiy, darvish, tariqat, Mansur Xalloy, A.YAssaviy, N.Kubro, B.Naqshbandiy, A.Navoiy, B.Mashrab, shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlari. YAssaviya, Kubroviya, Naqshbandiya, CHashtiya, Qodiriya, Suxravardiya.

Adabiyotlar:

1. N.Komilov. “Tasavvuf”. T.: 1996 yil.
2. Dinshunoslik. T.: 2001 yil.
3. E.E.Bertel's. “Sufizm i Sufiyskaya litoratura”. Izb.Trud. M.: 1965 god.
4. N.Komilov. Tasavvuf tarixi va ta'limoti. T.: 1998 yil.

10-Mavzu: Islom ahloqini targ'ib etishda payg'ambar va ulug' solix insonlarning o'rni.

REJA:

1. Islomni targ'ib qilishda Muhammad SAV ning o'rni.
2. Imom Buxoriy, At-Termiziy, Motirudiylarning xizmatlari.

Payg'ambarlar va aziz avliyolar gunoh va kamchiliklardan saqlangan, himoyalangandirlar. Hamma payg'ambarlar – Allohning bandalariga yuborilgan elchilar bo'lib, insonlarni o'zlariga ergashtirish, Allohning amru-farmon va qaytariqlarini etkazish uchun mo'jizalar bilan va ayniqsa, insoniy yuksak fazilatlar bilan qurollantirgandirlar. Sabrli bo'lish, chidamlilik, matonat, bir so'zli bo'lish, yumshoq va shirin muomila, kishilarni foydali ishlarga tashviq etish kabi sifatlari. Dushman va turli zararkunandalarga qarshi kurashda adolat va haqni targ'ib etishda ularning g'ayratlari.

Movarounnaxr allomalar ulug' mutasavvuflar va solih kishilarning xulqlari, xayot tarzlar, meroslarining ma'naviyatimizga qo'shgan xissasi.

Nazorat savollari

1. Xaniflar xarakatining maqsadi.
2. Mo'minlar jamoasi kimlar?
3. Muhammad alayxis-salom kim?
4. Imom Buxoriy, At-Termiziy, Motrudiylarning xadisshunoslikka qo'shgan xissalari.
5. Dunyoviy ilmlarni rivojida buyuk allomalar xizmati. A.Farobiy, A.Beruniy, Ibn Sino, Al Xorazmiy, Ulug'bek, A.Navoiy.

Tayanch so'z va iboralar

Xaniflar, muminlar, Muhammad payg'ambar, I.Buxoriy, At-Termiziy, Motrudiylar, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Ulug'bek, Navoiy.

Adabiyotlar:

1. Qur'oni Karim. 2001.
2. Tarixi Muxammadiy. T. 1997.
3. Ma'naviyat asoslari. T. 2002.
4. Xadisi SHarif 1-4 jild. 1995.

4. "Islom dini asoslari va ma'naviyati" fanining seminar mashg'ulotlari mavzulari soatlar bo'yicha taqsimoti

№	Mavzular	soati
1	Dastlabki islom ta'limoti va amaliyoti	2
2	Islom dinining xususiyatlari	2
3	Islom dinining evolyutsiyasi	2
4	Islom ta'limoti	4
5	Tasavvur va uning mohiyati	4
6	Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi	2
7	Islomda fiqh-xuquqshunosligi	2
8	XIX-XX asrlardagi diniy vaziyat	4
9	O'zbekiston Respublikasida diniy jamoalar	2
10	Xurfiylik va diniy falsafa	2
11	Falsafa va ilohiyotda xurfiylik	2
12	Milliy istiqlol va ilmiy-falsafiy dunyoqarash	2
13	Mustaqillikni mustahkamlash	2
	Jami	32

5. Mashg'ulotlar

1-mashg'ulot Ilk islom ta'limoti va amaliyoti.

Reja:

1. "Johiliya" davri arablarining diniy an'analari. Muhammad ibn Abdulloh a.s. (570-632)- islom dini da'vatchisi va payg'ambari.
2. Islom-yangi jamiyat mafkurasi sifatida. Qariyb 23 yil davomida islom dini ahkomlarining tadrijiy rivojlanib borishi.
3. Muqaddas kitob Qur'onda VII asr dunyo jamiyati voqeligi, qadriyatlarining aks etishi.

2- mashg'ulot. Islom dinining xususiyatlari

Reja.

1. Islom dinidagi izchil monoteizm.
2. Din asolarini o'rganishda, ibodat va boshqa talablarini amalga oshirishda shaxs erkinligi
3. Islom dinining asosiy manbalari.

3- mashg'ulot Islom dinining evolyutsiyasi.

Reja:

1. Qur'oni Karimning jam qilinishi va kitob holiga keltirilishi. Hadis va fiqh ilmining rivojlanishi.
2. Islom xuquqshunorsligini o'rganish bo'yicha asosiy maktablarning vujudga kelishi
3. Ba'zi ahkomlarni tushunish, talqin etishda Turli yondoshuvlar va ziddiyatli fikrlar.

4-mashg'ulot. Islom ta'limoti

Reja:

1. Islom dini ruknlari.
2. Kalom ta'limotining paydo bo'lishi va rivojlanishi (VIII-X a.a)
3. Hadislar ularning to'planishi va tartibga solinishi. Hadislarning tarbiyaviy ahamiyati.

5-mashg'ulot. Tasavvuf va uning mohiyati.

Reja:

1. Tasavvufga tariqat, ma'rifat va haqiat tushunchalari.
2. Tasavvufda muhabbat, karomat va shariat tushunchalari.
3. Tasavvufda xilvat va anjuman, futuvvat, komil inson tushunchalari

6-mashg'ulot. Islomning Markaziy Osiyoga kirib kelishi.

Reja:

1. VII asrda Islomning kirib kelishi.
2. Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy mashhur sarkarda Markaziy Osiyoda islomgacha qaramlik jihatidan 3 mintaqaning vujudga kelishi.
3. Boj, xiroj va jiz'ya masapaxalari. Mahalliy boshqaruvchilar.

7-mashg'ulot: Islomda fiqh- huquqshunosi.

Reja:

1. Islomdan avvalgi huquqiy me`yorlarga munosabat. Ilk islom huquqshunoslari tomonidan musulmonlarning hayot tarzini belgilovchi ishlab chiqish.
2. Iroq va Xijozda dastlabki fiqh mazhablarining shakllana boshlashi. Asosiy manbalar sifatida qur`on va xadislardan keyin ijmo, qiyos va boshqalarning kiritilishi.
3. Fiqh yo`nalishlariga ijmo va Ra`y tushunchalarining ta`siri.

8-mashg'ulot: XIX-XX asrlardagi diniy vaziyat

Reja:

1. Musulmon dunyosiga Ovropa madaniyatining ikrib kelishi va uning oqibatlari.
2. Rusiya imperiyasi Markaziy Osiyoda, ruslashtirish siyosati.
3. SHo`ro davrida dinning cheklab qo`yilishi va din arboblarning ta`qib qilinishi.

9-O`zbekiston Respublikasida diniy jamoalar.

Reja:

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida vijdon erkinligining kafolatlanishi.
2. YAngi missionerlik-da`vatchilik tashkilotlarining faoliyati
3. Diniy ekstrimizmning yaxlit jamiyat a`zolarini turli qarama-qarshi guruhlariga parlachalashga, barqarorlikka qarshi qaratilgan faoliyatlari.

10-mashg'ulot: Hurfikrlilik va diniy falsafa.

Reja:

1. Ma`naviy hayotda dinning tugan o`rni. Fan, san`at, falsafa, adabiyotga dinning ta`siri.
2. Hurfikrlilik ma`naviy madaniyatning muhim elementi. Uning paydo bo`lishi va rivojlanish qonuniyatlari.
3. Taraqqiyotning turli, bosqichlarida hurfikrlilik revolyutsiyasining ijtimoiy tarixiy jarayonlar bilan o`zaro bog`liqligi.

11-mashg'ulot: Falsafa va ilohiyotda hurfikrlilik.

Reja:

1. Qadimgi Turon, Hindiston, Xitoy va qadimgi YUnonistonda hurfikrlilik.
2. Falsafiy dunyoqarash bilan diniy dunyoqarashning o`zaro munosabati.
3. Borliq, jamiyat, shaxs haqidagi ilmiy ta`limotlarning hurfikrlilik va falsafiy qarashlar rivojidagi ahamiyati.

12-mashg'ulot: Milliy istiqlol va ilmiy-falsafiy dunyoqarash.

Reja:

1. Milliy istiqlol va ma`naviyatning o`zaro bog`liqligi.
2. Diniy e`tiqod erkinligi va vijdon erkinligi-ma`naviy hayotni barqaror qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish omili.
3. Olamning ilmiy manzarasini yaratishda tabiiy fanlarning tarixiy o`rni.

13-mashg'ulot: Mustaqillikni mustahkamlash.

Reja:

1. Ilmiy-falsafiy dunyoqarash - O'zbekiston Mustaqilligini mustahkamlashning nazariy asosi
2. Dunyoqarashlar erkinligini ta'minlash-har bir kishida olamning ilmiy-falsafiy manzarasini vujudga keltirish omili
3. Diniy va ilmiy dunyoqarash jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitini poklashning nazariy asosi. Iymoni komil insonlarni tarbiyalash. O'zbekiston istiqbolining kafolati

5. Mustaqil ta'lim.

Mustaqil ish talabalar dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Auditoriya o'quv soatlarida talaba ustoz yordamida ma'ruza darslarida yangi mavzu ma'nosini tushuntirib borishga xarakat qiladi. Seminarlarda esa dars topshiriqlarini bajarish jarayonida mustaqil ishni amalga oshiradi. Buning natijasida talaba ma'ruza soatlariga sig'dirib bo'lmagan masalalar echilishini topgan xolda javoblarni yangi ma'lumotlar bilan boyitishga muvaffaq bo'ladi.

Mustaqil ishlar mazmuni va shakli ishlab chiqilishida talaba mavzuni ochish uchun kerakli axborotni axtarish usullarini o'rganadi, ko'nikmalar xosil qilishi e'tiborga olinadi. Mustaqil ravishda savollarga javob berishga xarakat qilish, uchun turli variantlarni tahlil qiladi, erkin, mustaqil tafakkur qilishni shakllantiradi. Xozirgi davrda informatsion jarayon sharoitida talaba hamma mavjud bilimlarini yodlab ololmaydi, bunga ehtiyoj ham yo'q. eng muximi informatsiya olamida kerakligini topish va to'g'ri tahlil qilish usullarini o'zlashtirish ulardan mohirona foydalanadi.

Shularni hisobga olgan holda fan sohasidan xar bir mavzuga doir bir-ikki masala ajratib olinadi. Mustaqil ish sifatida ushbu masalalar talabaga tavsiya etilar ekan, unga tegishli adabiyotlar, internet saytlari ro'yxati berilgan. Talaba o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda masalalar javobini qo'lyozma yoki elektron varianti ko'rinishida yozadi va ustoziga topshiradi.

Kafedrada navbatchilik qilayotgan o'qituvchi mustaqil ishlar bo'yicha talabalarga maslaxatlar berish uchun mas'uldir. Mustaqil ishga mo'ljallangan topshiriqlar ma'ruzalar mavzulari ma'nolarini talaba tomonidan chuqur o'rganilishiga, o'zlashtirilishiga qaratilgan.

“Islom dini asoslari va ma'naviyati” fani bo'yicha mustaqil ishlar tematikasi.

1. Islom dinining paydo bo'lishi va davlat diniga aylanishi.
2. Islom evalyutsiyasi.
3. Islomning xususiyatlari.
4. Qur'oni Karimni kitob xoliga keltirilishi.
5. Tasavvuf ilmining vujudga kelishi.
6. Markaziy Osiyoga islomni joriy qilinishi.
7. Islom huquqshunosligi.
8. XIX-XX asrlardagi diniy vaziyat.
9. O'zbekistonda vijdon erkinligini ta'minlanishi.
10. Islom urf-odatlar va marosimlarining ma'naviy-ahloqiy asoslari.

11. Islomda ota-onaga xurmat masalasi.
12. Islomda oila va nikoh masalalari.
13. Islomda ustozga va kattalarga xurmat masalalari.
14. Islomda ilm olish masalalari.
15. Islomda xurfikrlik.
16. Islomda Vatanparvarlik, insonparvarlik masalalari.
17. Xadisshunoslik.
18. Islom oqim va mazxablari.
19. Islom fundamentalizmi.
20. Terrorizm va ekstremizm mustaqillik kushandasi.
21. Ilomda muqaddas joylarga sig'inish.

Mustaqil ish yozma ravishda tavsiya etilgan adabiyotlar asosida yozma ravishda bajariladi. Mustaqil ish natijalarini amaliy mashg'ulotlar davomida va darsdan tashqari belgilangan vaqtda talabalar tomonidan topshiriladi. Mustaqil ishga ajratilgan ballar joriy nazorat tarkibida hisobga olinadi. Mustaqil ishga kiritilgan savollar yakuniy nazorat variantlariga kiritiladi.

6. Ta'limning informatsion – metodik ta'minoti.

6.1. Ko'rgazmali qurollar.

O'quv kursi har bir mavzuga doir sxemalardan foydalanish
Tarqatma materiallarni qo'llash.

6.2. Metodik qo'llanma.

O'quv kursi har bir mavzuga doir metodik qo'llanmalardan foydalanish
Tavsiya qilingan ko'rsatmalarga rioya qilish.

6.3. Ta'limni texnika vositalari.

Fanni o'qitilishida tegishli mavzularga doir videotasmalardan foydalanish;
Internet tizimidagi informatsiyalarni o'rganish;
Fan bo'yicha elektron ma'ruzalar matnlarini tahlil qilish;

6.4. Joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat turlari.

Joriy nazorat seminarlarda amalga oshiriladi. Bunda talabalarning konspektlar asosidagi og'zaki jevobi e'tiborga olinadi. Oraliq nazorat bir marta, ma'ruzalar yakunida, yozma shaklda o'tkaziladi. Yakuniy nazorat ishi og'zaki shaklda variantlar asosida o'tkaziladi.

7. O'ZLASHTIRISH NAZORATI

7.1. Semestr bo'yicha bilimni nazorat qilish turlari

Semestr	Nazorat turi	ball	Maksimal (100%) Ball	o'tish bali (55%)
7-semestr	Joriy	45	45	24,5
	Oraliq	40	40	22
	YAkuniy	15	15	-
Jami (joriy va oraliq)		85	85	46,75
Jami (yakuniy)		15	15	8,25
Jami		100	100	55,0

Talaba bilimini baholash

A`lo	YAxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
86 dan 100 ballgacha	71 dan 85 ballgacha	56 dan 70 ballgacha	0 dan 55 ballgacha
Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yuritish. Amalda qo'lay olish. Mohiyatini tushunish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish	Mustaqil mushohada yuritish. Amalda qo'lay olish. Mohiyatini tushunish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish	Mohiyatini tushunish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish	Aniq tasavvurga ega emaslik. bilmaslik

Joriy nazoratni baholash mezonlari:

- A) bir para mashg'ulotga qatnashish-1 ball
- B) Uy topshirig'ini vaqtida bajaripsh-1 ball
- V) Sifatli bajarish-0,8 ball
- G) Mazmunli o'zlashtirish va darsdagi faollik -0,8 ball

Oraliq nazoratini baholash mezonlari:

OB-40 ball. Oraliq nazorati 2 marta amalga oshiriladi. Xar bir yozma ish natijasi 20 ballgacha baholanadi:

- A) fikrlarni to'la ifodalagani uchun -5 ball
- B) ibora tushunchalarini tavsiflagani uchun -5 ball
- V) tegishli adabiyotlardan unumli foydalangani uchun -5 ball
- S) ijodiy, mustaqil fikrlash uchun -5 ball
- Jami: -20 ball

YAkuniy nazoratni baxolash mezonlari:

YAkuniy nazorat uchun 15 ball. YAkuniy nazorat tayanch iboralari variantlari asosida yoki o'tilgan mavzular yuzasidan og'zaki ravishda olinadi. Agar tayanch ibora variantlari asosida yozma ravishda olinsa u quyidagicha taqsimlanadi.

Semestrlar bho'yicha talabalar bilimini nazorat qilish turlari

Qoniqarsiz (55% dan kam)		qoniqarli (56-70%)		YAxshi (71-85%)		A'lo (86-100%)	
B a l l a r							
Min	Max	Min	Max	Min	Max	Min	Max
0	55,0	56,0	70,0	71,0	85,0	86,0	100

YAkuniy nazorat ish shaklida o'tkaziladi va ballar quyidagicha taksimlanadi.

- | | | |
|-------|---|------------|
| 1. | Imloviy savodxonlik | - 1.5 ball |
| 2. | Xusnixat | - 1.5 ball |
| 3. | Fikrlarni ochiq yozish | - 1.5 ball |
| 4. | Tayanch iboralarni sharxlay olish | - 5.6 ball |
| 5. | Adabiyotlar, tsitatalardan unumli foydalapish | -1.5 ball |
| 6. | Mustaqil fikrlash | - 3.4 ball |
| Jami: | | - 15 ball |

8. Fan bo'yicha o'quv-uslubiy (texnologik) xarita

8.1. «Islom dini asoslari va ma'naviyati» fanidan ma'ruza uchun 3-kurs (bakalavr) talabalariga o'quv-uslubiy karta.

№	Mavzu	soat	O'tish muddati	Ko'rgazma li qurollar	Talaba mustaqil ishi	Nazorat turi
1	Islom dinining vujudga kelishi	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
2	Islomning Movaraunnaxrga kirib kelishi	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
3	Dunyoviy davlatning dinga munosabati	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
4	Islom sharoiti manbalari	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob

5	Islom dinidagi oqimlar va mazxablar	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
6	Markaziy Osiyo buyuk mutafakkirlarining ma'naviy merosi	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	YOzma ish
7	Islomda ilm, ilm axlini ulug'lash va axloq-odob masalalari	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
8	Islomda oila va farzand tarbiyasi masalasi	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
9	Islom va tasavvuf	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
10	Islom axloqini targ'ib etishda payg'ambar va solix ulug' insonlarning o'rni.	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
	jami	20				

8.2. «Islom dini asoslari va ma'naviyati» fanidan amaliy mashg'ulot (seminar) uchun 3-kurs (bakalavr) talabalariga o'quv-uslubiy karta.

№	Mavzu	soat	O'tish muddati	Ko'rgazma li qurollar	Talaba mustaqil ishi	Nazorat turi
1	Dastlabki islom ta'limoti va amaliyoti	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
2	Islom dinining xususiyatlari	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
3	Islom dinining evolyutsiyasi	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
4	Islom ta'limoti	4	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
5	Tasavvur va uning mohiyati	4	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
6	Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
7	Islomda fiqh-xuquqshunosligi	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob

8	XIX-XX asrlardagi diniy vaziyat	4	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
9	O'zbekiston Respublikasida diniy jamoalar	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
10	Xurfiylik va diniy falsafa	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
11	Falsafa va ilohiyotda xurfiylik	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
12	Milliy istiqlol va ilmiy-falsafiy dunyoqarash	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
13	Mustaqillikni mustahkamlash	2	Xaftada 2 soat	Darslik adabiyot alr	Konspekt	Savol-javob
	Jami	32				

8.3. Ma'ruza bo'yicha taqvim reja

№	Mavzu	Soat	Bajarish muddati	Bajari lishi	Izox
1	Islom dinining vujudga kelishi	2			
2	Islomning Movaraunnaxrga kirib kelishi	2			
3	Dunyoviy davlatning dinga munosabati	2			
4	Islom sharoiti manbalari	2			
5	Islom dinidagi oqimlar va mazxablar	2			
6	Markaziy Osiyo buyuk mutafakkirlarining ma'naviy merosi	2			
7	Islomda ilm, ilm axlini ulug'lash va axloq-odob masalalari	2			
8	Islomda oila va farzand tarbiyasi masalasi	2			
9	Islom va tasavvuf	2			
10	Islom axloqini targ'ib etishda payg'ambar va solix ulug' insonlarning o'rni.	2			

	jami	20			
--	------	----	--	--	--

8.4. Seminarlar bo'yicha taqvim reja

№	Mavzu	Soat	Bajarish muddati	Bajari lishi	Izox
1	Dastlabki islom ta'limoti va amaliyoti	2			
2	Islom dinining xususiyatlari	2			
3	Islom dinining evolyutsiyasi	2			
4	Islom ta'limoti	4			
5	Tasavvur va uning mohiyati	4			
6	Markaziy Osiyoga islomning kirib kelishi	2			
7	Islomda fiqh-xuquqshunosligi	2			
8	XIX-XX asrlardagi diniy vaziyat	4			
9	O'zbekiston Respublikasida diniy jamoalar	2			
10	Xurfiylik va diniy falsafa	2			
11	Falsafa va ilohiyotda xurfiylik	2			
12	Milliy istiqlol va ilmiy-falsafiy dunyoqarash	2			
13	Mustaqillikni mustahkamlash	2			
	Jami	32			

ADABIYOTLAR.

Asosiy adabiyotlar

1. Qur`oni Karim. 2001.
2. Xadisi sharif. 1-4 jild. 1995.
3. Tarix Muhammadiy. Muallif. Alixoto'ra Sog'unliy. T. 1997.
4. Imom Ismoil al-buxoriy Al-adab al-mufrad (Arayu durdonalari). "O'zbekiston" nashriyoti. T. 1990.
5. Ma`naviyat asoslari. Mualliflar. S.Otamurodov., S.Xusanov., J.Ramatov. t. 2002.
6. Islom huquqshunosligi. Mualliflar. Abdulhakim SHa'riy Juzjoniy. T. "Islom universiteti". 2002.
7. Hadis va hayot.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Al-Moturidiy xayoti va meros. SHovosil Ziyodov. T. 2000.
2. Al-Marg'iloniy mashhur fiqxshunos. T-2000. Odil Qoriev.
3. Najmiddin Kubro. Najmiddin Komilov.
4. Abu Mansur Moturidiy. Hamidjon Islomiy.

O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«Tasdiqlayman»
O`quv ishlari bo`yicha prorektor
_____dots. S.Abdullaev
2008 yil «____» _____


«ISLOM DINI ASOSLARI VA MA`NAVIYATI»
FANI BO`YICHA

Bilim sohasi: **1000000-gumanitar fanlar**

Ta`lim sohasi: **5141500**

Bakalavriat “Milliy istiqlol g`oyasi: huquq va
ma`naviyat asoslari” ta`lim yo`nalishi
talabalari uchun

MA`RUZALAR MATNI



Namangan -2008

ANNOTATSIYA

Mazkur o`quv qo`llanma “Islom dini asoslari va ma`naviyati” fani dasturi asosida yozildi. Unda islom dinining shakllanishi, Movarounnahrga kirib kelishi, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining islomiy ilmlar rivojiga qo`shgan hissasi, islomiy axloq masalalari, islomda ma`naviyat va ma`rifatga e`tibor, islom shariati asoslari, ota-ona va farzandlar hamda ustoz va shogird munosabatlari, shuningdek, islom va mas`uliyat kabi masalalar yoritilgan. Mazkur o`quv qo`llanma avvalo talaba yoshlarga, qolaversa keng kitobxonlar ommasiga mo`ljallangan.

ANNOTATSIYA

Nastoyahee uchebnoe posobie napisano na osnovanii uchebnoy programmo` «Osnovo` ucheniya i duxovnosti islama». V uchebnom posobii osvecheno` voproso` o formirovanii islama, proniknovenie ego v Moveraunnaxr, rol' i zaslugi tsentral'no aziatskix mo`sliteley v razvitii islamskix nauk, etika islama, vnimanie v islame voprosam duxovnosti i nauki, osnovo` shariata islama, vzaimootnoshenie roditeley s det'mi i uchiteley s uchahimisya, takje voproso` otvetstvennosti v islame. Dannoe uchebnoe posobie v pervuyu ochered' rasschitano studentam VUZov. Im mogut pol'zovat'sya takje vse interesuyuhiesya voprosami islama.

Kirish.

Islom olamida o'zining ilmiy salohiyati bilan dovrug' solgan ajdodlarimiz ma'naviy merosi tufayli musulmon dunyosi halqimizga alohida ehtirom bilan qaraydi. 2007 yilda Toshkent shahri ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti – AYSESKO (ISESCO) tomonidan “Islom madaniyati poytaxti” deb elon qilinishi quvonchli voqea bo'ldi. SHu munosabat bilan yurtboshimiz: “Shaxsan menga bunday xolis va xaqqoniy bahodan, avvalo, yurtimiz zaminida yashab o'tgan mutafakkir bobolarimiz, ulug' allomalar va aziz zotlar muborak ruhlari shod bo'layotgandek tuyuladi”¹, - deb aytgan fikrlari butun O'zbekiston halqi dilidagi gapdir. Islomiy ma'naviyatga sho'ro davrida ham e'tibor susaymagan edi, ammo buni ochiq - oshkor ko'rsatish mumkin emas edi.

YOsh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirish ishida islomiy qadriyatlardan ajralgan holda yutuqqa erishish mumkin emas. CHunki, bu yorug' dunyoga ko'z ochib kelgan kunimizdanoq qulog'imizga azon aytiladi, ism qo'yiladi va Alloh roziligi uchun aqiqa marosimi o'tkaziladi. endilikda, turli tazyiq va doshnomlardan holi, erkin hayot kechira olish saodatiga muyassar bo'lgan vaqtimizda islom ulamolari ma'naviy merosini o'rganib, uni hayotga tatbiq etib, kundalik hayotimiz dasturul – amaliga aylantirish davri keldi. Prezidentimiz aytganidek “bugungi kunda biz voris bo'lgan ana shu moddiy va ma'naviy merosni zamon talablari asosida keng va atroflicha o'rganish, tadqiq etish, undan halqimizni bahramand qilish masalasiga O'zbekiston rahbariyati va jamoatchiligi alohida ahamiyat berib kelayotganligini ta'kidlash lozim”²

Mamlakatimizda sodir bo'layotgan o'tish davriga xos jarayonlarda o'tmishdan qolgan va o'z umrini yashab bo'lgan ko'plab qadiryatlar o'miga yangicha qarashlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish maqsadida ajdodlarimizning bebaho ma'naviy meroslariga qayta – qayta murojaat etish zaruriyati har qachongidan dolzarbroq bo'lib bormoqda.. Fikrimizning dalili sifatida ma'naviy – tarbiyaviy muommolarga yurtimizda e'tibor kuchayayotganini, ajdodlarimizning ma'naviyati durdonalarini o'zida mujassam qilgan ta'limotlar, hususan, islom dini ta'limotidagi bashariyat moddiy va ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan diniy – ma'naviy omillarni, mazkur qadiryatlarning yaratuvchanlik va insonparvarlik vazifalarini, islom ta'limotining asosiy g'oya va yo'nalishlarini, muqqaddas manba (Qur'on) ning ma'naviy jixatlarini jiddiy taxlil qilishga kirishilganligini ko'rsatib o'tish mumkin.

“... Diniy – ma'rifiy qadiryatlarimizni o'rganish, asrash va himoya qilish, shu asosda yosh avlodimiz qalbi va ongiga ezgu g'oyalarni singdirish bo'yicha olib borayotgan amaliy ishlarimiz jamoatchilikka ma'lum”³.

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalar orasida yoshlar kamolotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviyat asoslari va huquq sohalari bo'yicha etuk mutaxassislarga bo'lgan talab – ehtiyojni qondirish maqsadida tuzilgan dastur talabiga ko'ra mazkur o'quv qo'llanmani yaratishga kirishildi. Oldinga qo'yilgan maqsad katta. Xususan, talaba yoshlar ushbu o'quv qo'llanma sabog'idan so'ng:

¹ И. А. Каримов. «Ўзбек ҳалқининг ислом маданияти ривожига қўшган беқиёс ҳиссасининг юксак этирофи.» “Туркистон пресс” нодавлат ахборат агентлиги мухбирига берилган интервью. “Ислом нури” газетаси. 2007 йил 16 март.

² Ўша ерда.

³ И. А. Каримов. «Ўзбек ҳалқининг ислом маданияти ривожига қўшган беқиёс ҳиссасининг юксак этирофи.» “Туркистон пресс” нодавлат ахборат агентлиги мухбирига берилган интервью. “Ислом нури” газетаси. 2007 йил 16 март.

- 1) Hozirgi zamon olamshumul va mintaqaviy muoammolarini hal etishda dinning ma'naviy imkoniyatlari;
- 2) Ma'naviy kamol topishda dinning tutgan o'ri;
- 3) Diniy ta'limotning ma'naviy aqidalari va axloqiy ko'rsatmalari;
- 4) Tinchlik, barqarorlik va millatlararo hamjihatlikni saqlashda ma'naviy g'oyalarning ahamiyati;
- 5) Insonni kamol toptirish va jamiyatni rivojlantirishda islom dini ma'naviyatining o'ziga xos o'ri;
- 6) Tolerantlik, o'zga dinlarga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish

kabilarni bilishi va amaliyotga tatbiq etish olishlari kerak. SHu bilan birga dinning ma'naviy g'oyalarini tanqidiy baholash va tahlil qilish, milliy istiqloq g'oyasini diniy qadriyatlar asosida targ'ib qilish, dinning ma'naviy asoslaridan tarbiya vositasi sifatida foydalana bilish tajribasini o'zlashtirishlari maqsad qilib qo'yilgan. Yana shuni ta'kidlash joizki, "...ertaga bizning o'mimizga keladigan, biz boshlagan oliyjanob ishlarni munosib davom ettirishga qodir bo'lgan yoshlarimiz ana shu bebaho ma'naviy boylikdan bahramand bo'lsin, shu asosda o'zining kimligi, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini anglab etsin."⁴

Din ta'limotlari asosida targ'ib qilingan fikrlar xoh yosh, xoh keksa qalbiga tezroq ta'sir etadi, zero "din bizning qon – qonimizga, ongu shuurimizga shu qadar teran singib ketganki, uni hech qanday kuch, hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo'lmaydi"⁵

Yuqoridagi maqsadni ko'zlagan holda mazkur o'quv qo'llanmada islom dinining shakllanishi va Mavorounnahrda kirib kelishi, dunyoviy davlatda dinga munosabat, islom shariati manbalari, Markaziy Osiyo mutafakkirlari ma'naviy merosi, islom dinida ilmga munosabat, Inson mas'uliyati, farzand va ota – onalar munosabati, go'zal xulqlar, rasululloh axloqi va islomiy axloq masalalariga e'tibor berildi. Buyuk, nurli kelajakni barpo etishdek "...ezgu maqsadlarga erishishda, milliy qadriyatlarimiz va o'zligimizga sadoqat bilan hayot kechirishda muqaddas dinimizning o'ri va ahamiyati beqiyos. Nega deganda, insoniylik, mehr – oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash, saxovat va muruvvat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi"⁶

Islom dini ta'limoti va ma'naviyatini beadad keng va tubsiz ummonga qiyoslash mumkin. SHu nuqtai nazardan qaraganda qo'lingizdagi o'quv qo'llanmada ko'rsatilgan masalalarini dengizdan tomchi deyish mumkin. Bu sohada qilinajak ishlar ko'lam juda katta. Demak, ushbu o'quv qo'llanmani islomiy ma'naviyatga kirish, deb tushunsak, hali oldimizda qilinishi lozim bo'lgan talay ishlar turganligiga iqror bo'lamiz. Hususan, hadis ilmi, kalom, tasvuf, tafsir kabi bir qancha sohalar borki, ularda ifodalangan ma'naviy qadriyatlar tahlili yangi – yangi asarlar yaratilishiga asos bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir. Kitob yaratilishida davrimizning etuk mutahassislari va islom ulomalari asarlaridan ijodiy foydalanildi va ayrim hollarda ularning qarashlari to'g'ridan – to'g'ri keltirildi. Ayniqsa islomiy axloq mavzuida Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asaridagi axloqiy atamalar va ularga

⁴ И. А. Каримов. «Ўзбек халқининг ислом маданияти ривожига қўшган бекиёс ҳиссасининг юксак этирофи.» "Туркистон пресс" нодавлат ахборат агентлиги мухбирига берилган интервью. "Ислом нури" газетаси. 2007 йил 16 март.

⁵ Ислом зиёси ўзбегим сиймосида. ТИУ. 2005 йил 2 бет.

⁶ И. А. Каримов. «Ўзбек халқининг ислом маданияти ривожига қўшган бекиёс ҳиссасининг юксак этирофи.» "Туркистон пресс" нодавлат ахборат агентлиги мухбирига берилган интервью. "Ислом нури" газетаси. 2007 йил 16 март.

berilgan sharxlar to`g`ridan-to`g`ri keltirildi, zero bu mutafakkirdan o`tkazib yangi fikr bildirishga noqis aqlimiz ojizlik qildi,

Darslik haqida mutahassislar va boshqa islom masalalari bilan qiziquvchi barcha kishilarning tanqidiy qarashlari va maslahatlariga umid qilgan holda uni e`tiboringizga havola qilamiz.

Mazkur darslik yozilishi jarayonida texnik vositalar bilan yaqindan yordam bergan Nizomiy nomidagi TDPU, tarix fakul'teti talabalari SHuxrat Qo`chqarov, shunigdek Safarali Innazarov, Jasurbek Raxmonovlarga samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Islom dinining shakllanishi.

Tangri Taolo barcha buyuk payg`ambarlarning eng oliy sifatlari unga bo`lsin, deb amr etdi. SHunday qilib, Odam Atoning yaxshi xulq-atvori, Sifning ilmu-donishi, Nuxning jasorati, Ibrohimning shafqati, Ismoilning fasoxati, Isxoqning kamtarinligi, Lutning farosati, YOqubning topqirligi, YUsufning xusni jamoli, Musoning sabot-matonati, YUnusning xalimligi, Joshuaning ustuvorligi, Dovudning xayrixohligi, Doniyolning mehrli yuragi, Ilyosning oliyjanoblighi, YAx`yoning musaffolighi, Isoning taqvodorligi unga ( Muxammadga ) muyassar bo`ldi. Tangri irodasi bilan payg`ambarimizga nozil bo`lgan islom dini va ayni vaqtda Allohning suyukli payg`ambariga bu darajada muhabbatning boisi nima?

Ma`lumki har qanday din, shu jumladan islom dini ham kishilarga olamni bilish va albatta kundalik muammolarni hal etishning o`zigi hos vositasi vazifasini o`tagani tufayli vujudga keldi va mustahkamlandi. Islom dini keyingi taraqqiyoti davomida ma`rifatga jiddiy turtki berdi. Algebra, trigonometriya, ximiya, falakiyot, jug`rofiya va falsafa arab mamlakatlari va

boshqa sharq davlatlarida islom hukmron bo'lgan davrlarda jiddiy rivojlandi. Bu jarayon faqat islom tufayli bo'lmasada, lekin musulmonlar uchun Allohning rasuli bo'lmish Muxammad salolloxu alayxi vasallamning: komil musulmon bo'lmoq uchun din va dunyoviy ilmlarni o'rganmoq kerak, deb bergan saboqlari katta axmiyatga ega bo'ldi.

Islom dini hukmron bo'lgan mamlakatlar, ayniqsa Mavorounnahr, Xuroson davlatlarida o'zganing haqiga xiyonat, zino, benomuslik emas, balki samimiy insoniy fazilatlar komol topgan.

YAqin o'tmishda O'zbekistonda (1917 yildagi Rossiyada sodir bo'lgan davlat to'ntarishidan oldin va keyngi davrlarda) iymon-e'tiqodi but bo'lgan xalqimiz ma'rifat uchun, uminsoniy qadriyatlar uchun, o'zoro hamkorlik, insonparvarlik uchun kurashni hayotlarining mazmuni deb tushunar edilar. Lekin kommunistik istibdod, rus mustamlakatchilik siyosati oqibatida amal uchun kurash, manmanlik, bir so'z bilan aytganda odamiylikka yot bo'lgan illatlar kuchaya boshladi. Ahloqiy tarbiyaga putur etdi, mehr-oqibat, xayo, ibo kabi tushunchalar faqat kitobiy so'zlarga aylandi. Bir og'iz noo'rin so'z tufayli nomusdan yuzlari lov-lov yonuvchi iffatli qizlarimiz endilikda xotin- qizlar yarmarkasida (go'zallar konkursida!) tap tortmay qatnashib, qaddu-qomatlarini ko'z-ko'z qiladigan bo'ldilar. Kommunistlarning ateistik siyosati zo'r berib kuchaytirib borilishga qaramay Turkiston halqi o'zligini, odamshavandalik va pokizaligini ma'lum darajada saqlab qola bildi. Aniqroq qilib aysak, bu ijobiy fazilat qishloq aholisi orasida butligicha qoldi.

Qayta qurish, istiqlol kabi siyosiy-ijtimoy o'zgarishlar oqibatida islomga bo'lgan e'tibor kuchaydi Xalq erkin toat-ibodat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Qadriyatlarimiz qayta tiklana boshladi.

Kishilarning bu qadar islomga e'tiqodining sababi nima ?

Nima uchun Turkiston halqi o'z erkiga ega bo'lgan vaqtda sobiq og'alarimiz kabi Odam Ato va Momo Havo ko'rinishga ega bo'lib, ya'ni yalong'och holda ko'cha kezib, sharmandalik yo'lini tutmay, yillar davomida kamsitib kelingan islomiy ma'naviyatga, madaniyatga qaytmoqda?

Islom qaysi jixati bilan odamlar e'tiborini bu qadar jalb etmoqda?

Bu va shu kabi qator savollarga suhbatlarimiz davomida javob topishga harakat qilib boramiz. Buning uchun eng avvalo islom dini nima, degan masalani xal etib olishimiz kerak

Islomning kelib chiqishi masalasida fan va din nuqtai-nazari doimo bir-biriga mos kelavermaydi.

Islomshunoslarning tadqiqotlari asosida islomning kelib chiqishini tarixiy real voqealar asosida o'rganish mumkin. Ma'lumki har bir hodisa o'zining tarixiy, ijtimoiy,iqtisodiy,ma'naviy-maishiy sobablariga ega. Arabistonda vujudga kelgan islom ham bu xususiyatdan holi emas.

Islom paydo bo'lgan davrida tarixiy sharoit qanday edi?

Og'ir iqlim sharoiti va ishlab chiqarish kuchlari zaif rivojlanganligi tufayli Arabiston yarim orolida yashagan ko'pchilik qabilalar taraqqiyot jihatidan Misr, Vazantiya, eron, Mesopotamiya kabi qadimiy madaniyat markazlariga nisbatan ancha orqada qolib ketgan edi. YArim orolning g'arbiy qismida Qizil dengiz qirg'oqlari bo'ylab cho'zilgan va Xijoz deb nom olgan viloyat bu davrda iqtisodiy jixatdan bir muncha rivojlangan edi. Buning sababi suvli vohalarda dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyati mavjud bo'lganligida va janubdan shimolga qadimiy karvon yo'li o'tganligida edi.

VI asr o`rtalarida bu karvon yo`li janubda YAman orqali Habashiston va Hindiston bilan, shimolda Suriya orqali Misr, Vazantiya va eron bilan bog`langan edi.

O`z davri uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo`lgan Xijozdagi ayrim aholi punktlari, shaharlar, xususan yo`l ustida joylashgan YAsrib, Toif shaxri VI asrda ancha kengaygan va gavjum savdo markazlariga aylangan edi.

Makka savdo markazi sifatida katta ahamiyatga ega bo`lib, atrofdagi qabilalarga boshqa shaharlarga nisbatan kuchliroq ta`sir ko`rsatar edi. Arab qabilalari o`rtasida Makkaning diniy markaz sifatidagi roli ham ancha oshgan edi. Makkada Ka`ba ibodatxonasi, turli Arab qabilalarining 360 xudosi sanamlari mavjud bo`lgani tufayli bu shahar o`z atrofida yashovchi ko`p qabilalar uchun e`tiqod markaziga aylangan edi.

Ka`ba – islomda eng muqaddas xisoblangan va Olloxning uyi - Baytulloh deb nom olgan ibodatxonadir. Bu ibodatxona o`sha erda mavjud bo`lgan va suvsiz sahroda arablar uchun najot manbai sifatida muqaddaslashtirilgan zam-zam bulog`i bilan, ato etgani uchun Alloxga shukronalik va ibodat qilish, shu erda qubonlik qilish arablar o`rtasida qadimdan rasm bo`lgan va bu hodisa Qur`onning “Al Kavsar” deb nomlangan 108 – surasida o`z ifodasini topgan. V-VI asrlarda Makkada arablarning Quraysh qabilasi hukmron bo`lib, qurayshiylarning yuqori tabaqalari savdo – sotiq avj olishi natijasida ancha boyib ketgan, pul muomalasi, sudxo`rlik rivojlangan, shuningdek qul savdosi va qullarning mehnatidan foydalanish ham ancha kengaygan.

YAman Sosoniylar hukmronligiga o`tgan davrlarda ( 572 – 628 yy.) eron ko`rfazi orqali Hindistonga boradigan yo`l tez rivojlana boshlagan va shu munosabat bilan Hijoz orqali o`tgan karvon yo`li inqirozga uchragan edi.

Savdodan keladigan daromad kamayib ketishi natijastda Quraysh zadoganlari o`rtasida sudxo`rlik avjga chiqqan. Qullar va kambag`allar kuchidan foydalanish odat tusiga aylangan edi. SHu tufayli Makka va Hijozning boshqa shaharlarida ijtimoiy tabaqalar o`rtasida qarama – qarshiliklar keskinlashgan. Bir tomondan qul egalari bilan qullar o`rtasida, ikkinchi tomondan oddiy mexnatkashlar va zodogonlar o`rtasida ziddiyatlar avj olgan. Qabilalarning yuqori tabaqalari, ayniqsa, Makka zadagonlari qo`shni mamlakatlarni bosib olib katta boylik va o`ljani qo`lga kiritish va shu orqali xokimiyatni mustaxkamlash, natijada inqirozdan qutulish haqida tez-tez o`ylay boshladilar.

Arab dunyosida VI asr oxiri va VII asr boshlarida yuz bergan jiddiy tarixiy voqealar asosida arab qabilalarining ijtimoiy hayot taqazosi bilan vujudga kelgan markazlashishga intilishi yotar edi. Islom ayni shu intilishni o`zida aks ettirgan mafkura sifatida yuzaga kelgan, markazlashgan arab davlatining vujudga kelishi, qo`shni mamlakatlarining bosib olinishi, arab xalifaligining kengayishi jarayonida kuchli g`oyaviy qurol sifatida xizmat qilgan. Islom dini shakllanishida payg`ambar Muhammad (s.a.v) 609 – 610 yillarda Makkada, yakka xudoga e`tiqod qilish to`g`risida targ`ibot ishlarini boshladi. Dastlabki yillarda juda oz kishi uning izidan borgan. Ayni vaqtda qurayshiylarning ummaviylar xonadoniga mansub bo`lgan va Makkada siyosiy xokimiyat tepasida turgan zadogonlar bu targ`ibotga jiddiy qarshilik ko`rsatgan. Keyinroq Makkada axvol keskinlashgach, Muhammad ma`lum davrlardan buyon Makka hukmronlari bilan raqobatlashib kelgan Madinadagi Avs va Xazraj qabilalarining vakillari bilan muzokaralar olib borgan va ularning yordami bilan Madinaga ko`chib ketgan. 622 yili yuz bergan bu ko`chishdan musulmonlarning xijriy yil hisobi boshlanadi. Makkadan ko`chib borganlar islom tarixida “muxojirlar”, islomni qabul qilgan Madinalik qabilalar esa “ansorlar” (yordamchilar) degan nom olgan.

Xijratning ikkinchi yili jihod farz qilindi. Muxammad (s.a.v.) ishtirok qilgan janglar g'azot, lashkar yuborgan janglari "surayya" deb nomlandi. SHundan so'ng musulmon qo'shinlari Madina davlati atrofidagi arab qabilalariga qarshi yurishlar qilib, ularning ko'plarini o'ziga bo'ysundirdi. Bu janglarning mashhurlari Badr, Uxud, Handaq g'azotlari, Xudoybiyax sulxi, Hibor jangi, Makkaning olinishi, Hunayn, Tabuq g'azotlaridir. Musulmonlarning mavqei Makkaga nisbatan jiddiy kuchayib borishi natijasida Makka zodagonlari Muxammad (s.a.v.) bilan kelishish yo'lini izlay boshladilar.

630 yil bahorida Madina qo'shinlari Makkaga yaqinlashib hech qanday qarshiliksiz shaharni olgan. SHu vaqtdan boshlab Muhammad(s.a.v.) bilan Makka hukmronlari o'rtasida raqobat va qarama qarshilik ham tugagan. Ular Muhammad (s.a.v.)ning yaqin yordamchilarga aylanib, musulmonlar davlatida yuksak lavozimlarni egallaganlar.

Muhammad(s.a.v.) 632 yili iyun' oyida Madinada vafot etadi. Bu davrga kelib anchagina mustaxkamlangan musulmonlar davlati vujudga kelgan va bu davlat YAmandan Sino yarim oroligacha, Qizil dengiz sohillaridan markaziy qum sahrosigacha cho'zilgan hududni o'z ichiga olgan edi. Muxammad(s.a.v.) vafotidan keyin uning o'rinbosarlari yoki noiblari (arabcha- "xalifatun") davlatni boshqara boshlaganlar va shu munosabat bilan musulmonlar davlati tarixda "arab xalifaligi" deb nom olgan.

Dastlab Muhammad (s.a.v.)ning ilk safdoshlaridan biri (qaynotasi) bo'lgan Abu Bakr xalifa deb e'lon qilingan (632 – 634 yy.) SHu vaqtda bir qancha arab qabilalari o'rtasida Madinaga qarshi o'z mustaqilliklari uchun harakatlar ham bo'lgan. Lekin bu norozilik harakatlari uzoqqa bormay, tezda bostirilgan. Xalifa Umar davri (632-634 yy.) ga kelib Arabistondagi barcha qabilalarni bo'ysundirish, ularni Madina hokimiyati qo'l ostida birlashtirish ishlari oxiragacha etkazildi. Iqtisodiy va harbiy jihatdan mustahkamlanib olgan arab xalifaligining qo'shni mamlakatlarini bosib olish uchun harbiy yurishlari, arablar istilosining birinchi davri Umar xalifaligi vaqtida boshlangan.

Abu Bakr davridayoq shimoliy hududlariga hujum boshlagan edi. Vizantiyaning kuchsiz qo'shinlari jiddiy qarshilik ko'rsatishga o'jiz edilar. Xalifa Umar davrida 638 yili Damashq, 640 yili Quddus (Ierussalim) olindi, Falastin va Suriya erlari to'la ravishda halifalik ixtiyoriga o'tdi. SHu vaqtning o'zida Mesopotamiya va eronga ham yurishlar boshlandi.

637 yili arab qo'shinlari sosoniylar poytaxti – Ktesifonga bostirib kirdilar. 644-645 yillarda Hindiston chagaralariga yaqinlashdilar. SHimol va shimoli-sharq tomonga yurish boshlagan arab qo'shinlari Armanistonni (640 y.) oldilar. 639 yilda Misrga xujum boshlandi va 647 yilgacha arablar shimoliy Afrika soxillarini Tunisgacha egallab oldilar.

VI asr oxiri – VII asr boshida Arabiston yarim orolida Makka va YAsrib (Madina) kabi shahar davlat (polis) lar boshqalarga nisbatan muayyaan ustunlikka ega edilar. SHahar-davlatning kelajak taraqqiyoti uchun polis tuzumi torlik qila boshladi. Hijoz (Makka, YAsrib, Xaybor, Dumat, al - Jandal, Tayma va b.) va umuman Arabistonni birlashtirib, halqaro savdoni barqaror qiladigan, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qodir harbiy kuchga ega bo'lgan yagona mamlakatga aylantirish, xokimiyatni mustaxkamlash, inqirozdan qutilish davr talabi bo'lib qolgan edi. Markazlashgan davlat tuzish bilan bir qatorda Arabiston yarim orlidagi qabilalarining etnik va madaniy jihatdan birlashuvi, yagona arab tili, og'zaki va yozma adabiyot, umumiy fikrlashning shakllanishi va nixoyat, arablarning diniy tafakkurida o'zgarish jarayonlari kechayotgan edi. Mazkur davrda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar faqat iloxiy ilhom bilan asoslanishi zarur bo'lgan. Bu vazifani o'sha davrda mavjud bo'lgan diniy ta'limotlar amalga oshirishdan o'jiz edi, chunki sahroyi arablar (ba'daviylar) orasida

ibtidoiy davrga xos bo'lgan politeistik diniy ta'savurlar hukmron edi. V – VI- asrlarda bu qabilalar dini animizm, animatizm, fetishizm va boshqa diniy – mistik qarashlar qorishig'idan iborat edi. Ayrim qabilalar toshlar, qoyalarga e'tiqod qilar, ezgulik ruxlari, yovuz kuchlar va iblis-SHaytonlar haqidagi ta'savurlar tarqalgan edi. Ayniqsa butparastlik avj olgan.. Har bir qabila o'z sanam – xudolariga sig'inar edi. Bunday e'tiqod islom dinida shirk deb nomlangan.. Arablar orasida yaxudiylar, xristianlar, otashparast va sobiylar (osmon yoritgichlariga sig'inuvchilar) ham yashar edilar.

Arablarda osmon yoritgichlariga sig'inish qadimiy Bobil (Vavilon) dan o'tgan.

Iudaizm YAman arablari orasida keng tarqalgan. VI asr boshlarida xim'yariylar podshoxligida u davlat dini bo'lgan. Bu dinga e'tiqod qiluvchi arab qabilalari markaziy va G'arbiy Arabistonning ayrim vohalarida ham yashaganlar. Iudaizmga e'tiqod qiluvchi arablar - koptlar hozir ham mavjud.

Arabiston yarim orolining SHimoliy qismi – Suriya, Falastin, Mesopotamiya hududida yashaydigan qabilalar orasida xristianlik tarqalgan. Bu erlar ilgari Vizantiya tazyiqi ostida bo'lgan. SHarqshunos olimlar fikricha xristianlik G'assoniylar va Lahmiylar davlati orqali kirib kelgan.

Bu vaqtda Arabistonda o'ziga hos uyg'onish davri boshlangan edi. YAmanliklarning habashlar hukmidan halos bo'lishi, arab ba'daviylari eron muntazam armiyasi ustidan erishgan g'alabasi muhim voqea edi. SHuningdek, asrlar davomida hukmron bo'lib kelgan vasaniya (butparastlik) dinidan voz kechib, mukammal falsafiy dinga etishish uchun intilishning ramzi sifatida hanifchilik (iahannuf) harakati yuzaga keldi. Haniflar ochiqdan-ochiq sanamlarni masxara qilar, jamiyatda keng tarqalgan ichkilikbozlik, qimor o'ynlari va boshqa zararli illatlarga qarshi kurashga da'vat etar edilar. Haniflar –haqqa moyil, yakka xudolikka e'tiqod qiluvchi taqvador kishilar. Musulmonlar rivoyatiga ko'ra, islomgacha Arabistonda qabila xudolariga sig'inishni rad etgan, zohid, yakkaxudolikka astoydil ishongan, lekin xristianlikka ham, yahudiylikka ham qo'shilmagan va Ibroxim (a.s.) dinida bo'lgan odamlarni hanif deb atashar edi. Qur'onda shunday deyiladi “ Ibrohim yahudiy ham, nasroniy ham emas; balki haq yo'ldan toymagan holida Ollohga itoat qilguchi kishi bo'lgan. U mushriklardan ham bo'lmagan (3 : 67)

VII - IX asrlardan boshlab haniflar musulmon, islom dini esa haniflik dini ma'nosida ishlatilgan. Muxammad(s.a.v.) Ibroxim (a.s.) ning chinakam yakkaxudolikka asoslangan dinini tiklagan, deb hisoblanadi.

Arab – musulmon qo'shinlarining g'olibona yurishlari natijasida Mavorounnahr va Xuroson xududlari ham bosib olindi. YUrtimizda bu qonli yurishlar qanday oqibat va natijalarga olib keldi? Bu mavzu albatta yoshlarni qiziqtirishi shubhasizdir. Navbatdagi suhbatimiz shu haqida bo'ladi.

Islomning Mavorounnahrda kirib kelishi.

Arablarining Mavorounnaxrga kirib kelishi mahalliy xalq uchun fojia bo'ldi. Keyingi vaqtlarda chop etilgan adabiyotlarda o'lkamizga islomning kirib kelishi bir muborak xodisa sifatida talqin qiliniyotganligiga qaramay, tarixiy haqiqatni tan olmay ilojimiz yo'q. YA'ni, arab bosqini bilan islom dinining kirib kelishi masalalarini chalkashtirmasligimiz darkor.

Mojor olimi Herman Vamberi o'zining "Buxoro yohud Movarounnaxr tarixi"¹, tojik ijodkori Sadiriddin Ayniy "Muqanna isyon"² nomli kitoblarida, Abduja'far Muhammad ibni Ja'far ibni YAzid (838 – 923) ning "Tarixi Tabariy", Abubakr Muhammad ibni Ja'far Narshaxiyning (899 – 960) "Tarixi Narshaxiy", XV asr tarixchisi Muhammad ibni Xovandshoh Mirxondning "Rovzotus safo" asarlariga tayanib bergan ma'lumotlariga ko'ra Movarounnahr va Xurosonga arab bosqinchilari kirib kelgunga qadar bo'lgan davrda Buxoro, Samarqand, Naxshab (Nasab – Qarshi), Kesh (SHahrisabz), SHumon (yoki SHomon) va boshqalar mustaqil davlat bo'lganlar va o'z hukmdor (podshoh yoki xudot)lariga ega bo'lganlar. Buxoroda esa shahar bir hukmdor, shahar atrofi esa boshqa hukmdor tomonidan boshqarilar edi. YA'ni, biri shaharda o'mashgan hamda shahar va shaharga yondosh erlarni, ikkinchisi esa Vardonzeh (SHofirkon) da (o'sha davrda Vardona deb nomlangan) hukmronlik qilgan.

Mamlakat asosan dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan. Bir yoki bir necha qishloqni birlashtirib, ularga xo'jayinlik qilgan kimsa "Dehqon" deyilgan, erda bevosita ishlovchi kishilar qishloqi, sahroyi, kishovarz ("ekuvchi") nomlari bilan atalgan.

Hukmdorlar qishloq erlarini zo'rlik bilan tortib olganlar yoki sotib olganlar, katta er egalari esa soliq to'lashga majbur qilganlar. Ayni vaqtda dehqonlar (yirik er egalari) qo'llarida ishlovchi "ekuvchi" lardan qurolli kuchlar uchun askarlar tayyorlab, hukmdorlar hizmatiga yuborib turganlar. Arablar xujumi arafasida Buxoro hukmdori qo'lida 18 – 19 ming qurollangan askar bo'lgan. Ammo, Buxorodan 40 km g'arbroqda joylashgan Paykand qal'asi aholisi asosan savdogarlar bo'lib, mustaqil hokimiyatga ega edilar va Buxoro hukmdoriga bo'ysunmas edilar.

Bulardan tashqari ko'pgina shahar va qishloq qal'alarida istiqomat qiluvchilar asosan hunarmandchilik bilan shug'ullanar edilar.

Bu davrlarda Movarounnahr, ayniqsa Buxoro va uning atrofida to'quvchilik, etikdo'zlik, zargarlik, naqqoshlik va haykaltaroshlik rivojlangan edi.

Buxoradagi to'quvchilik va gul tikish korxonasida gilam, sholcha, poloslar to'qilgan. YAna parda, chodir oldi pardalari, soyabon sifatida hovli oldiga tortiladigan matolar, ko'rpa, yostiq, choponlar, so'zana va boshqa ro'zg'or ehtiyojiga kerakli mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Bu korxona mahsulotlariga SHom, Misr, Rum va boshqa erlarda talab kuchli bo'lgan. Xuroson va Mavorounnahrda yana zargarlik, zardo'zlik, o'ymakorlik va metallarga rangli gul tushirish san'ati nihoyatda rivojlangan.

Xuroson hokimiyati ham mahalliy zodagonlar qo'lida edi va eronga qismon bo'ysunar edilar. Xuroson va Mavorounnahrda dabdabali bazmlar o'tkazish avjiga chiqqan edi. Xurosonda musiqa asboblari, sharob soladigan oltin va mis ko'zalar, bazmi – jamshid uchun zarur anjomlar tayyorlangan.

Xuroson va Mavorounnahrqa qarshi arablar istilosi xalifa Umar binni Xattob davrida boshlangan. Hijriy 13 – 23, melodiy 635 – 644 yillar. Bu davrda arablar Amudariyo (Jayxun) sohillarigacha etib kelgan.

Usmon binni Affon xalifaligi davrida, hijriy 23 – 35, melodiy 644- 657 yillarda mahalliy aholi bosqinchilarga qarshi isyon ko'tarib, arablarni quvib yuborgan .

Muoviya davrida, xijriy 41 – 60, melodiy 662 – 690 yillarda Xurosan tamomila zabt etildi. Hijriy 53, melodiy 673 yillarda arablarning navbatdagi Mavorounnahrqa qarshi yurishi boshlandi. Buxoroga birinchi xujum qilgan lashkarboshi Xusayn binni Alining qotili Ubaydullo binni Ziyod bo'lgan. U Poykandni ishg'ol qilib, halqini qilichdan o'tkazdi, bir qancha kishini asrga oldi va to'rt ming kishini o'ziga qul qildi. Bu davrda Buxoro hukmdori ayol kishi edi. U Samarqand va boshqa joylardan madad olsada, arablar tazyiqiga dosh bera olmadi va o'ziga arkdan panoh topdi.

Tangri Taoloning elchisi Muhammad.(s.a.v.) Arabistonda islom dini va bu din ta'limoti asosida amal yurituvchi davlatni shakllantirgan bo'lsada, o'zini mo'min deb bilgan va atrof mamlakatlarni islomlashtirish harakatida bo'lgan arab istilochilari aslida iymon – e'tiqod uchun emas, birinchi navbatda talonchilik va tobe yurtlardan olinadigan mablag' uchun kurashar edilar. Buxoro taslim bo'lgach shahar ayovsiz talandi, o'lja va asirlar qo'lga kiritildi. Bu o'ljalar ichida Buxoro hukmdorining bir juft etigining o'zi ikki yuz ming tangaga baholangan edi. Ubaydillo askarlari tomonidan barcha ekinzorlar, qishlog'u bog'lar vayron qilindi, er bilan yakson qilindi. Kiyin esa shaharga o't qo'ymoqchi bo'ldilar. Buxoro hukmdori bir million dirham jarima to'lab, shaharni qutqarib qoldi. Ubaydullo boy o'ljalar bilan Xurasonga qaytdi.

Hijriy 56, melodiy 676 yili Mavorounnahrqa navbatdagi hujum Said binni Usmon boshchiligida amalga oshirildi. YAna hisobsiz o'lja va sulh shartnomasi asosida jarima undirilgach, Said o'zi bilan sakson kishini garovga olib, Samarqandga qarab yurdi, Samarqand ham mag'lub bo'lgach u erda ham ko'plab asir, sulh hiroji qo'lga kiritildi va bosqinchilar Amudaryodan o'tib ketdilar.

Arablar uchun Xuroson va Mavorounnahr asosan bitmas– tunganmas hazina manbai edi. Ajdodlarimizga nisbatan ularda zarracha shafqat, diyonat bo'lmagan. Ona erimizda ular vahshiylilikning hamma ko'rinishlarini namayon qildilar.

Hijriy 60-64, melodiy 680-684 yillarda YAzid binni Muoviya, Muslim binni Ziyod, Asad binni Abdullo va boshqalar ketma-ket Mavoronauhrqa hujum qildilar. Xalifalik tamonidan Xurason amiri qilib tayinlangan har qaysi hukmron Buxoro, Samarqand va boshqa erlarga hujum qilib, shahar va qishloqlarni faqat o'lja ilinjida talar va ko'plab boyliklarni qo'lga kiritib, orqaga qaytar edilar.

Valid Abdumalik zamonida, ya'ni hijriy 86–96, melodiy 705-715 yillarda zolimligi bilan dong taratgan Hajjoj tomonidan Qutayba ibn Muslim (660-715 yy) Xurosonga amir etib tayinlandi va unga Mavorounnahrni batamom zabt etish topshirildi.

“Tarixi Tabariy” kitobida ko'rsatilishicha, “Paykandga kirib kelgan Qutayba ayollarning oltin va kumush taqinchoqlari, boshqa zeb – ziynatlardan son-sanoqsiz o'lja oldi va ularni eritganda yuz ellik ming misqol zar chiqdi. Ular bu erda butun Xurosonni zabt etgandan ko'ra ko'proq boylikka ega bo'ldilar”. Qutayba 705 – 715 yillar orasida ayovsiz janglar olib borib, 707 yilda Romitonni, 709 yilda Varaxsha, Poykend va Buxoroni; 710 yilda SHuman, Kesh va Nasafni; 713-715 yillarda Qoshg'arni arab xalifaligiga tobe ettirdi. 715 yilda Qilichmozor, hozirgi Andijon viloyati, Jalolquduq tumanida isyonchi arab askarlari tomonidan o'ldirildi.

“Tarixi Narshaxiy” asarida yozilishicha, Qutayba Buxoroni so`ngi bor zabt etgach, shahardagi har bir oila hovlisining teng yarmini arablarga berish haqida farmon chiqargan. Arablar mahalliy halq bilan bir joyda yashab, ularni nazorat qilib turishi lozim edi.

Dehqonlar ekin maydonlarining yarmini hamda dehqonchilik qurollarining bir qismini arablarga berishgan. SHaharda yashayotgan arablarning pichan, somon, o`tin va boshqa qishloq xo`jalik maxsulotlariga bo`lgan ehtiyojini ham dehqonlar ta`minlagan. Buning ustiga xalifaga ikki yuz ming tanga va Xuroson amiriga o`n ming tanga berib turishga majbur bo`lganlar. Mehnatkash halq ham mahalliy amaldorlar, ham kelgindi arablar tomonidan ezilar edilar.

Moddiy va ma`naviy zulm ostida bo`lgan halq, og`ir mehnat iskanjasida qolgan aholi o`z ahvoriga toqat qila olmas edi. Mahalliy halq islomni qabul qilgan yo qilmaganligidan qat`i nazar arablarga nisbatan g`azab va nafrat bilan qarar edilar. Arablarning va`dasi vafosiz ekanligini tushinib etgan edilar. Qatl etilishlarini bilgan holda payt kelishi bilan isyon ko`tarib ulardan qasos olar edilar.

Arab istilochilari zobt etilgan erlarda sulh tuzib, ko`rinishidan yarashuvga kelishgan bo`lsalarda, qulay fursat bo`lishi bilan o`z foydalari uchun birinchi bo`lib va`dani buzar edilar.

Said binni Usmon Buxoroni fatx etgach, sakson kishini garovga olib, safardan qaytishda ularni albatta qaytib berishga va`da berdi. Ammo qaytishda garovdagilarni Marvda ham, Nishopurda ham, Kufada ham qaytarmay, Madinaga olib ketdi. Ularning mulki va hatto kiymlarini ham tortib olib, o`zlarini qul qilib ishlata boshladi. Garovdagilar bu og`ir ahvolga chiday olmay, saroyga kirib avval Saidni o`ldirdilar va tahqirlanishdan ko`ra o`zlarini o`ldirishni afzal bildilar.

Xalq arablar tazyiqiga tinchlikcha bardosh berib, o`zining qullik taqdiriga oson bardosh bermadi.

Tahoriston hokimzodalaridan YAzak islom dinini qabul qildi va arablarni Taxoristonga qo`yilgan voliysi tamonidan Balxga hokim etib tayinlandi. Qutayba zulmiga chidolmagan YAzak isyon ko`tardi. Qutayba uni hiyla bilan qo`lga tushirib, uning xos navkarlari va yana 700 kishining hammasini qatl ettirdi.

YAzakdan keyin Qutayba binni Muslim davrida Xurosonda CHag`oniyon, Naxshab, Kesh aholisi SHuman xokimi boshchiligida isyon ko`tarib, ko`p yillar davomida istilochilarni qirdilar, ko`plab lashkarboshilar qochib ketishga majbur bo`ldilar.

Qutayba Naxshab va Kesh isyonlarini bostirib, sulh tuzishga muvaffaq bo`ldi. SHaharga kimgach isyonchilarni ham, aholini ham o`ldirdilar, uylariga o`t qo`ydilar. Samarqand Sug`dionasining podshosi Tarxun Qutayba bilan sulx tuzib, bitim puli to`lab, juz`ya topshirib turishga va`da berdi. Arablar ketgach, halq Tarxun tuzgan bitimni tan olmay, uni taxtdan tushirib, o`miga G`o`rakni podsho qilib tayinladi. G`o`rak boshchiligidagi isyon arablarni ko`p taxlikaga soldi. Isyon rahmsizlarcha bostirildi. G`o`rak dushman qo`liga tushmaslik uchun o`zini o`ldirdi. Arablar dastlab musulmonlardan juz`ya solig`i olmas edilar. Islomni qabul qilganlar soni ko`paygach, arablar shariatga hilof ravishda musulmonlashgan erli aholidan ham juz`ya olishni boshlab yubordilar.

Bunday bedodlik Xurosonda Asad binni Abdullo, Buxoro va Samarqandda uning Xonniy ismli vakili xiroj xamda soliq to`plovchilik vazifasini bajariyotgan, hijriy 110, melodiylar 729 yil sodir bo`ldi. Oqibatda musulmonlashgan aholi islomdan yuz o`girdi. Buxoro, Samarqand va Forg`onada arablarga qarshi jangu jadal boshlandi. Arablar yangi – yangi madad

kuchlarini olib turishlariga qaramay, ular Paykandgacha surib yuborildi. Isyon katta yo`qotishlar evaziga bostrilgachgina, arablar musulmonlardan juz`ya olishni to`xtatdilar.

Hijriy 119, melodiy 737 yili Xatlon (Qo`lob, Baljuvon, Vahsh) aholisi isyon ko`tarib, soliqchilarni o`ldirdilar. Isyonni bostirmoqchi bo`lgan Xuroson amiri Asad binni Abdullo jangda engilib, Balhga qochib ketgan.

Asad binni Abdullo vofotidan so`ng Nasriy Sayyor Xurosonga amir etib tayinlangan. U Farg`ona isyonini bostirishga muvaffaq bo`ldi. O`sha davr Buxoro hukmdori Tog`shoda va Buxoro voliysi Vosil binni Umar Samarqandga, Nasri Sayyorni kutib olishga bordilar. Ular Nasr chodirida suhbatlashib o`tirganlarida, ikki Buxorolik yigit Nasrga Tog`shoda ustidan shikoyat qildilar. Lekin Nasr Tog`shodani quvvatlaydi. Natijada yigitlar Tog`shodani ham, Vosilni ham pichoqlab o`ldiradilar.

Mahalliy amaldorlar va kelgindilar tomonidan amalga oshirilgan talon- taroj, vaxshiyona zulm – zo`rlilik mamlakatni haroboga aylantirdi, xalq qashshoqlashdi va ishsiz qoldi, hunarmandlik turg`unlikka yuz tutdi. Bunday vaziyatda halqning isyonkorlik ruhi yanada oshdi.

Abbosiylar davri boshlanishi arafasida asli egarchi qul bo`lgan Abomuslim Abbosiylar doniysi (agitator, tashviqotchisi)ga aylandi.

Muhammad binni Ali vafot etganch uning o`g`li Imom Ibrohim Xuroson ishini Abomuslimga topshirdi. Abomuslim faoliyati ko`rinishdan xokimiyatni Abbosiylarga olib berish bo`lsada, aslida Xuroson va Mavorounnahrda istilochilarni haydab yuborish edi. Bu davrda Abomuslim 19 yoshda edi.

Abomuslim hijriy 129, melodiy 747 yilda bosh ko`tardi va qisqa vaqt ichida Xuroson hamda Mavorounnahrni banni Umaviya va uning tarafdorlaridan tozaladi.

765 yili Abomuslimning asl niyatidan habordor bo`lgan Abuja`far (Iroq xalifasi) uni hiyla bilan qo`lga tushirib, o`ldirtirib yubordi. Abomuslimning xos navkarlariga esa ming tangalik ming xaltani tarqatdi. Pul evaziga navkarlar o`z boshliqlarini sotib yubordilar. Ammo g`oyaga sodiq bo`lgan kishilar Abomuslimni unutmadilar.

Arablarini qattiq larzaga solgan otashparast Sunbod eronda, SHarik binni SHayh Buxoroda, 159 hijriy, 776 melodiy yilda Xuroson va Mavorounnahrda Muqanna qo`zg`oloni ozodlik va erk uchun kurashning yorqin timsoli edi. Ajdodlarimiz o`z erki uchun kurash olib borib, ozod hayot uchun to`kkan qonlarining bugungi yorug` kunlarda qadriga etishimiz farzdir. Bu kurashlar islom diniga qarshi emas, balki islom dini panohida o`z yuho nafslari uchun kurashgan va bosqinchilik qilgan arab istilochilari hamda xoin mahalliy amaldorlarga qarshi qaratilgan edi.

Agar johiliya davrida Allohning rasuli Muhammad (s.a.v.) tomonidan, Holiqning xohish – irodasi bilan joriy etilgan Islom dini ahkomlariga qa`tiy amal qilinganida edi, yuqorida ketirilgan qonli voqealar balki sodir bo`lmagan bo`lar edi. Islom dini ma`naviyatimiz tarixida misilsiz ijobiy rol o`ynagan bo`lishiga qaramay, o`lkamizga islom ta`limotini kirib kelishi qonli voqealar bilan amalga oshdi.

Ko`rib o`tganimizdek, islom dinining yurtimizga kirib kelishi o`z-o`zicha , osoyishtalik bilan amalga oshgani yo`q . Bu islom bizga , ma`naviyatimizga hech narsa bermadi degani emas . Islomiy ma`naviyat haqida quyiroqda bafurja fikr yuritamiz. Hozir asosiy masala dunyoviy davlatda dinga qanday munosabatda bo`linishi lozimligini aniqlab olishdir.

Dunyoviy davlat va din.

Kishilik jamiyati shakllanishi jarayonida qator boqichlarni bosib o'tdi. Ma'lumki, inson qator moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga ega bo'lib, hayoti davomida imkoniyati darajasida ularni qondirib boradi. ehtiyojni qondirishning asosiy omili mehnatdir. Jamoa bo'lib mehnat qilish jarayonida ko'nikma, malaka tajriba shakllanib boradi. Kishida vujudga kelgan tajriba oqibatida axloqiy munosabatlar shakllanadi, atrof muhitga munosabat, ma'lum bir ongli yondashuv vujudga keladiki, buni fan tilida dunyoqarash deymiz. Albatta ongli ravishda bo'lsada ilmiy dunyoqarash bilan omi odam qarashida katta farq bor. Ilmiy komil inson taxlilga moil bo'lsa, omi odam ko'proq ko'r ko'rona taqlidga, isbotsiz – asossiz turli afsona, rivoyat va ta'limotlarga ishonaveradi. Lekin ilmiy yo ilmsizlikdan qat'iy nazar har bir odam ezgulik, adolat, yaxshilik kabi insoniy fazilatlar tarafdori bo'lishi tabiiydir. Ana shunday insoniy tuyg'ular natijasi o'laroq kishi qalbida qat'iy, hayotning yo'nalishi va mazmunini belgilab beruvchi tushuncha, ya'ni e'tiqod shakllanadi. Kuchli e'tiqod egasi butun hayoti davomida o'z qarashi, ma'naviy yo'nalishidan og'ishmaydi. Zaif e'tiqod egalarida esa vafo tushunchasi ham bo'lmaydi va bundaylar vaziyatga qarab o'zgaraveradi.

Sog'lom e'tiqod egasida bu tuyg'u dunyoqarashdagi barqarorlikni belgilaydi, vujudga kelgan muammolarni hal etishga, qiyinchiliklarni engishga, ziddiyatlarni bartaraf etishga undaydi, axloqiy sobitlikni, fikr va amalda izchillikni, hayotda faollikni ta'min etadi.

E'tiqodning nazariy ifodasi sifatida mafkura shakllanadi. sog'lom e'tiqod egasi doim bunyodkorlik tarafdori bo'ladi.

Inson e`tiqodi dunyoviy yoki diniy mazmunga ega bo`lishi mumkin va uning e`tiqodi faqat amaliy faoliyatidagina namoyon bo`ladi. SHuning uchun shaxs to`g`risida u o`zi haqida bildirayotgan fikrga qarab emas, balki amaliga, ishiga qarab xulosa chiqariladi.

Prezidentimiz Islom dini peshvolariga yuzlanib shunday dedi: «Ulamolar safiga turli baqiroqlar, kuni kecha partbiletini ko`tarib raykomga yugurgan, bugun sallani qiyshiq o`rab masjidga yo`rg`alagan beburd kimsalar adashib kirib qolmasin. YAxshi odam har kuni e`tiqodini almashtirmaydi. e`tiqod va imon bir libos emaski, bugun bunusini echib tashlab, ertaga yangisini kiysang»⁷.

Insondagi ongida shakllangan qdriyatlar, porloq kelajak, ozod va obod vatan orzusida sobitlik, erkin va farovon hayot qurishga intilish va ishonch sog`lom e`tiqod natijasi, ifodasi yoki namoyon bo`lishidir. YOshlar ongida sog`lom e`tiqodni shakllantirish muammosi hech qachon o`z dolzarbligini yo`qotmaydi.

Inson e`tiqodi, deyilganda faqat din tushunilmaydi. Din e`tiqodning o`ziga xos ko`rinishi bo`lib, u ham jamiyatda o`ziga xos vazifalarni bajaradi. Diniy e`tiqod deyilganda insonning o`z irodasidan yuqori turuvchi oliy ruhiy zotga qat`iy ishonch, ilohiy madaddan umidvorlik, ma`lum bir tasavvur, aqida, muqqaddas kitob, payg`ambarlar, avliyolar va boshqalarga ishonchni tushuniladi. Har bir din va diniy konfessiylarning o`ziga xos aqidalari mavjuddir. Barcha dinlarda ya`shilikka undaladi. Lekin, hamma dinlar ham mohiyatiga ko`ra yaxshilikka olib kelavermaydi. Bu erda berilayotgan baho “yaxshilik” so`zi qanday talqin qilinishi va tushinilishiga bog`liq. YAxshilik deya vayronagarchiliklarga ham olib keluvchi turli diniy oqim va sektalar faoliyatini aslo unutmashimiz kerak. Qur`onda yaxshilik va yomonlikning uch ko`rinishi haqida shunday deyiladi: “Albatta , Ollox, adolatga, chiroyli amallar qilishga va qavm-qarindoshga yaxshilik qilishga buyurur hamda buzluqluk, yomon ishlar va zo`rovonliklardan qaytarur. U zot shoyad ibrat- eslatma olursizlar, deb sizlarga pand - nasihat qilur”, (16:90).

Din ta`limoti ko`proq ma`naviy-axloqiy ahamiyatga ega bo`lib, din qoidalari asosida siyosat yurgizmaslik dunyoviy davlat xususiyatidir.

Dunyoviylik deyilganda diniy ateistik dunyoqarash emas, mutaassibona dindorlik emas, balki sof diniy e`tiqod va moddiy olamning ob`ektiv qonunlarini anglab etish, har ikki tarafga ilm nuqtai nazaridan qarash tushuniladi. CHunki, diniylikni ham, ateistik qarashlarni ham ob`ektiv ijtimoiy hodisa sifatida e`tirof etiladi.

Ba`zi adabiyotlarda ateizm va dahriylik tushunchalari sinonim sifatida talqin etiladi. Lekin bu noto`g`ri. Dahriylik ateizm emas. Islom entsiklopediyasida, dahriylik arabcha dahr, ya`ni, vaqt, taqdir, falak ma`nolarini beradi, deyiladi. Dahriylik - islom paydo bo`lmasdan ilgari arab jamiyatida keng tarqalgan bo`lib, “aqida”, “o`lim”, “taqdir”, “ajalining kelishi” ma`nolarini anglatgan. Bu aqidaga ko`ra, insonning taqdiri oldindan belgilab qo`yilgan, u erkin iroda yoki ixtiyor egasi emas, peshonasiga “yozilgan” narsa albatta sodir bo`ladi va undan qutilishning iloji yo`q. Jahiliya arablaridan narigi dunyo borligiga, bu dunyoda zahmat chekkanga u dunyoda ajr, gunoh ishlar qolganlarga azob berilishiga ishonch yo`q edi. Borliqning egasi, oliy xokimi sifatida muayyan bir xudo emas, qandaydir “dahr”, taqdiri falak, inson irodasi bilan hisoblashmaydigan va undan yuqori turadigan tasodifiy o`zgarishlar jarayoni tasavvur qilinar edi. Ularning e`tiqodicha, o`limdan so`ng hamma narsa tugaydi, shuning uchun bugungi kun bilan yashab qolish kerak. Bunday hissiyot Qur`onda shunday

⁷ Ислам Зиёси ўзбегим сиймосида Т. 2005 й. 22-б.

ifodalangan: “Ular (ya’ni qiyomatni inkor qiluvchilar: “Hayot”) faqat dunyodagi hayotimizdir. (Ba’zilarimiz) o’lib, (boshqalarimiz) hayotga kelaveramiz va bizlarni (Alloh o’ldirmaydi, balki) faqat zamon (o’tishi) gina o’ldiradi”, dedilar. Holbuki ular uchun bu to’g’rida biron bilim – hujjat yo’qdir. Ular faqat (shunday) gumon qilurlar holos.” (“Jasiya” 45:24). Keyinchalik, islom adabiyotida “dahriy” so’zi “mo’min” so’zining ziddi sifatida ishlatila boshlandi. XIX-asrda dahriy atamasi “materialist (moddiyunchilik) tushunchasining, istilohining sinonimi sifatida qullanilgan. O’rta asrlarda bir qancha olim, mutafakkir va shoirlar (masalan, Mansur Halloj), dahriylikda ayiblanib, shafqatsiz jazolangan. Hozir ham musulmon dunyosida dahriylik qoralanadi”⁸. Dunyoviylik tushunchasi plyuralistik, ya’ni hurfiylik tamoyiliga asoslanadi. YA’ni, dinga ijtimoiy hodisa sifatida ilmiy tushunishga asoslangan holda yondoshish tushuniladi. Dunyoviy jamiyat qurgan mamlakatlarda din, har qanlay boshqa ob’ektiv hayotiy hodisalar kabi, muhim ijtimoiy omil sifatida e’tirof etiladi. Dunyoviy davlat xudosisizlikka asoslangan davlat emas.

Din uchun talofatli omillardan shuni aytish mumkinki, bir konfessiya ichida turli guruhlar vujudga kelishidir. Mamlakatimizda mutloq ko’pchilik e’tiqod qiladigan islom dinida guruxbozlik – tarafkashlik o’rta asrlarda umuman Markaziy Osiyo, xususan, O’zbekiston musulmonlari uchun yot bo’lganligi diqqatga sazovardir. Diniy firqachilik bizning xalqimizga yot bo’lganligining asosiy sababi shundaki, mintaqimizda o’ziga xos Movarounnahr musulmon qonunchiligi – fiqh maktabining rivojlanganligi, u boshqa maktablar ta’sirida bo’lmay, aksincha musulmon qonunshunosligi maktablariga o’z ta’sirini o’tkazib kelganligiga bog’liq edi. Markaziy Osiyo, xususan O’zbekistonda shunday ilohiyotchi ulomalar bo’lganki, ularning diholi oldida butun musulmon dunyosi bosh eggan, musulmon dunyosi Markaziy Osiyoga ta’sir o’tgazuvchi mintaqaga emas, aksincha O’zbekistonda qo’lga kiritilgan islomiy yutuqlar ta’sirida bo’lgan mintaqaga edi.

Sobiq sho’ro tuzumi davrida chuqur diniy ilmlarga ega bo’lgan ulamolar qirib yuborildi. Mustaqillik davriga kelib O’zbekistonga nisbatan xorijiy mamlakatlarning, hususan turli diniy guruxlarning e’tibori kuchaya boshaladi. eski mafkura o’z umrini yashab bo’lgan, milliy istiqlol mafkurasi xali shakllanmagan, mafkuraviy bo’shliq vujudga kelgan bir vaziyatda turli-tuman diniy taassub va xatto zo’ravonlikka moyil bo’lgan guruxlar har – xil yo’llar bilan O’zbekistonga kirib kelib, o’z ta’limotlarini eng to’g’ri e’tiqod sifatida targ’ib qila boshladilar va mamlakatimizning osuda hayotiga raxna sola boshladilar. Xalqimizning sabr-qanoati, davlatning qat’iyat bilan ko’rgan choralari tufayli katta fojealar oldi olindi va buzg’unchi gazandalardan mamlakatimiz tozalandi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida ro’yxatga olinmagan masjidlar, diniy jamoalar soni kundan – kunga ko’paya boshladi. Bu masjidlarda madrasa sabog’ini olmagan “mullar” imomlik qila boshladilar. Oqibat – natijada chala mullar bergan sabog’i natijasida go’yo e’tiqod uchun, oxirat uchun, jamiyatda amal qilayotgan islom ta’limotining sofligi uchun, jamiyatda adolat uchun “kurashuvchi” guruhlar paydo bo’la boshladi va bu hol o’zini do’st ko’rsatuvchi chet ellik “musulmon daholari” uchun juda qulay vaziyatni vujudga keltirdi. Din asoslarini aholi orasida targ’ib qilib, uning asl moxiyati ezgulik ekanligini tushuntirmoq uchun malakali mutaxassislar etishmayotganligi sezila boshladi.

O’zbekiston xalqi va rahbariyatining oldida mustaqillik yillarining boshlarida ko’plab xal qilinishi lozim bo’lgan vazifalar turar edi. SHular qatorida din va dindorlarga munosabat

⁸ Ислom. Энциклопедия. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. “Давлат илмий нашриёти”. Т. 2004 й 70-бет.

tamoyillarini ham ishlab chiqish lozim edi. Bu vazifalar uzoqni ko'ra oluvchi O'zbekiston davlati rahbarlari va olim mutahassislari tomonidan sharaf bilan bajarildi va bajarilmoqda. Hususan, din va dindorlarga munosabat masalasida Prezidentimiz asarlaridagi shunday ko'rsatmalar e'tiborga molik:

- “- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
- diniy e'tiqotlarni fuqorolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqorolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqorolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy aqloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarining imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqat qilish yo'llarini izlash zarurati;
- dindan bug'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmashligi e'tirof etish”⁹.

Mamlakatimiz xududida yashayotgan har bir fuqoro va har qaysi diniy konfessiya a'zolari tengligiga asosiy e'tibor qaratildi. Dunyoviy davlat diyilganda, din davlatdan ajratilganligi nazarda tutiladi, ammo din xalqdan ajratilgan emas. SHu bilan birga barcha dinlarga bag'rikenglik ruhida yondashuv zarurdir. Zero, kishilik jamiyati uzoq davrlar davomida shakllanib kelgan. Ko'plab mamlakatlarda turli diniy e'tiqodga mansub kishilar ahil, ittifoq bo'lib yashaganlar. Hususan, 1004 – 1005 yillarda Xorazmda yaratilgan Ma'mun akademiyasida faoliyat olib borgan allomalar ham turli din vakillari edilar. Xususan, Abu Sahl Masixiy diniy e'tiqodi bo'yicha xristian bo'lgan. Bunda ajdodlarimiz dunyoqarashida juda qadimdan boshlab tolerantlik namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Dinimiz islomning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni Karimning oltita surasida ham bu mazmundagi oyatlarga duch kelamiz. Misol tariqasida ayrimlari xususida tuxtalib o'taylik, “Dinga zo'rlab (kiritish) yo'qldir. (Zero) haq yo'l zalolatdan ajrab bo'ldi. Bas, Kim shaytondan yuz o'girib, Allohga iymon keltirsa, u hech ajrab ketmaydigan mustahkam halqani ushlabdi. Ollah eshituvchi, bilguvchidir”. (2:256).

“(Ey Muxammad), agar mushriklardan birontasi sizdan ximoya so'rasa, bas, uni ximoya qiling, toki u Allohning kalomini eshitsin. So'ng uni o'zi uchun tinch bo'lgan joyga etkazib qo'ying. Bu (hukm) ularning bilmaydigan qavm bo'lganlari uchundir.” (9:6). Ma'lumki, islom dini targ'ib etilib, mushriklar (ya'ni Allohga shirk keltirib, turli narsalarni ilohiylashtirib sig'inuvchilar)ga qarshi jangu –jadallar bo'lgan. Bu oyatda islom dinini tushunmaganligi uchun mushrik bo'lganlarga nisbatan kechirimli bo'lish haqida aytiladi. Mushriklar Ka'ba atrofiga xilma-xil butlarini qo'yib, har safar Ka'bani tavof etganlaridan kiyin haligi butlarga sajda qilar edilar. Mushriklar o'zlari yasab olgan butlarini yagona Allohga sherik deb bilar ekanlar, ularning qilgan ibodat – tavoflari ham behuda hisoblangan.

Islomda inson e'tqodini zo'rlik bilan o'zgartirish mumkin emasligiga urg'u beriladi. Zero, «Agar Parvardigoringiz xohlasi edi, butun Er yuzidagi barcha kishilar iymon keltirgan bo'lur edilar. Axir siz odamlarni mo'min bo'lishga majbur qilurmisiz?» (10:99). Bu oyatdan hulosa shuki, inson o'z ixtiyori bilan keltirgan iymongina haqiqiy, maqbul iymondir.

Diniy bag'rikenglik ayni vaqtda kishilar e'tiqodi ustidan doimiy nazorat qilib yurishni inkor qiladi. «Ayting: «Ey insonlar, sizlarga Parvardigoringizdan Xaq – Qur'on keldi. Bas, kim hidoyat yo'lga yursa, faqat o'z foydasiga yurgan bo'lur. Kim (bu hidoyat yo'lidan) ozsa,

⁹ И.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хафсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент, “Ўзбекистон” 1997й. 43-44 бет

faqat o'zining ziyoniga adashgan bo'lur. Men sizlarni ustingizda qo'riqchi emasman» (10:108).

Har qanday inson o'zgalar e'tiqodi faqat aynan shu inson ixtiyoriga emas, balki Alloh ixtiyoriga ham bog'liq ekanligini anglab etsagina, boshqalar diniy tuyg'ulariga ham hurmat bilan munosabatda bo'ladi. Zero, e'tiqodli musulmon kishi har bir ish Allohdan ekanligiga ham iymon keltirgan bo'lishi kerak. "Agar bir Qur'on bo'lib, uning yordami bilan tog'lar joyidan jildirilsa, yo uning yordami bilan er yorilib (daryolar paydo qilinsa), yoki uning yordami bilan o'liklar tilga kiritilsa ham (kofir bo'lgan kimsalar iymon keltirmaydilar). Yo'q, barcha ish yolg'iz Allohning (qo'lidadir. YA'ni, Alloh hohlasa iymon keltiradilar). (13:31).

Allohning irodasi va qudrati shu darajadagi, agar O'zi xohlasa har qanday insonni tug'ri yo'ldan yurishga majbur qilar edi. Lekin u insonga aql-idrok berdi, haq bilan botilning nima ekanligini tushuntirib "Kitob"ni nozil qildi va ixtiyorni odamlarning o'ziga berdi. endi, Allohning e'tiqod erkinligini odamlar qo'lga bergani holda, qandaydir o'zini "daho" sanovchi kimsa zo'rlik bilan dinga kiritishga harakat qilsa, bu islomga xilofdir. "To'g'ri yo'lga (hidoyat qilish) yolg'iz Alloh izmidadir, (zotan, yo'llar) orasida egri ham bordir. Agar (Alloh) hohlaganida sizlarning barchangizni (to'g'ri yo'lga) hidoyat qilgan bo'lur edi. (Lekin U zot sizlarga qaysi yo'l tug'ri va qaysi yo'llar egri ekanini ko'rsatib, qay bir yo'lni tanlash ixtiyorini o'zlaringizga qo'yib berdi va aql-idrok bilan To'g'ri yo'lni tanlab olgan baxtli bandalarini O'z xohish-irodasi bilan O'sha Haq yo'lga hidoyat etishni va'da qildi, egri yo'llarni tanlagan kimsalar esa har ikki dunyoda baxtsiz bo'lib, o'zlariga ziyon qilishlari to'g'risida habar berdi). (16:9).¹⁰

e'tiqod va bag'rikenglik masalasida na mutaassiblik, na murosasizlik naf keltirmaydi. Vaziyatga qarab, bugun dindor, ertaga dahriy, boshqa vaqt ateist bo'lish inson fazilati emas. Iymonli kishi amaliyotida kufrga o'rin bo'lmaydi. Kufr bilan ko'ngli yoziladigan inson esa musulmon emas. Qalbi iymon nuridan bebahra insonlar din nomidan gapirsalarda, asli qilmishlari g'ayriinsoniydir.

O'z oldiga dunyoviy davlat kurishni maqsad qilib qo'ygan O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasi 61 - moddasida shunday deyiladi: "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi." Mamlakatimizda barcha diniy konfessiyalar vakillari teng huquqqa egadirlar va ulardan hech biriga alohida imtiyoz berilmaydi va e'tiqodiga ko'ra tazyiq ham o'tkazilmaydi. Hozirgi kunda Vatanimizda 16 diniy konfessiya erkin faoliyat olib bormoqda.

Respublikamizda endigina hurlik, amaldagi mustaqillik kunlariga erishuv reallikka aylanishi aniq bo'lib qolgan fursatda dindorlar maqomiga jiddiy e'tibor qaratilgan edi. Xususan, 1991 yili "Ramazon xayiti" dam olish kuni, deb e'lon qilindi. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Jumhuriyati Prezidenti I.Karimovning 20 iyun' kuni e'lon qilingan farmonidagi har bir jumla kishi e'tiborini tortib, har bir musulmonda chuqur bir qoniqish va ko'tarinki ruhni namoyon qiladi. Farmon matnini to'liq keltiramiz: "Musulmonlarning ko'plab istak va xohishlarini qondirish hamda O'rta Osiyo musulmonlari Diniy Boshqarmasining murojaatini e'tiborga olib, fuqarolar hamjihatligi va mehr-oqibatini yuksaltirish maqsadida "Qurbon

¹⁰ Куръон Карим. А. Мансуров таржимаси. (биринчи сон сура иккинчи сон оятни билдиради.)

xayiti” (“Iyd al-adha”)ni bu yil 22 iyun’ kuni va keyingi yillarda esa “Qurbon hayiti”ning birinchi kuni dam olish kuni deb tayinlansin”¹¹.

1991 yilning oʻzida islomiy hayot masalalarida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Xususan, iyul’ oyida “Buyuk yurtdoshimiz, muxaddislar sultoni Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriyning islomda Qurʼondan keyingi ikkinchi kitob hisoblangan “ al-Jomeʼ as Sahih” (Ishonarli toʻplam) asarining birinchi jildi ilk bor Zokirjon Ismoil tomonidan oʻzbek tiliga oʻgirildi va Qomuslar Bosh tahririyati tomonidan 200 ming nusxada chop etildi.”¹²

Sentyabr oyida “Oʻzbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi “Koʻkaldosh”(Toshkent sh.). “Mulla Qirgʻiz” (Namangan sh.). va “Faxriddin ar-Roziy”(Urganch sh.) Islom oʻrta maxsus bilim yurtlari faoliyat koʻrsata boshladi.”¹³. Noyabr’ oyida “Oʻzbekiston televideniesida birinchi diniy-maʼrifiy koʻrsatuv- “Maʼrifatnoma” namoyish etila boshladi”¹⁴. 18 dekabr kuni Vazirlar Mahkamasining “Diniy tashkilotlar ustavlarini roʻyxatga olish haqidagi arizalarni koʻrib chiqish qoidalarini, roʻyxatga olinganlik uchun yigʻimlarni olish tartiblarini va ularning miqdorini tasdiqlash toʻgʻrisida” 313- son qarori qabul qilindi. 350 Oʻzbekiston fuqarosi esa haj ibodatini ado etishga muvaffaq boʻldi.

SHu yili diqqatga sazovor asosiy narsa, 14 iyun’ kuni Oʻzbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida”gi Qonuni qabul qilinganligi boʻldi. Bu qonunga 1993 yil 3 sentyabr kuni № 934-XP qarori bilan oʻzgartirishlar kiritildi va 1998 yilning 1 may kuni № 289 – XP qarori bilan Qonun yangi taxrirda qabul qilindi. Ushbu qonun har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy eʼtiqod huquqini, dinga munosabatidan qatʼi nazar, fuqarolarning tengligini taʼminlash, shuningdek, diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bogʻliq munosabatlarni tartibga solib turadi.(1- modda). Fuqarolar dinga munosabatida majbur qilinmaydi, ota-ona rozilgisiz yosh bolalar dinga jalb qilinmaydi, chet elliklar ham oʻz diniy ehtiyojlarini erkin amalga oshira oladilar.(3-modda). Fuqarolarning dinga munosabatidan qatʼi nazar ularning teng huquqliligi kafolatlanadi.(5-modda).

Oʻzbekiston gumanitar soha boʻyicha yuzdan ortiq inson huquqlari boʻyicha xalqaro qoidalarni imzoladi va hayotga tatbiq etdi.Bular orasida inson huquqlari boʻyicha umumjahon deklaratsiyasi (1948y.), fuqarolik va siyosiy huquqlar boʻyicha xalqaro pakt (1966 y), iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar boʻyicha xalqaro pakt (1966 y). din yoki eʼtiqodlar zahirida murosasizlik va kamsitishlarning barcha shakllarini bartaraf etish haqida Deklaratsiya (1989 y) va boshqalarni koʻrsatish mumkin.

Hech qaysi din oʻzida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotidagi mavjud jixatlarning barchasini qamrab ololmaydi. SHu asosda Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida diniy-siyosiy partiyalar tuzish taʼqiqlangan.

Oʻzbekistonda diniy tashkilotlar, deyilganda nimalar tushuniladi? Diniy eʼtiqod, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan koʻngilli birlashmalar (diniy jamiyatlar, diniy oʻquv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagoglar, monastir va boshqalar) diniy tashkilotlar hisoblanadi.

¹¹ Ислom зиёси ўзбегим сиймосида. “Тошкент ислom университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси.2005 й. 15-бет.

¹² Ислom зиёси ўзбегим сиймосида. “Тошкент ислom университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси.2005 й. 15-бет.

¹³ Ўша ерда.

¹⁴ Ўша ерда 14 бет.

Diniy tashkilotlar Qonunga ko'ra 18 yoshga to'lgan va O'zbekistonda doimiy yashovchi 100 nafardan kam bo'lmagan fuqarolar tashabbusi bilan tuziladi. Tashkilot nizomi qabul qilinib, zarur ta'sis xujjatlari Adliya vazirligi yoki uning joylardagi idoralariga taqdim etiladi. Diniy tashkilot a'zosi bir vaqtning o'zida boshqa diniy tashkilotga ham a'zo bo'la olmaydi.

Diniy konfessiyalar ham tegishli diniy tashkilotlar tomonidan yuborilgan vakillari orqali ta'sis konferentsiyasida tuziladi va Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Taqdim etilgan xujjatlar bir oy davomida ko'rib chiqiladi. Diniy tashkilot ro'yxatga olgan tashkilot tomonidan qabul qilingan qaror bilan tarqatib yuborilishi ham mumkin.

Mustaqillik yillari davomida respublikamiz xududidagi diniy tashkilotlar soni oshdi. 1990 yil respublikada 119 ta diniy tashkilot va 2ta diniy o'quv yurti mavjud edi. Bugunga kelib diniy tashkilotlar soni 2186 ga etdi. Bular orasida eng yirigi O'zbekiston musulmlari idorasi, Rus Pravoslav cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo Eparxiyasi, Evangel xristian-babtistlar cherkovi, Rim-katolik cherkovi, To'liq Injil xristianlari cherkovi, O'zbekiston Bibliya jamiyatidir. Bu tashkilotlar ixtiyorida 1987 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 8 ta yaxudiy sinagoglari, 6 ta Bahoiylar jdamoasi, bitta Krishnani anglash jamiyati, bitta Budda ibodatxonasida dindorlar ibodati uchun barcha sharoitlar yaratilgan¹⁵.

Mustaqillikkacha 2 ta diniy(islomiy) o'quv yurti ishlagan bo'lsa, hozirga kelib ularning soni 13 taga etdi.

Toshkent islom instituti (ma'xadi)ni 1975-1990 yillar orasida 53 kishi,"Mir –Arab madrasasini 1950 -1990 yillar orasida 272 kishi, umuman sobiq sovet davrida diniy bilim yurtlarini jami 425 kishi bitirdi. Mustaqillik yillarida Respublikamizda 10 ta madrasa va Toshkent Islom institutini 1991 – 2004 yillar orasida 5058 kishi bitirib chiqdi. Imomlarning diniy ma'lumoti darajasi sezilarli oshirilishiga erishildi. Hozirda 90% ziyod imomlar maxsus diniy ma'lumotga egadir.

Bugungi kunda O'zbekistonda 12 ta diniy – islomiy o'quv yurti faoliyat ko'rsatadi. Ular jumlasida Toshkentdagi Imom al - Buxoriy nomli Islom instituti, "Ko'kaldosh", Buxorodagi "Mir Arab" madrasalari , yana Toshkentdagi "Hadichai Kubro", Buxorodagi "Juybori Kalom" ayol-qizlar islom o'rta maxsus bilim yurtlari, Namangandagi "Mulla Qirg'iz", Urganchdagi "Fahriddin ar – Roziy", Nukusdagi "Said Muhyiddin Mahdum", Qashqadaryo viloyatida "Xoja Buxoriy" islom o'rta maxsus bilim yurtlarini ko'rsatish mumkin.

Respublikamizda fuqorolar tomonidan haj ibodatini ado etishga erkin sharoit va imkoniyatlar yaratildi. 1994 yildan hojilar uchun imtiyozli valyuta konvertatsiyasi tashkil etildi. SHu maqsadda o'tgan yillarda (2005 yilgacha) 47 milliondan ortiq AQSH dollari ajratildi. 1991 yilda hajga boruvchilar soni 1500 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1996 yilda bu ko'rsatgich yiliga 3800 dan ziyodni tashkil etmoqda¹⁶ Bu ko'rsatgichlar bo'yicha boshqa diniy konfessiyalar faoliyatidan shunday misollarni keltirish mumkin. Xususan, 1998 yilda Pravoslav hamda Protestant seminariyalari faoliyat ko'rsata boshladi. Rus Pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo Eparxiyasining 125 yilligi va Evangel' – Lyuteran jamoasining 100 yilligi nishonlandi.

Bu amallar Xel'sinki YAkunlovchi akti, Vena va Kopengagenda qabul qilingan xujjatlarda qayd etilgan shaxsning vijdon va din erkinligi borasidagi tamoyillarga to'la muvofiqdir.

¹⁵ Ўз. Рес. ташкилотларнинг рўйхатга олиниши ҳақида маълумотнома. 2005 йил 14 январ..

¹⁶ Ўзбекистон мусулмонлари идораси таълим тизими. т. 2003 йил 20 бет..

1998 yillning 1 may kuni O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy (184, 184-1, 201, 202-1, 240, 241-244-1 moddalar) va Jinoyat (141, 184-1, 201, 202-1, 240, 241 moddalar) kodekslariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Quyidagi noqonuniy faoliyatlar uchun solinadigan jarimalarning miqdori ko'paytirildi:

- Jamoat joylarida ibodat liboslarida yurish (diniy tashkilot hizmatchilari bundan mustosno);
- Diniy marosim, namoyish va boshqa urf - odatlarni bajarishda qonun – qoidalarni buzish;
- O'zbekiston Respublikasida taqiqlangan diniy tashkilot va jamolarning faoliyatida ishtirok etishga jalb etish;
- Prozelitizm va missionerlik faoliyatini yuritish;
- Diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish.

Mustaqillik yillarida din va davlat munosabatlarida ko'pgina yangiliklar, hususan dindorlarga imtiyozlar yaratildi. Ammo o'z hurmatini bilmagan ayrim manfur kimsalar dindan g'arazlik maqsadlarda foydalanishga harakat qildilar. O'zbekiston axolisi, jumladan davlatimiz dinga munosabati aniq belgilab olingan. “ Biz din bundan bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va madaniy merosdan baxramand bo'lishi tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar xokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunchilikka aralashlashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimiz xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf – xatar deb hisoblaymiz”¹⁷ - deydi prezidentimiz.

Demak, dunyoviy davlatda din davlatdan, uning siyosatidan ajratilgani bilan xalq ko'nglidan, dilidan ajratilmaydi. Islom dinida asosiy hayotiy muammolar uning shariati ahkomlarida bayon qilingan. SHuning uchun islom shariatida qanday ma'naviy asoslar mavjudligini bilib olaylik .

¹⁷ .. И.Каримов. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хафсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент, “Ўзбекистон” 1997й. 44 бет

Islom shariatining ma'naviy asoslari.

O'tmishning suronli kunlari ortda qolib, halqimizning buyuk kelajagini quruvchi yoshlar har tomonlama barkamol inson bo'lib etishishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Xususan zamonaviy ilm maskanlarining qad rostlayotganligi, ular so'nggi fan-texnika yutuqlarini o'zida mujassam qilgan o'qitish vositalari bilan ta'minlanayotganligi, iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganligi, o'z navbatida yoshlarimiz sport, san'at, fan, adabiyot sohalarida salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritayotganligi fikrimizning yaqqol dalilidir. O'zining bebaho ilmiy salohiyati bilan butun musulmon olamida shuhrat qozongan, jahon ilmi ravnaqiga beqiyos hissa qo'shgan, o'zbek nomini tarix zarvaraqlariga muhrlagan ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy meroslariga loyiq va sodiq vorislar bo'lgan holda mavjud yutuqlarni yanada rivojlantirib borish uchun doimiy sa'yi harakatda bo'lmoqlik har bir vijdonli o'g'il-qizning muqaddas burchi ekanligini anglab etish va bu burchga sadoqat sifatida ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy, ma'naviy sohalarda tinimsiz izlanish olib borish hozirgi davrning eng dolzarb talablaridan biridir.

Sobiq totalitar - buyruqbozlikka asoslangan tuzumda islom shiati asosida millatimizga xos bo'lgan ma'naviy qadriyatlarni o'zida aks ettirgan diniy-ma'naviy adabiyotlar mazmunidan bahramand bo'lish imkoniyatidan butunlay mahrum edik. Oqibat-natijada bizning g'oyaviy muxoliflarimiz halq dunyoqarashida vujudga kelgan mafkuraviy bo'shliq o'mini o'zlarining maraz qarashlari va ta'limotlari bilan to'ldirmoqchi bo'ldilar, yoshlar ongini yillar davomida zaharlab keldilar..

Xozirgi kunga kelib, o'tmishning bebaho ma'naviy xazinasidan bahramand bo'lish uchun barcha imkoniyatlar yaratildi.

Qur'onning shakllanishi. Muqaddas dinimiz – islomda o'z ifodasini topgan qadriyatlardan ayri holda halqimiz ma'naviy dunyosini tasavvur etib bo'lmaydi. Payg'ambarimiz Muxammad (s.a.v.)ga nozil bo'lgan dastlabki oyatdanoq ma'rifatga, ilmga, kamolotga undov shaklida «o'qi!» –degan xitob yangragan edi. Islom

dinining muqaddas kitobi «Qur'on» deb atalmish manbada ham ramziy ma'no bo'lib, bu muqaddas manba nomining ma'nosi ham «o'qimoq», «qiroat qilmoq», «jamlamoq» kabi mazmunga egadir.

Diniy adabiyotlardan ma'lumki, rasuli Akram (s.a.v.) ga vaxiyalar Makkada 13 yil, Madinada 10 yil davomida nozil bo'lgan. Davrimizning ko'zga ko'ringan olimi, yirik dinshunos mutaxassis, professor Anvar eshonxonovich Abdusamedov o'zining ilmiy-tahliliy xulosalariga tayangan holda Qur'on suralarining xronologik tartibini quyidagicha bayon qiladi:

1. Makka davri (610-yildan 619-yil oxirlarigacha), .bu davrda yuksak adabiy ijod namunalari bo'lgan saj' janridagi suralar nozil bo'lgan.

2. Makka davri (616-yildan 619-oxirlarigacha) Muhammad (s.a.v.) va uning izdoshlari doimiy ta'qib ostida yashagan va ko'pchiligi Habashistonga ko'chib ketgan muhitda o'qilgan. Bu suralarda Allohning "Rahmon" sifati ko'p tilga olinganligi sababli ilmiy adabiyotlarda ularni "Rahmon suralari" deb atalgan.

3. Makka davri (620-yil boshlaridan 622-yil sentyabrigacha). Bu davrda ham payg'ambarimiz va u kishining sahobalari ta'qib ostida yashaganlar. Ko'pincha maxfiy ravishda shahardan tashqarida ibodatga to'planganlar. Bu davr suralarida islom aqidalariga xos bo'lgan ta'limotga keng o'rin berilganligi sababli, Evropa olimlari bularga "Payg'ambarlik suralari" deb nom berganlar.

Madina davriga oid suralar esa besh davrga bo'lingan:

1. Madina davri (622-yil oktyabrdan, 624-yil martigacha) Muhammad (s.a.v.) Madinaga ko'chib kelganidan to Makkaliklar bilan bo'lgan yirik to'qnashuv - Badr jangigacha bo'lgan davrda nozil bo'lgan suralar.

2. Madina davri (624-yil martdan, 625-yil martgacha). Badr Jangidan keyin Uhud jangigacha o'tgan bir yilda nozil bo'lgan suralar.

3. Madina davri (625-yil martdan, 627-yil martgacha). Uhud jangidagi mag'lubiyatdan keyin Handaq jangigacha o'tgan ikki yilda nozil bo'lgan suralar.

4. Madina davri (627-yil aprelidan, 630-yil yanvarigacha). Handaq jangidan so'ng Makkaning fatx etilishigacha o'tgan salkam uch yil ichida nozil bo'lgan suralar.

5. Madina davri (630-yil fevral'dan, 632-yil maygacha). Makka olinganidan so'ng Muhammad (s.a.v.)ning vafotlarigacha o'tgan ikki yildan ortiqroq davr ichida nozil bo'lgan suralar.

Mazkur davrlar xronologiyasi haqida A. e. Abdusamedov "Biz bu o'rinda Qur'on suralarining xronologik tartibi masalasiga umumiy tarzdgina to'xtalib o'tdik. Bu g'oyat murakkab ilmiy masalani faqat maxsus tadqiqotdgina mufassal yoritish mumkin"- deydi. CHindan ham bu masala hususida jiddiy tadqiqot olib borish zarurati ayon bo'lmoqda. Xususan, Qur'onga xos bo'lgan Makka suralari» islom entsiklopediyasi» (Toshkent 2004-yil 148-bet)da 86 ta deb ko'rsatilgan. Demak, qolgan 28 ta sura Madinada nozil bo'lgan bo'ladi. Ammo A.E. Abdusamedovning "dinlar tarixi" kitobida (236-bet) Madina suralari 24 ta deb ko'rsatilgan. Bu ma'lumotga ko'ra esa Makka suralari 90 tani tashkil etadi.

endi Qur'onning kitob holiga keltirilishi hususida tuxtaladigan bo'lsak, dastlabki kezlarda, guvohlar ishtirokida, nozil bo'lgan oyatlar suyak, tosh, teri, qog'oz va boshqa narsalarga yozib borilgan bo'lsa, payg'ambarimiz vafotlaridan keyin, xalifa Abu Bakr Siddiq davrlarida xalifa Usmon taklifi bilan bir yil

davomida mavjud Qur'on sura-oyatlari Zayd ibn Sobit tomonidan to'plam holiga keltirildi va saqlash uchun Abu Bakr Siddiqga topshirildi. Halifa Usmon davrlariga kelib esa turli jihod janglarida shirali ovoz va Qur'on mazmunini yodda tutish sohibi bo'lgan ko'plab qorilar shahid bo'ldilar. Kallomullox qiraotida ma'lum ixtiloflar vujudga kela boshladi va noto'g'ri talaffuz oqibatida Qur'on mazmuniga putur eta boshladi. Halifa Abu Bakr Siddiq bu dunyoni tark etganlaridan so'ng mavjud Qur'on sahifalari Umar (r.a.)ning uylarida saqlangan. U kishi olamdan o'tgach esa, qizlari, payg'ambarimizning jufti holollari Hafsa binti Umar huzurida qoldi. Halifa Usmon topshirig'iga binoan mavjud Qur'on sahifalari Zayd ibn Sobit tomonidan olti nusxada ko'chirildi va turli shaharlarga aniq, yoqimli qiroat bilan tilovat qila biluvchi qorilar bilan bir nusxadan yuborildi. Har bir qoriga bir nusxadan Qur'on topshirilib, faqat ularinggina usulida qiroat qilinishi shart qilingan, ya'ni ustoz qori sifatida Abdullox ibn Soib Makkaga, Mug'iyra ibn SHihob SHomga, Abu Abduraxmon Somiy Kufaga, Amir ibn Abdulqays Basraga, Zayd ibn Sobit esa Madinaga yuborildi. Bir musxaf esa Usmonda qoldi va bu kitob «Imom musxaf» deb nomlandi.

Keyinchalik "Qur'on" o'qilishida yanada aniqlikka erishish maqsadida, arab grammatikasining so'nggi yutuqlariga amal qilgan holda xalifa Ali ibn Abu Tolib amriga ko'ra olim Abu Asvod ad-Duali tomonidan bu muqaddas manba sahifalari, harflari nuqtalab chiqildi.

Har bir musulmon kishi o'ziga kerakli miqdorda Qur'on suralaridan yod olishi farzi ayn, uni to'liq yod olish farzi kifoya deyildi.

Ma'lumki Qur'on suralardan tuzilgan bo'lib, ular oyatlardan tashkil topgan va eng katta sura 286, eng kichigi 3 oyatdan iboratdir. Sura atamasi «tizma», «qator», «qo'rg'on», «manzil va sharaf» degan ma'nolarni beradi. Oyat atamasi ilohiy belgi, mo'jiza ma'nolarini beradi, Ko'pgina ulamolarning ma'lumotlariga qaraganda Qur'on 114 sura va 6236 oyatdan iboratdir.

Islom shariatida sunnat va hadis. **Islom shariatida, shariat**

ahkomlariga amal qilishda payg'ambarimiz sunnatlariga ham tayaniladi. Istiloxga ko'ra "Sunna" - odat, an'ana, hatti -harakat ma'nolarini berib, Muxammad (s.a.v.)ning so'zlari, amallari, hatti -harakatlarini o'zida mujassam qilgan. Muhaddislar istilohida buning ma'nosi : «Payg'ambar (s.a.v.)dan asar bo'lib qolgan gap, ish, taqrir, xalqiy (tana tuzilishi), axloqiy sifatlar va tarjimai holiga tegishli malumotlar "sunnat" deyiladi. O'z navbatida payg'ambarimizga xos bo'lgan bu sifat - larning har biriga alohida ma'no berilgan.

"Gap"- payg'ambarimizning gaplari, bu - «qavliy sunnat» deyiladi.

Ish - payg'ambarimiz qilgan ishlari, amallari, Bu «amaliy sunnat» deyiladi.

"Taqrir"- sahobalar tomonidan qilingan amallar payg'ambarimiz tomonidan ma'qullanishi. Bu «Taqririy sunnat» deyiladi.

Xalqiy sunnat deyilganda payg'ambarimizning siyratlariga, tashqi qiyofalariga xos bo'lgan jihatlari tushuniladi. Bu masalada Imom at-Termiziyning «SHamoili Muhammadiya» asari mashhurdir. YAna Alixonto'ra Sog'uniyning «Tarixi Muhammadiya» asari ham diqqatga sazovordir.

Payg`ambarimizdan yana bir o`mak bo`ladigan jihat, bu-payg`ambarimizning sabrlari, hilmilari, shijoatlari, sahiyliklari va boshqa axloqiy sifatlaridir. Bular “Hulqiy-axloqiy sifatlar” deyiladi. YAna payg`ambarimizning muborak hayotlari ham o`mak bo`lib, buni “siyrat” ham deyilar.

Islomiy ma`naviyatning bir qismi bo`lmish hadislar IX asrga kelib tartibga solingan va din, axloq, fiqhning muqaddas manbaiga aylangan. Hadis so`zi “habar, yangilik” ma`nolarini beradi. Hadislar ikki qismdan iborat bo`lib, 1-qismi hadis, 2-qismi isnod deyiladi. Hadisda yangilik, habar bayon qilinsa, isnodda mazkur habar kimdan eshutilganligi va oxir bu fikr aynan payg`ambarga xos ekanligi o`z isbotini topishi kerak. Hadislar ikki turli bo`lib, «hadisi Qudsiy», “hadisi Rabboniy” yoki «hadisi ilohiy» deyiladi. Ikkinchisi «Hadisi nabaviy» deyiladi.

Hadisi Qudsiy va Qur`on orasida shunday farqlar mavjud:

- 1) Qur`onning lafzi ham, ma`nosi ham Allohga tegishli. Hadisi Qudsiy ma`nosi Allohdan, lafzi payg`ambarimiz (s.a.v.)ga tegishli
- 2) Ibodat vaqtida Qur`on tilovat qilinadi, hadisi Qudsiy tilovat qilinmaydi.
- 3) Qur`on sobit bo`lishi jihatidan mutavotir bo`lishini shart qilinadi. Hadisi Qudsiyda shart qilinmaydi.

eng mashhur hadisi Qudsiy kitobi Abu Rauf al – Munaviyning “ Al – ittixafat as sunniya bil hadis al – Qudsiya” bo`lib, unda 272 ta Qudsiy hadislar jamlangan.

Hadisi nabaviyda esa mazmun ham, lafz ham payg`ambarimiz (s.a.v.)ga tegishli bo`ladi. e`tiborga olinishi nuqtai nazaridan hadislar uch qism bo`lib, ularning birinchisi - sahih, ikkinchisi - xasan va uchinchisi - zaif deyiladi.

Islom olamida eng obro`li hadis to`plamlari:

1. “Al-jomi’ as-saxix” yoki “Sahihi Buxoriy”
2. “Saxixi Muslum”
3. “Sunani Termiziy”
4. “Sunani Abu Dovud”
5. “Sunani Nasoiy”
6. “Sunani ibn Moja”.

YAna Ibn Hanbal «Musnadi» ham katta shuhratga ega.

Hadis to`plamlari mazmuniga ko`ra ham bir qancha turlarga bo`linadi. Bular:

1. “Ilmi tavhid va sifat”- aqoidga oid
2. “Sunan” -hukmga dalolat qiluvchi hadislar
3. “Riqoq”- ilmi suluk va zuhdga oid
4. “Ilmul adab”- eyish, ichish, kiyinish, o`tirish-turish va safar kabi odoblarga taalluqli.
5. “Tafsir”- tafsir hadislar
6. “Ilmu Va`dil - halq” yoki “siyrat”- tarix va she`r hadislar
7. “Ilmul-fitan”- payg`ambrimiz Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan so`ng vujudga kelgan va vujudga keladigan fitnalarga doirdir.
8. “Ilmul manoqib”- manoqib va musolaba, ya`ni shaxslar, qabilalar, shaharlar va boshqa shu kabilar maqtovi yoki aybloviiga doir habarlar.

Bularni o`zida jamlagan “Sahihi Buxoriy” kabi kitoblarga “Jomi” nomi berilgan. Imom Termiziyning kitoblari ham “jomi” ham “sunan” deyilgan. Yana “musnad” nomli hadislar to`plami mavjud bo`lib, unda sahoba ismlari maxsus tartibga solinib, har biridan rivoyat qilingan hadislar bayon qilingan va nihoyat, muallifning keksalari hurufi hijo (alifbo) tartibga qo`yilib, har birining yo`li bilan muallifga etib kelgan rivoyatlarni to`plagan kitob “mu`jam” deyiladi.

SHariat nima? Islom ma`naviyatining muhim tomonlaridan biri shariat hisoblanadi. SHariat so`zining lug`aviy ma`nosi ostona va suv ichish joyi, yo`l ma`nolarini berib, musulmonchilikda qonunchilik ma`nosida ishlatiladi. Allox tomonidan joriy qilingan amaliy hukmlar majmuasi ma`nosida shariat fiqh sifatida ham tushiniladi. Samoviy dinlar, ya`ni iudaizm, xristianlik, islom kabi dinlardagi amaliy qism shariat deyiladi. Islom shariati hukmlari Qur`on, Sunnat, Ijmo` va qiyosdan olinadi. SHariat maqsadlari uchta bo`lib ular:

1. Zaruriy - din va dunyo uchun.
2. Hojatlik – kishilarga osonlik tug`dirish.
3. YAxshilash - kishilar bir-briga muruvvat ko`rsatishi.

SHariat qonun - qoidalariga amal qilishda asosiy qo`llanma sifatida Burhoniddin Marg`inoniyning “Hidoya”, Faxriddin Hasanning “Fatovo” Ubaydulloh ibn Ma`sudning “Muxtasar” kabi asarlari mashhur bo`lgan. O`zbek millati nomini islom dunyosida mashhur qilgan, halqimiz sha`niga doimiy duolar yog`ilishiga sabab bo`lgan bular kabi allomalarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Islom shariatida “ijmo” atamasi ittifoq bo`lish, azmu qoror qilish ma`nolarida qo`llaniladi. Ijmo` - muhokama etilidigan masala yuzasidan mujtahidlarning bir fikrga kelishuvidir. U fiqh manbalaridan biri hisoblanadi.

Usul al-fiqh ulomalari fikriga ko`ra, ijmo`, bu - Muhammad (s.a.v.) ning ummatlaridan bo`lgan mujtahidlar payg`ambarimiz yashagan davrlaridan keyingi vaqtlarda biror shar`iy ishga yakdillik bilan ittifoq bo`lishidir. Ijmo` asosan ettinchi asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan, islom tarixida “Madinaning etti faqih” deb ulug`langan kishilar faoliyati asosida kelib chiqqan. Bu faqihlar-Said ibn al-Musayyib, Urva ibn az-Zubayr, Abu Bakr ibn Ubayd, al-Qosim ibn Muhammad, Ubaydulloh ibn Abdulloh, Sulaymon ibn Yasar va Xorij ibn Zayddir. Ijmo` har qanday shariat ahkomlaridan habardor bo`lgan ulamolar bilan emas, balki faqatgina mujtahidlar itifoqi bilangina bo`ladi. Ijmo` amalga oshirilgach uning hukmiga qarshi yoki unga xilof ravishda fatvo berib bo`lmaydi.

SHariatda **qiyos**, ya`ni taqqoslash degan tushuncha mavjud bo`lib, uni dastlabki ikki manba - Qur`on va sunnada berilmagan biror huquqiy masala ulardagi shunga o`xshash masala bo`yicha berilgan ko`rsatmaga taqqoslash yo`li bilan sharh etilgan. Misol tariqasida Qur`onning “Baqara” surasi 219-220- oyatlari tarjima va sharhiga e`tibor qilib ko`raylik: “Sizdan aroq (ichkilik) va qimor haqida so`raydilar”. Ayting: “Bularda katta gunoh va odamlar uchun foydalar bor. Bularning gunohi foydasidan kattaroqdir.” Bu oyatlarga berilgan sharhda shunday deyiladi: “Islom kelgan davrdan ichkilik ichish, qimor o`ynash kabi illatlar jamiyatning hayotiga singib ketgan oddiy ishlar edi. SHuning uchun Qur`on bularni daf`atan harom qilmadi, zotan bunday illatlarni faqat yuqorining buyrug`i bilan yo`qotish imkonsizdir, shu tufayli Alloh avvalo bu ishlardan keladigan foyda - zararlarni ko`rsatish va odamlarning

bularga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirish yo'lini tutdi. YA'ni bu harom narsalarni musulmonlarning qo'llaridan tortib olishdan ilgari ko'ngillaridan tortib oldi. SHu boisdan keyinroq kelgan "aroq, qimor... shayton amalidan bo'lgan harom narsalardir" degan oyat nozil bo'lishi bilan musulmonlar bu illatlardan bir yo'la qutildilar

Bu oyatda aytilgan aroq haqidagi fikr qiyos yo'li bilan har qanday mast qiluvchi va aqldan begona qiluvchi narsalarga nisbatan qo'llanilgan.

Qur'on va Sunnatda hukmi bor masalada qiyosni ishlatish mumkin bo'lmaganidek, ijmo'da hukmi bor bo'lgan masalada ham qiyosni ishlatish mumkin emas.

Mujtahidlar kimlar? SHu erda «**mujtahid**» atamasiga ham izoh berib o'tish o'rinlidir. Bu atamaning mazmuni - intiluvchi, g'ayrat qiluvchi ma'nolarini beradi. O'rta asrlarda islom dinida ijthod qilish xuquqiga ega bo'lgan, ya'ni mustaqil ravishda diniy - aqidaviy va xuquqiy masalalar bo'yicha xulosa bera oladigan va hukm chiqara oladigan shaxs mujtahid deyiladi. Islom diniga hos bo'lgan mazhablarda bu atamaga o'ziga hos yondashuv mavjud.

Mazhab so'zi arabchada "yo'nalish" ma'nosini beradi. Islom atama - shunosligida biror diniy masala, muammo bo'yicha muayyan ulamo fikriga ergashish, "Uning yurgan yo'nalishidan borish" (zahaba ala mazhabihi)ni bildiradi. Mazhab tushunchasi islom dinining deyarli barcha sohalarida - aqida (kalom), fiqh, hadisshunoslik, falsafa, tasavvufda barobar ishlatiladi. Ma'lumki islomda ikki yo'nalish bo'lib, ulardan biri - sunniylikda diniy huquq mazhablarining asoschilari, shialarda esa yuqori martabali ruhoniylar va diniy xuquqshunoslar mujtahidlar deyiladi.

Islom ulamolari xulosalariga ko'ra payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning ko'p sahobalari ham mujtahid bo'lganlar. Keyingi avlodlar ulardan dastlabki davrlaridagi fiqhiy ilmlarni o'rganganlar. VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mazhab asoschilari va ularning usullarini ishlab chiqqan izdoshlari mujtahid deyilgan.

Mujtahidlar uch darajaga ajratilgan:

1. **SHariat darajasidagi mujtahid** - mujtahid fi-sh-shar. U amaliyotda qo'llagan manbalarni o'zi aniqlagan, o'zi sharhlagan. U xech kimning e'tirozini qabul qilmasligi mumkin bo'lgan.

2. **Mazhab darajasidagi mujtahid** - mujtahid fi-l-mazhab. U har qanday masalani faqat o'z mazhabi asoschisi manbalariga suyangan holda hal etgan.

3. **Ayrim masalalarni echish darajasidagi mujtahid** – mujtahid fi-t-tarjih, u o'zidan avvalgi mujtahidlar hal etmagan masalalarni tadqiq etish xuquqiga ega bo'lgan. Ko'rilayotgan masala bo'yicha hukmlar bir necha bo'lsa, u o'zining ilmiy salohiyatiga ko'ra ulardan birini quvvatlashi mumkin bo'lgan.

Bu darajalarga hos yoki loyiq deb topilgan mujtahidlarga qator talablar qo'yilgan bo'lib, ulardan eng asosiysi namunali hayot tarzi hisoblanadi. Hozirgi vaqtga kelib buyuk muftiylar, yirik jamoalar (qavmlar) rahbarlari, diniy universitet rektorlari va boshqalar ba'zan uchinchi darajali mujtahidlar deb etirof qilingan.

YUqorida aytib o'tganimizdek, mujtahidlar ijthod qilish huquqiga ega bo'lgan ulamolardir. Ijthod deganda - g'ayrat qilish, intilish, faqih tamonidan

shar'iy hukmni hosil qilish uchun barcha bilim va toqatni ishga solish tushuniladi. Payg'ambar (s.a.v.) hayotlik chog'larida u kishidan boshqa odam ijthod qilmagan.

Keyingi davrlarda Qur'on va Sunnatga tegishli ilmlarning barchasini, ijmo'ga oid narsalarni, arab tiliga oid barcha ilmlarni, usul ul fiqh ilmini va shunga o'xshash ijthod qilish uchun shart bo'lgan ilmlarni, ya'ni oyatlarning sabab nuzulini, hadislarning aytilish sababi va o'rmini oliy darajada bilgan, taqvodorlik, adolatlilik kabi shaxsiy fazilatlar sohibi bo'lgan kishilar (mujtahidlar) ijthod qilishga xaqli bo'lganlar.

Ijthod asosan fiqhga oid masalalarga qo'llangan. Aqida va falsafaga oid masalalarda ijthod qilish mumkin bo'lmagan. XII asrdan ijthod eshiklari berk deb e'lon qilingan.

Islom dinida aqida tushunchasi. Islom shariatida ko'p tilga olinuvchi tushunchalardan biri «Aqida» bo'lib, u arab tilidagi "aqd", ko'plikda "aqoid" so'zlaridan olingan va uning lug'aviy ma'nosi - bir narsani ikkinchisiga mahkam bog'lashdir. Balog'atga etgan kishi e'tiqod qilishi, imon keltirishi, islom dinining zaruriyatlari shaklida tasdiq qilishi, qalbiga mahkam bog'lab olib, undan ajralishi mumkin bo'lmagan shariy etiqodiy hukmlardir.

Bu tushunchaga yanada kengroq ma'no beradigan bo'lsak, mustaqillikka erishgan halqimiz o'z oldiga qo'ygan maqsadi, bu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ezgu amallar, yaqinlarimiz va atrofimizdagi kishilarga nisbatan mehr-oqibat va hayrihohlik bilan munosabatda bo'lishimiz millat imonidir, asosiy aqidalaridir.

Islom aqidalarining asosi Qur'onda berilgan. Islom dinida asosan ikki oqim bo'lib, bular suniylik va shialik ekanligi haqida yuqorida aytib o'tgan edik.

Sunniylikda aqida yoki imon talablari ettitadir. Bular, Alloxning yagonaligiga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg'ambarlarga, oxiratga, taqdirga va qiyomat kuni barchaning qayta tirilishiga ishonishdir.

SHialikda esa beshta aqidaga imon keltiriladi. Bular; tavhid (Olloxning yagonaligi), Nubuvvat (payg'ambar)ga ishonish, adl (ilohiy taqdirning adolatlili) ga, imomat (imomlar hokimiyatini tanish), maod (oxirat)ga ishonish.

Aqidalarga iymon keltirib, o'z ma'naviy hayoti davomida e'tiqodli dindor albatta diniy urf-odatlariga amal qiladi va shu yo'l bilan hayot tarzini amalga oshiradi. Kishilar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar zaruriyatiga ko'ra shariat asosida bajarilishi shart, lozim, bajarilish-bajarilmasligi farqsiz turli ko'rinishlarga bo'linadi. Ularning ayrimlari ustida to'xtalib o'tamiz.

Farz, bu - islom shariatida "qil!" deb buyurilganligi shubhasiz bo'lgan amaldir. Farzning hukmlarini qilgan kishi savoblik, qilmagan kishi gunohkor bo'ladi. Farzni "Farz emas" degan kishi kofir hisoblanadi.

Farz ikki tur bo'ladi, ular: "**Farzi ayn**" va "**Farzi kifoya**"lardir. Birinchi turga xos bo'lgani hamma musulmonlarga bir xilda buyurilgan. Ularning miqdori qirq atrofida bo'lib, namozda 12 ta (oltita namozdan tashqarida, oltitasi namoz ichida), tahoratda to'rtta, tayammumda to'rtta, g'uslda uchta, ro'zada uchta, taom eyishda to'rttadir.

Farzi kifoya deyilganda oila a`zolaridan biri amal qilgan farz savobidan boshqalar ham bahramand bo`ladilar. Masalan, janozada ishtirok etish; Qur`onni to`liq yod olish va boshqalar.

Vojib, bu - islom dini shariatida “qil!” deb buyurilganligiga biroz shubha bo`lgan amaldir. Vojibning hukmi ham farzning hukmi, lekin vojibni “vojib emas!” degan kishi kofir bo`lmaydi. Sunniylik oqimida hanafiylik mazhabiga ko`ra vojib farz bilan sunnat orasidagi hukm sifatida ko`rsatiladi. Boshqa uch mazhabda vojibga o`rin berilmagan. Islom dinining beshta rukni hanafiylikda farz deyilsa, boshqa mazhablarda ham farz, ham vojib deyilaveradi.

Mustahab, bu - payg`ambarimiz goho qilib, goho qilmagan amallari. Mustahabning hukmi shundayki, uni qilgan kishi savoblik bo`ladi, qilmagan kishi gunohkor bo`lmaydi.

Harom, bu - islom shariatida “qilma!” deb qaytarilganligi shubhasiz bo`lgan amallar. Haromdan qaytgan kishi ulug` savoblik bo`ladi. Haromni “halol” degan kishi kofir bo`ladi. Musulmon inson uchun haromdan hazar qilish farzdir. Harom amallar: ota-onaga oq bo`lish, zinakorlik, ribo (sudxo`rlik), sehr-jodu va folbinlarga ishonish; o`g`rilik, bosqinchilik, qaroqchilik, poraxo`rlik, josuslik, chaqimchilik, yolg`onchilik, qotillik, nohaq qon to`kish, omonatga xiyonat, kishi vafot etganda dod-voy solib yig`lash, savdo-sotiqda g`irromlik, g`iybat, tuhmatchilik.

Ozuqa uchun foydalaniladigan haromlar: to`ng`iz go`shti, vahshiy hayvonlar, so`yilmasdan o`zicha o`lgan halol hayvonlar, jonliq so`yilganda oqqan qon, “bismilloh” aytmay so`yilgan halol hayvon go`shti, dinsiz (majusiylar, mushrik)lar so`ygan hayvon go`shtlari, mast qiluvchi va giyohvandlik moddalari. erkaklarga tilla narsalar taqish, ipak kiyim kiyish, ayollarga erkakcha kiyinish, tilla, kumush idishdan ovqatlanish, avrat joylarini ochib yurish ham harom qilingan.

Narkotik moddalar, giyohvand o`simliklar tayyorlash yoki o`stirish ham harom.

Musulmon bo`lmagan kishilarga sotish maqsadida maxsulot tayyorlash (masalan, cho`chqa boqish) ham, spirtli ichimliklar tayyorlanadigan joyga xomashiyo (uzum, bug`doy) sotish ham xarom qilingan.

Dunyo ne`matlaridan bahramand bo`lish, oila ta`minoti masalasiga ham jiddiy e`tibor berilgan. Islom diniga xos bo`lgan “**iqtisob**” tushunchasida bu dunyo ne`matlariga erishish ko`zda tutiladi. Unga ko`ra har bir musulmon kishi o`zi va yaqinlarini zaruriy narsalar bilan ta`minlash uchun harakatda bo`lib, turli hunar, xususan savdo-sotiq bilan shug`ullanishi kerak bo`ladi. Islom tushunchasiga ko`ra hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik va boshqa ishlar bilan mashg`ul bo`lib mablag` topish davlat maoshidan sofroq va afzalroqdir. Iqtisob Allohning marhamatiga umid qilib (tavakkul), o`zini-o`zi ta`min etishdan voz kechuvchi taqvodan afzaldir. O`z nafsini barcha narsadan tiyish - har qanday qotillik kabi gunohdir.

Islom dinida ibodat. Islom dinida ibodatga alohida e`tibor qilinadi. Ibodat so`zi arab tilidan tarjima qilinganda qulliq qilish, bo`ysunish, o`zini past olish, itoat qilish ma`nolarini beradi. Ibodat asosan Allohga nisbatan bo`ysunish, itoatda bo`lishdir. Allohga bo`lgan e`tiqod va muhabbatni ifodalash hamda amalda isbotlash uchun qilinadigan barcha botiniy va zohiriy amallardir. Fukaholar ibodatni tor doirada

olganlar. Unga ko`ra namoz, ro`za, haj, zakot, Qur`on qiroati, zikr, xayri-sadaqalar ibodatdir.

Ibodatda ham farz, vojib, sunnat, mustahab darajalari mavjuddir.

Ibodati hikmati ma`lum (ta`abbudiy) va hikmati noma`lum (g`ayri ta`abbudiy) ko`rinishlarga ajratiladi. Masalan, ro`za ibodatining sabr, chidam, sog`liqqa foydasi kabi hikmatlari ma`lum. Ammo namozning nima uchun peshinda to`rt, shomda uch, bomdodda ikki rakat farz bo`lganining hikmati ma`lum emas.

Islom dini shariatiga ko`ra jamoat bilan o`qiladigan namozning savobi ulug`roq hisoblanadi. SHuning uchun hoh masjidida, hoh uyda bo`lsin farz namozlarini jamoa bo`lib o`qishga da`vat qiladilar. Toshkentda 1994-yil nashr etilgan, Abduqodir Dada o`g`li qalamiga mansub “Tahorat, g`usl va namoz” nomli kitobcha (58-bet)da “farzandlar va ayollar bilan jamoat bo`lib, jamoatli namoz o`qisa bo`ladi. Faqat ayollar bilan erkaklar orasida bir saf qadar bo`shliq qolishi kerak”, - deyilgan.

Jamoat namozi orasida ulug`i - “sayyid ul-ayyom”, ya`ni kunlarning ulug`i bo`lmish juma kuni o`qiladigan namoz hisoblanadi. Juma kuni peshin namozi o`miga o`qiladi. Bu kuni imom-xatiblar namoz oldidan yarim saot chamasi mav`iza (diniy va`z) o`qiydilar. So`ng ikki bor azon aytilib, katta jamoat bilan namoz ado etiladi. Juma namozida peshin azoni aytilgach, to`rt rakaat sunnat namozi o`qiladi. So`ngra muazzin masjid ichida yana azon aytadi. Azondan keyin imom minbarga chiqadi. Minbarda Allohga hamd aytadi, kalimai shahodatni o`qiydi. Payg`ambarimiz Muhammad (a.s.v.)ga salovat aytadi. Qur`ondan bir-ikki va`z oyatlardan o`qiydi, odamlarga va`z-nasihatlar aytadi va musulmonlarni duo qiladi. Bu-Xutba deyiladi. Keyin mehrob tarafga borib, jumaning ikki raka`at farzini o`qishga kirishadi. Farz namozidan keyin yana to`rt raka`at sunnat namozi o`qiladi.

Juma namozining joriy qilinishi quyidagicha. Mufassir ulamolarning rivoyatlarida aytilishicha, Alloh taolo yahudiylarga shanba kunida boshqa ishlarga mashg`ul bo`lmay, faqat ibodat bilan shug`ullanishni buyurgan. Nasorolar esa, yakshanba kunini belgilab olganlar.

Juma kunini islom shakllangunga qadar arablar “aruba” deb nomlaganlar. Bu kunni birinchi bo`lib Ka`b ibn Luay juma deb nomlagan. Payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v.) Madinaga kelishiga qadar madinaliklar, ya`ni ansorlar (yordamchilar) “yahudiylar va nasorolar etti kunda bir bor to`planib ibodat qiladilar. YAHudiylar shanbani, nasorolar yakshanbani ixtiyor qilganlar. Biz “aruba”ni olaylik”, deyilar. As`ad ibn Zaroraning uyida to`planib, ikki raka`at namoz o`qib, zikr aytganlar. SHu kuni jam bo`lganliklari tufayli juma deb nomlaganlar, zero juma so`zining lug`aviy ma`nosi ham jam bo`lish deganidir. Bu voqea “Jum`a” surasi nozil bo`lishidan oldin sodir bo`lgan.

Qur`onning «Jum`a» surasining to`qqizinchi oyatida shunday deyiladi “Ey mo`minlar, qachon Jum`a kunidagi namozga chorlansa (ya`ni azon aytilsa), darhol Ollohning zikriga boringlar va oldi-sotdini tark qilinglar! Agar biladigan bo`lsangizlar mana shu (ya`ni Ollohning zikriga-Jum`a namozini o`qishga shoshilish) o`zlaringiz uchun yaxshiroqdir.”

So`zimiz yakunida namoz turlari haqida qisqacha to`xtalib o`tamiz.

1. Bomdod namozi : 2 raka`at sunnat, 2 raka`at farz.
2. Peshin namozi : 4 raka`at sunnat, 4 raka`at farz. 2 raka`at (so`ngi) sunnat.
3. Asr namozi: 4 raka`at farz.

4. SHom namozi: 3 raka`at farz. 2 raka`at sunnat.
5. Hufton namozi: 4 raka`at farz. 2 raka`at sunnat. 3 raka`at vitr vojib.

Bulardan tashqari:

Safar namozi. Kishi o`zi doimiy yashab turgan joyidan 90 kilometr joyga borsa, bu odam musofir hisoblanadi. Agar bu inson borgan jiyida o`n besh kundan kam turadigan bo`lsa, o`sha muddat ichida yoki yo`lda 4 raka`atli farz namozlarini 2 raka`at qilib qisqartirib o`qiydi. Sunnat namozlarini esa, imkoni bo`lsa ado etadi. 3 raka`atli namoz va vitr namozlarini qisqartirmasdan 3 raka`at qilib o`qiydi.

Iyd - hayit namozi. Ikki hayitdagi namozlar, ikki raka`atdan o`qiladi.

Qazo namozi. Bu – biror uzrli sabab bilan o`z vaqtida o`qilmagan namoz. Qazo namozida faqat farz namozlari o`qiladi.

Janoza namozi. Musulmon kishi vafot etgach, mayyit yuvilib kafanlanadi. So`ng masjidida yoki uyda, jamoat ishtirokida tobutga solingan mayyit yuqoriroq erga qo`yiladi va janoza namozi o`qiladi. Bu namozda sajda amali bajarilmaydi. Janoza duosini bilmaydiganlar qunut duosini yoki duo niyati bilan fотиha surasini o`qisa ham bo`ladi. Bu namozni asosan imomlar o`qiydi, boshqalar unga iqtido qiladilar.

Tarovix namozi. Bu namoz faqat ramazon oyida ado etiladi. Xufton namozidan keyin tarovix namozi, undan so`ng vitr namozi o`qiladi. Bu namoz 20 raka`atdan iborat. Tarovix namozi sunnat hisoblanadi.

Islom shariati asoslari haqida ma`lum bir tasavvurga ega bo`ldik. endi ajdodlarimiz diniy va dunyoviy ilmlarga ko`shgan hissalar haqida to`xtalib o`taylik.

Markaziy Osiyo buyuk mutafakkirlarining ma'naviy merosi.

«Bundan besh asr muqaddam Mirzo Bobur islom dinining asosiy ilmlari: ilmi hadis, ilmi kalom va ilmi fiqhning zabardast namoyondalari bo'lmish uch mo'tabar zot – Imom Buxoriy, SHayx Abu Mansur Moturidiy, Burxoniddin Marg'loniylarning ko'hna Turkiston farzandlari ekanini ta'kidlab, «Hazrati risolat zamonidan beri ul miqdor aimai islomkim (islom olimlarikim) Muvorounnahrdin paydo bo'libtur, hech viloyatdin mazmum emaskim, muncha paydo bo'lmish bo'lgay», deb faxrlangan edi»¹⁸.

Ajdodlarimiz ilmiy tafakkur borasida jahon ilm-faniga qo'shgan hissalarini tufayli qator fanlar yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarildi.

Prezidentimiz I.Karimov «Turkiston press» axborot agentligi muhbirining savollariga bergan javoblarida, jumladan shunday deyiladi: «Nega biz mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab....ulug' ajdodlarimizning tabarruk nomlarini tiklashga kirishdik? CHunki bu buyuk insonlarning aziz nomlari, o'lmas merosi muqaddas dinimiz bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ularni bir-biridan ajratib bulmaydi. Biz dinimizni bu ulug' nomlarsiz, bu ulug' nomlarni esa dinimizsiz tasavvur qila olmaymiz»¹⁹.

Darhaqiqat, islom ma'naviyati, aytish mumkin, asosan bizning ajdodlarimiz sayi - harakati bilan kamol topdi, rivojlandi.

Diniy va dunyoviy ilmlarga e'tibor ajdodlarimizning benazir fazilatlaridan biridir. Arablarning mamlakatimizga bostirib kelishi, aholining vahshiyona talanishi va qatliom qilinishi, mamlakat vayron qilinishi, xalqning qashshoqlashuvi, ijtimoiy – siyosiy beqarorlik hukm surgan bir davrda savodhon avlod orzusi bilan yashagan alloma ajdodlarimiz beadam faxrimizga loyiqdir.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, o'lkamizga arablarning yurishi hijriy 46, melodiy 666 yildan boshlandi va Qutayba ibn Muslimning faoliyati bilan islom dini xalqimiz ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylantirildi va keyingi ma'lumotlarga ko'ra 720-730 yillarda bizda islom dini to'la qabul qilindi.

Islom ma'naviyati rivojlanishida o'z asarlari bilan katta hissa qo'shgan ulamolar asosan Markaziy Osiyodan edi. Islom tarixida dastlabki madrasalar Buxoro, Samarqand, Nasaf, SHosh, Marg'lon shaharlarida ochilgan. Bu bilim yurtlarida dunyoviy ilmlar ham o'rgatilgan. Ular XI asrdan boshlab etakchi o'quv yurtiga aylangan, XI-XII asrlarda O'rta Osiyoning barcha yirik shaharlarida madrasalar bo'lgan. Bu madrasalarning ayrimlarida tibbiyot, aruz ilmi, falsafa, geografiya va boshqa fanlar o'rgatilgan.

Islom dinida «Islamun xuva ilmun»- Islom ilmdir, «Mavtul olimin – mavtul olamin» - olimning o'limi – olamning o'limi va boshqa hadislarida ilmga davat asosiy ta'limotlardandir.

Islom diniga oid asarlari bilan nom qozongan Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamaxshariy (1075-1144)²⁰ «Jorullox»-«Allohning qo'shnisi», «Butun dunyosining ustoz», «Xorazm faxri» nomlari bilan ulug'langan. U arab tili, adabiyot, geografiya, tafsir, hadis va fikrga oid 60 dan ortiq asar yaratgan. Bizgacha 20 ga yaqini etib kelgan. eng mashhur asari Qur'on tafsiriga bag'shlangan «Al-Kashshof an haqiqi it-tanziyl va uyun-il-aqoviyl fi vujux it-taviyl», yana «Al-Mufasssal», «Atvoqu-z-zahab», «Maqomat»,

¹⁸ Ислом зиёси ўзбегим сиймосида. «ТИУ» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2005.160-бет

¹⁹ «Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда», «Ислом зиёси ўзбегим сиймосида»-китобидан.218-бет.

²⁰ Замахшарий ҳақидаги маълумотлар Зоҳиджон Исломовнинг «Ислом маданияти ривожланишида аждодларимиз меросининг аҳамияти» номли мақоласидан олинди.

«Rabi`u-l-abror va nususu-l-axyor», «Muqaddimatu-l-adab», «Al-foiq fi g`aribi-l-hadis», «Asosu-l-bolog`a» kabilarni ko`rsatish mumkin.

Zamaxshariy fikricha inson kamolotidagi asosiy poydevor ilmdir. Xususan, u «ilmli bo`l yoki ilmga tayanib ish tutadigan bo`l, loaqal ilmni tinglab eshitadigan bo`l, biroq to`rtinchisi bo`lma, chunki kasodga uchrab halok bo`lasan» deb yozadi.

Ilmsizlik illat bo`lib, olim fikricha, ilmli kishilar jamiyatda peshqadam bo`lishlari kerak. Uningcha osmonu falakning ziynati yulduzlar bo`lganidek, eru zaminning ko`rkamligi olimlar bilandir. Yana, uning yozishicha «Lovullab yonayotgan olovni suv o`chirgani kabi nodon odamlardan chiqayotgan alangani hakimu oqil odamlar so`ndirdilar»²¹.

U o`zining «Atvoqu-z-zaxab fi-l-mavo`iz va-l-xutab» asarida insonlarni ezgulik va xayrli ishlarga undaydi. «Insonning asl otasi uning adabidir. Taqvo - parhezkorlik esa insonning asl onasidir. O`zingni shu ikki mehribon murabbiy bag`riga topishir va ulardan zinhor ayrilma. SHundagina seni tangri taolo o`zining ne`matlari bilan serob qiladi hamda hayoting fayzu barakatli bo`ladi», - deb yozadi olim.

Zamaxshariy «Maqomat» asarida shunday yozadi: «Eng baxtsiz odam kim deyilsa, men aytardimki, u mol-dunyosini saqlab, ehtiyot qiluvchi, qadr-qiymatini paymol qilishsada, boyligi but bo`lishini istovchi kishidir. eng baxtli odam shuki, u xushsuhbat va fayz-futuhli bo`lib, o`z omborchisiga doimo boyligidan, xazinachisiga doim muhtojlarga yordam ko`rsatishni amr qiladigan, o`z nafs havosi jo`sh urganda jim bo`l, deb bosib qo`yadigan, nafsoniyati engillik qilganda uni engib maqtoov va tahsinga sazavor bo`ladigan kishidir»<sup>22</sup>. Olim do`st tanlashda yanglishmaslik, qo`ldan yaxshilik kelsa avvalo o`z yaqinlariga ko`rsatish, halol va pok bo`lishga chaqiradi.

Islom ta`limotida hadislar katta ahamiyatga ega. Islom tarixida ulug`lanib, buyuk muhaddis nomiga sazavor bo`lgan olti mutafakkairdan uchtasi Mavorounnaxrdandir. Bu olti muhaddislar orasida bironta arab yo`q.

Diniy ilmlar vujudga kelgan ob`ektiv ehtiyojlar tufayli rivojlandi. Xususan, payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v.) zamonlarida nozil bo`lgan mutashabih, ya`ni ma`nolari tushunarsiz oyatlar haqida u kishiga savollar bilan murojaat qilar edilar. Bu oyatlar xaqida bahs ko`pincha ixtiloflar kelib chiqishiga sabab bo`lar edi. Jaloliddin as-Suyutiy «Savnul mantiq» asarida shunday guvohlik beradi: «Ixtiloflar avj ola boshlagach Rasululloh (s.a.v.) qalblarga shak-shubha tushishiga sabab bo`layotgan mutashabih oyatlar haqida bahs yuritishni keskin ta`qiqlab quyganlar». SHu tariqa odamlarda kalom ilmiga moyillik paydo bo`lgan.

Islom ilohiyoti ilmi bo`lgan kalom VIII asrda arab xalifaligida paydo bo`ldi.²³ Kalom ilmiga xos bo`lgan uslub va mavzular majmui birinchi marta al-Ja`d ibn Dirham (742 y. qatl etilgan) ijodida uchraydi. Uning shogirdi Jaxm ibn Savfon as-Samarqandiy (745 y. qatl etilgan) ustozining g`oyasini davom ettirdi.

Kalom ilmi paydo bo`lgan dastlabki kezlarda salaf ulamolari unga keskin qarshi bo`lganlar. Ular kalom ilmiga quyidagi omillar asosida qarshilik bildirganlar:

1. «O`zi»ning Kitobi va Rasulining sunnati bilan Alloh Taolo musumonlarni Allohni tanish va tavhidni isbotlash uchun boshqa manbalarga murojaat qilishdan behojat qildi.

²¹ М.Замахшарий.Нозик иборалар.Т.;камалак.1992 59-бет.

²² М.Замахшарий.Мақомат.Қоҳира.1896.14-бет.

²³ Мутакаллимлар ва Мотуридий ҳақидаги маълумотлар, Саидмухтор Оқилоннинг «Абу Мансур ал-Мотуридийнинг Мовароуннаҳрда ақида илмининг ривожигаги ўрни» мақоласидан олинди.

2. Islom dinida Payg'ambarimiz (s.a.v.) yoritib bermagan va bayoni komil tushuntirilmagan na asliy va na fa'riy birorta masala ham qolmagan. Bunga quyidagi oyatni dalil qiladilar: «Bugungi kunda Men sizning diningizni mukammal qilib berdim. Sizga ne'matimni batamom qildim. Va sizga Islomni din deb rozi bo'ldim («Moida» surasi, 3-oyat).

3. Salaf ulamolari kalom ilmining masalalari, terminlari va bahslari bilan shug'ullanish foyda bermaydigan ortiqcha gap sotish deb hisoblaydilar. U bilan shug'ullangan inson quvvatini va vaqtini zoe ketkazadi. CHunki Alloh Taolo o'z bandalariga hozirgi va kelajak davrda kerak bo'ladigan barcha narsalarni bayon etgan.

4. Kitob va sunnatda keltirilmagan kalom ilmi atamalarini qo'llash fitnalar, qo'rquv va gumonlarga sabab bo'ladi (Suyutiy. «Savnul mantiq»).

Kalom ilmiga salbiy munosabat bildirgan ulamolar Abu Hanifa, Abu YUsuf, Imom SHofe'iy, Imom Ahmad ibn Hanbal, Abu Lays al - Hofizlar edi.

Kalom ilmiga sovuq munosabatning sababi shundaki, ulomolar aslida mu'tazaliylar²⁴ ta'limotiga qarshi edilar. SHuning uchun keyinchalik kalom ilmiga munosabat ijobiy tus ola boshladi.

Bu ilm tarafdorlari quyidagi hujjatga tayanganlar:

1. Kalom ilmi taba'a tobe'inlar zamonida zohir bo'lgan va bu ilm ma'qul deb tan olingan. SHu nuqtai nazardan bu ilmni bid'ati hasana deb hisoblash kerak.

2. Aqliy dalillar din asoslarining sahirligini va haqiqatligini johillarga tushuntirish uchun zarurdir.

3. Agar dinning asosi aql emas, faqat ergashishlik deb belgilansa, bu Qur'onga zid fikrdir. CHunki Alloh taolo Qur'oni Karimda taqlid qilishni qoralagan va insonlarni nazar solib aql yuritishga chaqiradi.

Keyinchalik kalom ilmi tarafdorlari ko'payib bordi. Abu YUsuf al-Pazdaviy shunday yozadi: «Kalom ilmi farzi ayn bo'lgan usuli dinning sharhidir. Bu ilm bilan shug'ullanish shu qadar zarurki, uni e'tiqodlililardan o'rganish muboh, hatto farzi kifoya darajasidadir».

Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy «Ihyou ulumid-din» asarida shunday yozadi: «...Arablarning zulmi va ularning yo'lto'sarliklari paydo bo'lishi bilan hajga boruvchilar yo'lga qo'riqchilar ijaraga olinib boshladi. Agar arablar dushmanliklarini tark etsalar, qo'riqchilarni ijaraga olish shart bo'lmas edi. Bid'atchi ham o'zining botil da'volarini tark qilsa, sahobalar davridagi ilmlar kifoya qilib, kalom ilmini o'rganishga ehtiyoj tug'ilmasdi. SHunday ekan, mutakallimlar dindagi darajasini bilsin, ularning dindagi o'rni haj yo'lidagi qo'riqchi kabi. Agar qo'riqchi faqat qo'riqchilik uchun ma'sul bo'lsa, u hojilar qatorida bo'lmaydi. Mutakallim ham oxirat yo'lidan yurmasa, qalbini yomonliklardan asramasa, uning salohiyati bilan shug'ullanmasa, faqat munozara va mudofaa uchun harakat qilsa, din ulamolari safida bo'lmaydi»²⁵.

Sa'diddin at-Taftazoniy o'zining «Maqosid at-tolibin» nomli asarida shunday yozadi: «Kalom ilmi diniy aqid usullarini ishonchli dalillar asosida anglashni o'rgatadigan ilmdir. U bilan shar'iy, nazariy aqidaviy masalalar hal qilinadi. Uning natijasi imonga komil ishonch

²⁴ Муътазалийлар – ажралиб чиққанлар, узоклашганлар. Асосчилари (VIII а) Восил ибн Ато (699-748) ва Амр ибн Убайд (762 й.в.э.). Улар ўз гуруҳи билан устозлари Хасан ал-Басрий (728 й.в.э.) мактабидан ажратилиб чиққанлар. Улар Куръонни мажозий талқин қиладилар. Ирода эркинлиги ҳақидаги таълимотни асосладилар ва ривожлантирдилар. Халифа Маъмун (813-833) бу таълимотни давлат дини, деб эълон қилган.

Халифа Мутаваккил (847-861) бу таълимот шаккоклик, деб эълон қилинди. 11-14 асрларда йўқ бўлиб кетди.

²⁵ Имом Абу Ҳомид Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Ғаззолий. Ихёу улушид-дин. Илм китоби, биринчи китоб. Т., «Моваруннахр» - 2003 й, 57-бет.

bilan ziynat berish, foydasi esa bu dunyoda intizomli hayot kechirish va oxiratda azob-uqubatdan xalos topishdir. SHunday ekan, kalom ilmi sharaflilimdir».

Nasaflik alloma Abul Mu'in an-Nasafiy o'zining «Tabsirat al-adilla ala tariqati Abu Mansur al-Moturidiy» nomli asarida Movarounnahrda yashab ijod qilgan olimlar haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar beradi. Bu asarda mutakallim allomalar Abu Bakr ibn Ishoq ibn Sabih al-Juzjoni, Ash-SHayx Abu Nasr Axmad ibn al-Abbos ibn al-Husayn al-Iyodiy haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Asarda yozilishicha, buxorolik mashhur olim Abu Xafs al-Kabir al-Buxoriyning (832G`1429 y.v.e.) nevarasi, Mavorounnahr va Xurosonda sadr al-fuqaho unvoniga ega bo'lgan olim Abu Hafs al-Ajaliy al-Buxoriy shunday degan: «Abu Hanifaning mazhabi to'g'ri yo'l ekanligiga ... bir isbot shuki, ushbu mazhabda Abu Ahmad al-Iyodiy e'tiqod qilgan. CHunki Abu Ahmad al-Iyodiy botil mazhabga e'tiqod qilishi mumkin emas edi».²⁶ (Abu Hanifa asos solgan va boshqa fikxiiy mazhablar haqida quyiroqda to'xtalamiz).

Nasafiy yana qator movarounnahrlik ulamolar haqida o'z asarida ma'lumotlar bergan. Xususan, qodiy Abu Abdulloh Muhammad ibn Aslom ibn Muslama ibn Abdulloh ibn Mug'iyra, «Ma'olim addin», «Kitob al-i'tisom» va «Kitob radd ala al-karromiya» asarlarining muallifi Abu Bakr Muhammad ibn al-YAman as-Samarqandiy va boshqalar diqqatga sazovordir.

Lekin Nasafiy Abu Mansur al-Moturidiy haqida alohida bir ehtirom bilan shunday yozadi: «Biz yuqorida zikr qilgan olimlarning barchasi bo'lmaganda ham, Abu Mansur al-Moturidiy ularning barchasining o'miga kifoya qilar edi. U shunday zotki, ilm ummonining eng qa'riga sho'ng'ib, undan duru-gavharlarni olib chiqdi va diniy hujjatlarni o'zining fasohati, mislsiz zakovati bilan ziynatladi. SHuning uchun u vafot etganda, ash-SHayx Abul Qosim as-Samarqandiy uning qabri ustiga «Ushbu qabr ilmlarni nafaslarigacha qamrab olgan, uni tarqatishda ko'p zaxmatlar chekkan, u qoldirgan meros ko'p madh qilingan va o'zining umr daraxtidan ko'plab mevalar tera olgan ulug' zotning qabridir», deb yozishlarini buyurgan edi».²⁷

Moturidiy Qur'on tafsiri sohasida ham olib borgan ijodiy izlanishi ulamolar orasida katta shuhrat qozongan. YAna Nasafiy bergan ma'lumotga murojaat qilsak, u quyidagicha guvohlik beradi: Moturidiy «Ta'vilot al-Qur'on al-Karim» asari o'z davrida mashhur hisoblangan va ko'plab olimlar ushbu asarni quyidagicha tavsif bilan yuksak baholaganlar. «Moturidiy imomlarning ulug'i va millatning ustuni edi. Uning Qur'onga yozgan tafsiri barcha chigalliklarni ochib beruvchi, inson qalbidagi shubhali qora bulutlarni xaydovchi hamda nihoyatda balig' vasf ila yaratilgan asardir. Alloh shunday kitobni yozgan zotga o'z salomini yo'llasin».²⁸

Markaziy Osiyo ulamolarining islom huquqshunosligi sohasida olib borgan ijodiy izlanishlari haqida davrimizning etuk olimi, Toshkent Islom Universiteti dotsenti, yuridik fanlari doktori Abdulhakim SHar'iy Juzjoni asarlari diqqatga sazovordir. U kishining «Fikh ilmi rivojida O'rta Osiyo faqihlarining o'mi»²⁹ nomli maqolasida quyidagi ma'lumotlar berilgan.

²⁶ Табсира. 357-бет.

²⁷ Табсира..358-бет.

²⁸ Насафий. Табсира. 359-бет.

²⁹ Тошкент Ислон Университети. Малакка ошириш ва кадрларни кайта тайёрлаш факультети материаллари. Тошкент – 2006 йил.

IX-X asrlarda Movarounnahrda sodir bo'layotgan ijtimoiy – siyosiy jarayonlar huquqiy masalalarga jiddiy e'tibor berishni taqazo qilar edi. Samoniylar amaldorlari zo'ravonliklaridan aholi qattiq aziyat chekar, shu tufayli faqih guruhlari turli ijtimoiy tabaqalarining himoyachisi sifatida chiqqanliklari aholi orasida ularning obro'-e'tibori oshib borishiga sabab bo'ldi. Bu davrda fiqh ilmi shakllanish, rivojlanish jarayonida edi.

Qoraxoniylar davri (999-1212)ga kelib Movarunnahr va Xuroson aloqalari zaiflashuvi natijasida mavjud maktab-madrasalar mustaqil rivojlana boshladi. Katta shaharlarda mustaqil boshqaruv kuchaydi va mamlakat ijtimoiy hayotida ulamolar guruhining ta'sir doirasi kengaydi. Fiqh sohasida Buxoro va Samarqand haqiqiy ilm markaziga aylandi. Bu shaharlarda Nasaf, Marv, Farg'ona faqihlari ham faoliyat olib bordilar.

Ma'lumki, har qanday g'oyaviy – huquqiy va ijtimoiy – mafkuraviy qarashlar davlat boshliqlari tomonidan qo'llab – quvvatlangan vaqtda jamiyatda tez o'z o'rniga ega bo'ladi. Fiqh ilmi rivoji ham Qoraxoniylar hukmdorlarining fiqh – islom huquqshunosligi va qonunlariga qiziqishi va huquqiy normalarni amaliy hayotga tatbiq etilishi natijasi edi.

Qoraxoniylar davlat rahbarlari, ayniqsa Ibrohim Mahmud Tamg'ochxon diyonatli kishi bo'lib, faqihlar fatvosini olmaguncha hech bir jinoyatchini jazolamas, mol-mulkini musodara qilmas edi. U Bog'dod xalifasi bilan do'stona munosabatda bo'lgan, unga Imomud-davla, Tojul-milla, Qahful – muslimin, malikul – mashriqi vas-sin tamg'och Bug'roxon (davlat imomi, millat toji, musulmonlar panohi, SHarq Xitoy xoqoni Tamg'och Bug'roxon) kabi unvonlar berilgan edi.

Muhammad Avfiy «Libobul-albob» asarida keltirishicha Ibrohim Mahmud Tamg'ochxon diniy olimlarga izzat va hurmat ko'rsatgan, islomiy qonun – qoidalarga jiddiy amal qilgan. U xalq tinchligini saqlash, mol-mulk daxlsizligini himoya qilishga katta e'tibor qaratib, jinoyatchilarni shafqatsiz jazolagan.

Bu davrda mahalliy maktablar ishiga xalqning ehtirom bilan munosabatda bo'lishi, o'quv yurtlari davlat himoyasi ostida bo'lishi natijasida bu ilm maskanlari rivojlanib katta ilmiy madrasalar darajasiga ko'tarilgan. Son jihatdan ko'payib borayotgan maktablarning katta harajatlari vaqf mulklaridan tushgan daromadlar hisobidan ta'minlangan. Sahovatli davlat arboblari, badavlat kishilar o'z hisoblaridan karvonsaroylar, do'kon va hammomlar qurib, bu inshootlarni va ba'zan o'z erlarini madrasalar vaqf mulki hisobiga o'tkazar edilar. Mudarris, mutavalli, tolibi ilm va boshqa madrasa xodimlari maoshlari shu mulklar daromadidan to'langan. Ibrohim Tamag'ochxon tomonidan yozilgan vaqfnomada belgilanishiga ko'ra Samarqand madrasasi mutavallisi (idora qiluvchisi)ning bir yillik maoshi 2000 dirham, fiqh mudarrisi maoshi 3600 dirham, adabiyot fanlari mudarrisi maoshi 1200 dirham, Qur'on Karim mudarrisi maoshi 1200 dirham va toliblar maoshi 360 dirham bo'lgan. O'sha davrdagi narx- navoga ko'ra tolibi ilmning bir oylik maoshiga 1 qo'y va 45-60 ta yopilgan non sotib olish mumkin bo'lgan.

Turk tadqiqotchi olimlari chiqargan hulosaga ko'ra hikoya qilinayotgan davrda 300 ga yaqin faqih mavjud bo'lib, 150 dan ortiq fiqhiy asarlar, 20 ta fatovo (fatvolar majmualari) yozilgan, ulardan 98% Xanafiy mazhabiga tegishli bo'lgan.

Afg'onistonlik tarixchi olim Mir G'ulom Muhammad G'ubor «Afg'oniston tarix o'zanida» nomli muhim kitobida bergan ma'lumotlarga ko'ra, o'sha davrda faqihlar faqat davlat boshqaruvida ishtirok etish bilangina cheklanib qolmay, ba'zan elchilik vazifasini

bajarganlar, muhim ishlarda maslahatchi bo'lganlar, sud ishlari esa butunlay ular ixtiyorida bo'lgan.³⁰

Qoraxoniylar davridan tortib Temuriylar davrigacha sud ishlari mashhur faqihlarga topshirilgan. Burhoniddin Marg'inoniy avlodlari, shayxul-islomlik vazifasini hatto merosiy shaklda bajarib kelganlar. Ular ba'zan siyosiy ixtiloflarni hal qilish bo'yicha ham faoliyat olib borib, Mirzo Ulug'bek va Mirzo Bobur homiylari sifatida sadoqat bilan xizmat qilganlar

A.SHar'iy Juzjoniy aytishicha, faqihlarga yaratilgan sharoit, ayniqsa davlat arboblari tomonidan ilm ahliga ko'rsatilgan yuksak ehtirom, targ'ibot va tashviqot, O'rta Osiyoda faqihlar sonining ko'payishi va Hanafiy mazhabining rivojlanib yoyilishiga sabab bo'lardi. Amir Temur davrida (1370-1405) islomga davlat dini maqomining qaytarilishi yangi ulamolar tabaqalarining shakllanishiga olib keldi.

Muhammad Ibn Ahmad an-Nasafiyning" Jaloliddin Munkabirniy (Manguberdi) siyrati" nomli asaridan olib berilgan alloma Qazviniiy ma'lumotiga ko'ra XII-XIII asrlarda Buxorolik "Oli Moza" (Moza oilasi) ning buyuk imomi va raislaridan biri bo'lmish Sadri Jahon Burhoniddin Muhammad va uning avlodlari himoyasi ostida 6000 faqih hayot kechirib, ularning barchasi Hanafiy mazhabiga mansub bo'lganlar. 674 hijriy yilda 4000 faqih ular ko'rsatgan yordamdan foydalangan.

YUqorida ko'rib o'tildiki, islom dini Arabistonning Xijoz viloyatida vujudga kelishiga qaramay uning ilmiy-ma'naviy jihatlarining shakllanishi va rivojlanib ma'naviy qudratga aylanishida asosan Markaziy Osiyo mutafakkirlarining xizmati katta bo'ldi. Hattoki arab tili muammolarini hal etishda ajdodlarimiz salmoqli hissa qo'shdilar. Ammo alloma olimlarimiz faqat din sohasidagi ilmlar bilangina cheklanib qolmadilar. Ularning dunyoviy ilmlar rivojida ham tutgan o'rinlari katta bo'lgan.

Quyida shu haqda fikrlaymiz.

Tarixiy ma'lumotlarga murojaat qilsak, 992 yil SHimoliy va Janubiy Xorazm hukmdorlari o'rtasida bo'lib o'tgan urushda SHimoliy Xorazm hukmdori Ma'mun ibn Ma'mun g'alabaga erishadi va Xorazmshoh hukmdori sifatida Gurganchni poytaxt deb e'lon qiladi.

Ma'mun ibn Muhammad (992-997) .Ali ibn Ma'mun (997-1009)lar davlat mustaqilligini yanada mustahkamlab, uning harbiy qudratini oshirganlar. Xurosonda tashkil topgan G'azna podsholigi, arab xalifaligi, Kiev Rusi ham uni tan olgan. Ma'muniylar davlati kengayib, Sirdaryo, Kaspiy (Xozor) dengizi, Volgabo'yi oraliqlarini ham o'z ichiga olgan. Davlatlararo savdo-sotiq, siyosiy, ijtmoiy aloqalar o'z navbatida o'lkada ilm-fan, madaniyat rivojiga ham turtki bo'ldi. Xorazmda osoyishtalik hukm surishi qo'shni mamlakatlar olimlari, san'atkorlari, shoirlari e'tiborini tortar edi.

Xorazmshoh Abu-l-Abbos Ma'mun saroyida falsafiy tafakkur, oliyjanob qalb egasi va ma'rifatparvar Abu Husayn Ahmad Muhammad as-Suhayli nomli vaziri bo'lib, Xorazmshohning o'zi ham falsafaga moyil va ilm ahliga muruvvatli edi. SHuning uchun bu erda ko'plab olimu fozil kishilar yig'ilgan edi. Ular jumlasiga Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, Abu-l-Xammor, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr ibn Iroq va boshqalar kirar edi.

Bu olimlar,va yana Abu Said Ahmad ibn Muhammad ibn Miskavayh, Abu Mansur as - Saolibiy, Ahmad Muhammad as-Sahriy, Zaynuddin Jurjoniy, Abdulkarim Zirg'oniy, Abu Abdulloh al-Vazir, Abul Xasan Ma'mun, Abu Muhammad Xorazmiy, Abduavval ibn

³⁰ М.Фулломмухаммад Губор .Афғонистон тарих ўзанида .1-жилд.115-бет.Кобул.1967.

Abdusamadiy, Abu Azoq ibn Baxnom, al Kosiy, Abu Abdulloh Iloqiy, Abu Abdulla an-Nasaburiy al-Xorazmiy, al –Xamdoniy, Ihmad Masuriy, Abu Muhammad Rakkoshiy, al-Xorazmiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abubakr Muhammad Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad As-Suxayl -al-Xorazmiy kabi qator olimlar matematika, astronomiya, astrologiya, tilshunoslik, musiqa, tarix, ruhiyot, ta`lim-tarbiya, musiqa, geografiya, geodeziya, tipografiya, mexanika va boshqa fanlar sohalari bilan shug`ullandilar va bu fanlar rivojiga salmoqli hissa qo`shdilar. Xorazmshoxlar tashkil etgan ilm maskani “Baytul hikma”, “Majlisi ulamo”, “Dorul hikma va maorif” deb nomlandi.

Mazkur akademiya, ya`ni ”Majlisi ulamo” olimlariga matematika va astronomiyadan ustozlik qilgan o`rta osiyolik mashhur matematik, tabiatshunos olim Muso ibn Muhammad al-Xorazmiy (780-850) qator asarlar yozib qoldirgan va bu asarlar XI asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan.

Uning yaratgan asarlari: “Qisqargan sind hind”, “Trigonometrik jadvallar”, “Quyosh soatlari haqida risola”, “Musiqa bo`yicha risola”, “Tarix haqida”, “Er surati kitobi”, “Al jabr”, “Al – kitob val muxtasar fi hisob al-jabr vaal muqobala” va boshqalar. Algebra – “Al jabr va muqobala” bosh so`zining lotincha talaffuzi va “Dixi Algoritmus” (“dediki al - Xorazimiy”), ya`ni “Al-Xorazmiy” nomining lotincha aytilishidan vujudga kelgan.

Al-Xorazmiy oddiy tenglamalar echimining va maydon sathini o`lchashning oson va oddiy usullarini ko`rsatdi. U matematik usulni hatto huquqshunoslikka tatbiq qildi. Olim geografiyaga oid “Kitobu surat il aro” asarida uzoq yillar davomida olib borgan izlanishlaridan chiqargan xulosalarni umumlashtirib, Erning aholi yashaydigan qismi xaritalarini tuzdi, shaharlar o`tmashgan joy koordinatalari – uzunlik va kenglik shakllarini ko`rsatib berdi. U yaratgan xaritada er etti iqlimga ajratilgan. Olimning geografiyaga oid qarashlari SHarq va G`arbda bu ilm rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo`ldi.

Xorazmiy “YAhudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash” haqidagi tarixiy asari, astrolobiyaga oid asarlari ma`lum. Mutaфakkir Hindiston, eron, O`rta Osiyo o`tmish madaniyatidan atroflicha va chuqur bilimga ega bo`lgan, uning “Majusi” laqabi zardushtiylik diniga aloqadorligini ko`rsatadi.

Abu Nasr Forobiy (873-950) SHarq faylasufi va entsiklopedist olimi. U hijriy 260 yilda Aris daryosi Sirdaryoga quyiladigan joyda SHosh-hozirgi Toshkentdan 200-260 km shimoliy – g`arbda joylashgan Forob (O`ror) degan joyda tug`ilgan. Buxoro va Samarqandda ta`lim olgan. Arab xalifaligining markazi – Bag`dodda o`qishni davom ettirgan, umrining oxirgi yillarida Halabda, so`ngra Damashqda yashagan va shu erda 950 yili vafot etgan.

Forobiy o`rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarini o`z ichiga oluvchi 60 dan ortiq risola yaratgan. Uning ilmiy izlanishlari nazariy va falsafiy masalalarga taalluqli bo`lgan.

Forobiy o`z ilmiy izlanishlarida, xususan, «ilmlarning kelib chiqishi haqida», “Ilmlarning tasnifi haqida” risolalarida o`z davrida ma`lum bo`lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tartibi, tabiati va tafsilotini ko`rsatib berdi. Ilmlarning ichki tuzilishi va tizimini baholashda tabiat va inson organizmiga xos bo`lgan tabiiy jarayonlarni o`rganuvchi ilmlarni birinchi o`ringa qo`ydi.

Forobiy tasnifi bo`yicha umuman ilmlar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Til haqidagi ilm. U etti bo`limdan iborat bo`lib, grammatika, poetika, to`g`ri yozuv va boshqalarni o`z ichiga oladi;

2. Mantiq. Sakkiz bo`limdan, jumladan, tushuncha, muhokama, xulosa hamda muzokara metodiga taalluqli sillogistika, dialektika, sofistika va boshqalardan iborat besh bo`limni o`z ichiga oladi.

3. Matematika. Etti mustaqil ilm: arifmetika, geometriya, optika, sayyoralar, musiqa, og`irlik, mexanika, haqidagi ilmlardan iborat.

4. Ilm - al tabiiy va ilm al – ilohiy – tabiiy va ilohiy ilmlar yoki metafizika.

5. Siyosat ilmi (ilm al –madaniy-shahar haqidagi ilm, shaharni boshqarish ilmi), huquqshunoslik (fiqh) va musulmon teologiyasi (Kalom)

Forobiyning talqiniga ko`ra fanlar, umuman bilim borliqdan kelib chiqib, insonning ularga bo`lgan ehtiyojining o`sib borishi va borliqni uzoq vaqt o`rganish jarayonida muttasil va izchil to`planib boradi. Forobiy qarashlarida shu narsa diqqatga sazovorki, uningcha turli ilmlar bir-biri bilan bog`liq va dunyoni bilishga hizmat qiluvchi yagona halqani tashkil etadi. U SHarq mamlakatlarida ulug`lanib, «Al-muallim as-soniy» (“Ikkinchi muallim”) - SHarq Arastusi deb nom olgan.

Abu Rayxon Beruniy (973-1048)-xorazmlik mashhur entsiklopedist, mutafakkir, o`rta asr ilmining turli sohaları – tarix, matematika, astronomiya, meditsina, mineralogiya, geografiya kabi ilmlarga oid 200 ga yaqin asarlar muallifi. Beruniy ijodiy faoliyatida antik va o`z davri fanlari erishgan yutuqlarini umumlash tirishga, tajriba, eksperiment va kuzatish metodlarini keng qo`llashga harakat qildi. U o`zining dastlabki “Yodgorliklar” asarida turli tabiiy hodisalarni sababli bog`lanishlar asosida talqin qiladi. “Hindiston” asarida hind falsafasidagi ilg`or tabiiy-ilmiy qarashlarga hayrihohlik bildiradi.

Beruniy osmon jismlari harakatini o`rganish asnosida geotsentrik nazariya kamchiliklarini ko`rsatib, geliotsentrik qarashni yoqlashga harakat qiladi.

“Geodeziya”, “Mineralogiya”, “Ma`sud qonuni” asarlarida Beruniy ilmiy xulosalar empirik kuzatishlarga, aniq dalillarga tayanish pozitsiyasini yoqlaydi. Dori–darmonlar, ularning xususiyatlari haqidagi “Farmokognoziya” asarida u ilmiy haqiqatni bilishda qiyosiy metodga katta ahamiyat beradi.

Olim bilish jarayonida hissiy bilish- sezgi, idrok, xotira kabilarga e`tibor berib, ularsiz tabiat hodisalari haqida tasavvur hosil qilish mumkin emasligini ta`kidlaydi. Beruniy tabiat fanlarining turli sohalarida, geometriya, trigonometriyada bir qancha yangi fikrlar, kashfiyotlarni olg`a surdi va bu kashfiyotlar o`rta asrlar sharqida uzoq yillar fan rivojini belgilab berdi.

Mutafakkirning falsafiy qarashlari deistik xarakterga ega. U Allohni birinchi yaratuvchi sifatida e`tirof etadi. Tabiiy fanlarni esa ichki real moddiy o`zgarishlarga, determinizmga asoslanuvchi modda ko`rinishlari sifatida talqin etadi. Beruniy koinotda Erdan, bizning hayotimizdan tashqari yana boshqa dunyolar mavjudligi, harakat ziddiyatga asoslanishi kabi ilmiy qarashlarni ilgari suradi.

O`z ijtimoiy qarashlarida Beruniy jamiyatda til insonlarning birgalashuvga bo`lgan ehtiyoji tufayli kelib chiqqan, deydi. U hunar, savdo-sotiq, mamlakatlararo madaniy - ilmiy aloqalarni kuchaytirish ijtimoiy hayotda ilm-fan rivoji va tutgan o`mini oshirish tarafdori bo`lgan.

Olim mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashiga bog`liq, insonning baxti uning bilim va ma`rifatida, deb biladi.

Beruniyning tarixga bag`ishlangan asari “Xorazmning mashhur kishilari” bo`lib, bu asar “Xorazm tarixi” deb ham nomlanadi.

O`rta asrlarda o`zining yuksak ilmiy izlanishlari bilan mashhur bo`lgan olimlardan yana biri Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Sino (980-1037) O`rta Osiyolik faylasuf, tabiatshunos va ensiklopedist olim bo`lgan. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog`ida tug`ilgan. Boshlang`ich ma`lumotni otasidan olgan, yuqori ilmlarni esa Notiliydan olgan.

17 yoshidayoq mashhur tabib sifatida tanilgan Ibn Sino 996 yili Buxoroga keladi, amir Nuh Ibn Mansur Somoniy (976-997) saroyiga taklif qilinadi. Buxoroda somoniylar sulolasi tugatilgach, 1002 yili Gurganchga, xorazmshoh Abu Xasan Ali Ibn Ma`mun (997-1009) saroyiga keladi. Keyinchalik u erda Ma`mun akademiyasining eng faol olimlaridan biriga aylandi. 1011 yili Sulton Mahmud G`aznaviy ta`qibidan qochib, avval SHimoliy Xurosondagi Obivard shahriga, u erdan Nishopurga, so`ng Gurganchga, Sulton Qobus ibn Vashmgir Ziyoriy saroyiga boradi. 1014 yili Rayga, shoh Majdud-davla Rustam Buvayhiy (997-1029) saroyiga kelib, 1019 yili uning vaziri lavozimiga ko`tariladi. 1019 yili SHamsuddavla vafot etgach, Ibn Sino ayblanib, hibsga olinadi. Hibsdan qutulgach, 1023 yili Isfahonga Alouddavla Kakuya (1008-1041) huzuriga keladi. SHu erda hizmat va ijodiy mehnat bilan shug`ullanib, 1037 yili Hamadonda vafot etadi va o`sha erda dafn etiladi.

O`zining darbadar hayotiga qaramay u yaratgan asarlari 280 dan oshadi, ammo bizgacha ulardan 160 ga yaqini etib kelgan. Din masalasida Ibn Sino e`tiqodli bo`lib, Allohni tan olgan. Uning qarashlriga ko`ra xudo va borliq bir-birini inkor etmaydi, ular bir butundir.

Ibn Sino antik dunyo falsafiy va ilmiy merosi, avvalo Aristotel` ta`limotining SHarq va Evropa mamlakatlarida tarqalishida muhim o`rin tutadi. Olim o`zining 5 jildlik "Tib qonunlari" asari bilan tibbiyot ilmi rivojiga katta hissa qo`shdi. U Aristotelning mantiq, fizika va metafizikasini mustaqil ravishda rivojlantirdi.

Ibn Sino asarlaridan quyidagi namunalarni sanab o`tish mumkin:

- 1."Kitob ash-shifo"- falsafiy ensiklopediya;
- 2."Kitob an-najot"- falsafiy asar;
- 3."Donishnoma"- fors tilida falsafiy asar;
- 4."Geometriya haqida risola";
- 5."Arifmetikadan qisqartma";
- 6."Kuzatish asboblari";
- 7."Samoviy jismlar haqida risola";
- 8."Tib qonunlari" - tibbiy ensiklopediya;
- 9."Iksir haqida risola";
- 10."YUrak dorilari"-tibbiyotga oid;
- 11."Tibbiy urjuza"-tibga oid she`riy doston;
- 12."Zararlarni yo`qotish"-sog`liqni saqlashga oid;
- 13."Solomon va Ibsol"-falsafiy qissa;
- 14."Hay ibn YAqzon"-falsafiy qissa;
- 15."Mantiq bo`yicha urjuza"-mantiq bo`yicha she`riy asar;
- 16."Musiqi ilmi";
- 17.Ibn Sino bilan Beruniy yozishmalari - fizika va falsafa masalalariga oid;
- 18."Namozning mohiyati haqida risola"-fiqhga oid va boshqalar.³¹

Abu Ali Ibn Sino o`z davri ilmi rivojida salmoqli iz qoldirgan mutafakkirdir.

³¹ Қаранг:Хоразм Маъмун академияси ва унинг дунё илм-фани таракқиётидаги ўрни.Т-2007й.ЎРОЎМТВ

Ma'mun akademiyasida salmoqli ishlar olib borgan olimlardan yana biri Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq al-Ja'diy (vafoti 1036 yil) - asli xorazmlik, afriqiy xorazmshohlar honadoniga tegishli iroqiy urug'idan, Beruniyning ustoz, Kat, Gurganchda va 1017 yildan keyin G'aznada ishlagan. Uning matematika va astronomiya sohasidagi ilmiy izlanishlari o'rta asrdagi matematik tafakkurni yuqori pog'onaga ko'tardi. Uning asarlaridan ayrimlari quyidagilar:

- 1."Mekelayning "Sferika" kitobining islohi";
- 2.Evklidning "Negizlar" kitobi o'n uchinchi maqolasida yuzaga kelgan shubhani bartaraf qilish haqida risola";
- 3."Mekelayning "Sferika" kitobining isloh qilish haqida maqola"
- 4."Osmon sferasini isloh qilish haqida maqola";
- 4." Osmon sferasidagi oylardan birini boshqasidan "kesishuvchi shakl " va "tuzilgan nisbat"dan foydalanmay aniqlash haqida risola";
- 5."To'g'ri burchakli va o'tkiburchakli uchburchaklar uchun yassi va sferik sinuslar teoremasi haqida risola";
- 6."Ettiburchakni yasash haqida risola";
7. "SHoh Almagesti";
- 8."Al-Majistiydan olingan ikki markaz orasidagi masofani aniqlash (usuli)";
- 9."Abu -Ja'far al-Xazinning "Zij as-safoih" asarida yo'l qo'ygan xatosini tuzatish haqida risola";
- 10."Muhammad ibn as-Sabohning Quyoshni tekshirish amalining isboti haqida risola".

SHarqning mutafakkir olimi, faylasuf va shoir, matematik va astronom Umar Hayyom ibn Iroq haqida "Matematika bilan shug'ullanadiganlar ichida eng ulug'i", deb aytgan.

Abu Saho Iso ibn YAhyo al-Jurjoniy al-Masihiy (X-XI asr) - yirik tabiatshunos olim bo'lib, astronomiya, matematika, falsafa, tabobat va boshqa sohalari buyicha izlanishlar olib borgan.

Xorazmshoh Ma'mun ibn Muhammad taklifiga ko'ra Xorazmga keladi va u erdagi olimlar bilan do'stona munosabat bog'laydi.

Masihiy sulton Mahmud G'aznaviy taklifini rad etib, Ibn Sino bilan birgalikda Xurosga qochib ketayotgan vaqtda 1011 yil 40 yoshda vafot etadi.

Uning Beruniyga atab 998-1004 yillarda o'n ikkita asar yozgani ma'lum. Mavzu bo'yicha ularning uchtasi geometriyaga, uchtasi astronomiyaga, biri iqlimshunoslikka, biri etikaga, biri tilshunoslikka oiddir. Lekin bu asarlar bizgacha etib kelmagan.

Yana ma'lum bo'lgan asarlaridan:

- 1."Geometriya negizlari haqida kitob";
- 2."Al-Majistiy kitobining qisqacha o'zagi haqida maqola";
- 3."Er sukunatdami yoki harakatda ekanligi haqida kitob";
- 4." (Astronomiya) san'atining qonunlari haqida risola";
- 5."Oy tutilishi turlarining miqdori haqida al-Beruniyga maktub";
- 6."Dastlabki harakatlantiruvchi haqida Aristotel' va Galen o'rtasidagi vositachilik kitobi";
- 7."Almagest kitobining qisqartmasi";
- 8."Tush ta'birlari haqidagi kitob".

Bizgacha etib kelgan asarlari: “Tib san`ati buyicha yuz kitob”, “Alloh taoloning insonni yaratishi haqidagi hikmatlarining ochilishi”, “Tibbiy ilmlar xaqida kitob”, “Umumiy tib haqida kitob”, “Chechakning mohiyati va uni davolash tadbirlari haqida risola”, “Vaboni aniqlash, undan saqlanish va paydo bo`lganda uni tuzatish haqida risola”, “Tomir urishdan kasalni aniqlash haqidagi kitob”.

O`rta Osiyo olimlari o`zlarining donishmandliklarini diniy bag`rikenglikda ham namoyish qilganlar. Xususan, Abu Sahl Masixiy diniy e`tiqodi bo`yicha xristian bo`lgan.

Ma`mun akademiyasi olimlaridan yana biri Abul Xayr al-Xasan Suvar ibn Bobo ibn Hammor falsafa, tibbiyot fanlaridan tadqiqot olib borgan.

Olim Bag`dodda tug`ilgan, Forobiyning shogirdi YAhyo ibn YAdiyning tarbiyasida falsafa va mantiqdan ta`lim olgan.

U Aristotelning “Meteorologiya” asarini yunon tilidan arab tiliga tarjima qilgan. Faylasuf sifatida olim ahloq, ta`lim, tarbiya, nutq madaniyati, ma`rifatga e`tibor bergan. Matematik sifatida teng yonli uchburchaklar asosidagi burchaklariga oid bir teoremani isbotlagan va bu teorema nomi bilan “ash-shakl al-hammoriy”, ya`ni “Xammoriy teoremasi” sifatida mashhur bo`lgan.

Tibbiyot ilmi bo`yicha “Tabiblarni sinash haqida kitob”, “Tabiblar imtihoni haqida kitob”, “Homiladorlar haqida kitob”, “Qariyalar tadbiri haqida kitob”larni yozgan, lekin ular bizning davrimizgacha etib kelmagan.

Beruniyning “Farmokognaziya” asarida Hammorning “Pavel kitobiga sharh” va “Ovqatlar haqida kitob” kabi kitoblaridan iqtiboslar keltirgan.

Hammorning yana “Suv bug`ining asorati sifatida havoda hosil bo`ladigan kamalak va tuman haqida kitob”i o`rta asr bibliografi Ibn Nodim (X asr) tomonidan ko`rsatib o`tilgan.

Ma`munning “Majlisi ulamo”si tarqatilgach, Hammor Mahmud G`aznaviyning shaxsiy tabibi vazifasini bajargan.

U qarigan vaqtida islom dinini qabul qilganligi haqida shunday rivoyat bor: “Bir kuni Hammor maktab yonidan o`tib ketayotib, mudarrisning “alif, lom, mim” surasini chiroyli qiroat bilan o`qiyotganini eshitadi va bir soat davomida ko`z yoshi qiladi. SHu kuni tunda u tush ko`radi. Tushida payg`ambarimiz (s.a.v): ”Ey, Abul Hayr. Sendek etuk bilimlar sohibiga mening e`tiqodimni rad etishi yarashmas”- deydi. Alloma islomni payg`ambar qo`lidan qabul qiladi, fiqhni o`rganib, qarib qolganiga qaramasdan Quronni yod oladi va e`tiqodini takomillashtiradi.”

YAna bir mutafakkir Abu Ali Xasan ibn Horis al-Xorazmiy al-Hububiy (X-XI asrlar) Xorazmda qorilik bilan shug`ullangan, matematik olim bo`lgan. Asarlari “Arifmetika, aljabr va al-muqobala kitobi”, “Arifmetika”, “Arifmetika, al-jabr va al muqobala kitobi” nomi bilan ham ma`lum. “Al-jabr va al muqobala hisobida vasiyat masalalarini sharhlash usulini tushuntirishni va geometrik usullarni “ikki xato”, dinor va dirham usuli bilan amal qilishni tadqiq qilish kitobi”, “Arximed muqaddimalari haqida risola”. Bu asardan Beruniy “Vatarlar” kitobida iqtiboslar keltiradi. “Matematika”. Bu asar meros taqsimotiga bag`ishlangan. Uning XIII asrga mansub qo`lyozmasi O`zbekiston musulmonlari idorasida saqlanadi.

Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad ibn Ismoil As Saolibiy – tarix, adabiyot, mantiq, tilshunoslik bo`yicha qomusiy ilmlar sohibi, akademiyaning eng sermahsul ijodkorlaridan biridir.

As Saolibiy 961 yili Nishopurda tugʻilgan,shu erda boshlangʻich taʼlim olgan.Unga Abul Fadl al-Mukoliy, Sulton Mahmudning akasi Abu Muzaffar Nasr ibn Sobuqtegin homiylik qilgan. Alloma taxminan 1038-1039 yillarda Nishopurda vafot etgan.

Saolibiy savdo ishlari bilan ham shugʻullanganligi tufayli koʻp oʻlkalarda boʻlgan.U qaerda boʻlmasin olimu fozil kishilar davrasida boʻlib, koʻplab doʻstlar orttirgan, mushoiralarda ishtirok etgan.

Saolibiy oʻzining Xorazmshoh saroyiga kelishi sabablari, u erdagi ijodi haqida quyidagilarni yozadi: “Kitobning (Yatimat ad dahr) dastlabki uch boʻlimini tugatgach, zamon oʻzgardi, hayotim turli toʻsiq va baxtsizliklarga duch keldi...Xorazmshoh Abul Abbos saroyida boʻlish muallifga ijobiy taʼsir qildi, amirning feʼlidan ilhomlanib, qoʻlyozmani uning kutubxonasiga loyiq holatga keltirdi.”³²

Uning asarlarida notiqlik, ahloq, tarix, geografiya, maʼrifat masalalari, shariyat va qasidalar, paygʻambarlar hayoti, mehmondoʻstlik, davlat ishlarini yuritish, kasb-hunar egallash, nazm va nasr masalalari oʻz ifodasini topgan.Uning hayot faoliyatini oʻrganishda I.Abdullaevning hizmati beqiyosdir.³³

Mintaqamizdan etishib chiqqan ulugʻ allomalarning ijodiy merosiga eʼtibor qilib shu narsaga iqrar boʻlish mumkinki, bu mutafakkirlar ijodi serqirra boʻlib, ilmning qaysidir soxasi bilan cheklanib qolmagan, diyonatli davlat boshliqlari esa Alloh roziligi uchun olimlar faoliyatini qoʻllab -quvvatlab, ularning maoshi taʼminotini ham oʻz zimmalariga olganlar. Lekin shunga qaramay koʻpgina allomalar hayoti sargardonlik va darbadarlikda oʻtgan

Xozirgi kunga kelib kelajagimiz egalari boʻlmish yoshlarning har taraflama barkomol inson boʻlib etishishlari uchun imkoni boʻlgan barcha ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa maktab va litseylarning moddiy texnika bazasiga jiddiy eʼtibor qaratilmoqda. Maqsad esa buyuk ajdodlarimizga sodiq boʻlgan va ularning ilmiy – maʼnaviy meroslarini yanada rivojlantirish solohiyatiga ega boʻlgan mutaxassislarni shakllantirish va kamol toptirishdir. Bugungi kunda ilm yoʻlida zaxmat chekayotgan har bir yosh kelajakda bu mehnatining shirin mevasini albattda totajakdir.

Mazkur mavzuimizni kengaytirib, yana koʻplab fozilu ulamolar haqida maʼlumotlar berishimiz mumkin. Lekin ajdodlarimiz qoldirgan maʼnaviy meros salmogʻi va ahamiyati haqida xulosa chiqarish uchun mazkur maʼlumotlar kifoya deb oʻylayman.

Gʻoyaviy muxoliflarimiz yaratgan badiiy va ilmiy asarlarda islom dini faqat jaxolatparastlikni , tarkidunyochilikni targʻib qiluvchi , gʻayriinsoniy bir taʼlimot sifatida talqin qilinadi. Aslidachi? Ilm – maʼrifatga islomda qanday munosabat bildiriladi ?

³² И.Абдуллаев.Поэзия на арабском языке вСредней Азии и Хорасане конце X- начала X I в.Т.:Фан.1984

² Эслатма: Мазкур китобда Маъмун академияси олимлари ҳақидаги маълумотлар, ЎРОЎМТВнинг “Хоразм Маъмун академияси ва унинг дунё илм-фан тараққиётидаги ўрни”асаридан қисқартириб олинди. Тошкент.2007.

Islom dinida ilm va ilm ahlini ulug'lash haqida.

Islom dini ta'limoti shakllanishi va halq e'tiqodiga aylanishi jarayonida ilm va ma'rifatga undash bu ta'limotning asosiy mazmunini tashkil etdi. Barcha ilmlarni biluvchi, barcha hikmatlar sohabi Alloh Taolo hisoblanadi.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) bobosi kabi Jabal an-Nur (Nur tog'i)dagi Hiro g'origa borib, ibodat qilar va xayolatga berilar edi. SHunday sharoitda, Ramazon oyi oxirlab qolganida, Payg'ambarimiz (s.a.v.) 40 yoshga etganlarida farishta Jabroil orqali kelgan dastlabki vahiy mazmuni shunday edi:

Mehribon va rahmdil Alloh nomi bilan.

“(Ey, Muhammad, butun borliqni) yaratgan zot bo'lmish Robbingiz nomi bilan o'qing! U insonni laxta qondan yaratdi. O'qing! Robbingiz esa karamli zotdir. U insonga qalam bilan (yozishni) o'rgatgan zotdir. U insonga bilmagan narsalarini o'rgatdi.” (Alaq surasi. 96 : 1-5)

Mazkur oyatlardan ko'rinadiki, avvalo islom dinining muqaddas kitobi nozil bo'la boshlagan dastlabki so'zdanoq o'qimoq uchun undov mavjud edi. Dinimiz ma'naviyati rivojida ajdodlarimiz hissasi beqiyosligi, mamlakatimizda qurilgan qator ma'naviy obidalar ahamiyati jahon jamoatchiligi e'tirofiga sazovar bo'ldi va 2007-yil ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti - AYESKO (ISESCO) tomonidan Toshkent shahri “Islom madaniyati poytaxti” deb e'lon qilindi. Prezidentimiz I.A. Karimov bu voqeaga o'z munosabatini bildirib, “agarki tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak xoki-poklari O'zbekiston tuprog'ida yotgan ulug' ajdodlarimiz, ne-ne mutafakkir zotlar asrlar mobaynida dunyoviy va diniy ilmlar sahasida qanday buyuk kashfiyotlar yaratgan, buning uchun qancha zaxmat va mashaqqatlar chekkanini ko'ramiz. Bugun biz guvoh bo'lib turgan yuksak e'tirof, avvalo, ana shunday ajdodlarimizning tabarruk nomlari va qoldirgan merosiga, o'zbek halqining islom

madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasiga berilgan munosib baho"³⁴, deb aytishi ayni haqiqatdir.

Inson uchun yoshlik davridagi vaqt shunday nozik va bebaho kapitalki, undan o'z vaqtida foydalanib, hayot uchun foydali bo'lgan xayrli amallar uchun sarf etmagan inson butun hayoti davomida nadomat bilan o'tishi shubhasizdir. Islomiy amallar ichida esa eng diqqatga sazovar va hurmat—ehtimomga loyiq bo'lgan hol - diniy va dunyoviy ilmlarni egalash va umri davomida shu ilmi asosida hayot tarzini yo'lga qo'yishdir. Omi, qo'lga kitob ushlamagan, hatto ziyolilar suhbatidan bebaxra bo'lgan millionlab odamlar bu dunyodan o'tdilar va hech bir keyingi avlod ularni yod etmadilar. Sababi, ular o'zlaridan keyin, faqat farzandlarini hisobga olmaganda, arzirlik iz qoldirmadilar va 1-2 avloddan keyin unutildilar. Lekin, mustaqilligimiz yillarida muqaddas ziyoratgohlar atrofida olib borilgan obodanlashtirish va ta'mirlash ishlari, halqimizning olim ajdodlar ma'naviy merosini faqatgina e'zozlash bilan cheklanib qolmay, ularga munosib vorislar bo'lib, ezgu amallarini davom ettirayotganligidan "...yurtimiz zaminida yashab o'tgan mutafakkir bobolarimiz, ulug' allomalar va aziz zotlarning muborak ruhlari shod"³⁵ bo'layotganligi hammamizni quvontiradi va ma'naviy kamolot sari yanada ilhomlantiradi.

YUqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda islom dinida ilmga baho va ilmning o'mi qanday ekanligi masalasiga e'tibor berib ko'raylik.

Imom SHofe'iy rahmatullohi alayh har bir ilmning o'ziga yarasha fazilati borligi haqida shunday deydi: "Qur'onni o'rgangan kimsaning qiymati yuksalur, fiqhni o'rgangan kimsaning qadri oliy, hadis jamlaganning hujjati quvvatli, hisob o'rgangan kishining fikri go'zal, lug'at o'rgangan kishining tabiati daqiq bo'lur. Nafsining yomonligidan himoyalangan kimsaning ilmi unga foyda bermas"³⁶

Ilm avvalo insonni saxovatga o'rgatadi. Xususan, Imom Ismoil al-Buxoriydan shunday hadis keltiriladi: "Hazrati Umar raziallohu anhu bunday deganlar: "Boshliq bo'lmasingizdan avval ilmni chuqur o'rganing! Rasululloh (s.a.v): "ikki narsadan o'zgasiga hasad qilmoq joiz emas, biri—kishiga Alloh taolo halol mol-dunyo bersayu, uni haq yo'lida sarflayotgan bo'lsa, ikkinchisi - kishiga Alloh Taolo ilmu hikmat ato etsa - yu, u shu tufayli oliy maqomga erishib, hukm surayotgan, odamlarga bilganini o'rgatayotgan bo'lsa",-- deganlar"³⁷

Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy "Ihyou ulumid-din (din ilmlarini jonlantirish)" nomli kitobida Qur'oni Karimdan shunday oyat keltiradi: "Alloh, farishtilar va ilm ahlari - adolat bilan hukm qiluvchi yolg'iz Allohdan o'zga hech qanday tangri yo'q, faqat uning o'zi borligiga guvohlik berdilar."³⁸ (3:18)

³⁴ «Ўзбек халқининг ислом маданияти ривожига қўшган беқиёс хиссаси нинг юксак эътирофи», И. Каримовнинг «Туркистон пресс» нодават ахборот агентлиги мухбириги берган интервьюси. «Ислом нури» газетаси 2007 йил 16 март.

³⁵ Ўзбек халқининг ислом маданияти....

³⁶ Имом ал-Бухорий. Илму маърифат нури. (сайланма ҳадислар). «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Тошкент—1998 – йил. 3-бет.

³⁷ Имом ал-Бухорий. Илму маърифат нури. (сайланма ҳадислар). «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Тошкент—1998 – йил. 3-бет.

³⁸ Куръон. Оли Имрон сураси. (3 : 18).

Imom G`azzoliy aytadi: “Bu oyatda Alloh taolo avval o`zini, keyin farishtalarni, so`ngra ilm ahlini zikr etdi. Mana shuning o`zi ilmning sharafligi, fazilatli va ulug` ekanini anglash uchun kifoya qiladi.”³⁹

Qur`onda ilm fazilatlari haqida ko`plab ibratli oyatlar keltirilgan. Toha surasining 114 - oyatida shunday deyiladi: “(Ey Muhammad) ayting: “Parvardigorim, ilmimni yanada ziyoda qil!” YOki, Zumar surasining 9-oyatida: “Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo`lurmi?!”. Mujodala surasining 11-oyatida: “Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja - martabalarga ko`tarur.” Imom G`azzoliy ushbu oyat mazmuni yuzasidan Ibn Abbos (r.a)dan iqtibos keltiradi. Ibn Abbos (r.a) aytadilar: “Olimlarning darajasi ilm olmagan mo`minlarning darajasidan etti yuz daraja yuqoridir. Har darajaning orasi besh yuz yillik yo`lga teng”⁴⁰.

Ilm fazilatlari haqida Qur`on suralaridan tashqari, hadislarda ham qator ko`rsatmalar mavjuddir. Diqqatga sazovar hadislardan birida: “Olimlar payg`ambarlarning vorislaridir”<sup>41</sup>,--deyiladi. YAna, “Hikmat sharafligi kishining sharafligi ziyoda etadi va qulni podshohlar darajasiga ko`taradi.”⁴² Islom ta`limotida o`z bilimlari bilan o`zgaga va o`ziga foydasi tegadigan shaxslar yuksak baholanadi. “Odamlarning afzali hojat tushsa, foyda beradigan, behojat bo`linsa, o`ziga foyda beradigan iymonli olimdir”⁴³.

Mavjud diniy adabiyotlarda, xususan Qur`oni Karimda ilm o`rganish fazilatlari haqida shunday deyiladi: “Axir ulardan har bir guruhdan bir toifa odamlar (jang uchun) chiqmaydilar?! (Qolganlari esa Madinada) dinni o`rganib, (jangga ketgan) qavmlari ularning oldilariga qaytgan vaqtlarida, u qavmlar Allohning azobidan saqlanishlari uchun ularni ogohlantirgani (qolmaydilar?!).” (Tavba surasi, 122-oyat). Demak, har qanday jangu jadallar vaqtida ham bir guruh odamlar jang qilganlari holda, boshqa guruh ilm bilan shug`ullanib, olgan ilmlari mazmuni bilan o`zgalarni ogoh qilishlari shart. Nahl surasi, 43-oyatida “Agar bilmaydigan bo`lsangizlar, ahli ilmlardan so`ranglar”, - deyilgan.

Abu Zarr rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi: Nabiy (s.a.v.): “Olimning majlisida hozir bo`lish ming rakat namozdan, mingta kasalni borib ko`rishdan afzaldir”, dedilar. SHunda: “YO Rasululloh, Qur`on tilovatidan ham yaxshiroqmi?”- deb so`rashdi. Payg`ambarimiz (s.a.v.) aytadilar: “Ilm bo`lmasa, Qur`on tilovati foyda beradimi?”⁴⁴

Ibn Abbos (r.a) aytadilar: “Ilm olishda (qiynalдим), bir oz xorlandim, tilagim hosil bo`lgach, azizu mukarram bo`ldim”⁴⁵.

Hakimlardan biri aytadi: “Men ikki kishiga achinganimchalik boshqa hech kimga achinmayman: ilmni tushunmasdan turib o`rgangan kishiga, ilmning muhimligini tushinib, uni o`rganmagan kishiga”⁴⁶.

³⁹ Имом Ғаззолий. Ихёу улумид-дин. Тошкент—2003—йил. 16-бет.

⁴⁰ Бу ҳадисни Абу Довуд, Термизий, Ибн Можа ва Ибн Ҳиббонлар Абу Дардодан ривоят қилишган.

⁴¹ Абу Нуъайм, Ибн Абдулбар ва Абдулғани Аздийлар Анасдан (р.а) заиф иснод билан ривоят қилишган.

⁴² Байҳақий заиф иснод билан Абу Дардодан ривоят қилган.

⁴³ Ибн Жавзий «Мавзуъот»да зикр қилган. Имом Ғаззолийнинг «Ихёу улумид-дин» асари. 27-бет

⁴⁴ И. Ғаззолий. «Ихёу улумид-дин». 27-бет.

⁴⁵ Ўша ерда.

Inson bilim olsa-yu, uning fazilatlar va hayotga tadbiq etilishini bilmasa, bu zoe ketgan vaqt va zoe ilmdir. Ammo ilmni tushuna olish salohiyatiga ega bo'lgan holda, turli bahonalar bilan ilmni o'rganmasa, unday kimsa o'ziga jabr qiladi.

Umar (r.a) aytadilar: "Kunduzlari ro'zador, kechalari qoyim—bedor bo'lgan mingta obidning o'limi halol haromni ajrata oluvchi bir olimning o'limidan engilroqdir".⁴⁷ Ko'r—ko'rona, kimlargadir taqlid qilib, kecha-kunduz ibodatda bo'lgan obidlar mingtasidan bir olim e'tibori va martabasi ulug'roqdir.

Ilm olmoq, ilm uchun zahmat chekmoq jihoddir. SHuning uchun jihod deyilganda faqat muqaddas, yoki din uchun olib borilgan janglarni tushunmaslik kerak. Abu Dardo (r.a) aytadilar: "Kim ilm o'rganishga chiqish jihod emas desa, uning aqli va fikrida noqislik bor ekan".⁴⁸

Islom dini ta'limotiga ko'ra ilm olgan kishi o'z ilmidan o'zgalarni ham habardor qilib, ta'lim berish bilan ham shug'ullanishi kerak.

Qur'onda shunday deyiladi: "Eslang (Ey Muhammad), Alloh kitob berilgan kimsalardan "Albatta, u Kitobni odamlarga ochiq bayon qilursizlar va yashirmaysizlar!", deb ahd-paymon olgan edi". (Oli Imron surasi, 187-oyat). Bu oyat ta'lim berish vojibligidan dalolat beradi.

Oldingi mavzularda aytib o'tganimizdek, Alloh tomonidan kitob ato etilgan payg'ambarlar yahudiylik, xristianlik va islom dini vakillari edilar. Qur'onning "Baqara" surasida shunday deyiladi: "Biz Kitob ato etgan kimsalar (yahudiy va nasroniylar) uni (Muhammad payg'ambari) o'z farandlari kabi taniydilar. Va ulardan bir guruhi bilganlari holda haqiqatni berkitadilar (Baqara surasi, 146-oyat). Demak ilmni boshqalardan yashirish, haqiqatni aytmalik horomligiga ishora qilingan. Din yo'lida Kitobiy haqiqatga to'g'ri keladigan bilim—ilmdir.

Guvohlik hukmi bayon qilingan oyatda ham ilmni berkitishdan ogohlantiriladi: "Kim (guvohlikdan bosh tortish bilan) uni yashirsa, bas, uning qalbi osiy - gunohkordir". (Baqara surasi, 283-oyat).

Odamlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish savobi haqida gapirib, Payg'ambarimiz (s.a.v.) Muoz ibn Jabalni YAmanga valiy qilib jo'natayotib: "Alloh taolo sen tufayli bir insonni hidoyat qilishi dunyo va undagi bircha narsalar seniki bo'lishidan yaxshiroqdir", - degan ekan.⁴⁹

Xuddi shuningdek, "Kim insonlarga ta'lim berish maqsadida bir bob ilm o'rgansa, unga etnish siddiqning savobi beriladi",⁵⁰ --deydi Rasululloh (s.a.v.).

YAna bir diqqatga sazovar jumla Iso (a.s.)dan rivoyat qilinadi: "Kim ilm o'rganib, unga amal qilsa va uni boshqalarga o'rgatsa, butun osmon farishtalari orasida "Buyuk" deb chaqiriladi", --degan.⁵¹

Biz yuqorida ilm berish vojibligi, ilmni boshqalardan yashirish haromligi haqida to'xtalgan edik. Ammo kishi bor ilmini boshqalardan yashirmasligi farz ekanligiga dalolat ham mavjud. Payg'ambarimiz (s.a.v.) marhamat qiladilar: "Ilm o'rganib, uni

⁴⁶ Ўша ерда.

⁴⁷ ⁴⁷ И. Ғаззолий. «Ихёу улумид-дин». 27-бет.

⁴⁸ И. Ғаззолий. «Ихёу улумид-дин». 28-бет.

⁴⁹ Имом Аҳмад Муоздан ривоят қилинган. Ихёу улумид-дин. 29-бет.

⁵⁰ Абу Мансур Дайлабий заиф санъад билан ривоят қилган. Ихёу улумид-дин. 29-бет.

⁵¹ Ихёу улумид-дин. 29-бет.

boshqalardan yashirgan kishini Alloh taolo qiyomat kuni olovli yugan bilan yuganlab qo'yadi".⁵²

Ulug' zotlardan biri aytadi: "Olimlar zamona chiroqlaridir. Har bir olim zamonasining chirog'i bo'lib, o'sha zamonasidagi kishilar ularning nuridan foydalanadi."⁵³

Hasan Basriy aytadi: "Olimlar bo'lmaganida insonlar chorva mollari kabi bo'lib qolardilar". YA'ni, olimlar insonlarni ilm o'rgatish yo'li bilan hayvonlik darajasidan insonlik martabasiga ko'taradi.⁵⁴

YAhyo ibn Muoz: "Olimlar Muhammad (s.a.v.) ummatiga ota-onalaridan ham mehribondirlar", - dedilar. "Nima uchun?"—deb so'rashdi.

"Ota - onalar farzandlarini dunyo otashidan himoya qiladi, olimlar esa ularni oxirat olovi - do'zaxdan muhofaza etadi"⁵⁵, - deb javob berdilar. "Ustoz otangdan ulug'", -- iborasining ma'nosi shu bo'lsa kerak.

Muoz ibn Jabal ilm o'rganish va o'rgatish haqida aytadilar: "Ilm o'rganinglar, zero uni o'rganish--Allohdan qo'rqish, uni talab qilish - ibodat, muzokarasi—tasbih, uni izlash—jihod, bilmaganga o'rgatish—sadaqa, uni o'z ahliga bildirish—Allohga qurbatdir. Ilm tanholikda hamroh, xilvatda do'st, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi dalil, xursandligu xafalik paytida ko'makchi, do'stlar oldida vazir, begonalar oldida yaqin do'st va jannat yo'lining minorasidir. Alloh ilm bilan qavmlarini yuksaltirib, etakchi qilib qo'yadi. Ular odamlarni yaxshilikka etaklaydi, boshqalar ularning izidan yuradi, qilgan ishlari e'tiborli bo'ladi. Har bir quruq va ho'l narsalar, hattoki dengizdagi baliqlaru hashoratlar, yovvoyi va barcha hayvonlar, osmon va undagi yulduzlar ularning haqiga istig'for aytadi"⁵⁶.

Imom G'azzoliy o'zining "Iyohu ulumid-din" asarida inson uchun "nafis marg'ub narsa", ya'ni inson erishmoq uchun intiluvchi narsalari uchga bo'linadi, deydi. Bular, boshqasiga u orqali etishiladigan, aynan o'zi istaladigan, aynan o'zi va boshqasi uchun barobar istaladigan narsalar.

Uning talqiniga ko'ra, "aynan o'zi istaladigan narsa"—oxirat saodatiga erishish va Allohning jamolini ko'rish lazzatidir.

"Aynan o'zi va boshqalar uchun barobar istaladigan narsa"—badan salomatligi. Inson o'z maqsadiga salomat bo'lsagina erisha oladi.

Tani sog' va "aynan o'zi istalgan narsa"ga esa faqat ilm bilan erishiladi. Saodati abadiyaga ilm va amalsiz hargiz erishish mumkin emas. Amalga qanday amal qilish ilmni bilmasdan erishish mahol..

Ilmning samarasi olamlar Parvardigoriga qurbat hosil qilish va farishtalar darajasiga erishish. Bu narsalar oxiratga oid ilmning foydalaridir.

Ilmning dunyodagi manfaatlari azizlik, viqor, hukmdorlarga so'zi ta'sir qilishi, boshqalar tarafidan hurmatga sazovar bo'lish kabilar.

Insonlarning g'oyasi, maqsadi din va dunyoga aloqadordir. Diniy nizom dunyoviy nizomsiz vujudga kelmaydi. Dunyoni vatan va doimiy qarorgoh deb

⁵² Абу Довуд, Термизий, Ибн Можа, Ибн Ҳаббон, Ҳакимлар ривояти. Иёху улумид-дин. 30-бет.

⁵³ Иҳёу улумид-дин. 32-бет.

⁵⁴ Иҳёу улумид-дин. 32-бет..

⁵⁵ Ўша ерда.

⁵⁶ Ўша ерда. 33-бет. Абу Шайх ибн Ҳиббон ривояти. ибн Абдулбар бу ҳадисни исноди кучли эмас, деган.

tushinmasdan, uni vosita sifatida bilganlar uchun dunyo Allohga eltuvchi yoʻldir. Dunyoning tartib - nizomi odamlarning amallariga bogʻliq.

Imom Gʻazzoliy dunyo ishlarini uchga boʻladi:

1. Odam oyoqda turishi uchun kerak boʻlgan asoslar. Imom Abu Homid Gʻazzoliy bu boʻlimda moddiy neʼmatlar ishlab chiqarishni nazarda tutadi.

2. Bularning har birini yuzaga keltirishga koʻmak boʻladigan omillar. Olim bu boʻlimda ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishni tushunadi.

3. Mazkur asoslarni mukammallashtiruvchi va ziynat beruvchi ishlar. Mutafakkir bu erda koʻproq xizmat koʻrsatish sohalariga eʼtibor beradi.

Imom Gʻazzoliy inson aʼzolarini ham uchga boʻlib tushuntiradi. Bular :

1. Qalb, jigar, miya kabi asl aʼzolar.

2. Asl aʼzolarga xizmatchi boʻlgan aʼzolar: oshqozon, tomirlar, asab tolalari, arteriya va vena qon tomirlari kabi.

3. Asl aʼzolari toʻldiruvchi va ularga ziynat beruvchi aʼzolar: timoq, barmoq, qosh va boshqa aʼzolar. Insoniyat hayotida muhim rol oʻynovchi omillar orasida kishilar munosabatida isloh va ulfatni joriy qiluvchi siyosatdir. Dunyo va oxiratlardagi najot yoʻlini koʻrsatuvchi murshidlar ahvolini isloh qiluvchi siyosat toʻrt darajadan iborat.

1. eng oliy siyosat. Bu paygʻambarlar siyosati boʻlib, zohiri botinda xosu omga qilgan hukmlaridir.

2. Xalifalar, podshohlar va boshqa xokimlarning xosu omga yuritgan siyosati. Bu faqat zohirga oid hukmlar boʻlib, botinga tegishli emas.

3. Alloh taoloni tanib, uning dinini bilgan va paygʻambarlar vorisi boʻlgan olimlarning siyosati. Bularning hukmlari faqat xoslarning botiniga doir boʻlib, ommaning fahmi ulardan istifoda qilishga etmaydi. Ular insonlarga manʼ qilish, buyurish va majburlash siyosatini yuritmaydilar.

4. Voizlar siyosati. Bu siyosat avomning botinini isloh qilishda ularning hukmlaridan iborat.

Imom Gʻazzoliy nazarda tutgan 3-turga mansub siyosat aynan muallimlar faoliyatidir.

Gʻazzoliy aytishicha, ilmning ulugʻligi hech kimga maxfiy emas, chunki muallim kishilarning qalbi va ruhiga taʼsir oʻtqazib, ularni boshqaradi. Er yuzidagi mavjudotlarning eng sharaflisi inson boʻlsa, undagi eng ulugʻ va javhar qalbdir. Muallim shu qalbni kamolga etkazish, unga jilo berish, uni poklash va Allohga yaqin boʻlishga chorlash bilan mashgʻuldir.

Imom Gʻazzoliy taʼlimotiga koʻra, ilm oʻrgatish bir jihatdan Allohga ibodat boʻlsa, ikkinchi jihatdan Allohga xalifa - vakil boʻlishdir. Alloh xalifasi boʻlgani uchun olimlarning qalbiga oʻzining xos sifati boʻlmish ilmni beradi. Olim Allohning eng qimmat baho xazinasiga xazinachi demakdir. Bu xazinaga muxtoj boʻlgan har qanday kishiga undan ulashish, ehson qilish huquqi muallimga berilgan.

Alloh taolaga yaqinlik hosil qilishda va jannatga etaklashda banda bilan Allohning orasida vositachi boʻlishdan-da ulugʻ martaba (yoʻq!).

Alloh taolo fazlu karami bilan bizni shunday ulug` vositachilar jumlasidan aylasin.⁵⁷

Endi bevosita talaba odoblari va ustoz vazifalariga e`tibor beraylik. Tolibi ilm odoblari bir qancha. Biz ayrimlari xususida to`xtalib o`tamiz.

Birinchi odob talabi: talaba qalbi jirkanch xulqlardan, yomon sifatlardan pok bo`lishi kerak. Payg`ambrimiz (s.a.v.) “Bu din poklik ustiga barpo bo`lgan”,--deydi. Inson qalbi farishtalar qo`nadigan makon. Agar bu qalb g`azab, shahvat, gina, hasad, kibr kabi razil sifatlardan holi bo`lmasa, u erga farishtalar, demakki ilm ham kira olmaydi. Zero, Alloh Taolo ilm nurini qalbgga farishtalar orqali yuboradi: «Inson bilan Alloh (bevosita) so`zlashishi mumkin emas. Faqat vahiy orqali yo parda ortidan yoki elchi (farishta) yuborib, (Allohnin) izni bilan u xohlagan narsani vahiy qilishi mumkin». (SHo`ro surasi, 51-oyat).

Ikkinchi odob talabi: Ilm tolibi dunyoviy mashg`ulotlarni ozaytirmog`i, ahli va vatanidan yiroqda bo`lmog`i lozim. Ular bilan aloqa talabani maqsadidan chalg`itadi.

Qur`oni Karimda: «Alloh bir kishining ichida ikki qalb qilgan emasdir»,-- deyiladi. (Ashab surasi, 4-oyat).

Uchinchi talab: Talaba ilmiga kibrlanmasligi, ustoziga qarshi chiqmasligi shart. Barcha ishda butunlay ishning jilovini muallimiga topshirmog`i, johil kasalning mehribon va hoziq tabibga quloq tutganidek, uning nasixatiga quloq solmog`i, unga tavoze` ko`rsatmog`i, xizmatini qilish bilan savob va sharaf talab etmog`i lozim. Tavoze` hamda ustozini jon qulog`i ila tinglash bilangina ilmga etishish mumkin. Qur`onda shunday deyiladi: “Albatta, uyg`oq qalb egasi bo`lgan yoki o`zi hozir bo`lib, quloq tutgan kishi uchun eslatma bordir”. (Qof surasi, 37-oyat).

**To`rtinchi talab:** ilm olishni ilk boshlagan kishi xoh dunyo, xoh oxirat masalalarida bo`lsin, odamlarning ixtiloflariga quloq solishdan saqlanishi lozim.

Dinda quvvatli kishining kofirlar bilan mujodala qilishiga ruxsat berilgani kabi, ilmi kuchli talabalarning ham ixtilofli masalalarga kirishishiga monelik qilinmaydi.

Beshinchi talab: Tolibi ilm barcha maxmud ilmlarni, ularning biror turini qoldirmasdan o`rganmog`i va oldiga qo`ygan maqsadiga erishmog`i lozim. Ilmlarni o`rganib bo`lgach, umr sarmoyasi etsa, ularni chuqurlashtirish kerak. Bilmaslik tufayli dushman bo`lib qolmaslik uchun, oz bo`lsa-da boshqa ilmlarni ham o`rganmog`i lozim. Inson o`zi bilmaydigan narsalarning dushmani. Qur`oni karimda shunday deyiladi: “Ular o`zlari u (Qur`on) bilan hidoyat topishmagach, “Bu eski uydirmadir”, derlar”, (Ahqof surasi, 11-oyat).

Oltinchi talab: Ilm olishda shogird turli ilmlarga kirishib ketmasligi, barcha tartiblarga rioya qilishi va muhimrog`idan boshlashi lozim. Inson umri barcha ilmlarni o`rganish uchun etmaydi. Bas, shunday ekan, har bir ilmning chiroyli taraflarini o`rganib, o`sha ilmlarning ozi bilan kifoyalanish kerak. Qolgan bor quvvatini esa, eng sharaflari hisoblanmish oxirat ilmi tomon yo`naltirishi lozim.

Oxirat ilmi muomala va mukoshafadir.

⁵⁷ Илмлар ҳақидаги фикрлар асосан Имом Ғаззолийнинг «Ихёу улумид-дин» асаридан олинади.

Muomala ilmining g'oyasi mukoshafa, mukoshafaning g'oyasi esa Allohni topishdir.

Ettinchi talab. Boshlang'ich fanni mukammal o'rganmay turib, navbatdaxisiga o'tmaslik kerak. Har bir ilm zaruriyatiga ko'ra ma'lum tartibi bor. Bir ilm boshqasiga yo'l, ko'prik vazifasini bajaradi. Qur'onda "Biz kitob bergan kishilar (mo'minlar) uni to'g'ri (buzmay) tilovat qiladilar". (Baqara surasi, 121-oyat) deyilgan. Oyatning mazmuni shundaki, inson boshlang'ich ilmni mukammal bilmay turib, yanada murakkabroq bosqichdagi ilmlarni egallay olmaydi. Har bir ilm chegarasi odamlar uni o'rgangan darajasidan ko'ra kengroqdir. Hazrati Ali (r.a) shunday deydi: "Haqiqatni odamlarga qarab tanima, balki avval haqni tani, keyin ahlini tanib olasan!"⁵⁸

Sakkizinchi talab. SHarafli ilmlarga olib boradigan sabablarni ham bilish lozim. Bular:

- 1). Natijaning sharafli bo'lishi, bunga din va tib ilmlari misol bo'ladi.
- 2). Dalilning quvvatli va ishonchli bo'lishi. Bunga hisob-kitob, nujum ilmlari misol bo'ladi.

To'qqizinchi talab. Talabaning maqsadi bu dunyoda botinini ziynatlab, fazilat ila go'zallashtirish, oxiratda esa Allohga yaqinlik hosil qilish, u dunyo soadatiga erishish bo'lishi kerak.

Mansab, mol-dunyo, obro' qozonish, nodonlarcha tortishish va yaqinlari bilan faxrlanishni g'oya qilib olish noto'g'ri bo'ladi. Ilm ahli qalbi ezgulik bilan to'liq bo'lishi kerak. «Bas kim zarra misqolcha yaxshilik qilsa, o'shani ko'rur va kim zarra misqolcha yomonlik qilsa, o'ni ham ko'rur». (Zalzala surasi, 7-8-oyat)

Ilmning qaysi turi bo'lmasin, agar Alloh uchun ta'lim olinsa, shubhasiz, uning foydasi bo'ladi va sohibini oliy maqomlarga ko'taradi.

O'ninchi talab. Tolibi ilm ilmlarning maqsadga etkazuvchi nisbatini yaxshi bilishi lozim.

Har qanday ilm, agar uning maqsadi jasad salomatligi bo'lsa, demak u "ulov" manfaatlari jumlasidan.

Imom G'azzoliy ilmlarni uchga bo'lib, maqsadga yaqini, maqsad yo'lidagi, tayyorgarlik qismlariga bo'lib hajga izn olgan qul misolida tushintiradi, ya'ni oziq—ovqat va zarur anjomlarni tayyorlash, yo'lga chiqish va bevosita haj amallarini bajarishga o'tish.

Ilm sohasida talabaga qo'yilgan talablar bilan tanishgan holda, murshid—muallimlar vazifalari haqida yana imom G'azzoliy asariga murojaat qilamiz.

Olimlarning fikricha, mol—dunyo to'plashda to'rt holat mavjuddir. Birinchi kasb egallash; ikkinchi, kasb qilib mol jamg'arish, u bilan tilanchilik qilishdan qutiladi; uchinchi, ehtiyojiga qarab molidan foydalanadi; to'rtinchi, molini boshqalarga sarflash, bu bilan saxiy va fazilatli bo'ladi.

Ilmda ham shu holat:

- 1). Ilm olinadi.
- 2). So'rashdan holi bo'lar miqdorda ilm yig'iladi;
- 3). Hosil bo'lgan ilmni tafakkur qilib undan foydalaniladi;

⁵⁸ Ихёу улумид-дин. 129-бет.

4). Boshqalarga yoʻl—yoʻriq koʻrsatiladi.

Mol yigʻishda toʻrtinchisi boshqalari orasida eng ulugʻi boʻlgani kabi, ilmda ham toʻrtinchisi eng ulugʻidir. Oʻzgalarga oʻz ilmini oʻrgatuvchi quyosh kabitir. Boshqalar uchun ziyo tarqatadi va oʻzi ham ziyolidir.

Ilm beruvchi muallimning vazifa va odoblari quyidagicha:

Birinchidan, muallim taʼlim oluvchilarga oʻz bolalaridek muomilada boʻlishi kerak. Muallim shogirdlarini oxirat azoblaridan saqlash maqsadini oʻz oldiga qoʻyadi. SHuning uchun muallimning haqi ota-ona haqidan ustun qoʻyiladi. Muallim sabogʻini olayotgan shogird maqsadi oxirat boʻlsa, oralarida samimiy muhabbat uygʻonadi. Agar maqsad dunyo boʻlsa, oʻrtada hasad va adovat shakllanadi.

Ilm orqali amal - rahbarlikka erishishni oʻylagan kishi Alloh taoloning «Albatta, moʻminlar ogʻa-inidirlar» (Xujurat surasi, 10-oyat) degan kalomidan chetga chiqadi va «U kunda taqvolilardan boshqa doʻstlar bir—birlariga dushmandirlar.» (Zuxruf surasi, 67-oyat) degan kalomidagilarga aylanadi.

Ikkinchidan, shariat sohibi boʻlgan Rasululloh (s.a.v.)ga ergashishi kerak. Muallim bergan ilmi uchun mukofat, tashakkur eshitishni maqsad qilmaydi. U Alloh taologa yaqin boʻlish, uning roziligiga erishishni istab taʼlim beradi.

Muallim tolibi ilmlari boʻlgani tufayli savobga erishadi. SHuning uchun “Ey qavmim! Sizlardan u (xizmat) uchun mol—dunyo soʻramayman. Mening mukofatim faqat Allohning zimmasidadir”. (Xud surasi, 29-oyat) degan oyat mazmunini uqib olmoq kerak.

Mol - mulk va dunyodagi narsalar vujud xizmatkori. Vujud nafsning ulovi. Unga xizmat qiluvchi mahdum - ilmdir. Nafsning sharafi ilm bilan.

Uchinchidan, talabaga qilinishi lozim boʻlgan nasihatlardan hech birini qoldirmaslik. Masalan, uni loyiq boʻlmagan martabaga chiqishdan qaytarish, ochiq ravshan ilmlarni tugatmay turib, maxfiy ilmlar bilan mashgʻul boʻlishini manʼ qilmoq. Ilm oʻrganishdan maqsad Allohga yaqin boʻlish ekanini, martaba, obroʻ va kimoʻzdilikni maqsad qilish mumkin emasligini uqtirish kerak. Alloh uchun oʻrganiladigan ilmlar tafsir, hadis va avvalgilar mashgʻul boʻlgan oxirat ilmi, nafs axloqini oʻrganish va uni poklash kayfiyati haqidagi ilmlardir.

Toʻrtinchidan, taʼlim sanʼatning nozik jihatlaridan biridirki, muallim talabaning yomon axloqini oshkora emas, balki imkoni boricha taʼriz — oʻziga koʻrsatish yoʻli bilan, qattiq soʻzlar bilan emas, shafqat yoʻli bilan qaytarishi lozim. Oshkora tanbeh hurmat pardasini yirtadi, qaysarlikka boʻlgan maylni qoʻzgʻatadi. Masalan, Odam bilan Havo va ularga manʼ qilingan narsa haqidagi qissa ibrat.

Beshinchidan, ilmlardan baʼzilarini oʻrganayotgan talabaga boshqa ilmlarni yomon koʻrsatmaslik lozim. Oʻzaro shaxsiyatga teguvchi gap - soʻzlar chiqishiga yoʻl qoʻyib boʻlmaydi.

Oltinchidan, talabaga ilmni uning faxm - farosati koʻtarishiga qarab berish lozim. Paygʻambarimiz (s.a.v.) ham “Biz paygʻambarlar jamoasi odamlarni oʻz oʻrinlariga qoʻyishga va ularning aqlari etadigan miqdorda gapirishga buyurilganmiz”⁵⁹—deydilar.

⁵⁹ Ихёу улумид-дин 141-бет.

YAna, Rasululloh (s.a.v.): “Bir qavmga ularning aqlari etmagan biror soʻzni gapirgan kishi ularning baʼzilari uchun fitnaga sabab boʻladi”⁶⁰,—deganlar.

Hazrati Ali (r.a) koʻksiga ishora qilaturib, aytganlar: «Albatta, mana bu erda juda koʻp ilm bor, koshkiydi unga munosib tolib topa olsam»⁶¹.

YAxshining qalbi sirlarning qabri !

Olim barchaga bilgan narsasini oshkor qilavermasligi lozim.

Iso (a.s.) shunday deganlar: “Gavharlarni toʻngʻizlarning boʻyniga osmanglar”. Albatta, hikmat (ilm) gavhardan yaxshiroqdir. Kim uni yomon koʻrsa, toʻngʻizdan ham yomonroqdir. SHuning uchun «Har bir bandaga aqlining meʼyoriga koʻra oʻlchab va fahmining mezoniga koʻra tortib ber. Toki sen uning yomonligidan salomat boʻlasan va u ham sendan foyda oladi. Aks holda meʼyorlar turlicha boʻlgani uchun inkor paydo boʻladi»,—deyilgan.

Bir odamdan bir narsa haqida soʻrashganida, javob bermadi. SHunda soʻrovchi : «Siz Rasululloh (s.a.v.)ning “Kimki foydali bir ilmni yashirsa, qiyomat kunida olovdan boʻlgan yugan bilan yuganlanadi», deganlarini eshitmaganmisiz?” dedi. Olim: “YUganini qoʻyaver va (yoʻlingdan qolmay) ketaver. Agar (soʻzimni) anglaydigan bir odam kelsa va undan ilmni yashirsam, oʻshanda meni yuganlayversin”, - deb javob qildi. Zero, ilmni buzadigan va unga zarar beradigan kishidan ehtiyot qilish lozimligini bildirib, Alloh taolo: “Aqlsizlarga mollaringizni berib qoʻymangiz”, (Niso surasi, 4-oyat) deya marhamat qilgan.

Ettinchidan, zehni past talabaga oʻziga munosib boʻlgan ochiq ilmlarni oʻrgatish lozim. Ilmning nozik jihatlarini berkitganini unga aytmaslik kerak. Aks holda u oʻziga nisbatan baxillik qilingan, degan gumonga boradi. CHunki, hamma odam ham oʻzini daqiq ilmlarni olishga loyiq, deb oʻylaydi. eng ahmoq va aqli zaif kishi oʻz aqlini mukammal deb xursand boʻlgan kishidir. Din va eʼtiqod masalsida avom uchun bahs eshigini ochmaslik darkor. Ularning qalbini jannatga ragʻbat va jahannamga qurquv hissi bilan toʻldirish kifoya.

Sakizinchidan, amal ilmga xilof boʻlsa, rushdu hidoyatga moneʼlik qiladi. Ilm qalb koʻzi bilan koʻradi, amal esa oddiy koʻz bilan koʻradi. Muallim soʻzini amali inkor qilmasligi lozim. Oʻzi bir narsani eb turib, oʻzgalarga, buni emanglar, desa, boshqalar uni masxaralab kuladilar, taʼqiqlangan narsaga koʻproq intila boshlaydilar. Loy qolipsiz gʻisht boʻlmaganidek, egri daraxtning soyasi toʻgʻri boʻlmaydi. Murshid muallimning shogirdlari oldidagi mavqei shundaydir.

Alloh taolo marhamat qilib: «Odamlarni yaxshilikka buyurasizlar-u, oʻzlaringizni unitasizlarmi?» (Baqara surasi, 44-oyat) deydi.

Olimning qilgan gunohi yuki johilnikidan ogʻirroq boʻladi. SHuning uchun muallim faqat soʻz bilan emas, amaliy xatti - harakatlar bilan ham taʼlim - tarbiya beradi.

Islom dini taʼlimotiga koʻra ilm ilm uchun emas , ilm hayot uchun boʻlmogʻi kerak. Imli kishi avvalo oʻz hatti – harakati, qolaversa atrofida qilarga ham maʼlum maʼnoda masʼul boʻladi. Bu masʼuliyat nimalarda koʻrinadi ?

⁶⁰ Ўша ерда.

⁶¹ Ўша ерда.

Islom va mas'uliyat.

Tangri Taolo insonni o'z maxluqotlari orasida azizu mukarram qilib yaratdi. Unga hayvonot olamidek vujud berdi va unga farishtalarga xos ruhni berdi. Odam bolasi o'z e'tiqodi va taqvo bilan kamol topib, farishta maqomiga yaqinlashib borsa, xoyu - havasga erk berish, faqat nafs talabi bilan yashash uni hayvonot dunyosiga yaqinlashtiradi.

Nafs inson uchun zaruriy ne'mat, zero agar inson nafs bo'lmasa edi, u ovqatlanishga extiyoj sezmas edi, charchoqni his qilmagan va dam olish zaruratini bilmagan bo'lar edi. Lekin nafs talablari qanchalar qondirib borilsa, u shuncha ko'proq talabgor bo'laveradi. Insondagi nafs talablari shaxvoniy jixatlarga ham egaki, uni aql ila jilovlab turilmasa, ya'ni nafsning havoyi jixatlari inson irodasiga bo'ysundirilmasa, kishi qanchalar ilm egasi bo'lishidan qat'iy nazar, uning ilmi besamar bo'ladi. Ilm kuchi, avvalo, nafsning salbiy jixatlariga qarshi qaratilgan bo'lmog'i kerak⁶².

«YUsuf» surasining 53 oyatida «Agar Parvardigorimning o'zi rahm qilmasa albatta barcha yomonliklarga buyuruvchidir», deyiladi. YA'ni, nafs insonlarga o'z hukmini o'tkazish, talablarini qondirish uchun ularni yomon yo'llarga boshlaydi.

Inson nafs asosan kishi vujudi talabi tufayli mavjud bo'ladi. Agar insonda vujud bo'lmasa edi, nafsga ham extiyoj sezmagani bo'lar edi. YUqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, «Nafs nima?»-degan savolga fikrimizcha, shunday javob berish mumkin. Nafs asosan vujud ehtiyojlarini qondirishga undovchi ruxiy quvvat bo'lib, insondagi manfaatdorlik

⁶² Мазкур мавзу М.А. Жушоннинг «Ислом тасаввуф ва ахлоқ» асари асосида ёзилди. «Истеъдод» Тошкент 2000 йил. 95- 119 бет.

tuyg`usi ana shu nafs tufayli namoyon bo`ladi. Inson manfaatdorligini esa moddiy (emoq – ichmoq, kiyim – kechak, boylik orttirish, va x.k.) va ma`naviy (dunyo va oxirat saodatiga erishmoq) kabi ko`rinishlarga ajratish mumkin.

Islom dinida esa nafs inson ichidagi bir borliq sifatida ko`rsatiladi.

Inson moddiy va shahvoniy ehtiyojlari haqida ko`p gapiriladi. Uning ma`naviy manfaatdorligi ulug` tuyg`u bo`lib, nafsning g`ayriinsoniy jihatlarini cheklash va me`yorlarga amal qilishni taqazo qiladi. Ma`naviy manfaatdorlik tuyg`usi ustuvor bo`lgan insongina o`zini ham, o`zgani ham boshqara olish salohiyatiga ega bo`ladi.

Naqshbandiya tariqatining mashhur shayxi, professor Mahmud As`ad Jo`shon fikriga ko`ra, inson asosan ko`rib, his qilib bilgan narsasi tufayligina ma`naviy qoniqish hosil qiladi. SHuning uchun Alloh Taolo bandalari uchun har qadamda, har tarafda o`mak oluvi uchun ko`plab voqealarni namoyish qiladi va inson birni ko`rib shukur qiladi, birni ko`rib fikr qiladi.

Nafs shakli va adadi kishi yoshiga qarab, turli davrda turlicha bo`ladi. Bolalik paytida biror shirinlik bilan qondiriluvchi nafs, keyinchalik o`zgalardan ustun ekanligini, o`zini ko`z-ko`z qilishni, boylik jamg`arishni talab qiladi, yuqori maqom va lavozim egasi bo`lishga unday boshlaydi. Nafsning adadi cheksizdir. SHayx M.A. Jo`shon nafs darajalarini shunday ifodalaydi: “Ilk orzu”, “SHahvatul batn”, ya`ni qorinning istagi deyiladi. O`smirlik chog`ida “SHahvatul foris” boshlanadi. Bu jinsiy intilish tuyg`usi . . . Undan keyin “hubbul mol” va “hubbul jam`il mol” – mol to`plash orzusi vujudga keladi, keyin “hubbul maqom , hubbul jon” – mavqe`, maqom sevgisi. So`ngra “hubbur riyosah”, ya`ni riyosat, mansabdor bo`lish orzusi..”⁶³

Insonning eng xavfli dushmani uning nafsidir. Islomiy tushunchaga ko`ra bu dunyo imtixon uchun yaratilgandir. Kishilarning turli ko`rinish va maqomda bo`lishidan murod - ularga taqdir qilgan mazkur holat taqazosiga ko`ra bu dunyo imtixonlaridan qanday o`tishni bilishdir.

Kalomullohning “Oli Imron” surasidan bu haqida ko`plab ma`lumotlar olish mumkin. Ayniqsa dunyo jozibalari turli-tuman bo`lib, ular tufayli inson to`g`ri yo`ldan chalg`ishi hech gap emas. Bular (Oli Imron, 14 oyat): Hubbush shahvati minan niso`i - xotinlarga nisbatan orzularda bo`lmoq, ular izidan tushmoq . Val banin – Bola – chaqalarga nisbatan sevgi. Valqanotil muqantarati minazzohabi val fizzati - oltindan, kumushdan yig`ilgan boyliklar. Val xaylil musavvamoh -o`tlasin deb dalalarga haydab yuborilgan suruvlar. Val an`oti – otlar. Valharsi-ekinlar, bog` - bo`stonlar. Zolika mato`ul hayotud dunyo–bularning bari hayotu dunyo matolaridir.

Bu narsalar inson uchun qiymatga egadir va ammo: “Bular hayotning kelib-ketadigan matolaridir”-deydi Alloh. Vallohu indahu husnul maob–Aolloh ikki muqobil dunyodan qay birini tanlashimizni ko`rsatadi.

Nafs hukmida bo`lgan inson uchun, ongi maishiy hayot darajasidan yuqori ko`tarilmagan inson uchun xudbinlik, o`zgalarni kamsitish, o`z manfaatidan o`zgani ko`rmaslik, o`zidan o`zgalarga biron manfaat etmasada, faqat yosh boladek “ber-ber” bilan mashg`ul bo`lish, kibr va man-manlikka berilish illatlari kuchli bo`lib, faqat zarurat, ya`ni bu dunyo jafolari holini tang qilib, muammolar echimini topa olmagan kezlaridagina Allohni yodga olishga majbur bo`ladi. Bu dunyo lazatlariga berilmaslik, oxir borar joyini unutmaslik uchun Alloh ogohlantirib, u dunyo ne`matlaridan ogoh qiladi: (3:15-17): “Qul aunabbikum

⁶³ M. A. Жўшон. “Ислом тасаввуф ва ахлоқ” “Истиклол” Тошкент 2000 йил 97-бет.

bixayrin man zolikum”- Ayting, (Ey Muhammad): “Sizlarga bulardan yaxshiroq narsa haqida habar beraymi?”. “Lillazinattaqov inda rabbihim jannotin tajri min taxtihol anhoru”- Allohdan qo`rqan taqvodorlar uchun Parvardigorlari huzurida ostlaridan daryolar oqib turgan bog`-rog`lar, bo`stonlar bor. Xolidina fayho – U erda abadiy qoladilar. Va azvojun mutahharah - Hurlardan pokiza juftlar, bokira qizlar bor. Va rizvonum mikalloh – va u erda Allohning buyuk rizoligiga etishadilar. Vallohu basirun bil`ibod - Alloh bandalarini ko`rib turguvchidir.

Inson zimmasidagi ma`suliyat asosan Alloh roziligi uchun qilinajak harakat, niyat tufayli aniq-ravshan anglab etiladi. Alloh roziligini unutgan, oxir-oqibat borar erini his etmagan insonda mas`uliyat hissi, tuyg`usi bo`lishi dargumon. Unday inson faqat moddiy nafi teguvchi ishlar bilangina ovora bo`ladi.

Halqda shunday rivoyat bor. Deydilarki, er yuzasida bir mamlakat bo`lib, u erda yashovchi aholi o`z mamlakatiga podshohlarni saylab qo`yar ekan. Podshohlik muxlati tugagach, sobiq podshoh kimsasiz erga yuborilar va u erda abadiy qolishga majbur ekan. Podshohlarning bunday ayanchli taqdirini ko`rgan hech bir odam yurtga bosh bo`lishni istamay qo`yibdi. Odamlar navbatdagi podshohni saylash uchun munosib nomzod izlab, ko`p ovora bo`libdilar, chunki podshoh bo`lishni istaganlar qaysidir qusurli jihati bilan bu lavozimga to`g`ri kelmas, munosib kishilar esa podshohlar holidan xabardor bo`lganlari uchun bu mas`uliyatni zimmalariga olishni xohlamas ekanlar. Oxir oqibat bir solih kishini topib o`zlariga podshox etib tayinlabdilar.

Taxt egasi bo`lgan kishi kunduzi mamlakat ishlari bilan band bo`lib, kechalari istirohatda bo`lish o`rniga tongotarga qadar yig`lab chiqar ekan.

Podshoxning bu holidan habar topgan dono vaziri undan yig`ining sababini so`rabdi. Podshoh esa hukumdorlik davri tugab, taxtdan tushgach, uni kutayotgan ayanchli taqdirini o`ylab, qayg`uga botayotganini aytibdi. SHunda vazir: ey podshohim! Axir borar manzilingiz aniq-ku! Hukmronlik davringizda bor imkoniyatingizni ishga solib, Sizga taqdir etilgan joyni obod qiling, shunda qayg`u va azobdan qutulasiz, deb maslahat beribdi. Vazir maslahatiga amal qilgan podshox esa kelajagida saodatga erishibdi.

Podshoh kim?-Podshoh, bu - siz u biz, ya`ni Allohning bandalari.

Kimsasiz er, qochib qutila olmaydigan erimiz-chi? –U qabrdir!

U erni qanday qilib nurga to`ldirish, obod qilish mumkin?–

Faqat bor imkoniyatni ishga solib, ibodat qilish orqali. Ibodatning eng afzali esa odamlarga yaxshilik qilishdir.

SHoir Fuzuliy aytadi:

Rohat istar tab`, mehnatdir ibodat sar`tosar,

Tarki rohat, rag`bati minnat qilar mumtoz o`lur.

Ul sababdindirki, kufr oson o`lur, islom aso.

Arsai olamda mulhid cho`h muvahhid oz o`lur.

YA`ni, Insonning ichi, tabiati, nafsi rohat istaydi. Ammo ibodatlarning barchasi, boshdan oxir og`ir mehnat va mashaqqatdir, oson emas.

Payg`ambarimiz (s.a.v) aytadi: “Man konatiddunyo na`tuhi (bir rivoyatga ko`ra) himmatuhi – kimning himmati, istagi vasf etgani, orzu etgani, o`ngida ham, tushida ham takrorlab turgan narsasi dunyo bo`lsa, Haramallohu taolo alayhi jivaru- “Alloh unday bandaga oxiratda mening yonimda qo`shni bo`lmoqlikni harom qiladi!”

Inson intiladigan mol-dunyosi hayot matosi bo`lib, oxirat uchun payg`ambarimiz (s.a.v): Alkayyisu man dona nafsahu va amila lino, ba`dal mavti - aqlli va zakiiy

boʻlgan kishi nafsini tizginlab, itoat ostiga olib, oxiratga hozirlangan kishidir. Val ahmaqu manittabaʼa nafsahu havoho va tamanno alallohi amoniyya – Ahmoq esa nafsini har bir buyurganini bajarib, undan soʻngra “Alloh rahimdir, gʻofurdir, kechirar, arxamar roximindir”–deya gumon qiladi, umid qiladi. Rivoyat qilishlaricha, Umar (r.a.) Quddus shahri musulmonlarga tobe boʻlganida, uni qabul qilib olish uchun bir xizmatkori bilan birgalikda oddiy kiyimda, shimi pochalari shimarilgan, yalang oyoq va boshyalang holda kirib borgan. Islom lashkari qoʻmondoni uni bu ahvolda koʻrib:-Ey Umar (r.a.) uyalamiz, uyat boʻladi!-degan. Xazrati Umar uning koʻksiga bir musht urib - yoʻqol koʻzimdan! Agar ilgariroq shu soʻzni aytganingda, seni vazifangdan ozod qilar edim. Izzat islomdadir, qiliq-qiyofada emasdir!- degan ekan.

Har bir inson zimmasida qator masʼuliyatlar mavjud. Bu masʼuliyatlar Allohning omonati hisoblanadi. Omonatni saqlay bilmaslik omonatga hiyonatdir. Odam Ato ham omonatni saqlay bilmadi, xudo oldidagi majburiyatini unutib, shayton vasvasiga uchdi va oqibatda jannatdan quvildi.

Rivoyatga koʻra Muso Alayxissalom ruhoniylar olamida Odam Ato bilan uchrashib “Senmi, Allohni buyrugʻini bajarmay, man qilingan mevani eb, bizlarni jannatdan chiqargan.”-debdi. Odam Ato esa bu narsa Allohning taqdiri ekanligini aytgan. CHindan ham har bir ish Allohning taqdiri bilan boʻladi.Odam bolalari irodali va omonatni saqlay oluvchi qilib yaratilgan. Bir tarafdin taqdir belgilab berilgan boʻlsa-da, ikkinchi tarafdin insonga tanlash erkinligi ham berilgan. Alloh mana shu tanlash erkinligi orkali insonni bu dunyoda imtixon qiladi. SHuning uchun Odam bolasini yoʻldan ozdiruvchi shayton, nafs, odamga jilva qiluvchi zavq-shavq, kayf-safo, mol-dunyo yaratilgan. SHularni jozibasiga aldanmay toʻgʻri yoʻl topa olgan insongina zimmasidagi masʼuliyatni sharaf bilan ado eta oladi. Asosiy hikmat mana shundadir. Inson toʻgʻri yoʻl tanlashi uchun aql beriladi, toʻgʻri yoʻlni koʻrsatuvchi paygʻambarlar yuboriladi. Toʻgʻri yoʻl tanlagan inson haromdan xazar qilmogʻi, shaytonga aldanmasligi, nafsiga ixtiyorini bermasligi kerak boʻladi. “Arof” surasining 8-oyatida: “Val vaznu yavna izinul haqu”- “u kun (oxiratda) tarozi tortish xaqdir”, - deyilgan. Inson har bir qilmishi uchun javobgar. Uning qator ado etilishi lozim boʻlgan qarzlari bor.

Inson ibodati, yaʼni namoz, zakot, roʻza, haj kabi amallardan tashqari dunyoviy ahamiyatga ega boʻlgan qator ishlarga ham masʼul. Ularning mukofoti va jazolari ham mavjud. Bular: Oilaga nisbatan javobgarlik. ernaing xotinga, xotinning erda haqlari borligidir.

Qurʻonning “Abasa” surasi, 33-36 oyatlarida “YAvna yafirrul marʼu min axihi va ummihi va minhum yavmanzin shaʼkun yugnih”- U kunda kishi oʻz ogʻa –inisidan ham, onasi va otasidan ham, xotini-yu, bola-chaqasidan ham qochur!”- deyiladi. Buni sababi nima? Oxiratda er - xotinidan qochadi, uni noxaq urgan, toʻgʻri yoʻl koʻrsatmagan, taʼminotini oʻrniga qoʻymagan. Xotin xaqqini endi talab qilishi mumkin, va x.k . . .

Insonning bola - chaqaga nisbatan javobgarligi bor. Oxiratda bola otaning yoqasiga yopishib, menga islomni oʻrgatmading, kalimani oʻrgatmading, dinimni va halol - xaromni oʻrgatmading. Alloxga bandalik qilolmadim –deydi.

Kishining qoʻshnisiga nisbatan masʼuliyati bor. Qoʻshni gʻayridin boʻlsa ham unga nisbatan islomiy qoʻshnichilik xaqqlarini ado qilishi kerak.

Insonning aka-ukayu, opa-singillariga, jamiyatga nisbatan, o'ziga, o'z vujudiga nisbatan javobgarligi bor.

Hadisda: "Fa inna lijasadika alayka haqqul,"- ya'ni, "Albatta jasadingning ham xaqqi bor!"-deyilgan. YA'ni, inson vujudidagi har bir a'zodan faqat Alloh tomonidan buyurilgan savobli ishlar uchun foydalanish lozim.

Manbalarda ko'rsatilishicha, tong yorishmasdan namoz va tilaklar uchun osmon eshiklari ochiq bo'lar ekan. Boshqa vaqt bu eshiklar mas'ul farishtalar orqali yopib qo'yilar ekan. Hikoya qilinishicha Muhammad (s.a.v) farishta Jabroil bilan "me'roj" safariga ketar ekan, birinchi osmonga etganlarida mas'ul farishta ularni to'xtatib, savolga tutibdi:

- Man anta? –Sen kimsan?
- Ana Jibril- Man Jabroilman.
- Va man maaka? – Sen bilan kim bor ?
- Muhammad (s.a.v.)
- Bu tarafga o'tishga unga ruxsat bo'ldimi?
- Ha, bo'ldi.
- Marhamat, unday bo'lsa o'ting!

"Arof" surasining 40-oyatida shunday deyiladi:- "Albatta, oyatlarimizni yolg'on degan va ulardan kibr-havo bilan (yuz o'giran) kimsalar uchun xargiz samo eshiklari ochilmas, toki tuya igna teshigidan o'tmas ekan, ular ham jannatga kira olmaydilar".

Allox oyatlari xaq ekanligini bilganimiz holda yana bir jihatga e'tibor beraylik. Oxirat deb bu dunyodan, bu dunyo deb oxiratsdan voz kechish mumkin emas. Hadislarda "Bir kishining xotini bo'lsa-yu, 40 kun undan uzoq yashasa gunohdir"⁶⁴ -deyilgan. Ro'zg'orda o'ziga hos ehtiyoj bor. Xotinning eriga, erning xotiniga ehtiyoji bor, shuning uchun bu tarafga ham e'tibor bermoq lozim.

Mustaqilligimiz tufayli din va dindorlarga yaratilgan imkoniyatlar natijasida diniy e'tiqodi uchun biron kishiga tazyiq o'tkazilmaydi. YA'ni, musulmon birodarlari dinu-diyonatli, halol, pokiza bo'lishlari uchun harakatda bo'lishlari kerak. Islomda yaxshi inson deyilganda solih banda bo'lish tushinilishi odatiy holga aylangan. Ammo o'zini anglab etgan inson uchun faqat solih kishi bo'lishning o'zi etarli emas. Undan ham go'zalrog'i - muslix banda bo'lishlikdir. Muslix bo'lish nima? Bu - o'zgalarning ham solih bo'lishlari uchun islohchi bo'lmok deganidir.

Solih kishi ibodatlarni tark etmaydi, loqayd bo'lmaydi, to'g'ri va pokiza yo'l tutadi. Muslix esa fakat o'zining emas, o'zgalarning ham to'g'ri yurishi uchun harakat qiladi, solih bo'lishga ko'maklashdi. Hech kimga sir emaski, musulmonlarni turli usullar bilan yo'ldan ozdirib, xristianlikka og'dirish maqsadida dunyoda ko'plab missionerlik tashkilotlari mavjud. Ular ko'p holda prozelitizm bilan mashg'ullar. Dastlabki missionerlik tashkilotlardan biri - London missionerlik jamiyati, 1795 yilda tuzilgan. 1792 yilda Anglikan cherkovining missionerlik jamiyati, 1792 yilda Niderland missionerlik jamiyati tuzildi. 1910 yili edinburg (SHotlandiya)da protestant missionerlik xalqaro kongressi bo'lib o'tdi. Kongress Xalqaro missionerlik kengashini ta'sis etdi. 1823 yilda Targesda injilni tarqatish missionerlik jamiyati tashkil etildi. 1815 yilda ochilgan Bazena injilni tarqatish missionerlik jamiyati tashkil topdi. Bu tashkilotlar hozirgi kunda o'z faoliyatlarini yanada jonlantirganlar. Xususan ulardan biri bolalar uchun xristian lagerlarini tashkil qilish bilan shug'ullanadi. Xalqaro xristian lagerlari

⁶⁴ Хадис ва Қуръон оятлари М.А. Жўшоннинг "Ислом тасаввуф ва ахлоқ" китобидан келтирилди.

assotsiatsiyasining bugungi kunda 200 ga yaqin lagerlari mavjud. O'zbekistonda ham ularning borligi kuzatilgan. Nukusda emanuel' tashkiloti lager tashkil qilgani uchun yopilgan.

Hech bir musulmon loqayd bilishga xaqqi yo'q. Hozirgi kunda ichkilikni g'animat bilganlar, yana boshqa gunoxlarga qo'l urganlar haddan ortiq. Bu ma'naviy buzilish alomatlaridir. SHunday ekan asosiy ish muslix bo'lmoqdir. YA'ni musulmon birodarlari dinu – diyonatli, xalol, pokiza bo'lishlari uchun harakatda bo'lishi kerak.

Musulmon kishi zimmasidagi eng muhim mas'uliyatlardan biri - go'zal hulq - atvor bilan namuna bo'lishdir. Mavlano Jaloliddin Rumiy qazo qilganlarida xatto nasroniylar ham yig'lab, u kishining janozasiga kelgan ekan. Islomga muhabbat qo'yishga da'vat etishdan avval har bir kishi o'zi yaxshi musulmon bo'lmog'i darkor. Agar yaxshi qo'shnichilik qilsangiz atrofdagilar e'tiqodidan qat'iy nazar sizni yaxshilik bilan yodga oladilar. YAna eng zukko farzandlariga islom dinini o'rgatish, iloji bo'lsa ularni imom-xotiblikka o'qitish kerak. YAna ona tiliga e'tibor kuchaytirilishi kerak. Mustaqillikning ilk davridayoq o'zbek tiliga "Davlat tili" maqomi berilishi, shubhasiz, katta ma'naviy yutug'imiz bo'ldi. Rasuli akram (s.a.v.) aytadilar: "Bir erda beshta musulmonning uyi bo'lsa, u erda azon-u takbir aytilmoq va jamoat bo'lib namoz o'qimoq, bu musulmonlar bo'ynida burch bo'ladi. Jamoa namozidan so'ng beixtiyor ravishda o'zaro fikr almashiniladi, ma'naviy - axloqiy masalalar tahlil qilinadi, yo'ldan ozganlar tanqid ostiga olinadi, to'g'ri yo'lga solinadi. Musulmonlar jamoat bo'lib ibodat qilishlarida hikmat bisyordir.

SHunday qilib, har bir musulmon kishi oldida qator diniy va dunyoviy mas'uliyatlar mavjudki, komil inson bulardan ko'z yuma olmaydi.

Islomiy odob kishidan ko'proq andeshani talab qiladi. YA'ni, bilib-bilmay kimgadir ozor berib qo'ymaslikka undaydi. Uning qator axloqiy talablari mavjuddir. Ammo axloqda go'zal xulqlarga alohida e'tibor beriladi. Islomda go'zal xulqlar deyilganda nimani tushunamiz?

Islom dinida go'zal hulqlar va vafo.

Axloq - ijtimoiy hodisa. U insonlar o'rtasidagi munosabatlar mahsuli. Jamiyatda yolg'iz bir insonning axloqli bo'lishi etarli emas, zero axloq kishilar o'rtasidagi munosabatlarning eng muhimi, eng e'tiborlisidir. Islom dini ta'limotiga ko'ra jannatga kirish go'zal axloqli kishilarga nasib etadi. Har bir inson go'zal axloqlarni bilishi, o'rganishi, odatga aylantirishi, amaliyotga tadbiiq etishi, hayotining har lahzasi, har sohasida amal qilishi kerak.

Qur'oni Karimda ham odamlar go'zal, yaxshi, ezgu amallar qilishga buyuriladi. Solih amallar kishilarga faqat naf keltiradi. Yaxshi amallar deyilganda ilm o'rganish, namoz, zakot, ro'za kabi farz amallarni ado etish, qodir bo'lsa hajga borish, omonatga xiyonat qilmaslik, yolg'on so'zlamaslik va xayrli ishlar qilish tushuniladi. Go'zal va xayrli ishlar bilan bir qatorda inson yomon hulqlarni ham bilishi va ulardan saqlanishi lozim. Islom dinining maqsadi ham yomon axloqdan holi, yaxshi huqli insonni shakllantirishdir. Inson o'zida ijobiy fazilatlarni shakllantirib borishi uchun eng avvalo o'z nafsini poklashi lozim. Qur'oni Karoimda: «Qad aflaha man zakko (۲۱ : 14 oyat) – Darhaqiqat, kufru isyondan pok bo'lgan kishi najot topadi», va yana: «Qad aflaha man zakkoho. Va qad xoba man dassoha (SHams: 9-10) – Darhaqiqat, uni (ya'ni, o'z nafsini - jonini imon va taqvo bilan) poklagan kishi najot topadi. Va u (jonni fisq – fujur bilan) ko'mib xorlagan kimsa nomurod bo'ladi», - deyiladi. Imom G'azzoliy aytganidek, agar inson nafsining yomon jihatlaridan himoyalalmagan bo'lsa, unga egallagan ilmidan naf bo'lmaydi. Nafsini isloh qilolmagan kimsa dunyo va oxiratda afsus chekib, zalolatga qoladi. Ziyon va muvaffaqiyatsizlikka uchrab, imkoniyatini boy beradi.

Musulmon kishi uchun eng asosiy narsa – Allohdan qo'rquish, taqvo va xush axloqli bo'lishdir. Axloq – odobli insonning ishlari yurishadi, odamlar bilan munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yiladi, atrofdagilarga foydasi tegadi, o'zi va o'zgalar baxtli yashashlariga sababchi bo'ladi. Axloqini isloh qilib, yaxshi ishlarga odatlanmagan inson o'zining va boshqalar xafagarchiligiga, jamiyat osoyishtaligining buzilishiga sababchi bo'lib, notinchlik va kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Go'zal axloq – odillik, adolatlikdir. Jamiyat munosabatlarining hamma jabhasida adolat bilan ish yuritish odatiy holga aylanishi lozim.

Yaxshi hulqlar qatoriga yana sabr va sabot ham kiradi.

Sabr – qanoatning nima ekanligini talabalar timsolida ko'rish mumkin. Masalan, sessiya yaqinlashib kelayapti, imtihon va yakuniy nazoratlarga puxta tayyorgarlak ko'rish kerak. Lekin atrofda yosh – yalanglar sayr – tomosha bilan, kimlardir futbol va boshqa o'yinlar bilan band. Talabaning ham ular qatorida bo'lgisi keladi, ammo u sabr bilan dars tayyorlashi kerak. Dars mashaqqat, ilm egallash qiyin. Lekin u muvaffaqiyatlar garovi. Kelgusida etuk inson bo'lish uchun zarur.

Har qanday jangu jadalda ham sabr – qanoat kerakdir. Hayotda zafar quchmoq uchun Qur'oni Karimda ikkita shart ko'rsatiladi. Ulardan biri taqvo, ikkinchisi sabrdir.

Taqvo nima ? Allohdan qo'rquvchi, ehtiyotkor, parhezkor, hisob – kitobli, gunoh – haromdan saqlanuvchi, qochuvchi inson taqvoli hisoblanadi. Taqvo jannatga yo'l ochadi, zafar qozonishning sharti hamdir.

Sabr nima ? Sabr - inson qasd qilgan narsasini qo'lga kiritish vositasi. Sabrning o'zi achchchiq bo'lsada, natijasi shirindir.

Go`zal hulqlardan yana biri – marhamatdir. Professor M.A. Jo`shon istilohiga ko`ra bu tushunchaning mazmuni rahmdillikdir, o`zgalarga achinish tuyg`usidir. Hadisda keltirilishicha «Kimki boshqalarga marhamatli bo`lmas ekan, u ham marhamat ko`rmaydi», ya`ni inson Allohdan qilmishiga va fe`l – atvoriga ko`ra jazo yoki mukofat oladi. Hudoning rahmu shafqatidan umidvor va jazosidan qo`rquvchi inson rahmli va marhamatli bo`lishi kerak. Imom ibn Ismoil al – Buxoriy «Al - adab al - mufrad» kitobida rivoyat qilinishicha, Payg`ambarimiz (s.a.v.) shunday deganlar: «Rizqi keng va farovon bo`lishini va hayoti uzoqqa borishini yaxshi ko`radigan kishi qarindoshlaridan o`zini uzmasin.»⁶⁵

Hadislarda aytilishicha marhamatli inson avvalo o`z himmatini yaqin qarindoshlariga ko`rsatishi kerak. Ammo Alloh yaratgan barcha maxluqotlarga ham marhamatli bo`lishi kerak. Payg`ambarimiz (S.A.V.)dan rivoyat qilinishicha, bir axloqi yomon ayol yo`lda kelayotib, chanqagan, ehtiyotlik bilan quduqqa tushib suv ichgach, tashqariga chiqib ko`rsaki, bir it toza chanqaganidan tili osilib ketgan, issiqda yurishga madori etmay qolgan. Ayol bu holni ko`rib, yana quduqqa tushgan va oyoq kiyimida suv olib chiqib, itni sug`organ. Ayolning bu ishi Allohning mag`firatiga, avf etishiga, jannatga kirishiga sabab bo`lgan. Bu hadisda e`tiborga molik bir jihat bor. Ma`lumki it islom dinida eng iflos jonivor hisoblanadi. Uning nafaqat og`zi, hattoki nafasi tekkan ne`mat haromdir. SHunga qaramay ayolning itga nisbatan marhamati Allohga g`oyat ma`qul bo`lgan.

Zaruratsiz it boqish Payg`ambarimiz (s.a.v) tomonidan ta`qiqlangan. Abu Hurayra (r.a)dan rivoyat qilingan hadisi sharifda shunday deyiladi: «Kimki chorva, ov yoki ekindan boshqasi uchun it saqlasa, u har kuni o`z ajridan bir qirotdan mahrum bo`ladi» (Buxoriy, Muslim rivoyatlari). «Sunan Nasoiy» kitobida it bor uyga farishta kirmasligi aytilgan.

Payg`ambarimiz (s.a.v) shunday deganlar: «Agar itlar ham (Insonlar kabi) bir jamoa bo`lmaganlarida edi, ularning o`ldirilishlariga amr bergan bo`lar edim» (Abu Dovud, Termiziy rivoyatlari). Qur`oni Karimda ham «Erda sudralib yurgan har bir jonivor, osmonda qanot qoqayotgan har bir qush xuddi sizlar kabi (Bizning qo`l – ostimizdagi) jamoalardir» (An`om surasi 38 - oyat). Bu oyat mazmuniga ko`ra insonlar jamiki maxluqotlarga shafqat bilan munosabatda bo`lishi kerak.

Boshqa tarafdin itga nisbatan salbiy munosabatning sababi nima ? Nemis olimi Gerartfentesmarning it boqishning zararlari haqida bergan ilmiy ma`lumotiga ko`ra «Ko`pchilik it boquvchilar o`z qo`llari bilan o`zlarini halokatga olib borganliklarini anglab etmaydilar.

CHunki itlarda mavjud bo`lgan sektor qurti xafli kasalliklarga sabab bo`lmoqda. Itlardan yuqadigan bu xavfli kasallik insonlar hayoti uchun juda xatarlidir. Hozirgi kungacha bu kasallikni qanday davolash

⁶⁵ Имом Бухорий. Ал- адаб ал- муфрад.
«Ўзбекистонг» 1990. 33-бет.

usullari aniqlangan emas. Olimlar bu kasallikka qarshi kurashning eng to'g'ri yo'li deb, itlardan uzoqroq yurish, itlarni ham nazorotda tutib turishni aytmoqdalar».⁶⁶ Itlardan yiroq bo'lish lozimligi Payg'ambarimiz (s.a.v) tomonidan bejiz taviya etilmagan.

Yana shunga e'tibor qaratmoq lozimki shafqatsiz inson Allohning marhamatiga sazovor bo'la olmaydi. Bu fikrning dalili sifatida shunday rivoyat keltiriladi: Bir ayol mushukdan g'azablendi. Mushuk qaysidir qilmishi tufayli ayolning nafratiga duchor bo'ldi. SHunda bu ayol mushukni qamab qo'yib, ovqat ham bermagan, qo'yib ham yubormagan. Oqibatda mushuk qamalgan joyida azoblanib, ochlikdan o'lgan. Alloh u ayolni jahannamga solgan.

Mehr – muruvvatli bo'lish haqida Qur'oni Karimda ham ta'kidlangan. Baqara surasida shunday deyilgan: «Bir – biringizga fazlu muruvvat qilishni unutmang. Alloh nima qilayotganingizni ko'rib – bilib turadi» (2:237).

YUqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mehr – muruvvat eng avvalo yaqin qarindoshlardan boshlanishi kerak. «Buning (ne'matlarning) evaziga men faqat yaqinlaringizga mehr – muruvvatli bo'lishingizni talab qilaman» (SHuaro surasi 23 - oyat).

Go'zal axloq ko'rinishlaridan yana biri vafodir. Buyuk vatandoshimiz, g'azal mulkning sultoni Alisher Navoiy «Vafosizda hayo yo'q», - deb bejiz aytmagan. Vafo, bu – bergan so'ziga sodiqlik, o'z axdidan qaytmaslik, sadoqatning amalda namoyon bo'lishi, omonatga hiyonat qilmaslikdir.

Vafo tushunchasiga eng sodiq olim, muhaddislar sultoni Imom Ismoil al – Buxoriyning mislsiz xizmatlari butun islom olamida mashhurdir. Bu buyuk alloma Rasululloh (s.a.v)dan hadis qaysi shaxslar orqali etib kelganligini taxlil qilib, ularning nomlarini izchil bayon qilgan.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) shunday deydi: «Ishonchli bo'lmaganda imon yo'q, axdiga vafo qilmaganda diyonat yo'q».⁶⁷ Iymon – e'tiqodli kishilarning asosiy fazilatlaridan biri axdga vafodir. Vafodor kishi kek saqlamaydi.

Rasululloh (s.a.v) aytadilar: «Senga ishonganning ishonchini oqla, senga hiyonat qilsalar ham sen hiyonat qilma».⁶⁸ Vafoli inson oq ko'ngil, xayrixoh bo'ladi. «Birodariga to'g'ri yo'lni bila turib, boshqa yo'lni ko'rsatish - hiyonat»⁶⁹dir.

Islom dinida eng avvalo kishi dilidagi niyat ko'proq ahamiyatga ega. SHuning uchun «Kishi va'dasini bajarishga urinsa- yu, imkon topa olmasa guknoxkor bo'lmaydi»⁷⁰.

⁶⁶ «Ислом нури» газетаси. 2006 йил 8 декабр

⁶⁷ Инсон кўрки одоб. Тошкент 2004 –й 25 – 26 бетлар

⁶⁸ Инсон кўрки одоб. Тошкент 2004 –й 25 – 26 бетлар

⁶⁹ Инсон кўрки одоб. ТИУ. Тошкент 2004. 26 – бет.

⁷⁰ Ўша ерда.

Vafo va hiyonat orasida juda nozik chegara mavjud bo'lib, «Qavmga bosh bo'lgan kishi Allohdan so'raganida yolg'iz o'zi uchun so'ramasin. Agar shunday qilsa qavmiga hiyonat qilgan bo'ladi»⁷¹, - deyiladi hadisda.

Islom ma'naviy ta'limotida oila qurish ham savob hisoblanadi. Maxmud As'ad Jo'shon yozishicha bir taniqli olim kishi qo'shnisinikiga tashrif buyurib, kelishidan murod ularning qiziga uylanmoqchi ekanini aytibdi. Xonadon sohiblari bu gapdan juda taajjublanibdilar. Chunki ularning qizlari majruh, ikki oyog'i shol ekan. Agar bu qiz sog'lom va chiroyli bo'lganida, uning haridorlari ko'p bo'lar edi. Lekin majruh qizga kim ham sovchi qo'yar edi ?

Olim kishi o'z so'zida qat'iy turib olgach, ota – ona noiloj rozi bo'lishibdi. Bo'lajak kuyov «shu majruh qizga uylanib, uning ko'nglini ko'tarib, savob qozonay», - deb uylangan ekan. Uylanish, bir tarafdin, ko'ngil istagi, ikkinchi tarafdin savobdir.

Axdiga vafodorlik musulmonning asosiy fazilatidir. M. A. Jo'shon hikoya qilishicha Abdulloh ibn Muborak Tarsus deb nomlangan joyga jihodga keladi. U qurollangan Rum askari bilan to'qnashib, ikkovlari uzoq olishadilar, lekin hech birlari engilmaydilar. SHunda Abdulloh dushmanidan ibodat uchun muhlat so'raydi. Uning muholifi ham ibodat qilishiga rozi bo'ladi.

Abdulloh daradan oqayotgan suvdan tahorat olib, ibodat bilan mashg'ul bo'libdi. Dushman askari ham o'z e'tiqodiga ko'ra ibodat bilan mashg'ul bo'libdi. Abdulloh namozni tugatib, duo qilar ekan, o'zicha «SHu odamni hech otdan ag'dara oladim, endi u otdan tushgan , bostirib borib, uni o'ldirsam», - deb o'ylabdi. SHunda uning yodiga quyidagi oyati karima kelibdi: «Axdga vafo qilinglar. Zero axd – paymon (Qiyomat kuni) ma'sul bo'linadigan ishdir» (Isro: 24 - oyat). Demak, inson so'z berdimi, so'zida turmog'i kerak.

Abdulloh bu oyat mazmunidan ta'sirlanib, yig'lay boshlabdi. Dushman askari esa bu yig'iga juda hayron bo'libdi va:

- Ha , o'liming yaqinlashganini bilib yig'layapsanmi, - debdi.
- Robbim meni sen tufayli yig'latdi, - debdi Abdulloh.
- Nega, qanday qilib ?

- Men duo qilayotgan edim, sening ustingga hujum qilish istagi tug'ildi. Alloh menga «Axdga vafo qilish» haqidagi oyatni eslatdi. Men bu erda Robbimning roziligini izlab kelsamu, qilmoqchi bo'lgan ishimga qara. SHuni o'ylab yig'ladim, yo'limni yo'qotganimdan yig'layapman, - debdi.

Endi unga qo'shib raqibi ham yig'lay boshlabdi va islom haq din ekan deb kalima keltiribdi, ya'ni kalimai shahodatni aytib musulmon bo'libdi.⁷²

⁷¹ Ўша ерда.

⁷² М.А. Жўшон. Ислон, тасаввуф ва ахлоқ.

«Истиклол» Тошкент 2000 й. 138 – 139 бетлар

Inson ko`ngli axloq bilan olinadi, yaxshi hulq bilan inson qalbi egallanadi. Iymonli kishi qalbi asosan Alloh roziligi niyati bilandir. Uning har bir ishi Tangriga sadoqat namunasidir. Rivoyat qilishlaricha, Toshkent shahrida bir iymonli boy kishi yashab o`tgani. U o`ta sahovatli bo`lib, muhtoj kishilardan sira yordamini ayamagan. Islom dini ruknlardan bo`lmish haj safarini amalga oshirish tadorigini ko`rib yurgan kezlari ekan. Ayoli esa boshi qorong`ilik davrida ekan. Boy uyda yo`q vaqtida ayoli nimadir so`rab qo`shnisining uyiga chiqibdi. Qo`shnisi esa juda bechorahol yashar ekan. Boyning ayoli ko`rsaki kambag`al qo`shni, er - u xotin supada o`tiribdilar, dasturxonda pishirilgan go`sht bo`lib, ular bir - birlarini zo`r berib ovqatlanishga undab, eri xotining og`ziga, xotini esa erining og`ziga taomdan solar edilar. Boy ayol nima sabab bilan chiqqanini ham unutib, ular eyayotgan taomdan bir luqma bo`lsa ham egisi kelibdi. Lekin ular, ya`ni qo`shnilari bu ayolni dasturxonga taklif qilmadilar. Ayol bechora tupugini yutunib, kambag`al qo`shni hovlisini tark etibdi.

Kechqurun boy kelgach, ayoli bo`lib o`tgan voqeani eriga aytibdi:

- Siz sahovat bilan ularga doimo yordam qilib kelasiz, ular esa meni dasturxonga taklif qilmadilar. Men loqal bir luqma bo`lsada ular eyayotgan go`shtdan egim kelgan edi, - deb hafa bo`libdi.

Boy ham ayoli shikoyatidan biroz qaxrlanib, kambag`al qo`shni hovlisiga kirib boribdi va qo`shnisini bir oz koyibdi. Qo`shni boy gapini tugatishini sabr bilan kutibdi. Keyin:

- Boy ota, sizning yordam va sahovatingizdan minnatdorman. Ammo meni ziqnalikda ayblamang. Siz keyingi vaqtda bizdan xabar olmadingiz. Men esa oldingizga tilanib chiqishdan andisha qildim. Biz er - xotin bir necha kun och qoldik va noiloj hovlimizda yurgan mushukni so`yib, uning go`shtini suvda pishirib, ko`nglimiz tortmasada, zo`r bilan bir - birimizga edirib turgan vaqtimizda ayolingiz kirib keldi. endi aytingchi, qanday qilib harom luqmaga ayolingizni taklif qilshimiz mumkin?, - debdi.

Boy jaholatga berilganiga hijolat chekib, «Men hajga boraman, desamu, yon qo`shnim och o`tirsam... Bu musulmonchilikka to`g`ri kelmaydi», - deb, yo`lga atab qo`ygan mablag`ini qo`shnisiga chiqarib beribdi. O`zi esa hajga bora olmabdi.

Haj mavsumi tugab, hojilar Makka shahridan qaytishlarida, boyning uyiga kirib, uni hojilik unvoni bilan qutlabdilar. Bu boy keyin Hoji Malik nomi bilan mashhur bo`lgan ekan.

Jamoat bo`lib namoz o`qish ham go`zal hulq va vafo timsolidir. Masjidda namozga yig`ilgan musulmonlar orasida muloqot vujudga keladi, axloq masalalarida suhbat bo`ladi, jamoat orasida har bir kishining illa - tu fazilatlari namoyon bo`ladi. Hamkorlik uchun ham kerakli kishilarni tanlab olishga imkoniyat vujudga keladi.

M.A. Jo`shon hikoya qilishicha, u bir pudratchi do`sti bilan namoz o`qish uchun masjidga kiradi. Namoz tugagach yonidagi 15 yoshli bolani gapga tutadi:

- Bolam, kimsan, qaerdansan ? – deb so`raganida, bola Arzurumdan ekanligini aytadi.

- Balli, Adapazariga nega kelding ? Ota – onang shu erdami ?

- Ota – onam Arzurumda. Ishlashga keldim deb javob beradi bola. U suhbatlashib bo`lgach, hamsuhbatlaridan bir oz uzoqlashadi.

M.A. Jo`shon pudratchi do`stiga: «SHu bolani ishchi qilib ol», - deydi. Do`sti sababini so`raganda, «Bu bola Arzurumdan Adapazariga kelibdi. Bu erda ota – ona, tanish – bilishi yo`q. YOsh bo`lishiga qaramay ota – onam ko`rmaydi, ustim eski – tuski demasdan namozini o`qiyapti, vafo qilyapti. Bu vafodor bola, senga undan faqat yaxshilik kelishi va.korxonada ham bemalol unga ishingni, pullaringni topshirib ketishing mumkin. Zero Allohga bo`lgan vafosini buzmayapti», - deb javob bergan ekan.⁷³

Qaysiki musulmon Allohga astoydil bandalik qilsa, u hech qachon atrofdagilarga hiyonat qilmaydi. CHunki xoh ochiq, xoh yashirin qilgan ishlarining barchasidan Alloh Taolo xabardor deb tushunadi.

M.A. Jo`shon tarix kitoblaridan Usmon G`azzoliyning o`g`li O`rxon G`azzoliy qilgan vasiyatini keltiradi: «O`g`lim! Davlatingda qallob, munofiq, ibodat toatini qilmaydigan odamni ishlatma, xodim qilma, ishonma! CHunki u senga vafo qilmaydi. Agar u vafodor bo`lganda edi, Robbisiga vafo qilgan bo`lar edi. Madomiki, Robbisiga vafo qilmagan, namoz o`qimagan, pokiza, halol yurmagan, ahdida turmas ekan, senga undan hech yaxshilik kelmaydi. Allohga vafodor qullarnigina o`zingga xodim qil !».⁷⁴

YAna shunday masalalarga e`tibor qilish kerak:

Kishi pastkashligi bemani gaplardan va so`ralmagan savollarga javob berishidan bilinadi.

Havoyi nafsni tark et, zero, u agar aqldan ustun kelgudek bo`lsa insonning yaxshi sifatlarini yomonga, halimligini xasadga, ibodatini riyoga, sahovatini isrofga, tejamkorligini esa baxllikka aylantirib yuboradi.

Ezgu ishlarning afzali – holi tang odamga yordam qilishdir. Odamlarning aybu – nuqsonlarini ko`rib, ko`rmaslikka olishlik – ulug` kishilarning odatlaridandir.

Ibrohim ibn Umayyanadan so`rabdilar: «Qaysi odam hammadan ko`proq pushaymon -qilur?»..

Javob: «Bu dunyoda yaxshilikni bilmagan odamga yaxshilik qilgan, oxiratda esa o`z ilmidan o`zi bahra olmagan va ilmiga amal qilmagan

⁷³ M.A. Жўшон. Ислом, тасаввуф ва ахлоқ. «Истиқлол» Тошкент 2000 й. 138 – 139 бетлар

⁷⁴ Ўша ерда 140 – 141 бетлар.

odamlar qattiq pushaymon bo'ladilar». YOmonligidan qutilib bo'lmaydigan odam – odamlarning eng yomonidir.

Ilmning kamoli – uning tatbiqi bilan, ishning rivoji – uni qilinganligini oz sanab , yana ishlashlik bilandir. Insonning jamoli-tilning kamoli bilandir.

Olimning darhol aytgan fikri nodonning o'ylab-o'ylab aytgan fikridan ustundir.⁷⁵

YOmon ishlaringni va kabih so'zlaringni nasihatgo'y do'st-u dushmaning aytmisidan oldin o'zing malomat qilib tuzatib olgin.

O'zing birovga yaxshilik qilsang, uni yashir. Senga birov yaxshilik qilsa, uni e'lon qil.

Insonning o'zi qila olmagan ishini boshqa odam ham qila olmasa, uni malamot qilib, ustidan kulishi noloyiq sifatdir.⁷⁶

Toat-ibodat insonlarni qo'riqllovchi qo'rg'on bo'lsa, qanoat esa uning izzat obro'sidir.

O'z zimmasidagi burchlarini ado etib yurishlik insonni karamli ekaniga dalolat qiladi.

Ilm taqvosiz, yodlash fahmlashsiz, go'zallik halovatsiz korga yaramas. O'z dinini xarob qiluvchi odam, o'zining izzatu - sharafini ko'proq xaroba qiluvchi bo'lur.

O'zining ayb - u nuqsonlarini va gunoh - u ma'siyatlarini idrok eta olgan odam eng ziyrak va o'tkir zehnli hisoblanadi.

Ulug' kishini mensimagan odam o'zining asli past ekanligini bildirgan bo'lur.⁷⁷

Bayon qilingan go'zal xulqlar hamisha hayotimizda dasturul amal bo'lishiga Alloh taolo madadkor bo'lsin.

Dunyoning biron-bir mamlakatida o'zbeklar kabi ota-ona va farzandlar orasidagi mehr-muhabbat kabi fazilatlarni uchratish dushvordir. Xalqimiz o'zining qadimiy an'analariga ko'ra ham keksalarga alohida ehtirom bilan munosabatda bo'lib kelgan . Islom dinidi ota-ona va farzandlar munosabati qanday talqin qilinadi?

Farzand va ota – ona munosabatlari.

⁷⁵ Ислом нури. 2006 йил 22 - декабр.

⁷⁶ Ислом нури. 2006 йил. 1 - декабр.

⁷⁷ Ислом нури. 2006 йил. 8 - декабр.

Alloh taola bergan ne`matlari orasida eng shirini, insondan va jamiki tirik mavjudoddan fidoyilikni talab etuvchi, balo – ofatlarga ko`ksini qalqon qilishga majbur etuvchi, kundizi mehnat zaxmatini cheksada, ba`zan kechalari bedor o`tkazishga olib keluvchi, beadam mehr – muhabbat ko`rsatishni talab qiluvchi bir mo`jiza borki, u – zurriyoddir. Aql berilmagan, faoliyatini ongli ravishda boshqara bilmaydigan bir ojiz jonzot bo`lgan xattoki bir qushning bolasiga biron xatar havf solganida o`zini yarodordek tutib, ba`zi holda xujumkorlik qilib, hayoti davomchisidan ofatni daf qilishga urinadi, kerak bo`lsa shu xatar – baloni o`ziga qaratib, bu yo`lda qurbon bo`lishdan ham toymaydi.

Ongli insonchi? Ota – onaning farzandga bo`lgan muhabbatini, ko`rsatayotgan mehrini nima bilan taqqoslash mumkin? Hayot bilan kurashga tayyor bo`lmagan murg`akni asrab – avaylab, uning har bir hatti – harakatidan nimaga ehtiyoj sezayotganini anglab etishga urinib, kamolidan quvnab, dard cheksa undan ko`proq qiynalib, butunlay o`zidan begona va farzandga parvona ota – ona tuyg`ulari va amaliy harakatlariga teng keluvchi, ular chekkan zahmatning o`mini to`ldiruvchi, farzand deb, uning baxt – saodatini deb, jamiyat uchun pokiza va foydali inson bo`lib etishsin deb qilgan mehnatining evaziga teng kela oluvchi va o`mini bosa biluvchi biron narsa bormi? Farzand ota-onaga oldida qachon o`z burchini ado etgan hisoblanadi? Ota – ona oldida farzandning farzandlik qarzi qay darajada?

Muqaddas dinimizda bu masala yuzasidan juda ko`plab oyat va hadislar kelgan.

Masalan “An`om” surasining 151- oyatida “ota – onaga yaxshilik qilingiz”, “Al - isro” surasi 23-24 oyatlarida “Parvardigoringiz, yolg`iz Uning o`zi ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi. Agar ularning (ota-onangizning ) birov yoki har ikkisi sening qo`l ostingda keksalik yoshiga etsalar, ularga qarab “uf” tortma va ularning (so`zlarini ) qaytarma! Ularga (doimo) yaxshi so`z ayt! Ular uchun, mehribonlik bilan, horlik qanotini past tut – xokisor bo`l va “Parvardigorim, meni (ular) go`daklik chog`imda tarbiyalab o`stirganidek, sen ham ularga rahm – shafqat qilgin”, deb (haqlariga duo qilgin)” yana, “Akkabut” surasining 8 – oyatida : “Biz insonni ota – onasiga yaxshilik qilishga buyurdik”(ya`ni, ota-onaga xoh yaxshi, xoh yomon bo`lsin, xoh musulmon xoh kofir bo`lsin ularga yaxshilik qilish ularning burchidir); “Luqmon” surasining 14 – oyatida “Biz insonga ota – onasini (yaxshilik qilishni) amr etdik. Onasi unga ojizlik ustiga ojizlik bilan homilador bo`ldi (homila kattargan sari onaning holi qurib, zaiflashib borur)” (Biz insonga buyurdikki) “Sen Menga va ota – onangga shukur qilgin! YOlg`iz o`zimga qaytajaksan!” “Ahqof” surasining 15-16 oyatlarida “Biz insonni ota – onasiga yaxshilik qilishga buyurdik, Onasi unga qiynalib homilador bo`lib, qiynalib tuqqandir. Unga homilador bo`lish va (sutdan) ajratish (muddati) o`ttiz oydir. endi qachon u voyaga etib, qirq yoshga to`lganda: “Parvardigorim, meni Sen menga va ota-onamga in`om etgan ne`matlaringga shukur qilishga va o`zing rozi bo`ladigan ammallariningni qilishga muvaffaq etgin va O`zing men uchun zurriyotimda ham yaxshilik qilgin (ya`ni farzandlarimni ham ahli soliq bandalarindan qilgin). Albatta men Senga (qilgan barcha gunohlarimdan) tavba qildim va albatta men musulmonlardandurman”, dedi”

“Ana o`shalar shunday zotlardirki, Biz ulardan qilgan eng chiroyli amallarini qabul qilurmiz va jannat egalari qatorida ularning yomonlik gunohlarini o`tib yuborurmiz (Bu) ularga va`da qilinguvchi haqqirost va`dadir.”

Ko`ramizki Tangri taolo ota-onaga o`mini hayotda juda baland tutadi. Alouddin Mansur tarjimasidagi Qur`oni karim 46- sura, 15-16 oyatlari yuzasidan berilgan sharhda shunday deyiladi; “Ushbu oyat karimda yana har bir insonni ota – onaga yaxshilik qilish buyuriladi.

Tabiiy bir savol tug'ilishi mumkin: Nega Qur'onda bot – bot ota – onaga mehr – muruvvat ko'rsatish vojib ekanligi uqtiriladi-yu, farzandlarga mehribonlik qilishga buyurilgan oyatlar deyarli uchramaydi? Kalomullohni sinchiklab o'qib o'rgangan kishi undan yuqoridagi savllarga javob topa oladi: Qur'onda biron behuda jumla yoki so'z yo'qdir. Alloh taolo mo'min-musulmonlarni komil inson qilib tarbiyalash uchun qaysi farmonni necha marta takrorlash lozim bo'lsa, uni shuncha marta nozil qilgan. Negaki Yaratgan o'z bandalarining jismoniy jihatlariidan ham, ruhoniy xususiyatlaridan ham juda yaxshi ogohdir, masalan, U zot ota – onaga, xususan onaga o'z farzandlariga nisbatan shunday mehr ato etganki, ona uchun eng og'ir, hatto tahlikali davr bo'lgan homiladorlik va ko'z yorish davri hamda chaqaloqni emizib, tarbiyalash yillari ota – ona hayotidagi eng baxtli damlardir. Binobarin, ota – ona (albatta ular agar insoniy ma'naviyatdan ajrab vahshiylik darajasiga tushib ketmagan bo'lsalar) farzandga yaxshilik qilishga buyurishning o'zi ortiqchadir. Ammo farzandlar esa yoshliklariga borib yoki o'zlarining o'g'il – qizlari bilan ovora bo'lishib ortlaridagi ota-onalariga beparvo bo'lib qolishlari mumkin, SHuning uchun Qur'on farzandlarni tez – tez ota – ona oldidagi burchlarni ado etishga davat qildi.”

Oliy o'quv yurtlari talabalari ma'naviyatga hos bo'lgan ko'plab fanlarni o'zlashtirib, turli bema'ni safsatalarga aql bilan yondoshib, ularning naqadar soxta ekanligini anglab etadilar. Ammo ilm dargohlaridan yiroq, e'tiqodi zaif, ongli dunyoqarashdan bebahra bo'lgan ayrim farzandlar borki, o'zlarini allomai zamon hisoblaydilar, qilayotgan ishlari kufrdan iborat bo'lsada, ota onalariga nisbatan o'zlarini donoroq hisoblaydilar. Ana shunday noqobil farzandlar nazarda tutilgan holda Qur'oni Karimda deyiladi: “YAna bir kimsa borki, ota – onasiga : “Uf sizlarga! Sizlar menga (o'lganimdan keyin qayta tirilib, qabrdan) chiqishim haqida vada berayapsizlarmi?! Holbuki mendan ilgari ham asrlar – avlodlar o'tgan-ku, (ulardan birontasi qayta tirilib keldimi)?!” – der. U ikkisi Allohdan madad tilagan holarida (o'g'illariga qarab): “Halok bo'lgur, iymon keltirgin! Albatta Allohning (barcha bandalarini qayta tiriltirish haqidagi) va'dasi haqdir” (deydilar), u: “Bu faqat avvalgilarning afsonalaridir”, - der”⁷⁸ O'zini dono bilguvchi, ota – onani hor qiluvchi, duo o'miga la'natga qoluvchi, foyda – ziyonni o'ylamay hoyu – havasga beruluvchi, oqibat hatto farzandlarga ham otalik mehrini bera olmaydigan, ota – ona va farzandlarini uqibatga giriftor qilib, har zamon bir qilib qo'ygan yaxshiligidan mag'rurlanib yuruvchi kimsalar “Ana o'shalar shunday kimsalardirki, ularning ustiga o'zlaridan ilgari o'tgan insu – jindan iborat (kofir) ummatlar qatorida (azob) so'zi haq bo'lgandir. Albatta ular ziyon ko'rguchi bo'ldilar”⁷⁹

O'zining havoyi istaklari tufayli ota – onaning ham, ahli – ayolini ham, umid yulduzi bo'lmish farzandlarini ham tashvishini qilmay, o'z aysh – ishratini o'ylguvchi, jufti halolini tahqirlab, o'zga ayol ilinjida yuruvchi, ota – onaning yuragidan ezilib chiqqan la'natiga qoluvchi kimsalar martabasi kofirlikdir. “Kofir bo'lgan kimsalar do'zahga ko'ndalang qilinadigan Kunda (ularga deyilur): Sizlar o'z huzur – halovatingizni hayoti dunyolaringizdayoq ketkazdingiz va ulardan foydalanib bo'ldingiz. endi Bugun erda nohaq kibru – havo qilganlaringiz va itoatsiz bo'lganlaringiz sababli horlik azobi bilan jazolanursizlar”⁸⁰

Payg'ambarimiz Rasuli Akram (s.a.v) haqlaridan habar beruvchi hadisi sharifda keltiriladi: “Tbn Mas'ud:

⁷⁸ “Аҳкоф” сураси. 17 – оят.

¹ “Аҳкоф” сураси. 18 – оят

² Ўша ерда. 20 – оят.

- Ey Alloh Rasuli, Allohning nazdida qaysi amal sevimliroq?

Rasululloh:

- Vaqtida o`qilgan namoz!

Ibn Mas`ud:

- YAna qaysi amal?

Rasululloh:

- Onaga va otaga yaxshilik!⁸¹

Kishining dunyoda qilgan hayirli ishlari orasida ota – ona roziligiga musharraf bo`lishdan ko`ra sharaflı ish yo`qdir. Islom tarixida Alloh yo`lida hijrat qilgan, Uning roziligi uchun jangu jadallarda qon kechgan, borlig`ini Allohga baxshida qilgan insonlar haqida ko`plab misollar bor. Ammo inson vujudini parokanda qilib, Tangri uchun o`z qonini to`kkanda ham, bu amal ota –ona roziligini olgan farzand amalidan ustun bo`lolmaydi.

Muslimdan shunday hadis keltiriladi:

“Payg`ambarimiz huzuriga bir odam keldi va dediki:

- Ey Allohning rasuli, hijrat va jihod uchun sizdan ruhsat olgani keldim. Alloh yo`lida savob ishlar qilmoqchiman.

Bu gaplarni eshitgan Allohning Rasuli so`radilar:

- Otang, onang hayotmadilar?
- Ha, ikkisi ham hayot

Rasululloh:

Allohdan ajr olmoqchimisan?

- Ha!

Rasululloh:

- Bor, ota – onang oldiga, ularning ko`nglini ol!⁸²

“Ahkof” surasi. 18 - oyat

Inson tomonidan amlga oshirilayotgan har bir ish oqibati yaxshilik bilan tugamog`i yaxshidir. Lekin, shunday amallar borki, ular ko`r – ko`rona qilingan ibodatdan afzaldır.

Tobaroniydan shunday hadis keltiriladi:

“Payg`ampar huzuriga bir odam keldi, dediki:

- Men Alloh yo`lida jihod qilmoqchiman, faqat bunga kuchim etmayapti!

Rasul so`radilar:

- Ota – onangdan hayot bo`lganlari bormi?
- Ha, onam sog`lar!

Rasul:

- Bor, Allohdan onangni ko`nglini ko`tarishini talab qil. SHunday qilsang, sen haj, umra va jihod qilganchalik ajr olasan!⁸³

Ona mushtipar. Ayniqsa qarib, kuchdan qolgan kezlarida bir og`iz so`z bilan ko`ngillari tog`dek ko`tarilsa, farzandning biron nojo`ya so`zi yoki qilmishi tufayli dunyo ko`ziga qorong`u bo`lib ketishi mumkin. Ayniqsa uyda kelin bo`lsa, uning muloyim muomalasi qaynona (ona) ko`nglini moydek eritishi mumkin. Ammo uning qo`pol muomalasidan paydo bo`lgan ko`ngilsizlik o`g`liga nisbatan ham hafalik kayfiyatini vujudga keltiradi.

Tobaroniy qayd etadi:

3 Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул –Кулуб. Т.: 2004 йил 1 – жилд. 134 - бет

4. Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул – Кулуб. – Т. : 2004 йил 1-жилд. 134 - 135 бетлар.

⁸³ Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул – Кулуб. – Т. : 2004 йил 1-жилд 135 – бет.

“Bir kishi dediki:

- Ey Allohning Rasuli, Alloh yo`lida jihod qilgim keladi!

Rasul so`radilar:

- Onang hayotmi? Bor, uning oyoqlariga yiqil. Jannat o`sha erdadir!”⁸⁴

Komil farzand ota – onaning bog`u - rog`i, suyangani tog`i, tanda toza qonidir. Farzandi oqil inson iqboli kulgan kishidir. Noqobil farzand esa shunday bir bedavo dardki, uni dildan o`chirib ham, yurakdan ko`chirib ham bo`lmaydi. Biron maraz illat sifatida kesib tashlashning ham imkoni yo`qdir. Uning shakllanishi shunday murakkab jarayonki, ba`zan unga ko`rsatilgan muhabbat nafrat bo`lib qaytishi mumkin.

Ibn Moja qayd etadi:

“Bir kishi so`radi: Allohning Rasuli, ota – ona farzand tufayli nimalarga erishadi?

Buyurdilarki:

- Ular sening jannating va jahannamingdir!”⁸⁵

Rivoyatlarda keltirilishicha, bir zargar – do`kondor savdo bilan mashg`ul bo`lib o`tirgan vaqtida husnu jamoli jozibador ayol kelib, o`ziga munosib bilak uzuk so`rabdi. Zargar o`z mahsulotlari orasidan alohida mehr bilan tayyorlagan bilak uzukni olib, o`z qo`llari bilan ayolning bilagiga taqibdi. Bu buyum ayolning bir husniga o`n husn qo`shibdi. Beqiyos go`zallik va ayol tarovatidan sarmast bo`lib, o`zini yo`qotgan zargar beihtiyor ayolning bilagidan o`pibdi.

Ayol ketgach esa, o`z qilmishidan pushoymon bo`lib, kechga qadar ko`ngli yorishmabdi.

Zargarning uyida qirq yildan buyon halol hizmat qilib yurgan habash quli bo`lib, shu kuni bekasi bir yumush bilan uni yoniga chaqiribdi. Qul esa kutilmaganda ayolning qo`llariga yopishib, uning bilak va tirsaklaridan bo`sa ola boshlabdi. Ayol bu ko`ngilsiz holdan juda taajjublanibdi va eri ishdan qaytgach, voqeani unga gapirib beribdi.

Bo`lib o`tgan ishlardan iztirobga tushgan er bir oz sukutdan keyin:

- Xotin, kechir! Qulingda ayb yo`q! – degan ekan.

Tobaroniy qayd etadi:

“- Ota – onalaringizga yaxshilik qilingizki farzandlaringiz ham sizlarga yaxshilik qiladi. Iffatingizni asrangki, xotinlaringiz ham iffatli bo`ladi.”⁸⁶

Ongi zaharlangan, turli – tuman ekstremistik oqim va ta`limotlarga ko`r – ko`rona ergashgan, iymoni salomat, pokiza halqimiz orasidan kimnidir iymonli, kimnidir iymonsiz deb, hatto ota- onaga ham qarshi isyon qilgan, burni ostidan uzoqni ko`ra bilmagan, o`zining inson sha`niga to`g`ri kelmaydigan harakati bilan jamiyat tavqi – la`natiga duchor bo`lgan ma`naviy tuban kimsalar diliga joylangan qarashlar oqibatida padari va volidasi dilu tilidan qayta – qayta duoibad olib, ishi yurishmay, na bola – chaqasi, na o`ziga foydasi tegmay, oilasini xorlik chohiga etaklayotgan kimsalarga o`mak bo`lsinki, Buhoriy – Muslim shunday qayd etadilar:

“Hazrati Abu Bakrning qizi Asmo hikoya qiladi:

- Onam meni ko`rgani kelardi. Lekin u Rasulullohning vaqtida (Rasululloh tirikligida) butparast edi.

Payg`ambardan fatvo olmoqchi bo`ldim.

Dedimki:

⁸⁴ Ўша ерда.

⁸⁵ Ўша ерда.

⁸⁶ Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул – Қулуб. – Т. : 2004 йил 1-жилд 135-бет

- Ey Allohning Rasuli, onam meni ko`rgani keldi, lekin islomga kirishdan qochib yuribdi. Onam bilan yaxshi muomalamni davom ettiraymi?

Buyurdilarki:

- Ha, onang bilan yaxshilik rishtasini uzma!”⁸⁷

Muqaddas dinimiz islomda ota – onaga yaxshilik qilish nafaqat ular tiriklik vaqtida, balki ular bu dunyodan ko`z yumgan vaqtlarida ham davom etirilishi kerak.

Abu Dovud va Ibn Moja habar beradilar:

“Bir kishi so`radi: ey Allohning Rasuli, ota – onam o`lgandan keyin ularga yaxshilik qilishning biror yo`li bormi?

Rasululloh buyurdilar:

Ha bor. Bular ota-ona haqlariga duo o`qimoq va istig`for qilmoq, va`da qilib bajara olmagan narsalari bor bo`lsa, uni o`rniga qo`ymoq, aka – ukalarini, opa – singillariga va yaqinlariga silai rahm qilmoq (ya`ni o`shalami borib ko`rmoq) va ularning do`stlarini izzat - ikrom qilmoq!”⁸⁸

Aziz farzandlarimizga ma`lum bo`lsinki, dunyo va oxirat saodatiga etishmoq uchun inson dunyoga kelishining sababchilari, avvalo Alloh Taolo, keyin ota – ona roziligi uchun harakat qilmoq lozim. Zero, “Alloh roziligi ota – onaning roziligidadir. Allohning siniqligi (hafaligi) ota – onaning siniqligidadir.”⁸⁹

Farzand shakllanib, shaxs darajasiga o`sib etishi bir jihatdan ota – onaga bog`liq bo`lsa, ikkinchi atrofidagi kishilar ta`siri, ulardan olinadigan yaxshi – yomon o`makka ham bog`liqdir. Farzandlar kim bilan, kimning ta`sirida ekanligi ota – onani eng birinchi navbatda qiziqtiruvchi muommo bo`lishi kerak. Afsus, ko`p holda bu vazifaning uddasidan chiqqa olmaganimiz tufayli farzandlarimiz xatti – harakati, gap – so`zi dilimizning ranjitib qo`yadi.

YUqoridagi fikrimizni davom ettirib, ota – onaga nisbatan farzandlik burchlari haqida aytadigan bo`lsak, “Farzand otasining qarzini hech qanaqasiga uzolmaydi. Faqat uni qullikka tushgan holda topsa va sotib olib ozod qilsagina uning haqini uzgan bo`ladi.”⁹⁰

Alloh Taolo bergan, Rasulimiz (s.a.v) ga nozil bo`lgan dinimiz shariatiga ko`ra farz qilingan amallarning eng asosiylari imon, namoz, ro`za, zakot va hajdir. Tangri bergan erk shu darajadagi “Ota – onaga ehson bermoq va izzat – ikrom qilmoq, namoz o`qish, zakot berish, ro`za tutish, hajga – umraga borish va Alloh yo`lida jihod qilishdan fazilatliroqdir.”⁹¹

Ota – onaning ko`nglini topish, ularning rizolik duolarini olish, dillarini ranjitadigan ishlardan yiroq bo`lish, nimaiki istasalar qo`limizdan kelganicha muhayyo qilishimiz, ularning har qanday doshnomlarini sabr bilan qabul qilish ohirat uchun eng afzal sarmoyadir. “Kimki ota – onasini mamnun etgan holda erta bilan o`rnidan tursa, ularga jannatning ikki eshigi ochiladi. Kimki ota – onasini mamnun qilgan holda shomga kirsam ham shunday bo`ladi. Agar birini mamnun etsam janatning bir eshigi ochiladi. Aslo ota – onaga qarshi bormang – zulm o`tkazgan bo`lsalar ham, o`tkazmagan bo`lsalar ham ... Kimki ota – onasini ranjitgan holda tong ottirsa, uning uchun jahannamning ikki eshigi ochiladi. Kimki ota – onasini ranjitgan holda kunini kech qilsa ham shunday bo`ladi. Agar birini rajitsa do`zahning

⁸⁷ Ўша ерда. 137-бет

⁸⁸ Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул – Кулуб. – Т. : 2004 йил 1-жилд 137-бет

⁸⁹ Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул – Кулуб. – Т. : 2004 йил 1-жилд 137 – бет.

⁹⁰ Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул – Кулуб. – Т. : 2004 йил 2-жилд 240 – бет.

⁹¹ Ўша ерда.

bir eshigi ochiladi. Aslo ularga qarshi bormang – zulm o`tkazgan bo`lsalar ham, o`tkazmagan bo`lsalar ham...⁹²

Nafs yo`lida, uning etovida yurib, turli g`oyalarni o`ziga hadis o`rnida tushunib, ota – onaga isyon qilib yurgan farzand taqdiri ayanchlidir. “Janatning hidi 500 yillik masofadan seziladi. Ota – onasini ranjitgan va silai rahm qilmagan kimsa uning hidini sezmaydi”⁹³ e`tibor qiling, ota – onani ranjituvchi farzandga nafaqat jannatga kirish, hatto uning hidini ham sezish nasib bo`lmaydi. Ohirati kuyadi.

Tangri Taoloning ota – ona martabasini baland tutishiga qaranki, “Rivoyatga ko`ra Alloh Muso alayhissalomga buyuradi:

- Ey Muso, kim ota – onasiga yaxshilik qilsa, menga osiy bo`lsada, uni yaxshilar zumrasiga yozaman. Kim menga itoat etsayu, ammo ota – onasini ranjitsa, uni osiylar zumrasida qayd etaman”⁹⁴

Farzandlar ko`cha – ko`yda yuksak hulq namunalarini ko`rsatib, atrofdagilarga qo`lidan kelganicha yaxshilik qilib yursa, bu amallarning savobidan ota – onasiga ham beriladi. SHuning uchun “Bir kimsa biron narsani tasadduq qilmoqchi bo`lgan chog`ida, buni ota – onam uchun niyat qildim, deyishi o`rinsizdir. Agar ota – onasi musulmonlar bo`lsa, bergan sadaqasining ajri – mukofati ularga ham tegadi, ayni chog`da, ularga qancha ajr berilgan bo`lsa, shuncha ajr hech kamaytirilmagan holda o`ziga ham beriladi.”⁹⁵

Farzandlar ota – onaga nisbatan mehr – muhabbat ko`rsatish asnosida farzandga nisbatan onaning haqi otaga qaraganda ikki barobar yuqori yoki ko`proq ekanligini unutmasliklari kerak. Ota dunyodan o`tgach, uning do`stlari, ulfatlari, sevgan kishilariga yaxshilik qilish otaga yaxshilik qilish bilan barobar bo`ladi.

Duo olishga kelganda ota – onaga, ayniqsa mushtipar onaga ko`proq e`tiborli bo`lmoq kerak. CHunki, ota ko`ngli ko`tarilishi, uning hizmatini qilishi, issiq – sovug`idan habardor bo`lishi, kiyimi va vujudi pokiza bo`lishi, bemor chog`ida, ojiz qolganida har bir injiqligiga bardosh bilan shay bo`lish halol nikohda bo`lgan ayoli ko`rsatgan himmat oldida xatto farzand mehri ham ojiz. Ayni vaqtda farzandga ona ko`proq yaqin bo`lgani uchun, farzandning shayton so`ziga kirib yo`l qo`ygan xatolarini ham kechirishga ona hamisha shay. SHuning uchun onaning duosi ham tez qabul bo`ladi. “Onaning duosi tezroq qabul bo`ladi, - dedi Rasululloh.

SHu gaplardan keyin, odamlar:

- Nechun, ey Allohning Rasuli? – deb so`radilar.

Rasul buyurdilarki:

- CHunki ona otaga qaraganda farzandga yaqinroq, yaqin bo`lganning duosi oldinroq qabul bo`ladi.”⁹⁶

Hozirgi kunga kelib islom dinida ham yakka nikohlikka tarafdorlik kuchayib bormoqda. Ammo o`tmishda otaning xotinlari va ulardan farzandlari ham bo`lgan. Bir kishi payg`ambarimiz (s.a.v) dan so`radi: “Ey Allohning Rasuli, men kimga yaxshilik qilay? Rasul buyurdilar:

- Ota – onangga yaxshilik qil.

⁹² Ўша ерда.

⁹³ Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул – Қулуб. – Т. : 2004 йил 2-жилд 240 – бет.

⁹⁴ Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул – Қулуб. – Т. : 2004 йил 2-жилд 241 - бет.

⁹⁵ Ўша ерда. 241 – 242 – бетлар.

⁹⁶ Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул – Қулуб. – Т. : 2004 йил 2-жилд 241– бет.

U kishi dedi:

- Mening ota – onam yo`q.

Rasul buyurdilar:

- Bolasiga yaxshilik qil. Sen ota – onang oldida burchli bo`lganing kabi, bolasining oldida ham burchlisan.”

Ota – onaga farzand ko`rsatadigan mehru – vafo darajasi ota – onaning bolaga ko`rsatgan mehru shafqatiga ko`p jihatdan bog`liq. Dinimiz har qancha farzandlar vazifasini uqtirgani bilan, ba`zan ota – ona farzandni arziyas sabab bilan g`azabga minib kaltaklayverishi, biron ishni mustaqil qilishga yo`l qo`ymay dakki beraverishi natija – oqibatida farzand yo`lini yo`qatib, dovdirab o`sadi va imkon topdi deguncha ota – onaga qarshi isyon qilishga borib etadi. Lekin, har qancha isyon qilmasin, o`z xatti – harakatiga shubha bilan qarab, biron ahmoqning ko`rsatgan yo`rig`iga o`ylamay kirib ketaverishi mumkin. SHuning uchun payg`ambarimiz nasihat qilib: “Bolalaringizga qo`sha – qo`sha ehson qiling, o`ylaganingizdan ikki boabar ko`proq siylang.”⁹⁷ – deydi.

Ba`zi ota – ona, ayniqsa “dono” onalar bolam yayrasin, deb saylgohlarga, itirohat bog`lariga olib boradilar va o`sha erda ham kamchilik topib, bolalarini do`pposlab turishni unutmaydilar. Bunday sharoitda bola yayraydimi? Atrofda xushchaqchaq o`ynab yurgan bolalarga o`z ahvolini qiyoslab, o`kinmaydimi? SHunday “mehribon” ona farzandi bo`lganligi uchun taqdiridan nolimaydimi? Buning ustiga bir oila ta`minotini o`rinlata bilmay yurgan otasi yana boshqa xotin ketida ilqib yurgan bo`lsachi? Farzandiga kerakli darajada mehr bera olmagan otaning farzandlarini har zamon bir tansiq taom bilan siylashi natijasida farzand mehri tovlanadimi? Bu darajada qullik asoratiga solingan farzandning qo`liga muzqaymoq olib berib, o`zining “shirin” so`zlari bilan dakki berib, nasibasini zaharlab turuvchi ota - onani farzand sevadimi? erksizlikka muhtolo farzand kelgusida qanday odam bo`ladi?

Abdulloh ibn Muborak huzuriga bir odam kelib, bolasini itoatsizligidan shikoyat qildi.

Ibn Muborak undan so`radi:

- Uni badduo qilibmiding?

- Ha! – dedi u odam.

Ibn Muborak:

- Uni sen yo`ldan chiqaribsan! Bolaga mehr bilan, yumshoq muomala qilish kerak.

Unutmaslik kerakki, mehru – vafo, yaxshilik urug`ini ekkan kishi yaxshilik mevasiga ega bo`ladi. Farzandga bepisand, faqat men haqman deb, zulm o`tgazgan ota – ona musulmonchilik qilolmagan bo`ladi. Qahrli ota - ona qahrga duch kelsa, o`kinmasin!

Aqro` ibn Habis payg`ambarimiz nevarasi hazrati Hasanni o`payotganini ko`rib, dediki:

- Mening o`n bolam bor. Hech birini o`pgan emasman.

Rasululloh buyurdilar:

- Marhamat qilmagan – marhamat ko`rmaydi.⁹⁸

Farzandlarga mehr qo`rini berish, unga suyib munosabatda bo`lish kerak. Payg`ambarimiz hayotlaridan ikki lavhaga e`tibor bering.

Oysha (r.a) hikoya qiladi:

⁹⁷ Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул – Қулуб. – Т. : 2004 йил 2-жилд 241– бет.

⁹⁸ Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул – Қулуб. – Т. : 2004 йил 2-жилд 249 бет

- Rasululloh (s.a.v) bir kuni menga “Usomaning yuzini yuv!”- dedi. Men yuva boshladim. Lekin jirkanayotgan edim. Rasululloh buni sezib, qo`limga urdi. Usomoni mendan olib, o`zi yuvdi. So`ngra uni sevdi. Keyinroq dediki: “YAxshiyam bola (farzand) ko`rmagan ekansan...”⁹⁹(Hz. Oysha farzand ko`rmagan edilar)

Abdulloh ibn SHaddod hikoya qiladi:

- Bir kuni Rasululloh jamoat bilan namoz o`qiyotgan edilar Husayn (r.a) keldi. Rasululloh sajda qilib turganda bo`yniga mindi. Rasululloh sajdani uzaytirdi. Uning orqasidan namoz o`qiyotganlar, bir narsa bo`ldi, deb o`yladilar. Namoz bitganda “ey Allohning Rasuli, sajdani cho`zdingiz. Biz bir balo bo`ldi – yov, deb o`yladik!” – dedilar. Rasululloh shu javobni berdilar:

- Nevaram (Husayn) meni minib oldi. Uning zavqi buzulmasin deb, sajdadan turishga shoshmadim.

Rasulullohning bu harakatida ba`zi ibratli jihatlari bor:

1. Allohga yaqinlik (CHunki kishining Allohga eng yaqin bo`lgan paiti sajdada bo`lgan chog`idir).
2. Bolaga shafqat va yaxshilik.
3. Ummatiga shafqat va marhamatni o`rgatish.

Rasululloh yana shunday buyurdi:

- Bolaning hidi, jannat hididandir.¹⁰⁰

Ota – onamiz bizning qiblagohimiz. Farzandlarimiz – kelajagimiz. Allohning insofu tavfiqiga muyassar bo`lib, ota – onalarimizni ham, farzandlarimizni ham e`zozlashimiz islom dinida eng oliy mukofotga sazovar bo`luvchi ishdir. O`z yaqinlariga mehr ko`rsata olmagan inson hech qachon mehr ko`rmaydi. Alloh shayton layin so`zidan, o`ziga osiy bo`lishdan saqlasin. O`zining hidoyati yo`liga boshlasin. Yo`ldan ozganlarga insof bersin. Aqli qusurli bo`lgan, fikri ojiz bo`lgan ota – onalar va farzandlarga yorug` yo`ldan yurish ne`matini nasib aylasin. Bilib – bilmay qilgan gunohlarimizni o`zi avf etsin.

Farzand va ota-onalar munosabati islomiy axloqning bir qirrasi xolos. Islomiy axloqni o`zlashtirish jarayonida hazrati payg`ambarimiz (s.a.v) va boshqa solih insonlardan qanday ibrat olishimiz mumkin?

⁹⁹ Ўша ерда.

¹⁰⁰ Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул – Кулуб. – Т. : 2004 йил 2-жилд 249 -бет.

Islom axloqiy fazilatlarini o`rganishda payg`ambar va ulug` solih insonlarning o`rni.

YUqorida bayon qilingan mavzulardan shu narsa ayon bo`ldiki, inson har qanday ezgu maqsadlarga erishuvda hal qiluvchi omil uning ahloqi bo`lib, uning qadr qimmat, obro` – e`tibori, jamiyatda, kishilar orasidagi e`tibori, ma`naviy barkamollik sari yaqinlashib borishi axloqiy fazilatlarini o`zida qay darajada shakllantirganiga bog`liqdir. Mustaqilligimiz yillarida, barchaga ayonki, fuqorolar o`z - o`zini boshqarishning eng ahamiyatli bo`g`ini bo`lmish mahalla fuqarolari yig`iniga etibor kuchli bo`ldi. Asrlar davomida shakllangan bu tashkilot sha`ni har bir shu mahallada yashovchi fuqaroning ma`naviy etukligiga, amaliy faoliyatining insoniyligiga, ahloqiy barkamolligiga, ilmiy salohiyatiga, bir so`z bilan aytganda, insoniy fazilatiga bog`liqdir. Qalbida oz bo`lsada or – nomus tuyg`usi bo`lgan inson har qadamda mahalla nigohini his qilib yashaydi. Mahallada shakllangan, fuqarolarning ijtimoiy ong talablariga javob bera oladigan shaxsgina mahalla raisi (oqsoqoli) etib tayinlanadi, saylanadi. Va bunday martabaga dunyo nematlariga ruju qo`ymagan, ahloqi bilan o`mak bo`la oladigan, tamadan yiroq bo`lgan, mahalladoshlar kamoliga xayrihoh bo`lgan insonlardan saylashga harakat qilinadi. Bunday insoniy fazilatlar sohibi bo`lgan inson nafaqat amal-martaba egasi bo`lgan vaqti, balki hayotining so`nggi kunlariga qadar hurmat bilan tilga olinadi, e`zozlanadi. Mahalla ahlining nigohidan na mahalla raisi, na oddiy mahalla a`zosi chetda bo`lmaydi.

Doimiy nazorat yoki e`tiborda ekanligini dildan his qilgan insongina o`z ahloqiy sifatlarini muntazam isloh qilish harakatida bo`ladi. Biron bir inson sha`niga noloyiq ishga qo`l urish oldidan o`z vijdoni oldida hisob beradi, dindor esa bunga qo`shimcha ravishda yana Alloh oldidagi javobgarligini his qilib yashaydi.

Islomiy ma`naviyat nuqtai – nazaridan qaraganida har bir ulamo, har bir diniy rahbar faoliyati oddiy mo``min – musulmonlar diqqat – e`tiborida bo`lib, ulamolar halol – pokligini ko`rib kimdir havas va xaris – tashnalik bilan din yo`liga kiradi va ikki dunyo saodatiga erishadi, kimdir esa o`zi haddan tashqari taassub qilgan, ideal deb bilgan ulamoning g`ayrashar`iy ishini ko`rib dindan og`adi, ulamolar, din peshvolariga nisbatan ixlosi qaytadi.

Taassuf ila shu narsani ta`kidlash joizki, ko`p vaqtlar umidlarimiz sarobga aldanib qoladi . Xoh diniy , xoh dunyoviy martaba sohibi bo`lgan kishi imkoni borida odamlarga qo`ldan kelgan yaxshilikni ayamagan bo`lsa el-yuurt duosini olib, kundan-kunga ro`shnolikka erishib boradi. Aksincha o`z qudratini nomoyish qilib, birinchi navbatda o`zi tanigan kishilarining olib borayotgan faoliyatini sindirishga oshiquvchi inson tezda o`z martabasidan ham mahrum bo`ladi, el nazaridan qoladi va nomi tuban insonlar qatorida yodga olinadi.

Ijtimoiy hayot jarayonida, albatda yuragida ezgulik va samimiyat bisyor insonlar bo`lgani holda, ko`pincha bizni e`tiborimizni ongi noqis, nafs o`pqon, imoni zaif bo`lgan amaldorlar tortadi, chunki hayotimiz qay darajada farovon va erkin bo`lishi aksariyat hollarda shular qulida bo`ladi. YA`ni ularning hayrixohliligi bilan to`xtagan ish yurishib ketishi, yoki

aksincha, ularning koʻrgan chorasi bilan yurib turgan ish – faoliyat inqirozga uchrashi mumkin.

Jamiyatda rahbarlik lavozimida boʻlgan inson qay darajada diyonatli boʻlsa fuqarolar hayoti shu darajada toʻkis boʻladi.

YUqorida aytib oʻtganimizdek, koʻp holda ayrim shaxslardan ixlosimiz qaytadi. SHuning uchun axloqiy faoliyati turli kamchilik va nuqsonlardan holi boʻlgan paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v.) xayotlari eng asosiy oʻrnak sifatida islomiy adabiyotlarda koʻrsatiladi. Sababki, paygʻambarimiz tarbiyasi avvalo yaratgan Tangrining izmida boʻlgan va Odam farzandlari oldiga u pok niyatli bir yoʻlboshchi sifatida yuborilgan. Qurʻonning “Tavba” surasi 128 – oyatida shunday deyiladi: “Laqod jaakum rasulun min anfusikum...- yaʼni (Ey insonlar) Sizlarga oʻzlaringizdan boʻlgan, sizlarning kulfat – mashaqqat chekishingizdan qiynaluvchi, sizlarning (toʻgʻri yoʻl – haq dinga kelishingizga) haris – tashna boʻlgan va barcha moʻminlarga marhamatli, mehribon boʻlgan bir paygʻambar keldi-ku!”

Agar insonlar orasiga, aytaylik, biron boshqa jinsdan boʻlgan banda toʻgʻri yoʻl koʻrsatuvchi qilib yuborilganda edi, balki odamlar unga ergashib, koʻrsatmalariga amal qilib, kamolot sari intilgan boʻlmasmi edilar? Yoʻq! CHunki inson oʻzidek yashovchi, oʻzidek extiyojmand, oʻzidek hayot quvonchlari va tashvishlari bilan hayotining mazmunini shakllantiruvchi odamdangina yaxshiroq oʻrnak va namuna olishi mumkin.

Kishilar orasida shunday toifalar borki, baʼzilari faqat bu dunyo roxat – farogʻatiga erishib yashashni hayotlarining mazimuni deb bilsa boshqalari bu dunyo tashvishlari va quvonchlaridan yuz oʻgirib, tarki dunyo qilib, faqat oxirat rohatini oʻylab yashaydilar. YAna bir toifa borki, ular ikki dunyo saodatini oʻylab yashaydilar. Allohning nazdida shu uchinchi toifaga mansub insonlar koʻproq sharaflidir. CHunki, birinchi toifadagilar oʻz nafslari talabini qondirish uchun hech narsadan, hattoki eng qabih ishlardan ham qaytmaydilar va bugungi kun ilinjida yashaydilar. Ular uchun or, nomus, hayo, ibo, diyonat tushunchalari faqat shahsiy naf bergan taqdirdagina ahamiyatga ega boʻladi.

Ikkinchi toifadagilar esa hayot qiyinchiliklaridan qochuvchi, jamiyatga biron naf keltira olmaydigan qoʻrqoq va hudbin kishilar boʻlib, maʼnaviy kamolot sari farzandlarini ham yoʻllash qoʻllaridan kelmaydigan ojiz kimsalardir. Lekin ongli hayoti davomida jamiyat ehtiyojlariga oʻz amaliy mehnati naf keltirib, hayotining keyingi davrida uzlatga ketib tajriba va bilimlari asosida ijodiy mehnat bilan shugʻullangan insonnlarni tarki dunyo qilganlar qatoriga qoʻshilmaydi, zero ular jismoniy quvvatdan qolgan boʻlsalarda, aqliy zakovatlari tufayli odamlarga koʻproq naf keltiradilar.

Uchinchi toifaga hos boʻlgan kishilar aql masalasida etakchi, imu maʼrifat va ezgulikka intiluvchi kishilardir. Aql - Hudoning bandalariga bergan beqiyos neʼmatidir. Imom Gʻazzoliy aytganidek, aqlda “ilm ... – daraxtdagi meva, quyoshdagi ziyo va koʻzdagi nur oʻrnida yuradi”¹⁰¹ Paygʻambarimiz (s.a.v) “SHayxning (keksa odamning) qavmidagi oʻmi Paygʻambarning ummati orasidagi oʻrnidekdir”¹⁰² – deydi. Bu hadisda keksa kishining boyligi, yoshi ulugʻligi yoki qudratli ekanligi emas, avvalo uning hayotiy tajribasi nazarda tutiladi.

Har bir musulmon uchun Paygʻambarimiz (s.a.v) ning muborak hayotlari oʻrnakdir. Alloh ham Qurʻoni Karimda (Al-Azhob surasi, 21 - oyat) shunday deydi: “Laqad kana lakum fi

¹⁰¹ М. А. Жўшон. Ислом, тасаввуф ва ахлоқ. Т – 2000 йил 44 – 45 бетлар.

¹⁰² Ўша ерда.

rasulillahi usvatun hasanatun li man kana yarjullaha val yavmil oxiri va zakaralloha kasiro”, - “(ey mo`minlar ), qasamki, sizlar uchun – Alloh va ohirat kunidan umidvor bo`lgan hamda Allohni ko`p yod qilgan kishilar uchun Allohning payg`ambari (imon – e`tiqodida va hulq atvori)da go`zal namuna bordir”, - deyiladi.

Bu namuna nimalarda namayon bo`ladi?

Birinchi namuna, bu kofirlarga qahrli va mo`minlarga shafqatli bo`lish fazilatidir. “Al – Fath” surasi, 29 – oyatida shunday deyiladi: “Muhammadur Rasululloh. Vallazina maahu ashiddau alal kuffori ruhamau baynahum tarohum rukkaan sujjada... – Muhammad Allohning payg`ambaridir. U bilan birga bo`lgan (mo`min)lar kofirlarga qahirli, o`z oralarida (mo`minlar) bilan esa rahm – shafqatlidir. Ularni (mudom) Allohdan fazl – marhamat va rizolik tilab ruku`, sujud qilayotgan holda ko`rasiz. Ularning yuzlarida sajda izidan (qolgan) belgi – alomatlar bordir”.

Ikkinchi namuna, U zot hech qachon butlarga sig`inmagan.

Uchinchidan, hayot qiyinchiliklariga sabr – bardoshlik bo`lish.

Malumki Muhammad (s.a.v) jaholat zalolat, qabohat botg`og`iga botgan bir jamiyatga payg`ambar qilib yuborilgan. Bu qavm to`g`ri yo`lga kiringunga qadar rasululloh (s.a.v) minglab to`siqqa, turli balolarga yo`liqqan. Tarixdan bilasizlar, bu davrda otalar o`z qizlarini tiriklayin tuproqqa ko`mganlar. Mana shunday vahshiy jamiyatda payg`ambarimiz (s.a.v) ijtimoiy – iqtisodiy, ma`naviy hayotda o`zgarishlar yasab, islohotlar qilgan.

To`rtinchidan, xudoni amriga so`zsiz bo`y sunishi. Payg`ambarimiz (s.a.v) ko`rsatgan yo`l – yo`riqlariga amal qilish u kishi vafotidan keyin ham xalifalar tomonidan davom ettirilgan. Rivoyat qilishlaricha, Hazrati Umar (r.a.) Madinada bir uyning yonidan o`tib ketayotgan vaqitda u erdan ovoz eshitilibdi,

Ayol qiziga baqirayotgan emish:

- Qizim, sutga oziroq suv qo`shsangchi!

Qizi:

- Onajon, axir xalifamiz bugun jar soldirib, sutlaringizga suv qo`shmang, demadimi!

Onasii

- Qizim, sutga suv qo`shganimizni xalifa qayrdan ham bilardi, sen mening aytganimni qilsangchi, - deydi.

Qizi esa:

- YAxshi, xalifa Umar bilmasligi mumkin, ammo Alloh taolo ko`rib turibdi – ku! Allohdan qo`rqmaymizmi? – deydi.

Suhbatga beihtiyor guvoh bo`lgan xalifa bu uyni belgilab qo`yadi va o`z ko`zi ko`rmagan qizga sovchi qo`yib, kelin qiladi va pokiza nabiralariga bobo bo`ladi.

Beshinchidan, payg`ambarimiz (s.a.v) ulug` inson bo`lishi bilan, mag`rurlikdan yiroq bo`lgan. Ul zot aytadi: “Aia sayyidi valadi odama yavnal qiyamah vala faxra – Men bani Odam, bani basharning sayyidi, peshvosi, ulug` iman, lekin bu bilan iftixor qilmayman. Bu Allohning amri!..” Ul zotning kamtarligi haqida M.A. Jo`shon shunday ma`lumot beradi: “Rasululloh (s.a.v) juda oddiy kiyimlar, yung matodan liboslar kiyardilar, oyoq kiyimlarini o`zlari yamar edilar. Tuya, ot turgan joyda eshakka ham minib ketaverar edilar.” “Qo`y sog`ardilar. Xizmatkor qullar bilan birga o`tishib ovqatlanar, ularga yaxshi qarab, yahshi munosabatda bo`lardilar. Kulganda qahqaha urib, qattiq ovozda kulmaganlar, faqat tabassum bilan kulardilar. Saxiyliklari shu darajada ediki... O`zlariga kelgan sovg`a, hadya va

boshqa narsalarning hammasini kelishi bilan kechgacha tarqatib yuborardilar”.¹⁰³ Atrofdagilar och bo`lsa och tshq bo`lsa to`q yurganlar.

Oltinchidan, u zot o`z nafslari uchun xech g`azablanmagan, ammo Allohning bo`yrug`i bajarilmaganda, qattiq ranjiganlar. Payg`ambarimiz kechirimli bo`lgan, Makka fath etilishi arafasida islom qo`shnidagi ba`zi sarkardalar: “Agar dushman ustidan g`olib kelib, qo`lga tushursak, qiyma – qiyma qilib tashlaymiz” – degan gaplarni eshitib, jang oldidan ularning o`rniga boshqa sarkardalarni tayinlab, sobiq sarkardalarni qo`shin ortidagi vazifalarga qo`ygan, Makkaliklar engilganch, ular kechirilgan, Raululoh (s.a.v) hech kimni duoibad qilmaganlar.

Ettinchidan, ul zot ummatlarini ota - onaga mehribon bo`lishga undagan. Ota - onaga hatto vafotlaridan keyin ham mehr - muhabbat va hurmatni kamaytirmasdan, haqlariga ko`p duo qilishni buyurganlar. Hadislarda keltirilishicha - Rasul alayhisolom juma nomozining hutbasini o`qish uchun minbarga chiqayotib bir qadam qo`yganlarida “Omin” dedilar, keyingi qadamda ham yana “Omin” deydilar, uchinchi qadamni tashlab yana “Omin” dedilar. Namoz ado etilgach sahobalar: “YO Rasululloh, hutba o`qish uchun minbarga chiqayotib, uch karra “Omin” deyish sunnat bo`ldimi - deb so`radilar”

Rasululloh javob berib dedi:

“Men minbarga chiqayotganimda Jabroil alayhssolom kelib: “Onasi va otasi hayotlik vaqtida yoki bulardan biri hayot bo`la turib, ularning roziligini olib jannati bo`lmagan va bu imkoniyatni boy bergan farzandining burni erga ishqalansin!” – dedilar. Men ham “Omin”¹⁰⁴ -dedim”.

Sakkizinchidan, ota – ona ham farzand oldida mas`ulligini takidlab, o`zi ham shunga amal qilgan. Bir hadisda: “farzandlaringizga chiroyli ism qo`ying, odobli qilib, tarbiyalangiz!.. Qur`oni Karim tarbiyasi, Rasululloh muhabbati bilan o`stiring!”<sup>105</sup> - deyiladi. YAna payg`ambarimiz (s.a.v): “Allimu avlodakumul kitobata, var rimayata vassibahah”, - ya`ni “farzandlaringizga yozuv yozishni, qurol ishlatishni, otishni, suzishni o`rgating!” – degan.

To`qqizinchidan, sayyidimiz ayol o`z eriga mutlaqo itoat qilishini uqtirganlar.

O`ninchidan, inson insonga sajda qilishi islomda yo`q ekanligini uqtirganlar.

Rasululloh (s.a.v) ko`rsatmalarga ko`ra oilada katta akaning hurmati otaning hurmatiga teng bo`lishi kerak.

O`n birinchidan, ayniqsa erkak oilada doimo hushchaqchaq bo`lishi, odob doirasida hazil – huzul qilishi, shirin so`zlar aytishi kerak. Bu payg`ambarimiz sunnatidir.

O`n ikkinchidan, zinodan qaytarganlar, ayollar bilan qo`l berib ko`rishish ham ta`qiqlangan.

O`n uchinchinchidan, qarindoshlarni ziyorat qilish, moddiy yordam berish va rag`batlantirishga undalgan.

O`n to`rtinchidan, musulmonlarni o`zaro birodarlikka tashviqot qilganlar va o`zlari ham shunga amal qilganlar.

O`n beshinchidan, kattaga hurmat, kichikka izzat ruhida munosabatda bo`lganlar, va shunga da`vat qilganlar.

¹⁰³ М. А. Жўшон. Ислом, тасаввуф ва ахлоқ. Т – 2000 йил 45 бет

¹⁰⁴ Ўша ерда..

¹⁰⁵ Ўша ерда.

O`n oltinchidan, payg`ambarimiz (s.a.v) o`zlari savdogarchilik bilan shug`ullanganlar va unga tashviq qilganlar. To`g`ri so`z, ishonchli va halol savdogar (tijoratchi)ning huddi bir – birini Alloh uchun do`st tutgan kishilar kabi Arshi A`loning soyasida bo`lishini aytganlar.

M.A. Jo`shon guvohlik berishicha Rasululloh (s.a.v) Madinaga hijrat qilganlarida ijtimoiy hayot bilan bog`liq adolatli nizomlarni, “Madinada Islomning asosiy qonunlar majmuasi” deyilgan batafsil moddalaridan tashkil topgan “nizomnoma”ni ishlab chiqqanlar¹⁰⁶.

Payg`ambarimiz(s.a.v)ning ijtimoiy tavsiyalari hususiy va umumiy tarzda o`z ifodasini topgan.... Masalan, hadisi sharifda har bir uy sohibi uyining oldini tozalashi kerakligi aytilgan. Jmiyatdagi kambag`al kishilarga boy kishilar Alloh rizosi uchun yordam berishlari, zakot berishlari muhim burch, savobli mas`ulyat ekanligi ta`kidlangan.

O`n ettinchidan, payg`ambarimiz (s.a.v) jangu – jadallarda jasur jangchi bo`lganlar.

O`n sakkizinchidan, payg`ambarimiz (s.a.v) shariatni tushungan, Qur`onni yod bilgan kishilarga alohida hurmat bilan qaragan. Lekin, Qur`onni yod bilgan kishi odamlarga bosh bo`lsada, uning buyruqlariga doim ham amal qilaverish lozim emasligini uqtirib, “Amir – boshliqqa faqat hayrli ishlarda itoat qilinadi; gunohga sabab bo`ladigan hollarda itoat qilinmaydi!” – deganlar¹⁰⁷ Rasululloh (s.a.v) go`zal axloq, savobli har qanday xizmat – holis Alloh rizosi uchun bo`lishi kerakligini uqtirganlar. Bir hadisi sharifda “Go`zal axloq nima, yo Rasululloh?” – deb so`raganlarida, u zot: “Senga zulm qilganni kechir, senga bermaganga sen ber, sendan aloqasini uzgan bilan aloqai o`mat, bordi – keldi qil.”¹⁰⁸ – deganlar.

Bu erda payg`ambarimizga hos bo`lgan ayrim axloqiy jihatlar sanab o`tildi. Lekin iymoni mustahkam musulmon kishi islom ustunlaridan bo`lmish namoz vaqtida ham qator axloqiy – ma`naviy qoidalarga amal qilib, hayotlaridagi qusurli jihatlarni bartaraf etib borgan taqdirdagini oldiga qo`ygan maqsadlariga erisha olishi ta`kidlangan.

Har bir harakatu – amaliyotida Alloh roziligini o`ylagan inson ohir oqibat o`z farog`ati haqida kamroq qayg`urib, payg`ambarimiz (s.a.v) va boshqa bequsur e`tiqod egasi bo`lgan kishilardan o`mak olgan holda butun borlig`ini Tangri uchun baxshida etishga tayyor bo`ladi. Imom Abu Homid G`azzoliy yozishicha “Muhammad ibn Siyrin shunday deydi: Agar ikki raka`at namoz bilan jannatdan birini tanlash ihtiyoiri menda bo`lsaydi, men shak – shubhasiz ikki raka`at namozni jannatdan ustun qo`yardim. CHunki ikki raka`at namozda Allohning rizosi bor. Jannatda esa mening hushnudligim bordir.”¹ YA`ni, Allohga bo`lgan muhabbat shu darajadaki, uning rizoligiga erishish har qanday xushnudlik va roxat – farog`atdan afzaldir.

Islom dinida insonga hos bo`lgan eng asosiy fazilatlar orasida, birinchi o`rinda ahloq, go`zal ahloq orqali esa ilim egallash ikkinchi o`rindadir. Hadislarda keltirilishicha “Bir payt payg`ambarimizga old tarafdin bir odam keldi. “Ey Allohning Rasuli, din nima?” – deb so`radi. Rasululloh “Go`zal axloq!” – deb javob berdilar. So`ngra o`ng taraflariga o`tib so`radi: “Ey Allohning Rasuli, din nima?” Rasululloh: “Go`zal axloq!” – deb javob berdilar. U odam Rasulullohning so`l tarafiga o`tib, yana “Ey Allohning Rasuli, din nima?” – dedi. Rasululloh: “G`azablanmaslik! Tushundingmi?” – deb buyurdilar”<sup>109</sup> Arzimas narsadan g`azablanish, o`zni boshqara bilmaslik, jaholat bilan birovga zulm qilish iymon zaifligi, axloq noqisligi alomatidir. SHuningdek eng baxti qaro inson “YOmon ahloq”li inson hisoblanadi.

¹⁰⁶ М. А. Жўшон. Ислон, тасаввуф ва ахлоқ. Т – 2000 йил 51 бет.

¹⁰⁷ Ўша ерда. 53 - бет.

¹⁰⁸ М. А. Жўшон. Ислон, тасаввуф ва ахлоқ. Т – 2000 йил 53 – бет.

¹⁰⁹ Абу Ҳомид Ғазолий. Мукошафат – ул кулуб.(Қалблар кашфиёти). Т- 2004 йил 112 – бет

Fuzayl ibn I'yoz hikoya qiladi: Rasulullohga bir kun shunday habar berdilar: Falon xotin kunduzi ro`za tutadi, kechasi namoz o`qiydi. SHunday bo`lgani holda, uning ahloqi yomon. Qo`shnilariga tili bilan azob beradi (qo`shnilarni qarg`ab, ko`p xafa qiladi). Rasululloh buyurdilarki: Bu ishda hayr yo`q, u jahannam ahlidan bo`ladi.¹¹⁰

YUqorida aytib o`tilganidek, inson hayrli ishlarni yaqinlaridan boshlashining savobi ko`proq bo`lganidek yomonilik, bu erda jaholat va dil ozorlik yaqinlariga nisbatan, hususan farzandlar, qaynona – qaynota, ota – onaga nisbatan yo`naltirilsa, uning gunohi ham ulug`roq va nadomat kuni ham yaqinroq bo`ladi. “Ey Allohning Rasuli, imyon nuqtai nazaridan mo`minlarning qaysinisi fazilatga boyroq? – deb so`radilar. Buyurdilarki: Axloqan eng go`zal bo`lganlari!”¹¹¹ “Alloh rasuli buyuradilarki: Uch narsa yoki uch narsadan biri kimda bo`lmasa, siz uning ammallariga ahamiyat bermang: Allohga isyon qilishdan saqlaydigan TAQVO. Aqilsizlik bilan ish ko`rayotganlarning aqlini to`g`ri yo`lga sola oladigan VIQOR – SALOBOT. Insonlar bilan yaxshi chiqisha oladigan GO`ZAL AXLOQ”¹¹²

Alloh Taolo hammamizga yaxshi, go`zal axloqli solih insonlar qatorida bo`lishni nasib aylasin!

Insondagi ijobiy fazilatlar namayon bo`lishida jamoa o`mi eng zarur va kerakli omildir. SHuning uchunki, yolg`iz insonni na axloqli, na axloqsiz deb bo`lmaydi. Uning axloqlilik darajasi faqat jamiyatda, odamlar orasidagina namayon bo`ladi. Suhbatimiz boshida jamoa ko`rinishlaridan biri sifatida hayot tarzimizning asosiy, ijtimoiy ko`rinishlaridan biri bo`lgan mahalla haqida fikr yuritdik. O`zbek farzandi o`zining axloqiy sifatlarini isloh qilib borishi ko`proq shu mahalla nigohi, nazorati shaxsga hayrixoh bo`lishi yoki uning salbiy jihatlari tanqidiy munosabatda bo`lishi tufayli sodir bo`ladi. Mahallada e`tibor topa olgan insongina jamiyat e`tiboriga ham tushadi. Bunday inson har nafasda sha`niga dog` tushurmaslik harakatida bo`ladi.

Islomiy tarbiya topib, qalbida insonlarga nisbatan siylai rahm tuyg`usi ustivor bo`lgan inson o`zgalar tarbiya topishida ham o`mak bo`ladi. O`zi va o`zgalar saodatiga, baxt topishiga sababchi bo`ladi.

Hulosa qilib aytish mumkinki, Rasululloh va boshqa solih insonlar hulqidan ibrat olgan holda uni amalda namayon qilish faqatgina jamiyatda namayon bo`ladi, jamiyatdan ayri holda bu narsa mumkin emas.

Biz yuqorida go`zal axloq, ota – ona va farzandlarlar orasidagi axloqiy – ma`naviy munosabatlar va payg`ambar hamda solih insonlarning ibratlari xaqida to`xtalib o`tdik. endi islomiy axloqdagi va shu bilan birgalikda ajdodlarimiz tushunchasidagi axloqiy atamalar (kategoriyalar) mazmunidan chuqurroq ogoh bo`lishga urinib ko`raylik. Bu qanday tushunchalar?

¹¹⁰ Ўша ерда. 226- бет.

¹¹¹ Ўша ерда 227-бет

¹¹² . Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат – ул қулуб.(Қалблар кашфиёти). Т- 2004 йил 229 – 230 бетлар.

Islomiy ahloq

O'tgan darslarimiz davomida ma'naviyat, uning tarkibiy qismlari, ma'naviyatning islom dini ta'limotida namoyon bo'lishi, islom dini ta'limoti ezgu niyatlar va amallardan tashkil topganligi, insonni ikki dunyo saodatiga erishtiruvchi ta'limot ekanligi, bu din insoniy fazilatlarni tarannum etuvchi va insonni g'ayriinsoniy harakat va amallardan qaytaruvchi ta'limotdan iborat ekanligini tushunib oldik. Bugun so'nggi ma'ruzamizda yana bir karra ma'naviyat poydevorini tashkil etuvchi, uning eng asosiy va boshlang'ich tarkibiy qismi bo'lgan axloq -odobning islomiy talqini haqida suhbat qilamiz. Prezidentimiz I.A.Karimovning talqiniga ko'ra «Bizning millatimizni mana shu barchamiz uchun muqaddas ota-bobolarimiz dinidan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz, o'zligimizni yo'qotamiz».¹¹³ SHu narsani yana bir karra ta'kidlab o'tmoqchimizki, islom dini nozil bo'la boshlagan dastlabki fursatdayoq ta'kidlangan birinchi oyatning dastlabki so'ziyoq «O'qi!» - degan undovdan boshlangan edi. SHunday ekan, bu muqaddas dinni qanchalik chuqur o'rganib, uning qaytargan narsalaridan yuz o'girib, tavsiya etgan amallarini dasturul amal qilib, hayotimizning mazmuniga aylantirsak faqat va faqat ma'naviy barkamollik sari yaqinlashib boramiz.

Prezidentimiz Toshkent islom universitetining ochilishi marosimida so'zlagan nutqida «Alloh oldidagi burchimizni ado etish, muqaddas dinimizni, Qur'oni Karim oyatlari va hadislarini chuqur va keng o'rganish, targ'ibot qilish, xalqimiz, millatimiz, yosh avlodimizni bu bebaho xazinalardan bahramand bo'lishiga sharoit tug'dirish, shu asnoda ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, mana shunday savobli vazifalarni bajo etish oliy dargoh rahbariyati, domla - o'qituvchilari, ilmiy xodimlarining asosiy vazifalari deb bilaman,»¹¹⁴ degan edi. Islom dini ma'naviyatining ahamiyati shunda ko'rinadiki, bu dinga amal qilgan kishi eng avvalo hayoli, iboli, nomus tuygusi kuchli, eng asosiysi, «dilim to'g'ri bo'lsa bo'ldi-da, yarim

¹¹³ Ислом зиёси ўзбегим сиймосида. ТИУ нашр. Тошкент - 2005 йил. 5-бет

¹¹⁴ Ислом зиёси ўзбегим сиймосида. ТИУ нашр. Тошкент - 2005 йил. 6 - бет.

yalang`och yuraversam bo`laveradi»,- degan safsatadan yiroq bo`ladi. Islomiy ma`naviyat, islomiy tarbiya haqida fikrlar ekanmiz, mustaqillik yaratib bergan sharoit va imkoniyatlarga chuqur qoniqish ila shukronalar - aytishga majbur bo`lamiz. Zero, yuzlaridan iymon nuri yog`ilib turgan yoshu keksalarni ko`rganda ich-ichimizdan quvnaymiz, «Mustaqil davlatimizning siyosatini belgilab olar ekanmiz, - deydi I.A.Karimov, - islom dinimizni albatta nazarda tutishimiz kerak. Negaki, din turmush tarzimizga ma`naviy qadriyatlarimizga, kishilar ongiga o`zining o`chmas muhrini bosgan. Xudoga qarshi kurashganlarning ahvoli nima kechganligini kurdik. endi bu xil besamar va quruq inkor yo`li yaramaydi. Dinga nisbatan ijobiy munosabat tashqi siyosatimizda, ayniqsa, musulmon davlatlari bilan o`zaro aloqalarimizni kengaytirishda katta ahamiyatga ega».¹¹⁵

Hozirgi kunda o`ta murakkab bir ijtimoiy sharoitda yashayotganligimizni unutmaylik. Bir tarafdin O`zbekiston davlati, uning rahbariyati sha`niga internet va boshqa OAV orqali yogdirilayotgan bo`xton hamda asossiz axborotlarni kuzatsak, ikkinchi tomondan vahshiylik, hayosizlik, boylik ketidan quvish, qotillik va shafqatsizlikni targ`ibot qiluvchi turli fil`mlar televidenie orqali namoyish qilinishi, behayo o`zbek qo`shiqlarining ijrosi va uning kuyiga mast bo`layotgan tor va sayoz dunyoqarashga ega bo`lgan kimsalar ko`payib borayotganligi kishini qayg`uga soladi. YAqin oylarda Toshkentning eski shahar qismidagi transport bekatida kichik do`konchadan shunday qo`shik taralayotgani diqqatimni tortdi, e`tibor qiling:

“YOningda qolay, belingdan tutay, Bag`ringa bosay, yuzingdan o`pay”. va xokazo. Bu qo`shiq muallifi kim, qaysi bastakor kuy bastalagan, kim ijro qilayapti? eng achinarlisi, yoshi 20-25 lardagi qiz odamlar ko`z o`ngida bu qo`shiq ohangiga mos ravishda muqom qilib turibdi. Odamlar esa o`z tashvishlari bilan. Bu holga kim e`tibor qilyapti, kim befarq...

Davrimiz ijtimoiy sharoitining yana bir xatarli jihati, ayrimlar aytishicha «TSivilizatsiyalar to`qnashuvi»dir. Bu to`qnashuvdan yaxshi jihatlar o`zlashtirilsa koshki edi. Afsus ayrim yoshlarni tizzasi yirtiq shimlarda, turli bachkana tasvirli maykalarda, yubka yoni ochiq holda, yoki butun borlig`ni namoyon qilib turuvchi shimlarda ham ko`ramiz. Buning ustiga, o`quvchilar daftarlari ustida yarim yalang`och yigit - qizlar tasvirini ham ko`rib, bu qadar ma`naviy tubanlik targ`ibotchilari ishiga yoqa ushlaymiz. Bu ma`naviyatni yo`q qilish hisobiga daromadni ko`paytirishdir. «Bozor iqtisodiyoti deb inson ma`naviyatini unutish gunoh bo`ladi. Nukul pul va foyda ketidan quvsakda, ammo odamlarimiz tuban, ma`naviy qashshoq bo`lib qolishsa - bunday jamiyatning hech kimga keragi yo`q. O`zbekiston mustaqillik sari yo`l olar ekan, dastlabki kunlardanoq o`tmish madaniyati va qadriyatlarini tiklash, nohak jabrlangan insonlarning muborak nomlarini yuzaga chiqarish, milliy ongni o`stirish kabi vazifalarni o`z oldimizga oliy maqsad qilib quydik»¹¹⁶, - deya uqtiradi yurtboshimiz.

YUrtimizda dinlar amal qilishi uchun qonuniy imkoniyatlar yaratib berildi. Ayniqsa, tub aholining asosiy qismi e`tiqod qiladigan islom diniga jiddiy e`tibor qaratildi. Buning sababini shu narsada ko`rishimiz mumkinki, xalkimiz azal-azaldan or-nomusi kuchli, diyonatli kishilardir. Islom dinining o`ziga xos xususiyati haqida hadisda shunday deyiladi: «Har dinning o`ziga xos xususiyati bor. Musulmonchilikning xususiyati — sharm - hayo». Islomiy tarbiyaga axamiyat berilishi, bu - aholini yoppasiga mutaassibona dindorlarga aylantirish

¹¹⁵ .А.Каримов. Дин одамзотни ҳеч қачои ёмон йўлга бошламайди. «Ислом зиёси ўзбегим сиймасида» китобидан. 21-бет

¹¹⁶ Инсон кўрки - одоб. Тошкент ислом униперситети. 2004 йил 4 - бет

emas. «Dinni fakat bir yoqlama emas, balki uni dunyoviy fanlar bilan uygunlashgan holda o`rganib, o`zlashtirib, hosil qilingan bilim va tajribalar asosida ma`naviyat va ma`rifatning rivojiga o`z diyorimizda va dunyoda tinchlik va osoyishtalikni barqarorlashtirish ishiga, odamzodning bir — biriga hurmat va ehtiromini, mehru oqibatini uygotish kabi oliyjanoblik ishiga o`z hissamizni qo`shish»¹¹⁷ ekanini unutmasligimiz darkor.

Islomiy tarbiya eng avvalo diniy savodxonlikni oshirish orqali amalga oshadi. Diniy bilim va diniy madaniyat bo`yicha chalasavodlik oqibati faqat salbiy natijalarga olib keladi. YUrtboshimiz aytganidek, «shu chalasavodlik, jaholat, e`tiqodsizlik tufayli qanday fojialar sodir bo`lishi mumkinligini hayot tajribasida ko`rmoqdamiz va ko`rdik».¹¹⁷

Islomiy tarbiyaga e`tibor eng avvalo hamma ahil, hamma pokiza bo`lib yashashini ta`minlash maqsadiga qaratilgandir. e`tiqod mustahkamligini ta`minlashga qaratilgandir. Din peshvolariga murojat qilar ekan, yurtboshimiz «Ulamolar safiga turli baqiroqlar, kuni kecha partbiletni ko`tarib raykomga yugurgan, butun sallani qiyshiq o`rab, machitga yo`rg`alagan beburd kimsalar adashib kirib qolmasin. YAxshi odam har kuni e`tiqodini almashtirmaydi. e`tiqod va imon bir libos emaski, bugun bunisini echib tashlab, ertaga yangisini kiysang»<sup>118</sup>, - deb ta`kidlashi bejiz emas.

Ma`naviyatimizning ajralmas qismi bo`lmish din ahloqi farzandlar kamolotida, ularning ruhiy tarbiyasida bemisl ahamiyatga ega. «Bugungi kunda din barcha illatlardan, yolg`on va riyokorlikdan poklanishga, yuksak ahloqiy negizlar va ma`naviy fazilatlarni qayta tiklashga ko`maklashmoqda. Islom — ota — bobolarimizning dini — musulmonlarning ongi, turish turmushining mohiyati, hayotining o`zidir»¹¹⁹. Ammo, musulmonchilikdan yiroq bo`lgan kimsalarning axloqiy illatlarini bartaraf etish nisbatan og`irdir. CHunki imoni zaif kishining axloqi ham zaifdir.

Paygambarimiz Muhammad (s.a.v.) aytadi: «Mo`minlarning iymonda barkamollari xulqi yaxshilaridir».<sup>120</sup> YAxshilik va yomanlik haqida so`ralganda rasulloh (s.a.v) dedilar: «YAxshilik xushfe`llikdir. Biror ish qilsangu, ko`ngling g`ash bo`lib, odamlar bilib qolishidan hadiksirasang, o`sha ishing yomonlik bo`ladi».¹²¹

Islom dinida odob - axloqqa juda jiddiy e`tibor beriladi. Rasuli Akrom (s.a.v) marhamat qiladi: «Oramizda kimlar yomonligini aytaymi? — Vaysaqi safsatabozlar. YAxshilar kimligini aytaymi? -xushfe`l, odoblilar».¹²²

Islom ta`limotiga ko`ra ezgulik va taqvo hatti - harakat mazmuniga aylanmogi kerak. Qur`onning «Moida» surasi, 2-oyatida shunday deyiladi: «Ezgulik va taqvo yo`lida hamkor bo`ling. Gunoh va adovat yulida hamkor bo`lmang».¹²³

Islomiy tarbiyada har bir mo`min - musulmon boshqa musulmonni o`z birodari, tug`ushganidek ko`rishi lozim. Qur`onning «Xujurot» surasi, 10-oyatida «Mo`minlar bir-birlariga birodardirlar» deyilgan.

Islom fazilati haqida Prezidentimiz shunday deydi: «Din odamzodni hech qachon yomon yo`lga boshlamaydi. Din bu dunyoning o`tkinchi ekanini, oxiratni eslatib turadi, odam bolasini hushyor bo`lishga, harom

¹¹⁷ Ислом зиёси ўзбегим сиймосида. 7-бет.

¹¹⁸ Ўша ерда 6-бет.

¹¹⁹ Ўша ерда.. 22 - бет.

¹²⁰ Ўша ерда. 22-23 бетлар.

¹²¹ Инсон кўрки - одоб. ТИУ. 5-бет.

¹²² Ўша ерда 6-бет.

¹²³ Ўша ерда 5-бет.

yo'llardan uzoq yurishga, yaxshi bo'lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi. Biz dinga bundan keyin ham barcha shart - sharoitlarni yaratib beramiz».¹²⁴

Ahloq ilmi qadimiy tarixga ega. Unga ko'hna YUnon, Misr, SHom va Fors o'lkalaridagi falsafiy maktab olimlari tamonidan turlicha ta'rif berilgan. Jumladan Hoji Xalifa axloq ilmiga «U amaliy hikmatning bir qismidir»¹²⁵, - deb ta'rif bergan. Hikmat haqida Qur'oni karimda shunday deyilgan: «U o'zi xohlagan kishilarga hikmat beradi. Kimga hikmat berilgan bo'lsa, demak, unga ko'p yaxshilik berilibdi.» («Baqara surasi», 269 oyat) Toshkent islom universiteti aspiranti Bohodir Pirmuhammedov ta'kidlashicha «SHarq mutafakkirlari insonning axloq ilmiga tabibga muhtoj bo'lgandek muhtojligini ta'kidlaydilar, chunki ular tabib insonning jismidagi dardni davolasa, axloq ilmi uning ruhi va axloqidagi illatga davo bo'ladi, deb hisoblaydilar».¹²⁶

F.Sulaymonova ko'rsatishicha «Evropa uygonish davrining yorqin namoyondasi bo'lgan va XP1-X1U asrlarda yashab ijod etgan italiyalik shoir Dante o'zining «Ziyofat» nomli falsafiy risolasida insonlarning xulq atvori masalasiga ko'p o'rin ajratadi, chunki har bir shaxsning hatti -harakatlaridan jamiyatning faoliyati tashkil topadi, shaxs jamoaning bir a'zosi bo'lib, uning takomilini , jamiyatning madaniy darajasini belgilaydi. SHoir o'rta asr ta'limotlariga zid o'laroq, axloq ilmini hamma ilmlardan, hatto teologiya va metafizikadan ustun qo'yadi».⁸ Aynul SHams universiteti doktori Abdusalom Abdulaziz Fahmiy «Sosoniy axloq kitoblari va amaliy xikmatlarining islom axloqiga ta'siri» asarida islomdagi ahloq ilmiga bag'ishlab yozilgan kitoblarni 4-guruhga bo'ladi.

1. Diniy axloqqa oid kitoblar asosan Qur'oni karim oyatlari va hadisi nabaviyalardagi aqidalarga asoslanadi. Bu mavzuda ko'plab asarlar yozilgan bo'lib, ulardagi eng mashhuri at-Tabariyning «Makorimu-al-ahloq» kitobidir.
2. Falsafiy ahloqqa bag'ishlab yozilgan kitolar. Ularning asosini yunon farsafiy kitoblari tashkil etib, ular islomiy kitoblardan mavzu bo'yicha farq qiladi. Arastuning «Axloq» kitobi falsafiy axloqqa oid yirik asar hisoblanadi. U Farobiy tomonidan arab tiliga tarjima qilingan. Islom olimlaridan Ibn Miskavayx, Imom G'azzoliy va Nasriddin Tusiyning xam bu mavzuda asarlari mavjud.
3. Tasavvufiy asrlarga bag'ishlangan kitoblar : bu mavzudagi kitoblar diniy va falsafiy ahloqqa oid kitoblarga o'xshash bo'lib, ularda diniy va Aflotunning falsafiy ta'limoti qorishmasidan kurish mumkin. bu kitoblar ma'naviy o'zgarishlar oqibatida o'ziga xos xususiyat kasb eta boshlaydi. Bunday kitoblarning axloqiy mavzulari boshqa yo'nalishlardan farqli jihati shundaki, ular o'zida tasavvufiy xususiyat kasb etadi. Tasavvufiy axloqqa oid kitoblarning eng mashhuri Imom G'azzoliyning «Ihyou Ulum –id din» asaridir.
4. Tarbiyaviy axloqqa oid kitoblar turli xalq va madaniyatlarning axloqiy ta'limotlari , maqollari va hikmatlarini o'zida jamlagan. Bu turdagi kitoblar arab va umum islom adabiyotining muhim manbalari hisoblanadi. CHunki ulardagi habar va malumotlarni keltirish uchun birgina manba bilan cheklanmay, turli manbalardan istifoda qilingan.¹²⁷

¹²⁴ Ислом зиёси ўзбегим сиймосида. 21 бет.

¹²⁵ Доирату-л-маъориф ал-исломия. 2-жилд. Қоҳира. 1962. Б. 436.

¹²⁶ Ф.Сулаймонава Шарқ ва Ғарб Т.: 1997 Б. 367

¹²⁷ Абдусаллом Абдулазиз Фаҳмий. Сосоний ахлоқ китоблари на амалий ҳикматларнинг ислом ахлоқиға таъсири. Қоҳира 1998 . 26 бет.

Tarbiyaviy axloq yo`nalishining rivoji uchun quyidagi asosiy omillar hissa qo`shgan: Qur`oni karim oyatlari, hadisi nabaviya va shariat ahkomlariga asoslangan islom dini ta`limoti. Arab tiliga tarjima qilingan yunon va fors tilidagi manbalar.

SHuningdek, bu mavzudagi asarlarda buddaviylik, zardushtiylik va boshqa dinlarning axloqiy ta`limotlari mavjud. Bu asarlarning o`ziga xos xususiyatlaridan biri, ulardagi mavzular vaqt o`tishiga qaramay o`zining dolzarbligini yo`qotmasdan, xar bir shaxs, jamiyatning hayot tarziga ta`sir o`tkazmay qolmaydi. Ular diniy ahkomlarni butunligicha tahlil etishga intiluvchi falsafiy kitoblardan yoki zohidlik va faqirlik ruhiyatini aks ettiruvchi tasavvuf kitoblaridan farqli o`laroq insonni odobli bo`lish, nafsni razilliklardan poklash va boshqa yaxshi sifatlariga intilishga o`rgatadi.¹²⁸

Mahmud Zamahshariyning «Rabi`yu-l-Abror va Nusus — l-Ahyor» asari ham axloq adabiyoti mavzusida yozilgan yirik asarlardan hisoblanadi. Bu mavzu rivojiga Ibn Qutayba ad - Daynuriy «Uyuni - l - Axbor», Ibn Abdurabbihiy «Iqdu -l- Farid», Ar Rog`ib-al-Isrohoniy «Muhodarotu-l-Udabo», Ibn Abdulbir «Bag`datu -l-majolis», Ibn Arabiy «Muhadarotu-l-Abror va Musomarotu -l-Axyor», Al Amaliy «Al kashgul», «Muhlat» va Vazir Abu S`ad al Obiy «Nasru-d-dur» asarlari bilan o`zlarining salmoqli hissalarini qo`shganlar. Mahmud Zamaxshariyning fikricha, Olloh taolo tog`u toshlarni, butun tirik mavjudotlarni, dengizu sahrolarni yaratgan. U insonning ishlarida, yurish turishlarida doimo ogoh bo`lib turadi. SHunday ekan, inson bu dunyoda hayrli ishlar qilishi, odil bo`lishi, yomonlik va yovuzlikka qarshi kurash olib borishi, xaqiqat tarafdori bo`lish kerak. «barcha ishlardan ogoh olloh taoloni hech bir ishingda nazaringdan qochirib, unutma. Har bir tasarrufingda odil bo`lib, birovga zulm qilma»,¹²⁹ - deydi olim. Maxmud Zamaxshariy

davlat arboblarni, hokimlarni adolat va haqiqat yo`lidan borishga, xalqqa ziyon - zahmat etkazmaslikka, jabr- zulm qilmaslikka chaqiradi: «Agar shox odil bo`lsa, ra`iyati itoatda bo`lgay».¹³⁰ «Xaqiqat va adolat bilan to`g`ri siyosat yuritmagan har bir rahbar va boshliq qattiq ozobu uqubat va baloga giriftor bo`ladi» Islomiy axloqqa bagishlangan adabiyotlarda qator axloqiy tushunchalar (kategoriyalar) o`z ifodasini topgan.

Asrlar davomida shakllanib kelgan insoniy fazilatlar dinda o`z ifodasini topib, odamlarning moddiy va ma`naviy hayotlariga zararli ta`sir kuchiga ega bo`lgan illatlar islom dinida xarom qilingan

SHarqning mashhur allomalaridan Abdulla Avloniy xulq haqida so`zlar ekan, uni ikkiga bo`ladi, ya`ni yaxshi xulq va yomon xulq. YAxshi xulqlar qatoriga fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g`ayrat, riyozat, qanoat, nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzu lison, iqtisod,viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrihohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va avf kabi tushunchalarni kiritadi. Bu fazilatlarini o`zlashtirgan kishilar yaxshi xulq egalari hisoblanadi. endi, yuqorida sanab o`tilgan tushunchalarning mazmuniga bir oz to`xtalamiz.

Fatonat - aql egasi bo`lish demakdir. Payg`ambarimiz (s.a.v): «Ey insonlar! Aklingizga tavoze` qilingiz. Siz janobi haq buyurgan va qaytargan narsalarni aqlingiz ila bilursiz,»- deydi.

¹²⁸ Ўша аср 28 бет.

¹²⁹ Абу -л-Қосим махмуд Замахшарий. Нозик иборалар. Тошкент 1992. 57 бет.

¹³⁰ Махмуд Замахшарий рабиъу-л-аброр ва Нусусу -л-ахёр 3-жилд богдод 1982 74 бет.

Olimlar aytishicha, dunyoda har neki ko`paysa bahosi arzon bo`ladi. Ammo aql, ilm va tajriba soyasida qancha ko`paysa, shuncha qimmatbaho bo`ladi.

Diyonat - Alloh huzuriga yaqin qiladigan muqaddas e`tiqoddir. Din va e`tiqodi salomat bo`lmagan kishi haqni botildan, foydani zarardan, okni qoradan, yaxshini yomondan ajrata olmaydi. Bunday kishilardan na o`ziga, na o`zgaga, na millatga foyda yo`k.

E`tiqodli kishi albatta doimo ibodatdadir. Ibodat ikki turli bo`lib, biri tan ibodati, boshqasi ruh ibodati hisoblanadi. Tan ibodati tahorat, namoz, ro`za, zakot, haj kabilardir. Ruh ibodati qalb ila ado etiladi. YA`ni, e`tiqodni mahkam, dilni pok kilib, Qur`on, Hadis va boshqa islomiy ilmlarni o`zlashtirmoqdir. Aql din bilan, din amal bilan, amal taqvo bilan barkamol bo`ladi. Din kishi qalbida saxovat, marhamat, shafqat, muruvvat eshiklarini ochadi, saodatga etkazadi. Payg`ambarimiz «Allohni ko`z oldingda ko`rib turgandek ibodat qil, zero sen uni kurmasang ham, albatta u seni ko`radi, nafsingni o`lgan hisobla», - degan.

Islomiyat - yaxshi xulh egalari bo`lgan kishilardir. Islom dini yaxshi xulq tufayli odamlar qalbidan joy oldi. Qaerdaki islomiyat

zaiflashsa, o`sha erda adolat o`miga razolat, e`tiqod o`miga atolat, ya`ni mutaassiblik keladi.

Nazofat - bu badanni, kiyimlarini, pok tutmoqdir. Poklik iymondandir, deyilganda shu narsa nazarda tutilgan bo`lsa, ajab emas. Payg`ambarimiz «Islom dini pok dindir. Bas, pok bo`lingiz, pok bo`lmagan kishi jannatga kirmaydi», - degan.¹³¹

Sa`y va g`ayrat - ibodat va xizmatlarni harakat, bilim bilan amalga oshirmoqdir. Kishi yosh vaqtida ilm va ma`rifat, hunar va san`atga bo`yin egmasa, harakat bilan ularni o`zlashtirmasa ongi past va ayni paytda eng tuban ishlarni bajaruvchi odamga aylanib qoladi.

Riyoza - savob ishlarni bajarib, yomon ishlardan saqlanmoqdir. Riyozaatga amal qilgan kishi shariat yo`lidan chiqmaydi, ezgu amallar bilan oxirat azobidan qutuladi. Vujud salomatligi, ruh saodati riyozat tufaylidir.

SHijoat - mardlik va botirlikdir. Uning aksi - qo`rqoqlikdir. Qo`rqoq kishi molidan, jonidan vatanidan ayrilishi muqarrar.

Sabr - Qanoat - shukronalik. Qanoat egasi hasaddan yiroq bo`ladi. Qanoatsizlik ko`plab illat va kulfatlarni keltirib chiqaradi.

Ilm. Ilm - dunyoning izzati, oxiratning sharofati. Ilm - savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ajratib beradi. Ilmsiz kishi ota-ona, qarindosh - urug, yor - do`st, din va millatiga foydasi tegishi u yoqda tursin, o`zi uchun foydali amallarni ham bajara olmaydi. Payg`ambarimiz: «Ilmga amal qiluvchilardan bo`lingiz, naql va rivoyat qiluvchilardan bo`lmangiz»- degan.

Aqsomi ilm. Ilm diniy va dunyoviy ko`rinishlarga bo`linadi. Din ilmi bilan dunyoviy ilmlarni ham puxta o`rganmoq zarurdir.

Hilm - har ishga achchiqlanavermaydigan, arslon yurakli, yumshoq tabiatli bo`lmoqlikdir. Nafsning rohati, qalbning matonati, fikrning salomati vijdonning halovati hilm tabiat bo`lishlik bilan namoyon bo`ladi. CHin inson bo`lish uchun havasning qo`liga nafsning jilovini bermaslik, bo`lar — bo`lmasga achchiqlanmaslik, sovuqqonlik, yumshok tabiatlik, muloyim so`zlik, halim va sabrlik bo`lish lozim. Payg`ambarimiz (s.a.v) : «Alhilmu sayyidal axloq - Hilm xulqlarning sayyididir»-degan.

¹³¹ Абу -л-Қосим Махмуд Замахшарий. Нозик иборалар. Тошкент 1992. 74 бет

Intizom - har bir amalni o'z vaqtida tartibi bilan qilish. Ongli inson amalga oshiradigan har bir ish ma'lum nizom va tartibga tayansa, unda kutilgan natijaga erishmoq mumkin bo'ladi. SHu ma'noda Qur'on ham musulmonlar nizomidir. Qaerdaki nopoklik va hiyonat sodir bo'lsa, yanada yomonrogi, bu odatiy holga aylansa, bunday jamiyat inqirozi shubhasiz muqarrardir. Faqat tartib - intizom mavjud erdagina yutuqqa erishish mumkin bo'ladi.

Miqyosi nafs - yoki nafs o'lchami. Bu - qiladigan ishlarimiz, amallarimizni insoniyat qonuniga, shariatga muvofiq qilib, amalga oshirish masalasini vijdonimiz ila o'lchab ko'rmoqdir. YA'ni, har bir inson o'z nafsiga loyiq ko'rmagan muomalani o'zgaga loyiq ko'rmaslikdir. Ibn Sino: «Insonning fazlu kamolining o'lchovi nafsning o'lchovi bilan o'lchanur»-deydi.

Vijdon. Vijdon - ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladigan hissiyot. Sezgi va tuyg'udan iborat ma'naviy quvvatdir. Vijdon insonning aql va fikrini haqiqiy mezonidirk, bu tarozu bilan o'z kamchiliklarini o'lchab bo'linganidek, o'zgalarning ham faoliyati va harakatini baholaydi. Kishining qilgan ishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bo'lsa vijdon quvnaydi. Qaboxat va noo'rin ishlarni qilsa vijdonli qishi nafratiga yo'liqar.

Vijdon har kimning fe'l — atvori va amaliy faoliyatini ko'rsatuvchi bir oynaki, bu ko'zguga chin dildan nazar qilgan kishi o'z ayb va kamchiliklarini ko'radi va xatolarini tuzatish harakatida bo'ladi. Ibn sino aytadi: «Vijdon ruh va fikringizni tuyg'un qilmakka birinchi vositadir.»

Sof vijdon kabi hech komila mezon o'lmas,
Kishi o'z aybini bilmas kabi urfon o'lmas,
SHod - masrur o'lur insof ila vijdonli kishi,
Kimki vijdonsiz esa to'g'ri, chin inson o'lmas.

Vatanni sevmok. Har bir kishi tugilib o'sgan shahar yo mamlakat shu kishining vatanidir. Vatan, xudud tuyg'usi ongli ravishda bo'lmasada, xatto xayvonlarda ham bor. Hayvon o'z hududi, galasi yoxud uyuridan ayrilsa, rohat - farog'atdan ayriladi. Bu xatto o'limga olib keladi. Ajdodlarimiz «O'zga erda sulton bo'lguncha, o'z yurtning gadosi bo'l» - deganlar. Pygambarimiz (s.a.v) «Hubbul - vatani minal imoni - vatanni suymak iymondandir.» - degan.

Haqqoniyat. Inson salomatlik bo'stoniga va saodat gulzoriga haqqoniyat orqali erishadi. Haqqoniyat, bu - ishda to'g'rilik, so'zda rostgo'ylik va niyatda poklik demakdir. Insondagi bor ezgulik va odamiylikning onasi haqqoniyatdir. Janobi Haq subhonahu va taoloning shu nomini muqaddas bilgan kishi haqqoniyatdan ajralmaydi, zero haqqoniyat nuri qaysi dilda jilvagar bo'lsa, ollohning yordami, madadi va uning murabbiylik talablari shu dinda namoyon bo'ladi. Rasuli Akram Nabiyi Muhtaram (s.a.v) «Annajotu fissiddiqi - najot rostlikdadir»-degan. Jaloliddin Rumiy: «Islomiyat ayni haqqoniyatdir.- Xaqni qabul qiluvchilar shariat huquqini saqlamoqqa buyurilganlar. CHunki shariat hukmlarning eng asosiy ildizi haqqoniyatdan iboratdir», - degan.

Nazari ibrat. Nazari ibrat deyilganda tabiat va jamiyatning har bir voqeligiga sinchkovlik bilan e'tibor berib, undan ibrat olish tushuniladi. Inson nazari bilan hayot kitobidan o'ziga tegishli xulosa chiqarib oladi. Inson ma'rifatli bo'lishi uchun olam voqealaridan habardor bo'lishi kerak.

SHuning uchun aql sohiblari, fatonat egasi bo'lgan kishi hoh foydali, xoh foydasiz narsaga qarar ekan, o'ziga bir tegishli xulosa chiqarib oladi.

Janobi Ali Roziy allohu anhu shunday deydi: «Dunyoda eng muntazam dorul - ulum nazari ibratdir. Ibrat ko'zlarining pardasi ochilmagan kishilar hayot kitobiga yozilgan haqiqatni ko'ra

olmaydilar. Koinaot kabi mukammal bir ibrat saxnasidan foydalanmagan kishi hech bir hikmatidan bahramand bo'lmaydi». YA'ni hayot tarbiya bera olmagan kishini hech bir muallim tarbiya qila olmaydi. Jaloliddin Rumiy: «Janobi haqning osori qudratlarini ochiq ko'z bilan, ibrat nazari bilan tomosha qilinsa, kup hikmatlar ko'riladi. CHunki haqiqat ilmining muallimi ibrat ko'zidir. Haq ibrat ko'zi bilan mushohada qilinadi»- deydi. Bir ko'r Luqmonning oldita kelib ko'zini ochishini so'raydi. Luqmon uning ko'z pardasini olishi mumkinligi, ammo ibrat kuzini ocha olmasligini aytadi. SHunda ko'r kishi - demak siz hakim emas, tabib ekansizda, deb uning ibrat ko'zini ochgan ekan.

Iffat. Nafsning gunoh va buzuq ishlaridan saqlamoqlik iffat deyiladi. Insonni har qanday qabih ishlardan saqlovchi iffatdir.....

Ahloq egasi, iffat sohibi qalbini, vijdonini poklaydi, tilini yolg'on, g'iybat, bo'xton, bema'ni so'zlardan saqlaydi. Luqmoni Xakim «Iffat nomusning eng mahkam suyanchig'idir, nafsning xujumiga shu quvvat bilan qarshilik qilinadi».- deydi. Aflotun aytadi: Iffat xotindan ko'proq erkaklarga yarashadigan bir sifatdir. Xotin iffati odob va nomusini saqlovchidir. erlarning iffati butun insoniy odoblarga tegishlidir. Iffatsiz inson yalang'och jasad kabidir»,- degan.

Zotingga ziynat bo'lar iffatni dilda saqlagil,
SHahvat nafsing sening bo'lgusidir qul.
Har kishining dunyoda yirtilsa iffat pardasi,
Nafsi shaytondek ani bir kun solar bo'yniga g'ul.

Hayo - ishda, so'zda odobga amal qilishdir. Hayo dilni ravshan qiladigan bir nurki, inson doim shu ma'naviy nurning ziyosiga muhtoj bo'ladi. Iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodir. Ibn Sino: «Insonda doim turadigan husn va latofat hayo bilan iffatdir. Hayosiz yuz jonsiz jasad kabidir», - degan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) : «Alhayo minal imoni - hayo imondadir», «Izo lam tastah faasna`moshi'ta- hayo qilmasang istagan ishingni qil» - degan ekanlar. Hayo, nomus imonga dalildur. Hayosiz doimo xoru dalildur. Uyalma ma'rifat hosil qilishdan. Maorifsiz kishilar murda dildur.

Idrok va zako. Ochik ko'ngil, xushtabiat, ziyrak bo'lishlikni idrok va zako deyiladi. Bu xususiyat yaxshi xulqlarning jannat bog'i, ko'zlarning ilohiy nuridir. Zehnsiz kishilarning o'lchovsiz so'zlari o'zlarini uyaltirgani kabi eshituvchini ham zeriktiradi. Hushyor va ziyrak kishilar kuch va quvvatlari bor vaqtda kelajakni o'ylab, pul va mollarini o'rinsiz sarf kilmaydilar. Bolalar tarbiyasiga esa o'ta mas'uliyat bilan qaraydilar.

Hifzu loson, bu - har bir millatning o'z ona tilini saqlamog'i va unga xurmat e'tiboridir. Milliy tilni yo'qotish milliy ruhni yo'kotishdir. Ko'p o'yla. Oz so'yla.

Tillarning eng yaxshisi so'zga usta til, so'zlarning eng yaxshisi oxirini o'ylab so'zlagan so'z.

Iqtisod. Qo'lda bor mulk va ne'matlarning qadriga etmoqlik - iqtisoddir.

Sahovatning aksi baxillik bo'lgani kabi iqtisodning aksi isrofdir.

Millatning qudrati uning boyligi bilan o'lchanadi. Boylik topishning barakali yo'llari: xunarmandlik, dehqonchilik, chorvadorlik, savdogarlik. Bularning hammasiga esa bilim kerak. Abdulla Avloniy aytadi: Amerikaliklar bir dona bug'doy ekib, ypgirma qadok bo'g'doy olurlar, evropaliklar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni o'zimizga yigirma besh tiyinga sotadilar. Ammo biz osiyoliklar, xususan, turkistonliklar, dumba sotib, chandir chaynaymiz. Payg'ambarimiz: «So'ng zamonlarda dinni saqlamoq mol bilan bo'ladi. Iqtisod ustida harakatli kishilar faqir bo'lmaydi», - degan.

Viqor. Kibru havo va gururdan, manmanlikdan o'z nafsini saqlamoq viqor deyiladi. Viqorsiz kishi e'tiborsiz boyga, kibrli kishi illatlik faqirga o'xshaydi.

Viqorlik kishi yomon xulklardan holi, adolatli, amali va soʻzi toʻgʻri, shafqat va marhamatli, dindoshlarga xayrixoh, millat foydasiga tortishuvchi, pok qalbli arslon yurakli boʻladi. Hazrati Ali «Viqorli kyshi kibr va gʻururdan holi boʻladi.

Viqor odamgarchilikning madori, iftixori, insoniyatning homiyi eʼtiboridir. Lekin viqorning haqiqiy darajasiga etmoq uchui ilm va maʼrifat lozimdir»¹, - degan.

Xavf va rajo. Xudodan koʻrqish va uning marhamati hidoyatidan umidvor boʻlishga xavf va rajo deyiladi. Bu hislatni oʻziga hamroh qilgan kishi eng fozil, hech narsadan qoʻrqmaydigan, sher tabiatli, arslon yurakli boʻladi. Namrud Ibrohim alayhis - salomni olovga tashlamoqchi boʻlayotgan vaktida «YO, Ibrohim! Siz haroratli otashdan qoʻrqmaysizmi?»- deganda Ibrohim: «Ey Zolim! Alloh taolodan koʻrqkan kishi Namrudning otashidan qoʻrqadimi?»- degan ekan. Kishilarni harakatga undovchi narsa umiddir.

Itoat. Bu - Alloh taoloning amriga boʻysunib, ibodat va itoat etmoq.

Haqshunoslik. Oʻzga kishilarining qilgan ezgu xizmatlarini unutmaslik, yaxshilpkka yaxshilik qaytarishidir.

Hayrixohlik. Kishilarning bir - birlariga qaysi yoʻl va qaysi vosita bplan boʻlsa ham foyda etkazmoqdir. Paygʻambarimiz (s.a.v) «Alloh taologa iymon keltirgandan soʻng, amallarning afzali bandalar bir-birlariga muhabbatli boʻlishlaridir»-deb marhamat qilgan.

Munislik. Xar kim oʻz tengi, maslakdoshini topib, ulfat boʻlishi munislikdir. Dunyoning lazzati sodiq doʻstlar bilan suhbat qrmoklikdur.

Sadoqat. Sodiq kishi din va millatga, vatan va davlatiga toʻgʻrilik bilan xizmat qilib obroʻ va sharafiga ega boʻladi. Sadoqat gulshani salomatlik, boʻstoni esa najotdur.

Paygʻambarimiz: «Toʻgʻrilikni ixtiyor qilingiz, u halokatli koʻrinsa ham najot toʻgʻrilikdadir. Har qancha najot kabi koʻrinsa ham, yolgʻondan saqlanigiz, zeroqi oqibati halokatdir»- degan.

Adolat. Adolat va marhamatli kishilar oʻziga loyiq koʻrmagan ishni boshqqa ham loyiq koʻrmaydi. «Alloh rizosini istar ekansiz, bolalaringiz haqida ham adolat qiling! YAna mazlum kishining duosidan kofir boʻlsa ham saqlaning! CHunki mazlumning duosi doimo maqbuldir»- deydi paygʻambarimiz (s.a.v).

Muhabbat. Kishining kecha va kunduz tindirmasdan mehnat va mashaqqatga koʻkrak berib ishlatadigan narsa vatan va bola-chaqalarning mehru-muhabbatidir. Paygʻambarimiz: «Oʻz nafsing uchun qaysi narsani sevsang shu narsani boshqalar uchun ham sev». «Ota muhabbatini saqla! Agar sen otaga boʻlgan muhabbatni uzsang, Alloh taolo seni har turli fayzlardan maxrum qilur,» - deydi.

Himmat. Himmat insoniyatning joni, yaxshi xulqlar posboni, himmat sohiblari karim sifatlik, rahim tabiatlik boʻlur. Olihimmat kishi soyasi latif, mevasi laziz daraxt kabidir. Bu soyaga yaqin boʻlgan kishi hamisha foyda koʻradi.

Avf. Birovning qilgan kamchiligini boʻyniga olib, oʻkinib, kechirim soʻrasa, uni kechirmoq avfdir. Olijanob kishilar avfni qabul qiladi.

YOmon xulqlar. Insonlarni abadiy saodatdan mahrum kiladigan, Alloh qoshida va xalq nazarida nafratga duchor, mangu hayotimiz uchun zaharli boʻlgan yaramas xulqlar gʻazab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, rohovat, anoniyat, adovat, namimat, gʻiybat, hakorat, jibonat, hasad, nifoq, tamaʼ, zulmdir. Rasuli akram (s.a.v): «Bandalarning yaxshirogʻi boshqalarga foydali boʻlganidir»- degan.

Gʻazab. Ikki kishi oʻzaro shiddat va keskinlik bilan muomalada boʻlishi - gʻazabdir. Kishi oʻzgalardan keladigan zarar va halokatdan oʻz nafsini faqat shu soyada saqlaydi. Lekin gʻazabni jabr va zulm yoʻlida ishlatishdan saqlanish kerak. Nafsning gururidan paydo boʻlgan

gazab insonni alamli azoblarga giriftor qiladi. Chunki bu shiddat va haroratning ta'siri vujudagi qonii buzib, harakat qildirib, aqlni parishon qilgan holda kishining ixtiyorini qo'ldan oladi va bu soyada o'zini yoxud boshqa bir kishini hasrat va nadomatga duchor qiladi.

Suqrot: «G'azabning avvali junun, oxiri nadomatdir», - degan.

SHahvat. Jonzotlar, xususan inson naslini davom ettirishi uchun ato etilgan quvvatdir. Agar shahvat g'ayri mashru' yo'lda suiste'mol qilinsa, amonatga xiyonat qilgan bo'ladi. SHahvat o'z o'rnida ishlatilsa vujudimizni har xil illatlardan saqlaydi. O'rinsiz sarf etilsa inson iffatini barbod qiladi va hayotini xarob qiladi.

Aqsomi jaholat. Jaholat ikki qism bo'ladi. Birinchisi «jahli basit», ikkinchisi «jahli murakkab» deyiladi. «Jahli basit» jihatiga xos bo'lgan kishilar bilmagan narsalarini e'tirof etadilar va iqror bo'ladilar. Buning davosi o'qish - o'rganish yo'lida jahdu jadal kilmoqlik ila amalga oshadi.

«Jaxli murakkab» ga xos bo'lgan kishilar bilmaydi, ammo bilmasligini tan olmaydi. Bu dardi bedavodir.

Jaholat. O'qimagan, bilimsiz, hech narsani tushunmaydigan nodonlik - jaholatdir. «Aljohimu mayyitulahyo - nodon kishi tirik o'lik», - deydi arablar.

Aflotun: «Johilning yaxshi niyati fozilning xusumatidan zararliroqdir. Inson eng yuqumlik kasaldan saqlangani kabi johildan hazar qilmoq lozimdir», - degan.

Safohat balosi. Safohat — nodonlik, bu - g'ayriqonuniy ishlarga umrini va mulkini sarf etishdir. Safohat, ya'ni nodonlik eng yomon xulqlardan sanalgan yaramas odatki, insonni qayg'u va nadomat qilishga majbur etishdan tashqari shuhrat va e'tiborini er bilan yakson qiladi va aziz umrini behuda sarf etishga olib keladi. Inson o'z nafsin idorasini ta'minlab, bahtiyorona maishiy hayotni namoyon etishga qodir bo'lsa, u hakiqatan insoniy baxtga erishgan bo'ladi.

Safohat yolg'iz bir oilaning emas, butun bir qavmning mulk va boyligini mahv etishga qodirdir. Xatto nomus va fazilatiga xos bo'lgan hurmat va e'tiborini ham barbod qiladi. Inson ko'rпасiga qarab oyoq uzatmasa, daromadiga qarab xarajat qilmasa, iqtisod yo'lini rioya qilmasa, nafsining yoqasini safohat qo'ldan qutqara olmaydi.

Inson umridan bir daqiqasini, molidan bir chaqasini o'rinsiz va gayriahloqiy narsalarga sarf etsa bu dunyoda xor, oxiratda alamlik azobga gyriftor bo'ladi.

Safohat ofatijondir jahonda,

Safohat bizdadur ushbu zamonda,

YUqumlik bir marazdandur safoxat,

YUkib andin tug'ilur har falokat.

Safohat mahv etar umring, hayoting,

Umid etma safohatdan najoting.

Safohat aylagay molingni taroj,

Bo'lursan oxiri nomardga muhtoj,

Berubdur haq senga juz ixtiyoriy,

Rizo ermas buzuq koringta bori.

Aziz umringni g'aflatda kechirma,

Safohat jomini nafsga ichirma.

SHariat yo'lida qil istiqomat,

Safohat oxiri hasrat, nadomat

Tushun, joni azizing ehtiyot et,
Musaffo yul payg`ambar ortidan ket
. Safohat o`ylama oromi jondir.
Butun vijdon ila jonga ziyondir.
Faqirlikni pulga sotib olursan.
Tushungin, dushmanga muhtoj qolursan.
Safoxat dushmani nomusu shoning,
Buyuk bir ofati ruhi ravoning.
Qabohatdir, safolatdir safohat,
Na «Xijron»lig` falokatdir safohat.

Hamoqat (ahmoklik). Hamoqat aql va ma`rifatning kamligidan hosil buladigan eng yomon xulqlarning biridir. Ahmoq odamni biron ishga aqliy va naqliy dalillar bilan ko`ndirib bo`lmaydi, o`z bilarmonligini ko`ymaydi. Ibn Sino: «Oqil Inson bir masalaning har bir jihatini o`ylaydi, tadqiq va tafgish qiladi, qat`iy hukm qilishga shoshmaydi, ma`naviy jihatini ham tushunadi. Dalilsiz, hujjatsiz bir jumlaning qiyosini rad yo kabul kilmak ahmoqlikdan hisoblanadi». Luqmoni hakim: «Men har bir marazning daf`ini va chorasini topdim, faqat ahmoqlik davosini topolmadim». Suqrot: «Ahmoq kishi sukut saqlab ahmoqligini yopsa o`rtacha oqillardan sanalar edi. Lekin ahmoqlik bilan sukut ikkisi bir odamda jam bo`lmaydi».

Atolat. Dangasalik, yalqovlik - atolatdir. Muhammad (s.a.v) : “Ey Alloh! Senga sig`inaman, qayg`u va hasratdan, dovdirab qolish ham yalqovlikdan, baxillikdan va qo`rqoqlikdan saqlagin”.

Hasosat. Tama` va mol-mulkka ortiqcha hirs qo`ymoqlik - hasosat deyiladi. Faqir va muhtojlikdan saqlanish uchun bahillik va xasislik yo`lini tutgan kishi aql va ma`rifat egasi hisoblanmaydi. Hasislikka berilgan kishi xudoning razzoq va xalloqi olam ekanini unutib, katta xatolarga duchor bo`ladi. Ipak kurti pilla ichida o`ralib hayotini mahv qiladi. Uning mashaqqati mevasidan boshqalar foydalanadi. Xasis inson mol va dunyo yig`ish bilan ovara bo`lib aziz jonini boshqalarga fido qiladi. Rasuli akram (s.a.v.): “bor davlati bilan ahlu ayoliga torlik qilgan kishilar yomon kishilardir”.

Rahovat. Xudbinlik, tanparvarlik, g`ayratsizlik rahovat deyiladi. Ibn Sino: « Sa`y va harakatsiz bo`lish o`lik demokdir, Rahovat ila jon bermak ajali qazodir. G`ayratsizlik tirik o`likdan iboratdir. O`liklarning makoni tuproq orasidadir». Luqmoni hakim: « Tanparvarlik umid va muvafaqqiyatning quvvatini kesadigan bir marazdir. Insonlik saodatidan mahrum bo`lib, mayusona yashamoq g`ayratsizlik asaridir» Rasulilloh: « Allohga siginingiz! Fakirlikdan ham muhtojlikdan, kishiga zulm kilishdan, o`zingizga zulm qildirishdan saqlaningiz».

Anoniyyat. Xudbin, takabbur va manmanlik - anoniyyatdir. Manmanlik johilona kibru g`ururdan paydo bo`ladi. Kekkayib o`sib ketgan daraxt yaxshi meva qilmagani kabi kibr va manmanlikdan fazilat hosil bo`lmaydi. «Ibodatning afzali tavoze»,- deydi payg`ambarimiz.

Azozil kibr qildi, bo`ldi shayton,
Takabburlik qilurmi okil inson?
Tavoze pesha qil, aslingni qil yod,
Vujuding xok erur, ey odami zod!

Adovat. Birovga xusumat va dushmanlik qilish — adovatdir.

Suqrot: «Men dushmanim bo'lgan bir odamga adovat qilmayman. Zeroki, mening adovatim dushmanlikning xusumatini ziyoda qiladi. Men adovatga qarshi do'stlikni muqobil qilib, xusumatni o'rtoqlikka aylantirib, dushman kishilarni o'zimga el qilaman».

Aflotun hakim: «Dildagi adovat temirdagi zangga o'xshaydi. Zang temirni egani kabi adovat qalbni azobga soladi» Payg'ambarimiz (s.a.v): «Alloh taoloni suymagan odam xusumat va da'vosida qattqlik qilgan odamdir».

Namimat. Namimat deb chaqimchilik, gap tashuvchilikni aytiladi. U ahloqning fasodi hisoblanadi. Bunday kishilar xalq orasida qadr topmaydilar. Payg'ambarimiz (s.a.v) : «Ashobimdan biri ikkinchisining so'zini keltirmasin. Men sizga sog'-salomat, qalbnm rohat qilgan holda uchramoqni sevaman», - deydi.

Hukamolardan biri: «Mol va ashyo o'g'rilaridan ko'proq odamlar orasidan do'stlik, ulfat, muhabbatni o'g'irlaydigan odamlardan saqlanmoq kerak», - degan ekan.

G'iybat. Birovning kamchilik - qusri haqida orqasidan yolg'on suzlash tuxmat buladi. Agar rost gap bo'lsa - g'iybat bo'ladi.

Payg'ambarimiz: «G'iybatdan saqlaning, g'iybat zinodan ham yolyunroqdir», - degan.

Haqorat. Kishining izzat nafsiga tegadigan so'zlar bilan uning qadr va e'tiborini tushurmoq uchun yomon muomala qilmoq haqorat deyiladi. Ulamolar diniy kitoblarda «tashbihi zino gunohi kabiradur, - birovni haqorat qilish ulug' gunohlardandur», - deganlar. Bu ahloqsizlik, gunoh va savobni farq qilmaslik samarasidir.

Rasulimiz Muhammad (s.a.v) : «Ikki odam bir - birini so'ksa, gunox boshlovchiga bo'ladi. Agar qarshi bo'lgan kishi ortiq ketsa, har ikkisi ham gunohda o'rtoq bo'ladilar. YAna mo'min qarindoshini so'kmoq fosiqlik, ular bilan urushmoq kufrdir», - degan.

Jibonat. Qo'rqqulik, yuraksizlik, jur'atsizlik jibonat deyiladi.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram (s.a.v) shunday deydi: «Dunyolar yig'dirib, oh-voh chekdirib qayg'uga soladigan baxillik kabi yuragi yorilar darajada „qo'rqqulik kabi er kishida yomonroq sifat yo'qdir. Qo'rqqoq savdogar ham doim foydadan maxrum bo'ladi. Jasoratli, bahodir savdogarlarning doimo rizqi ortadi».

Hasad. Biron kishiga Alloh tomonidan berilgan ne'mat va davlatning zavolini tilamoq hasad deyiladi. G'iybat, bo'hton, sub'izan (birovga yomoilik tilamoq) kabi yomon xulqlar hasaddan tug'iladi. Ulamolar aytadi: «Otash o'zidan o'zi yonib kul bo'lgani kabi hosudlarning jasadi hasad o'tida erib mahv va barbod bo'ladi». Rasulimiz Muhammad (s.a.v) «Mo'min orzu qiladi, munofiq esa hasad qiladi», - deydi. Suqrot: «Hasadchi kishi bir on va bir zamon rohat va farog'at yuzini ko'rmaydi. Dunyoda qancha mehnat va musibat bo'lsa, barchasi u bechorani o'rab oladi», - deydi. Arastu aytadi: «Dunyoda hammadan hosidning yuki og'irdir. CHunki u bechora butun dunyodagi shod va masrur odamlarning qayg'ularini o'z ustiga yuklab yuradi».

Kizb. YOlq'onni kizb deyiladi. YOlq'onchi kishilarni kazzob deyiladi. Payg'ambarimiz: «Al kazzobu lo ummati, - yolg'onchi mening ummatim emas» degan. Qur'onda «Kizbni imoni yo'q kishilar suylaydi», - deyilgan. Payg'ambarimiz aytadi: «YOlq'ondan saqlaningiz, chunki yolg'on imondan yiroqdir». Xadislarda fakat uch erda yolg'on muboh hisoblangan. Biri jangda, ikkinchisi er va xotinni rizo qilmokda, uchinchisi ikki mo'minni yarashtirishda.

Nifoq. Kishining oldida bir xil, orkasidan boshqacha gapirish nifoq deyiladi. Buni odat qilgan kishini munofiq deyiladi. Payg'ambarimiz: «Bir odam ikki yuzlama bo'lsa, qiyomat

kunida tili o'tdan bo'ladi». YAna «qaysi kishi musulmonlar orasiga judolik solsa bizdan emasdur», - degan

Tama. Birovdan biron narsaga umidvor bo'lish tama deyiladi. Bu baloga giriftor bo'lgan kishida nomus va hayo degan sifatlar bo'lmaydi. A'zolari salomat, kuch-quvvatlik kishilarga tama qilmoq harom, ojiz va notavon, kuchsiz kishilarga mubohdir. Hadislarda: «Kishi qo'lida bo'lgan narsaga qiziqma! Tamadan saqlan! Zeroki, tama o'zi faqirlikdir. Namozingni ado qil! Oxiri uzr so'rashga to'g'ri keladigan ishlardan saklan», - deyilgan.

Zulm. Birovning joniga yoki moliga zarar etkazmak zulm deyiladi. Mansab va davlatga, kuch va quvvatga mag'rur bo'lib, birovning haqiga tajovuz qilish zulmdir. Kattalikning izzati zulm va ezishdan emas, shafqat va marhamatdir. Kichiklikning lazzati nafrat va qarshilikda emas, sadoqat va hurmatdadir. SHayx Sa'diy aytadi:

G'ami zeri doston bexo'r, zinxor,

Betars az zabardastiye ro'zg'or.

YA'ni: Quvvatsizlar g'amin eb yur hamisha, Quvvatliklardan etgil xavf pesha.

Hadis: «Ey bandalar! Allohdan qo'rqingiz. Allohning ismi bilan ont ichmanki, bir mu'min boshqasiga zulm qilsa, Alloh taolo qiyomat kunida ul odamdan o'ch oladi».

Bugun sizlar bilan «Islom dini ta'limoti va ma'naviyati» kursimizni yakunlar ekanmiz, yana bir karra shu narsani ta'kidlash joizki, istiqloлга erishgan dastlabki kunlarimizdanoq diyorimizning barcha fukarolari hakikiy e'tikod erkinligini xis eta boshlardilar. Bugungi kunda O'zbekistonda turli din vakillarining- hech kanday to'siqlarsiz o'z dinlariga e'tiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Sobiq shuro davrida respublikamizda bor yo'g'i 89 ta masjid va ikkita madrasa faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozir O'zbekiston musulmonlari idorasi boshkaruvi ostida barcha qulayliklar yaratilgan 2000 ga yaqin masjid, 10 ta madrasa va Toshkent islom instituti — oliy ma'had faoliyat kursptib kelmoqda.

1999 yil 7 aprel kuni O'zbekiston Respubl ikasi Prezidenti I.Karimovning Farmoniga asosan Toshkent islom universiteti tashkil etildi.

YUrtimizda din ta'limoti va ma'naviyati sohasidagi chalasavodlikka barham berilmoqda. Sizlar bilan o'tilgan darslarimpzdan o'zingizga amaliy xulosa chiqarib olasizlar va ma'naviy barkamol bo'lishiigizda bu xulosalar albatta asqotadi, degan umiddaman. Islom ma'rifati hamisha yo'ldoshingiz bo'lsin.

Avvalo niyat to'g'ri bo'lsin.

(Hotima o'rnida)

Mana, nihoyat yaxshi niyat bilan jazm qilgan kitobimizga so'ngi nuqta qo'yish saodati ham nasib etdi. O'quv qo'llanma mavzularida ko'tarilgan masalalarga tugal va atroflicha javob berildi, degan fikrdan yiroqmiz. Lekin, shunga qaramay, oldinga qo'yilgan muoammoli savollarga dunyoviy va islomiy ilmlar yutuqlariga tayangan holda javob berishga harakat qildik. O'quv qo'llanmamizda berilgan ma'lumotlar "Islom dini asoslari va ma'naviyati" dasturi talablari asosida qayd etildi.

Mavzular yoritilishida bir taraflamalikka berilishdan yiroq bo'lindi, ya'ni o'ta taassubga ham berilmadi, o'ta dahriylik tomonga ham o'tib ketishdan ehtiyot bo'lindi.

Mavzular mazmunini o'zlashtirish jarayonida muallifning ayrim sub'ektiv qarashlari ham ko'zga tashlanishi mumkin. SHuning uchun ayrim bahs talab muaommolarga tanqidiy ko'z bilan qarab, olib boriladigan ma'ruza va seminar mashg'ulotlari davomida o'z nuqtai nazarini

islomiy va dunyoviy bilimlarga tayangan holda asoslay bilgan talaba yoshlar fikrlari ham inobatga olinadi, alohida xurmat bilan munosabatda bo`linadi.

Islom ma`naviyati va ta`limoti deyilganda, eng birinchi navbatda shu narsaga amal qilish kerakki, talqin etilayotgan masala qaysi pozitsiya, qaysi manfaat, qaysi maqsadni ko`zlanib yoritilayotganligini tushunib etmoq kerak.

Mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarimizda xalqimizga islom dinidan saboq bermoqchi bo`lgan “xolis tarafdorlar”, chet ellik “mutafakkirlar”, “sof islom” uchun kurash tarafdorlari, iymonimizni “savob uchun” go`yo “poklashga” tarafdor bo`lganlar soni kundan kunga ko`payib, turli – tuman ko`rinish va “joziba” da namayon bo`ldilarki, oxir – oqibat ularning bu “savob” uchun qilayotgan sayi – harakatlari ostida qanday niyatlar mavjud ekanligi oshkor bo`lib qoldi va ularning faoliyatiga qarshi chora sifatida, “jaholatga qarshi – ma`rifat” printsiptan kelib chiqqan holda mamlakatimizning deyarli hamma viloyatlarida islomiy bilim maskanlari tashkil etildi, islom va boshqa din vakillari emin – erkin ibodatlarini amalga oshirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi, Toshkent Islom Universiteti ochildi va ilmiy – tadqiqot ishlari boshlab yuborildi.

SHunday sharoitda ham “do`stlarimiz” ning kirdikorlari, timoq ostidan kir axtarish kabi faoliyat va ta`nalari to`xtagani yo`q. Lekin jahon jamoatchiligi mamlakatimizda olib borilayotgan xayrli ishlarga holis baho berdi va 2007 yil Toshkent shahri ta`lim, fan va madaniyat masalalari bo`yicha islom tashkiloti AYSESKO (ISESCO) tomonidan islom madaniyati poytaxti deb elon qilindi. Bu hodisa g`oyaviy muholiflarimizga munosib zarba bo`ldi.

Prezidentimiz ta`kidlab o`tganidek, biz ma`naviyatimizni ham, madaniyatimizni ham, ijtimoiy – ma`rifiy borlig`imizni ham islom dinidan holi ravishda tasvvur qila olmaymiz. CHunki tug`ilgan vaqtimizdayoq qulog`imizga azon va takbir aytiladi, voyaga etganimizda islomiy nikohdan o`tamiz va shu nikoh hurmati tufayli zino va boshqa fahsh ishlaridan hazar qilamiz, bu dunyodan o`tganimizda Alloh kalomi ila janoza o`qilib, sunggi manzilga kuzatilamiz.

Dilimizdagi niyat ikki dunyo saodatiga erishuv bo`lganligi tufayli o`zgani ranjitmaymiz yaqinlarimizning ko`nglini ovlaymiz, jumla mo`minga tinchlik va osoyishtailik tilaymiz, ezgu maqsadlar sari intilamiz.

Qo`lingizdagi o`quv qo`llanma shunday odamiy va samimiy maqsadlar sari harakatda bo`lgan dilingizga yanada moyillik solsa, ezgulik sari intilishingizni oz bo`lsada kuchayтира bilsa, demak, biz o`zimizni maqsadga erishgan, deb hisoblasak bo`ladi.

Mamlakatimiz ravnaqi pokiza niyatli kishilar faoliyatiga, iymoni pok, haromdan xazar qiluvchi shaxslar amaliyotiga, barkomol yoshlar kamolotiga bog`liqdir. SHu nuqtai nazardan qaraganda, atrofimizdagi voqea - hodisalarga loqayd qaramay, oz bo`lsada jamiyat qusurlarini bartaraf etib borishimiz lozim, zero, musulmon musulmonning oynasi, deyilgan. Islomiy odob qoidalariga amal qilgan holda, qo`limizdan kelganicha birovga xoh tilimizdan, xoh qo`limizdan ozor bermay, ezgu niyatni dilimizga jo qilgan holda doimiy izlanish va harakatda bo`lishlikni Alloh hammamizga nasib etsin. Mamlakatimiz ozod va obod, xalqimiz tumushi farovon bo`lib boraversin. ezgu maqsadlarni ko`zlab o`tkazilayotgan hayotimizdagi islohotlarning samarasini ko`rish nasib etsin va YAratgan ishlarimizga kushoyish bersin.

Qalbimizni yurtga muhabbat va ezgu niyat tark etmasin.

Islom dini ta`limotini chuqur bilishimiz kelajakka bo`lgan, ezgulikka bo`lgan, porloq turmish tarziga bo`lgan intilishimizda, din sifatida islom ma`naviyati bizga nima berdi va

bizning buyuk ajdodlarimiz islom ma`naviyatiga qanday hissa qo`shganligi to`g`risida aniq tasavvurga ega bo`lishimizda mislsiz ahamiyatga egadir. Islom ta`limotini ilmiy tahlil qilish har qanday qarash, ta`limot, mafkura kabilarga mutaassibona munosabtda bo`lish kabi illatlarning oldini oladi. Islom dinida inson jamiki mavjudotdan azizu-mukarram qilib yaratilganligi haqida aytiladi. SHunday ekan, inson degan nomga har taraflama loyiq ekanligimizni amalda ko`rsatishimiz lozimdir.

Hozirgi davrga kelib, islom diniga xos bo`lga tushuncha va bilimlardan bebahra bo`lgan, ayniqsa rus maktablarida o`qib, o`zbekona urf-odatlardan yiroq bo`lgan ayrim johil kimsalar turli g`arazli maqsadlarni diliga jo qilgan g`alamislar bergan tushunchalarga ko`r-ko`rona yopishib olib halqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan ma`naviy qadryatlariga bepisandlik bilan munosabatda bo`lib, hatto o`z ota-onalari oldida ham yuzlari shuvut bo`lganiga guvox bo`ldik. Bag`ri kenglik, jumla mo`minga hayrihohlik bilan munosabatda bo`lishlikdan ta`lim beruvchi islom dinining muqaddas kitobi Qur`oni Karimning “Haj” surasi, qirqinchi oyatida shunday deyiladi: “Agar Oллоh odamlarning ayrimlarini ayrimlari bilan daf` qilib turmas ekan, shubhasiz Oллоh nomi ko`p zikr qilinadigan (rohiblarning) o`zlatgohlari, (nasroniylarning) buthonalari, (yahudiylarning) ibotxonalari va (musulmonlarning) masjidlari vayron qilingan bo`lur edi”

Alloh taolo yurtboshimiz va davlatimiz rahbariyati ko`ngliga solgan qat`iyat tufayli halqimiz osoyishtaligiga tajovuz qilmoqchi bo`lgan yovuz niyatli kimsalar daf` qilindi va halqimiz yaratuvchilik yo`lida butun imkoniyatini ishga solib fidokorona mehnat qilmoqda. YAngi kirib kelgan yil «Ijtimoiy himoya yili» deb e`lon qilinishi esa davlat g`amxo`rligining bir timsoli xalos. Biz yuqorida islom manbalari va tushunchalari haqida bir yuzaki malumot berish bilan cheklansakda, ezgu niyatimiz va umidimiz shuki, shoyad mazkur mehnatimiz kimlarningdir noqis ongidagi g`ayrihaq tushunchalarni yo`qotishga xizmat qilsa.

Diniy va dunyoviy allomalarimiz halq saodati yo`lida jonbozlik qilgan va umri jonini nisor qilgan ajdodlarimiz xotirasining tiklanishi, yangi ziyoratgohlarning vujudga kelishi, eng asosiysi, bu alloma ajdodlarimiz faoliyatini davom ettirish uchun yosh avlodga etarli imkoniyatlar yaratib berilayotganligi har qanday g`oyaviy dushmanlarimiz faoliyatiga qarshi amaliy javobdir. Va bizning ezgu maqsad yo`lidagi faoliyatimizga hech kim va hech narsa to`squinlik qila olmaydi. Zero amalga oshirayotgan har bir ishimiz oq ko`ngillik va ezgulikka asoslangan. Pok niyati kishilarning amallari esa hamisha Alloh Taolo nazardan chetda bo`lmaydi. Hurmatli prezidentimiz ta`kidlaganidek “bizning ko`nglimiz yorug`, yuzimiz yorug`. demak yo`limiz ham yorug` bo`ladi.”

Tayanch tushunchalar.

Farz - Islom shariatida “qil!” deb buyurilganligi shubhasiz bo`lgan amaldir. Farzning hukmlarini qilgan kishi savoblik, qilmagan kishi gunohkor bo`ladi. Farzni “Farz emas” degan kishi kofir hisoblanadi.

Farz ikki tur - “**Farzi ayn**” va “**Farzi kifoya**”ga bo`linadi. Birinchi turga xos bo`lgani hamma musulmonlarga bir xilda buyurilgan. Ularning miqdori qirq atrofida bo`lib, namozda 12 ta (oltita namozdan tashqarida, oltitasi namoz ichida), tahoratda to`rtta, tayammumda to`rtta, g`uslda uchta, ro`zada uchta, taom eyishda to`rttadir.

Farzi kifoya - Oila a`zolaridan biri amal qilgan farz savobidan boshqalar ham bahramand bo`ladilar. Masalan, janozada ishtirok etish; Qur`onni to`liq yod olish va boshqalar.

Vajib - Islom dini shariatida “qil!” deb buyurilganligiga biroz shubxa bo`lgan amaldir. Vajibning hukmi ham farzning hukmi, lekin vajibni “vajib emas!” degan kishi kofir bo`lmaydi. Sunniylik oqimida hanafiylik mazhabiga ko`ra vajib farz bilan sunnat orasidagi hukm sifatida ko`rsatiladi. Boshqa uch mazhabda vajibga o`rin berilmagan. Islom dinining beshta rukni hanafiylikda farz deyilsa, boshqa mazhablarda ham farz, ham vajib deyilaveradi.

Mustahab - Payg`ambarimiz goho qilib, goho qilmagan amallari. Mustahabning hukmi shundayki, uni qilgan kishi savoblik bo`ladi, qilmagan kishi gunohkor bo`lmaydi.

Harom - Islom shariatida “qilma!” deb qaytarilganligi shubhasiz bo`lgan amallar. Haromdan qaytgan kishi ulug` savoblik bo`ladi. Haromni “halol” degan kishi kofir bo`ladi. Musulmon inson uchun haromdan hazar qilish farzdir. Harom amallar: ota-onaga oq bo`lish, zinakorlik, ribo (sudxo`rlik), sehr-jodu va folbinlarga ishonish; o`g`rilik, bosqinchilik, qaroqchilik, poraxo`rlik, josuslik, chaqimchilik, yolg`onchilik, qotillik, nohaq qon to`kish, omonatga xiyonat, kishi vafot etganda dod-voy solib yig`lash, savdo-sotiqda g`irromlik, g`iybat, tuhmatchilik.

Ozuqa uchun foydalaniladigan haromlar: to`ng`iz go`shti, vahshiy hayvonlar, so`yilmasdan o`zicha o`lgan halol hayvonlar, jonliq so`yilganda oqqan qon, “bismilloh” aytmay so`yilgan halol hayvon go`shti, dinsiz (majusiylar, mushrik)lar so`ygan hayvon go`shtlari, mast qiluvchi va giyohvandlik moddalari. erkaklarga tilla narsalar taqish, ipak kiyim kiyish, ayollarga erkakcha kiyinish, tilla, kumush idishdan ovqatlanish, avrat joylarini ochib yurish ham harom qilingan.

Narkotik moddalar, giyohvand o`simliklar tayyorlash yoki o`stirish ham harom.

Musulmon bo`lmagan kishilarga sotish maqsadida maxsulot tayyorlash (masalan, cho`chqa boqish) ham, spirtli ichimliklar tayyorlanadigan joyga xomashiyo (uzum, bug`doy) sotish ham xarom qilingan.

Dunyo ne`matlaridan bahramand bo`lish, oila ta`minoti masalasiga ham jiddiy e`tibor berilgan. Islom diniga xos bo`lgan “**iqtisob**” tushunchasida bu dunyo ne`matlariga erishish ko`zda tutiladi. Unga ko`ra har bir musulmon kishi o`zi va yaqinlarini zaruriy narsalar bilan ta`minlash uchun harakatda bo`lib, turli hunar, xususan savdo-sotiq bilan shug`ullanishi kerak bo`ladi. Islom tushunchasiga hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik va boshqa ishlar bilan mashg`ul bo`lib mablag` topish davlat maoshidan sofroq va afzalroqdir. Iqtisob Allohning marhamatiga umid qilib (tavakkul), o`zini-o`zi ta`min etishdan voz kechuvchi taqvodan afzaldir. O`z nafsini barcha narsadan tiyish - har qanday qotillik kabi gunohdir.

Arda - Tarixiy manbalarda takidlanishicha, har yili Ramazon oyida, Muhammad (s.a.v.) Jabroil (a.s.)ga Qur`onning o`sha fursatga qadar o`ziga nozil qilingan qismini yoddan aytib berar, sahobalar esa o`zlaridagi yozilganlarni tekshirib olish imkoniyatiga ega bo`lishgan.

Ushbu marosim “arda” deb nomlangan. Payg`ambar (s.a.v.) hayoti oxirida Jabroil (a.s.) u kishini Qur`onni ikki marta takror yoddan o`qib berishga majbur qilgan. Bu sungi takrorlash “arda oxiri” deyilgan.

Muslih – Dinga davatkor.

Vasan - Joxiliyat davridagi Arabistonda butparastlar topinadigan sanamlarni anglatuvchi asosiy sanamlardan biri. Vasandan tashqari nusub va sanam atamalari ham qo`llanilgan. Asnab – Butlarga atab qurbonlik qilinganlarning qoni to`kiladigan toshdir, qabrtoshlar va sajdagohning muqqaddas hududi (xima)ning ixatanovchi (chegaralovchi) toshlardir. Bunday tosh ma`bud sifatida e`zozlanishi mumkin bo`lgan, biroq u kamdan – kam holatlarda doimiy topinish ob`ekti hisoblangan. Har bir manzilda ko`chmanchilar o`zlariga ma`bud sifatida yangi toshni tanlab olganlar. Milodiy IV asr o`rtalarida asosan, Nabateya va Suriya – Falastin ta`siri ostida nusub – “tarashlanmagan tosh” – Arabistondagi o`troq aholi muhitida sanam yoxud vasan – ma`budning xaykal ko`rinishdagi tasviriga aylangan. Ibn al – Qalbiyning ta`kidlashicha, sanam so`zi yog`och va metaldan yasalgan butni anglatagan. Vasan esa, tosh haykallarni anglatadigan istiloh bo`lgan. Biroq johiliyat she`riyatida, Qur`oni Karimda (6:74 va 29:17,16) va hadislarda vasan va sanam terminlari bir ma`noni anglatgan.

Hanif – (arab, chinakam e`tiqot qiluvchi, taqvodor) Haqqa moyil, yakka xudolikka e`tiqot qiluvchi taqvodor odam. Musulmonlar rivoyatiga ko`ra, islomgacha Arabistonda qabila xudolariga sig`inishni rad etgan, zohid, yakkaxudolikka astoydil ishongan, lekin xiristianlikka ham, yahudiylikka ham qo`shilmagan va Ibrohim (a.s) dinida bo`lgan odamlarni hanif deb atashgan. Qur`onda Ibrohim (a.s) ham hanif deb nomlangan, uning, chinakam yakkaxudolikka asoslangan dinni Muhammad (s.a.v) tiklagan, deb hisoblanadi.

VIII – IX asrlardan boshlab haniflar ko`pincha “musulmon” ma`nosida, musulmonlik esa haniflik dini ma`nosida ishlatilgan. Sufiylar ham o`zlarini haniflar deb atashardi.

“Islom dini asoslari va ma`naviyati” fani bo`yicha mustaqil ishlar tematikasi.

22. Islom dinining paydo bo`lishi va davlat diniga aylanishi.
23. Islom evalyutsiyasi.
24. Islomning xususiyatlari.
25. Qur`oni Karimni kitob xoliga keltirilishi.
26. Tasavvuf ilmining vujudga kelishi.
27. Markaziy Osiyoga islomni joriy qilinishi.
28. Islom huquqshunosligi.
29. XIX-XX asrlardagi diniy vaziyat.
30. O`zbekistonda vijdon erkinligini ta`minlanishi.
31. Islom urf-odatlari va marosimlarining ma`naviy-ahloqiy asoslari.
32. Islomda ota-onaga xurmat masalasi.
33. Islomda oila va nikoh masalalari.
34. Islomda ustozga va kattalarga xurmat masalalari.
35. Islomda ilm olish masalalari.
36. Islomda xurfikrlik.
37. Islomda Vatanparvarlik, insonparvarlik masalalari.
38. Xadisshunoslik.
39. Islom oqim va mazxablari.

40. Islom fundamentalizmi.
41. Terrorizm va ekstremizm mustaqillik kushandasi.
42. Ilomda muqaddas joylarga sig'inish.

Mustaqil ish yozma ravishda tavsiya etilgan adabiyotlar asosida yozma ravishda bajariladi. Mustaqil ish natijalarini amaliy mashg'ulotlar davomida va darsdan tashqari belgilangan vaqtda talabalar tomonidan topshiriladi. Mustaqil ishga ajratilgan ballar joriy nazorat tarkibida hisobga olinadi. Mustaqil ishga kiritilgan savollar yakuniy nazorat variantlariga kiritiladi.

Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. Islom ziyosi o'zbekim simosida. T.: "Toshkent Islom Universiteti", 2005 yil
2. Islom. entsiklopediya. T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi". 2004 yil.
3. Qur'oni Karim. Tarjima va izohlar muallifi SHayh Abdulaziz Mansur. T.: 2006 yil
4. Malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash fakul'teti. Dinshunoslikning nazariy – metodologik masalalari: muammo va echimlar. TIU. Toshkent – 2006 yil.
5. Sayf uz – Zafar Navbahoriy. Durr ul – majolis. T.: "YAngi asr avlodi." – 2006 yil.
6. Bo'ri Ziyomuxamedov. Komillikka eltuvchi kitob. «TURON-IQBOL» T.: 2006 yil.
7. Xorazm Ma'mun akademiyasi va uning dunyo ilm – fani taraqqiyotidagi o'rni T.: 2007 yil.
8. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy – ma'rifiy asoslari. TIU. T.: 2005 yil.
9. Abu Homid G'azzoliy. Mukoshavat-ul Qulub. (Qalblar kashfiyoti) 1 va 2 jild. "YAngi asr avlodi". T.: 2004 yil.
10. Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy. Ihyou ulumid – din. Birinchi kitob. "Mavorounnahr" T.: 2003 yil.
11. SHayh Muhammad Sodiq Muhammad YUsuf. Ihtiloflar haqida. "YAngi asr avlodi". T.: 2003 yil.
12. Mahmud As'ad Jo'shon. Islom, tasavvuf va axloq. "Istiqlol" T.: 2000 yil.
13. T. Hidoyatxo'jaev. Keksalik hikmatlari. "Mavorounnahr". T.: 2005 yil.
14. Inson ko'rki odob. TIU. T.: 2004 yil.
15. Holuq Nurboqiy. Qur'on Karimning ilmiy mo'jizalari. "Adolat". T.: 2002 yil.
16. Z. Husnitdinov. Islom. Yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi". T. : 2000 yil.
17. Juma mav'izalari. "Mavorounnahr" T.: 2000 yil.
18. Imom al-Buxoriy – muhaddislar sultoni. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi". T. : 1998 yil.
19. Ilmu ma'rifat nuri "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi". T. : 1998 yil.
20. N. Komilov. Tasavvuf. "YOzuvchi" T.: 1996 yil.
- 21 S. Ayniy. Muqqanna isyoni. "Fan" T.: 1994 yil.
22. H. Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.: 1990 yil.
23. Imom Ismoil al – Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari) "O'zbekiston". T. 1990 yil.
24. Islom. Aqida, ibodat va hayot tarzi. T., "Mehnat". 1990 yil. (arab imlosida).
25. A-Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq» «O'qituvchi» T. : 1992 yil.

26. Muhammad Sodiq Muhammad YUsuf. Poklik imondandir. «O`zbekiston» T.: - 1991 yil.
27. Sa`diy SHeroziy. Guliston. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.T.: 1993 yil
28. Islom ma`rifati. «TUI» T.: 2005 yil.
29. Isoqjon hoji Muhammadjon o`g`li. «Ilm olish odoblari». «Movarounnahr» T.: 2004 yil.
30. Ilmiy -taxdshliy axborot. TIU. 1G`2004. B. 31-33.